XXI asr odami oldida to‘plangan va yangi paydo bo‘lgan murakkablik bir o‘lchovli fikrlashni emas, balki ko‘p o‘lchovli fikrlashni va kreativ o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi. Bunga misol sifatida ta’lim oluvchining o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirishini ilmiy tahlil qilishga yo‘naltirilgan evristik ta’lim konsepsiyasini keltirish mumkin. Evristika so‘zi “evrika”–“topdim” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u biror muammoni hal etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan quvonch, biror yangi fikr tug‘ilishini olqishlashdir.

Falsafiy ensiklopedik lug‘atda “evristika” tushunchasini (yunoncha–men qidiraman, ochaman) bir qancha ma’nolari keltirilgan: 1) maxsus usul – muammolarni hal qilish (evristik usul); 2) samarali ijodiy fikrlash jarayonini tashkil etish; 3) fan – evristik faoliyatni, fikrlash fanining bir qismi deb keltiriladi. Demak, evristika (yunoncha heurisko – izlayapman, topyapman, kashf etyapman) inson ijodiy faoliyatini, shuningdek, yangi kashfiyotlarni yaratishda qo‘llanadigan usullarni o‘rganadigan fan sifatida falsafa, psixologiya, ta’lim nazariya, kibernetika, strukturali lingvistika, axborot nazariyasi chegarasida rivojlanadi.

Ta’lim oluvchining vazifasi nafaqat madaniy an’analarni o‘rganish va talqin qilish, balki yangilarini yaratishdan iborat. Ma’lumki, tabiat insonni yaratgan va unga tasavvur qilish, o‘ylab topish, bunyod qilish, yaratish qobiliyatlarini bergan. Demak, har bir inson evristik deb atalmish qobiliyatga ega. Shunday ekan, evristika, evristik uslublar va evristik o‘qitish deganda nimalar tushuniladi? Evristikaning asosiy obyekti ijodiy faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda, eng muhimi, muammolar yechimlarni qabul qilish modellari bilan bog‘liq vazifalar (nostandart muammoli vaziyatlar)ni hal qilish asosiy hisoblanadi. Evristik uslublar juda murakkab, ko‘zda tutilmagan vaziyatlarda ham yechimni topish imkonini beradi va maqsadga erishishga ko‘maklashadigan harakatlar uslubini belgilaydi.

Ta’lim jarayonida o‘xshatish–obrazli tafakkurni, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli diqqat qaratilmaydi. Pedagoglar, asosan, masalalar yechilishining an’anaviy usullariga e’tibor berishadi, ayrim hollarda, me’yoriy hujjatlar va yangi avlodni oldingi avloddek tarbiyalash va o‘qitish an’analari ta’sirida bo‘ladilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Evristik o‘qitish – eng keng tarqalgan bir-birini to‘ldiruvchi ko‘rsatmalar, tavsiyalar tizimi sifatida fikrlash strategiyalari, vazifalar yoki muammolarning ma’lum bir sinfini hal qilish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga qaratilgan oqitish metodikalarini o‘zida ifoda etadi.

V.I.Andreyev «Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного мышления и мудрости» (2015) nomli monografiyasida evristik ta’lim falsafasini yaratilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini, pedagogik evristikaning tayanch tushunchalarini, evristik o‘qitish nazariyasidagi ijtimoiy-madaniy va konseptual yondashuvlarning mohiyatini, oliy ta’limda evristik o‘qitish va tizimli fikrlashni rivojlantirish tamoyillarini tahlil qilib bergan. Muallif evristik o‘qitishda akmeokvalitativ konsepsiyani ilgari surgan bo‘lib, bu konsepsiyaning va evristik o‘qitishning asoschisi sifatida Suqrotnng falsafiy yondashuvlarini va o‘qitish usullarini sanab o‘tadi.

“Shogirdlarida donolikka bo‘lgan muhabbatni rivojlantirishga intilgan Suqrotni evristikaning otasi, asoschisi deb atash mumkin. Fidoyi o‘qituvchi sifatida Suqrot talabalari bilan turli xil ilmiy munozaralar, amaliy va hayotiy muammolarni muhokama qilish asosida ularga ta’lim bergan. Bunda mohirlik bilan qo‘yilgan savollar, munozaralar asta-sekin muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga, haqiqatni birgalikda izlashni rag‘batlantirishga, aql va fazilatlarning rivojlantirishga qaratilgan. Faylasuf va o‘qituvchi sifatida Suqrot o‘z shogirdlariga ta’lim berishda qanday yuqori maqsadlarni ko‘zlaganini biz aniq bilmaymiz. Bi-

roq u shogirdlarini o‘z-o‘ziga ishontirish asosida akmeokvalikativlikning yuqori darajasiga erishish mumkinligini isbotlagan” [1;246-b.].

Y.N.Lyashko bo‘lg‘usi pedagog-talabalarning tizimli fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini integratsiyalashga qaratilgan tadqiqotlarida bo‘lg‘usi pedagoglarda tizimli fikrlashni rivojlantirishning zaruratini quyidagilar bilan izohlaydi:

– postindustrial jamiyat tomonidan ijtimoiy buyurtmasi sifatida qo‘yiladigan talablar: tizimli fikrlash, ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z ta’lim faoliyatini tashkil etishning yangi usullarini o‘zlashtira oladigan, o‘zgartiradigan va yaratishga qodir bo‘lgan yangi pedagog-kadrlarga ehtiyojni yuzaga keltirishi;

– o‘quvchilarning fikrlash tizimini shakllantirishga hissa qo‘shadigan yangi o‘quv modelini ishlab chiqish zarurati;

– o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta’sirining maqbul usulini aniqlash zarurati [2;154-b.].

Shuninhgdek, I.V.Ubozhenko, S.Y.Rubsova tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda transmedia loyihalari orqali ijodiy aloqa formatlari, ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni mexanizmlari va muvaffaqiyatli ishlash ko‘rsatkichlari aniqlangan bo‘lib, shahsning mantiqiy fiklash ko‘nikmalarini shakllaniga ta’siri o‘rganilgan.

Shaxsning ijodiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishi–bu alohida, ijodiy faoliyatning murakkab, ko‘p o‘lchovli turi bo‘lib, subyekt–“o‘z-o‘zini anglash” samaradorligini oshirishga qaratilgan yo‘nalish sifatida shaxsning tizimli shakllantirish komponentlari va tegishli faoliyat turlari asosida o‘z-o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi bilish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini takomillashtirish va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishini nazarda tutadi.

Evristik o‘qitish odamzotning barcha bilimi va tajribasini yangidan kashf etish maqsadini qo‘ymagan. Shuning uchun o‘qituvchi oldida har bir mavzuning eng muhim tomonlarini topish va ta’lim oluvchi uchun dastlabki ijodiy izlanish sharoitlarini yaratish masalasi turadi. Ta’lim oluvchi o‘z tushunchalari, taxminlari va bilishning boshlang‘ich mahsulotlarini yaratgandan keyingina unga mazkur muammolar bo‘yicha insoniyat yutuqlari bilan tanishish taklif etiladi. Bunda ham ta’lim oluvchi tayyor bilimlarni oddiy o‘zlashtirmaydi, balki ularni o‘z tajribasi natijalari bilan solishtiradi, bunda ta’lim faoliyati olimlar tomonidan yaratilgan turli madaniy-tarixiy nuqtayi nazarlar bilan dialog yoki polilog shaklda davom etadi.

Evristik o‘qitishning qo‘llash chegaralarini o‘qituvchining o‘zi belgilaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, har qanday fanning o‘quv dasturi bo‘yicha, har qanday masalasini o‘rganishni ta’lim oluvchilarning ijodiy izlanishi sifatida tashkil etish mumkin. Ta’lim oluvchilar, odatda, o‘zini ijodiy namoyon etish imkonini mamnuniyat bilan qabul qiladilar va belgilangan ta’limiy talablar va me’yorlarni oshirib bajaradilar.



Tizimli fikrlash:[1]

– hodisani, jarayonni, pedagogik vaziyatni tizim sifatida koʻrib chiqish;

– tizimning asosiy elementlarini ajratib koʻrsatish;

– tizimni statik va dinamikada koʻrib chiqish,

–gʻoyalarni yaratish, ilgari oʻrganilgan narsalarni ijodiy qoʻllash, tizimli tahlil va sintez sharoitidagi bilim;

– tizimli sharoitda vaziyatni tanqidiy baholash, hodisalarni, jarayonlarni tahlil qilishga yondashuvlar;

– tizimni amalga oshirish sharoitida hodisalarni aks etish jarayonini tahlil qilish;

– tizimning rivojlanishini tahlil qilish va bashorat qilish;

– tizimli fikrlash samaradorligini obyektiv ravishda baholash;

– tizim tarkibiy qismlarining oʻz-oʻzini takomillashtirishi.[2]

Tanqidiy fikrlash. Bu motivatsion, ongli, koʻp oʻlchovli baholashni talab qiladigan mezon boʻlib, baholovchi haqiqat yoki yolgʻon, dalillar yoki nazariyalar, qoidalar, bayonotlarning muammoni hal qilish jarayonida toʻgʻri qoʻllashni talab qilivchi fikrlash uslubi hisoblanadi. Haqiqatni dalillarga asoslangan aks ettiruvchi oʻz-oʻzini baholashni yoki faoliyat jarayoni va uning natijalarini baholashni bildiradi.

Pragnostik fikrlash. Bu oʻzini namoyon qiladigan va vaziyatlarda amalga oshiriladigan fikrlash turi va muayyan muammolarni hal qilish usullari boʻlib, pragnoz qilish har qanday hodisa, jarayon uchun yuqori darajada rivojlangan va oldindan aytib berish qobiliyatini talab qiladigan holatni ehtimoliy aniqlashdir. Pragnostik fikrlash darajasi qanchalik yuqori boʻlsa, inson voqealarni qaysi yoʻnalishda va qanday rivojlanib borishi haqida oldindan koʻra bilish ehtimoli koʻproq boʻladi.

Muammolarni ijodiy hal qilishda kognitiv va psixologik toʻsiqlarni yengib oʻtishga asoslangan ijodiy fikrlashning oʻzini rivojlantirishga quyidagilar toʻsqinlik qiladi:

a) bu mumkin emas, chunki u hech qachon boʻlishi mumkin emas;

b) rasmiylar buni amalga oshirish mumkin emas va tavsiya etilmaydi, deb hisoblashadi;

d) mutaxassislarning fikriga koʻra, buni amalga oshirish mumkin emas va amaliy emas;

e) sizning shaxsiy kasbiy va hayotiy tajribangiz buni amalga oshirish mumkin emasligini koʻrsatadi.

Ijodiy fikrlash bilan bogʻliq boʻlgan toʻsiqlarni yengib oʻtishda:

•mumkin boʻlgan yagona yechimning inersiyasi;

•ushbu muammoni hal qilish boʻyicha an'anaviy qarashlarni yengib oʻtish;

•tahlil va tadqiqot obyekti yoki predmetining odatiy xususiyatlari, holatlari va xarakterlarining inersiyasi;

•mavjud boʻlmagan taqiqlarning inersiyasi asosiy rol oʻynaydi.

Bunda ta'lim oluvchi noodatiy fikrlash va harakat qilishdan qoʻrqmasligi, ijodiy tasavvurni faollashtirish uchun koʻp oʻlchovli fikrlashni rivojlantirishi, xotira va tasavvurni ma'lum obyektlar, hodisalarni oʻrganishda qayta tiklanadigan tasavvurga, mahoratga suyanishi, obyektni, hodisani tasavvur qilish asosida tahlil etishni bilishi muhim.

Ijodiy tasavvur va tasavvturli fantaziyani shakllantirish jarayonida yangi gʻoyalar yaratish divergensiya prinsipiga asoslanadi, ya'ni qidiruv maydonini kengaytirishni talab etadi. Ijodiy tasavvur va tasavvur jarayonida kombinatorika usullaridan foydalanish, shuningdek, intuitiv fikrlashga sharoit yaratish muhim. Ijodiy tasavvurga asoslangan holda, juda koʻp sonli gʻoyalar, usullar yaratiladi va muammoni ijodiy hal qilishda eng samarali usul, ya'ni konvergensiya prinsipiga tayanish lozim.

Insonning refleksiv fikrlashi, tafakkuri, "Falsafiy ensiklopedik lugʻat"da "refleksiya (lat. reflexioorqaga qaytish) – bu fikrlash prinsipi bilish usullarini tanqidiy tahlil qilish, oʻz-oʻzini anglash faoliyati, ma'naviy qiyofa va oʻziga xoslikni ochib beruvchi insonnning ichki dunyosi sifatida tavsiflanadi.

Metodologik jihatdan refleksivlik oʻzini-oʻzi boshqarishni nazarda tutadi va oʻzini-oʻzi boshqarish, oʻz-oʻzini anglashda quyidagi beshta bosqichni ajralib koʻrsatadi:

•birinchi bosqich – harakat, faoliyatni amalga oshirish;

•ikkinchi bosqich – faoliyat yakunlangach, ortga qaytib, tahlil oʻtkazish, ya'ni orqaga qarash;

•uchunchi bosqich – harakat yoki faoliyatning muhim bosqichlarni anglash;

toʻrtinchi bosqich – muqobil harakat usullarini yaratish;

---

[1]Андреев В.И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного мышления и мудрости. Монография, Казань, Центр инновационных технологий, 2015, 193 с. ISBN 978-5-93962-690-3

[2] Ляшко, Е.Н. Интеграция педагогических условий развития системного мышления студентов – будущих педагогов. Дис. …канд. пед. наук, Казань, 2009, 104 с.

•beshinchi bosqich – yangi harakatni sinab ko‘rish.

Evristik o‘qitishning akmeokvalitativ konsepsiyasi – bu bir-birini to‘ldiruvchi prinsiplar to‘plamiga asoslangan holda, akmeologiya, kreativlik, tizimlilik, evristika, subyektivlik va ko‘p o‘lchovlilik, talabalarni ijodiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishga o‘rgatishning yaxlit didaktik tizimini yaratadi. Bu tizimda ijodiy o‘zini-o‘zi rivojlantiradigan shaxs – bu o‘zini-o‘zi amalga oshirishga asoslangan bir yoki bir nechta faoliyat turlarida ijodkorlikka yo‘naltirilgan shaxs bo‘lib, murakkablashib boradigan ijodiy vazifalar va muammolar, ularning yechimlari jarayonida o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan “o‘zlik”ning ijobiy o‘zgarishi, shaxsning o‘z-o‘zini bilishi, o‘z-o‘zini anglashi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, o‘zini-o‘zi boshqarishi, o‘zini-o‘zi tasdiqlashi va ijodiy o‘zini-o‘zi anglashini belgilaydi.

Ijodga moyillik inson o‘zini namoyon etishining yuqori faolligi, yangilikni yaratish qobiliyati, inson faoliyatining har qanday ko‘rinishida o‘ziga xosligidir.

Bolalarni ijodkorlikka o‘rgatishda o‘qitishning innovatsion texnologiyalari orasida yuqori o‘rinni egallovchi texnologiyalardan biri G.S.Altshullerning ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasi (IVEN) hisoblanadi. IVENnning asosiy g‘oyalari quyidagilar:

–nazariya-muammolarning ijodiy yechimini topishda katalizator;

–bilim ijodiy ish jarayonida bir vositadir, ya’ni hamma kashfiyot qilishi mumkin;

–ijodkorlikni boshqa turdagi faoliyatlar singari o‘rganish mumkin.

IVEN nazariyasida asosiy o‘rinni ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish (ITR) masalasi egallaydi. IVENning asosida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi hisoblangan muammoli izlanish metodlari turadi. Ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasining o‘ziga xos tamoyillariga quyidagilar kiradi:

–g‘oyani o‘zi rivojlantiruvchi o‘qitish va rivojlantiruvchi ta’lim hisoblanadi;

–o‘qitishga faoliyatli yondashuv;

–nazariy xulosalarni shakllantirishga yo‘nalganlik;

–o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama muloqot;

–ta’lim jarayonida muammoli masalalarni, muammoli vaziyatlarni qo‘llash.

An’anaviy ta’lim va IVEN o‘rtasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, ular quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

An’anvaiy ta’lim	IVEN ta’limi
1. Asosiy e’tibor nazariy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.	1. Asosiy e’tibor ijodkorlikka, nostandart fikrlashga qaratilgan.
2. Ijodiy mahsulot olish metodikalari mavjud emas	2. Ijodiy mahsulot olish metodikasi ishlab chiqilgan.
3. Muammolarni yechish algoritmi ishlanmagan (o‘qituvchining boshqarishdagi xatolari va sinab ko‘rish metodidan foydalanadi).	3. Masalalarni yechish algoritmi mavjud, ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda muammoli topshiriqning yechimiga yeta oladi.
4. Taklif etilgan yechimni baholash mezonlari yo‘q, o‘qituvchi to‘g‘ri javobni “tashuvchi”, yetkazuvchi hisoblanadi.	4. Natijani va yechim yo‘lini baholashni obyektiv mezonlari mavjud.

Ma’lumotlarni tahlil qilishga IVEN yondashuvi bir qancha modellarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi, ular o‘rganilayotgan obyektga tizimli va dialektik nuqtayi nazardan yondashuvni ro‘yobga chiqaradi va bunda asosiy e’tibor ta’lim oluvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatiga qaratiladi, ta’lim oluvchilarni samarali, yangi natija olishlariga yo‘naltiriladi.

IVEN ma’lumotlarni ikki marta qayta ishlashni talab qiladigan tadqiqot jarayoni bo‘lib, hammaga ma’lum bo‘lgan va keng tarqalgan ma’lumotlarni qayta turkumlashtirish va ularga yangicha yondashish asosida yangilik yaratiladi va ijobiy natijalarga erishiladi.

IVEN asosida muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algaritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

–muammoni qo‘yish;

–muammo haqidagi ma’lumotlar fondini to‘plash;

–ma’lumotlar fondini qayta ishlash, yechim modelini aniqlash;

–qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash va ularni tanlangan yechim modelida aks ettirish;

–yangi ma’lumotlar va yechim modeli o‘rtasidagi zidlikni aniqlash;

–zidlikni yechimini topish, yangi yechim modelini yaratish;

–yangi model haqida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash.

Xulosa. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning faoliyati tayyor o‘quv topshiriqlarini yechishga qaratilmasdan, talabalar o‘zlariga yaqin va real bo‘lgan holatlar, masalan, yechim variantlarini yaratish, original taxminlar aytish, metafora, harakatli o‘yinlar o‘ylab topish, yangi qurilma yoki mexanizm o‘ylab topish va uni yasash kabi ijodiy faoliyatga jalb etuvchi mashg‘ulotlar orqali IVEN pedagogikasi amalga oshiriladi.

Jumladan, nazariy darslarida IVEN pedagogikasi g‘oyalaridan foydalanish ta’lim oluvchilarni tayyor raqamlar, faktlarni “quruq yod olish yukidan” xalos etadi. Darslarda ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi, muammoli topshiriqlarni har qanday mavzuni o‘rganish jarayonida o‘ylab topish mumkin. Bu o‘qituvchining mustaqil ishlashi, faqat darslikdagi matn bilan chegaralanib qolmasdan, qo‘shimcha manbalardan foydalanishiga bog‘liq, xolos.

Ta’limda ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasiga asoslangan pedagogik tamoyillardan foydalanish ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, tizimli fikrlashga, ziddiyatlarni topish va ularning yechim yo‘llarini izlashga, mustaqil holda yechimlarni topishga o‘rgatadi. Shu asosda ta’lim oluvchilar chuqur va keng amaliy bilimlarga ega bo‘ladilar, eng asosiysi, ta’lim oluvchilarning fikrlash uslubi shakllanib boradi, ular tayyor bilimlarni egallashga emas, ularni mustaqil izlab topishga, o‘z faoliyati doirasidagi muammoli masalalarni ko‘rish, muammolarni to‘g‘ri qo‘yish va ularni yechish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ta’lim oluvchilarda hayotiy ko‘nimalar shakllanib boradi. Bu esa ta’lim oluvchilarni kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, jamiyatning faol a’zosi bo‘lishiga yordamlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Андреев В.И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного мышления и мудрости. Монография, Казань, Центр инновационных технологий, 2015, 288 с. ISBN 978-5-93962-690-3

(2). Ляшко Е.Н. Интеграция педагогических условий развития системного мышления студентов – будущих педагогов. Дис. …канд. пед. наук, Казань, 2009, 196 с.

(3). Ubozhenko, I.V., Rubtsova, S.Y. Transmedia project as a format of creative communication: Process mechanisms and successful performance markers. 2023, Вестник Санкт-Петербургского университета, “Язык и литература , (2), с. 348 – 361.

(4). Veraksa, N.E., Airapetyan, Z.V., Almazova, O.V., Tarasova, K.S. Development of Formal-logical and Dialectical Thinking in Children of 5–8 Years Old 2022 , Cultural-Historical Psychology, (4), p. 4 – 14.

Majidov Sodiqjon Sadullayevich (Namangan Muhandislik-qurilish instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi; majidovs@mail.ru)

FALSAFIY ASOSLAR VA KONSEPTLAR ASOSIDA IJTIMOIY ZIDDIYATLARNI TALQIN QILISH

Annotatsiya. *Bu maqolada, falsafiy asoslar va konseptlar o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ijtimoiy ziddiyatlar, ulardan kayfiyatlarning farqli bo‘lishi, qabul qilish va negativ ta’sir ko‘rsatishning sabablari, ziddiyatlarning asosiy manbalari va asosiy turlari haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy ziddiyatlar, falsafiy asoslar, konseptlar, ijtimoiy mukofotlash, qayg‘urish, mas’uliyat, integritet, mustaqillik, umumiy hokimiyat, diniy qadriyatlar, barqarorlik.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОНФЛИКТОВ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФСКИХ ПРИНЦИПОВ И КОНЦЕПЦИЙ

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу социальных конфликтов, где важна взаимосвязь между философскими основаниями и понятиями. В статье представлена информация о социальных конфликтах, различиях в настроениях, причинах принятия и негативного воздействия, основных источниках конфликтов и основных их типах.*

Ключевые слова: *социальные конфликты, философские основания, концепции, социальные награды, забота, ответственность, честность, независимость, общий авторитет, религиозные ценности, стабильность.*

INTERPRETATION OF SOCIAL CONFLICTS BASED ON PHILOSOPHICAL PRINCIPLES AND CONCEPTS

Annotation. *This article is dedicated to the analysis of social conflicts, where the relationship between philosophical foundations and concepts is important. The article provides information about social conflicts, differences in sentiment, reasons for acceptance and negative impact, the main sources of conflict and their main types.*

Key words: *social conflicts, philosophical foundations, concepts, social rewards, care, responsibility, honesty, independence, general authority, religious values, stability.*

Pedgaogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

Kirish. Falsafiy asoslarning va konseptlarning ijtimoiy ziddiyatlarini talqin qilish, asosan, yuqori darajada mantiqiy va analitik fikrlashni talab qiladi. Bu ijtimoiy tushunchalarni o‘rganish, izlanish va o‘zlashtirish jarayonidir. Quyida bir nechta asosiy falsafiy asoslar va ularning ijtimoiy ziddiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

Ontologiya. Ontologiya mavjudlikni, boshqa so‘z bilan aytganda, “nima borligini” yoki “nima mavjudligini” o‘rganishga bag‘ishlangan falsafiy so‘z. Ijtimoiy ziddiyatlar, ontologik savollar sohasida paydo bo‘ladi, masalan, obyektivizm va subyektivizm. Obyektivizm, obyektlarning va oliy qonunlarning mavjudligini, biror shaxsning xususiyliklari va tasavvurlari bilan aloqasizligini ta’kidlaydi. Subyektivizm esa mavjudlikni shaxslar orqali qabul qilishni anglatadi, chunki har bir insonning boshqa fikrlash, qabul qilish va hissiyotlarga ega bo‘lishi mumkin.

Aksiologiya, axborotning qanday qadr-qimmatiga ega bo‘lishini o‘rganish bilan bog‘liq falsafiy so‘z. Bu mas’uliyat, maqsadlar, qadriyat va o‘z-o‘zini o‘zlashtirish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ziddiyatlar, aksiologik muammoni o‘rganishga bag‘ishlangan tushunchalarning kengayishini ko‘rsatadi, masalan, adalet, egalitarizm, erk va yuksak ma’naviy qiymatlarni qabul qilishga oid ziddiyatlar mavjud bo‘lishi mumkin.

Epistemologiya, bilim va bilishning nima va qanday qilib amalga oshirilishini o‘rganish bilan bog‘liq tushuncha. Bu faktlar, axborotlar, nazariyalar va insonlar orasidagi bilish almashinuvi haqida bo‘lgan falsafiy tushuncha. Ijtimoiy ziddiyatlar, epistemologik savollar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, masalan, obyektivlik va subyektivlik, empirizm va ratsonalizm, xalq bilimi va so‘nggi ilm fanlarining etik normativligi kabi muammo va mavzular.

Bu o‘rganish va tushunish jarayonida insonlar o‘z ijtimoiy ziddiyatlari va fikrlashlari orasida tarixiy, madaniy, diniy va shaxsiy sabablarga asoslangan o‘zgartirishlar va rivojlanishlar bilan ta’sirchan bo‘lishadi [1;245-b.]. Ijtimoiy ziddiyatlarni talqin qilishga intellektual murojaat, empatiya, munosabat qurish va salbiy fikrlar bilan yuzlashish mumkin, shuningdek, ma’naviy qadr-qimmatlarni qabul qilishning asosiy qoidalari bilan amal qilish tavsiya etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aristotel “Nikomaxiya axloqi” asarida inson harakatining axloqiy o‘lchovlarini o‘rganib, eudaimoniyaga erishish yoki gullab-yashnash uchun fazilatlarni rivojlantirishga urg‘u beradi. Uning fazilat etikasi haqidagi tushunchalari ijtimoiy ziddiyatlarda ishtirok etayotgan shaxslar va jamoalarning axloqiy xarakterini tushunish uchun asos yaratadi.

Immanuil Kantning “Axloq metafizikasi asoslari” va “Amaliy aqlning tanqidi” asarlarida axloqqa deontologik nuqtayi nazarlar berilgan, inson xulq-atvorini yo‘naltirishda axloqiy burch va tamoyillarning ahamiyati ta’kidlangan. Kantning umumbashariylik va shaxslarni hurmat qilishga urg‘u berishi ijtimoiy nizolar kontekstida adolat va huquqlar bo‘yicha munozaralarni bildiradi.

Jon Roulsning “Adolat nazariyasi” asari adolat tamoyillarini adolat sifatida taklif qilib, zamonaviy siyosiy falsafada inqilob qildi. Roulsning jaholat pardasi tafakkur eksperimenti va asl pozitsiyasi jamiyatda huquqlar, erkinliklar va imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishini tartibga soluvchi tamoyillar haqida tushuncha beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Falsafiy asoslar va konseptlar asosida ijtimoiy ziddiyatlar talqin qilishning o‘ziga xos usullari mavjud. Bu usullar fikrlar, ma’lumotlar, tadqiqotlar va falsafa asosidagi qarashlarni o‘rganish va ta’lim tizimida o‘rgatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Quyidagi bir necha usuldan foydalanish mumkin:

Mantiqiy muhokama. Bu usulda ijtimoiy ziddiyatlarni o‘rgatishda mantiqiy qarashlar, savollar va javoblar qo‘llaniladi. Mantiqiy muhokama orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini o‘zgartirishga va o‘z izlanishlarini chuqur oshirishga imkon beriladi. Analitik fikrlash: Falsafa va fikrshunoslik prinsiplari asosida ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilishning bu usuli, o‘quvchilarga qo‘lda turuvchi fikr qo‘llanishini beradi. Bu usulda mazmunli savollar berish, ko‘nikmalarni tahlil qilish va tushunchalarni tan olish kabi amallar o‘quvchilarning kritik fikrlarini va yechimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usulda o‘quvchilarga ijtimoiy ziddiyatlarni o‘rganishda fikr eksperimentlari o‘tkazish tavsiya etiladi [2;29-b.]. Misol uchun, o‘quvchilarga ijtimoiy muammoning bir qismi ustida o‘z fikrlarini ifodalash va uni qanchalik boshqa o‘quvchilar bilan muhokama qilishga chaqirish mumkin. Bu usul o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifodalash, o‘zlarining asosiy qa-

rashlarini aniqlash va ularga o‘z fikrlarini boshqalarga qabul qilishga oid jiddiy savollarga javob qidirishda yordam beradi.

Falsafaga oid ko‘nikmalar va tadqiqotlar. Falsafiy ko‘nikmalar va tadqiqotlar, ijtimoiy ziddiyatlarni o‘rganish va talqin qilishda asosiy manba sifatida ishlatilishi mumkin. Falsafa tarixidagi o‘zgarishlarni, muhim filosofiyalar va ularning mantiqiy qarashlarini o‘rganish orqali, o‘quvchilarga ijtimoiy ziddiyatlar haqida g‘oyaviy va tarixiy ta’riflar berish mumkin. Bu usullar ijtimoiy ziddiyatlarni talqin qilish uchun umumiy yaklashimlardir va ularni ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlarini ta’minlayadi [3;4265-b.].

Ijtimoiy ziddiyatlar, falsafiy asoslar va konseptlar asosida talqin qilinishi mumkin. Falsafiy asoslar va konseptlar, ijtimoiy ziddiyatlarni tushunish va analiz qilish uchun muhim usul va vositalar bo‘lib, bu talqin usullari va vositalar o‘zining unikal xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Quyidagi bir nechta falsafiy asoslar va konseptlar, ijtimoiy ziddiyatlarni talqin qilishda o‘rniga kelishi mumkin.

Hozirgi zamon falsafasi, ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilish uchun tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstni o‘rganishga fokuslanadi. Bu ijtimoiy ziddiyatlarni o‘qish, yozish, siyosat, madaniyat, jamiyat va boshqa sohalardagi muammolarni tahlil qilishga yordam beradi. Etik va ma’rifatning falsafiy asoslari, insonlarning huquqlariga, qadrlariga va javobgarliklari haqida fikrlarni o‘rganishda yordam beradi.

Jamiyatshunoslik. Jamiyatshunoslik, ijtimoiy jamiyatni tahlil qilish, uning o‘zgarishlari va rivojlanishi haqida qarashlarni o‘rganishga yordam beradi. Bu, ijtimoiy ziddiyatlarni, ularning asosiy sabablari, jamiyat tizimi, odatlar va institutlardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq masalalarni talqin qilishga imkon beradi. Siyosiy falsafa, siyosiy tizimlarni, hukumat tashkilotini, davlat va huquqni o‘rganish uchun muhimdir [4;155-b.]. Bu asoslar ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilishda siyosiy muammosizliklar, huquqiy tizimlar, hukumatning o‘zgarishlari va siyosiy mashveratning roli bilan bog‘liq masalalarni talqin qilishda yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Madaniy antropologiya, ijtimoiy ziddiyatlarni madaniyat, din va insoniyatning boshqa ko‘rinishlari bilan bog‘liq qilishga imkon beradi. Bu, ijtimoiy ziddiyatlarni tarixiy, antropologik va madaniy muammolarni talqin qilishga yordam beradi. Bu hozirda ko‘rib chiqilgan bir nechta falsafiy asoslar va konseptlar, ijtimoiy ziddiyatlarni talqin qilish uchun o‘zgaruvchan va bozorga moslashtirilgan vositalardir. Ularning yordamida, ijtimoiy ziddiyatlarni tushunish, o‘qish, o‘rganish va muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Maqolada turli xil soxtalashtirishlar va tushunchalar ijtimoiy masofani tushunishda qanday samarali bo‘lishi mumkinligini tushuntiradi. Hozirgi zamon falsafeti, axloq va marifat, jamiyatshunoslik, siyosiy falsafa va madaniy antropologiya kabi turli sohalardan misollar keltirilib, ularning har biri ijtimoiy ziddiyatlarni tushunish va tushuntirishda qanday yordam berishi mumkinligi muhokama qilinadi. Maqolada, shuningdek, ushbu soxtalashtirish va tushunchalardan ijtimoiy noxolisliklarni tahlil qilish uchun qanday foydalanish mumkinligi haqida amaliy misollar keltirilgan. Masalan, axloq va ma’rifat tushunchalari inson huquqlari, qadriyatlari va majburiyatlari, shuningdek, ijtimoiy vahshiylik sabablari haqida fikr yuritishda yordam berishi mumkin. Siyosiy falsafa siyosiy tizimlar, hukumat tuzilmalari va qonunlarni tushunishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Shuningdek, maqola falsafiy asoslar va konseptlarning ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilishda ko‘p to-mondan qo‘llaniladigan vositalar sifatida ko‘rsatiladi. Bu o‘quvchilarga ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilishda ta’limiy usul va usullarni taqdim etish orqali, ularning o‘z fikrlarini shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, maqola ijtimoiy ziddiyatlarni o‘rganishning asosiy maqsadlari va foydali natijalarga erishishga ko‘maklashuvchi falsafiy asoslar va konseptlarni ta’kidlaydi. Bu usullar o‘quvchilarga ijtimoiy ziddiyatlarni talqin qilishda kengaytirilgan tushunchalar va nazariyalarni o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maqolada soxtalashtirish va tushunchalar ijtimoiy qarama-qarshiliklarni tushunish va hal qilish uchun qimmatli vosita ekanligi ta’kidlangan. Ushbu tushunchalar tufayli biz ijtimoiy qarama-qarshiliklarning tarix, madaniyat, inson tabiati va jamiyat faoliyati bilan qanday bog‘liqligini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Bu, o‘z navbatida, bizni jamiyatni yaxshiroq tushunishga va yanada samarali yechimlarga yo‘naltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Исмоилов, Темурбек Исломович. “Problems and Solutions of Public Activity of Unorganized Youth”. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2.10 (2020), p. 242 – 247.

(2). Ismoilov, T.I., & Umarov, I. (2018). Necessity and importance of using new pedagogical technologies in higher education. Теория и практика современной науки, (3), p. 28–30.

(3). Islomovich, Ismoilov Temurbek. “The Content and Practical Significance of the Principles of Academic Independence in The Management Process of Higher Education”. Nveo-natural volatiles & essential oils Journal| NVEO, (2021), p. 4264 – 4270.

(4). Ismoilov, Temurbek Islamovich. “Social and legal solutions of insurance mandatory recommendations”. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1.3, (2019), p. 152 – 154.

Navro‘zova Gulchehra Nigmatovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori)

XOJAGON VA NAQSHBANDIYA TA’LIMOTIDA VAQT TUSHUNCHASI

Annotatsiya. *Maqolada Xojagon va Naqshbandiya tasavvufiy ta’limotining vaqtga oid qarashlarining ildizlari tadqiq etilib, Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning vaqtga bergan ta’riflari falsafiy tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *vaqt, vaqt ilmi, umr, umr sarmoyasi, hushyorlik, g‘aflat.*

Наврузова Гульчехра Нигматовна (Бухарский Инженерно-технологический институт, профессор кафедры «Социальные науки», доктор философских наук)

КОНЦЕПЦИЯ ВРЕМЕНИ В УЧЕНИИ ХОДЖАГОНА И НАКШБАНДИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются истоки мистических взглядов Ходжагона и Накшбанди на время, а также философски анализируются определения времени, данные Абдулхаликом Гиждувани и Бахауддином Накшбандом.*

Ключевые слова: *время, наука о времени, жизнь, вложение жизни, бдительность, беспечность.*

Navrozova Gulchehra Nigmatovna (Bukhara Institute of Engineering and Technology, Professor of the Department of “Social Sciences”, Doctor of Philosophy

CONCEPT OF TIME IN TEACHINGS OF KHOJAGON AND NAQSHBANDIY

Annotation. *The article examines the roots of Khojagon and Naqshbandi's mystical views on time, and philosophically analyzes the definitions of time given by Abdulkhaliq Ghijduvani and Bahauddin Naqshband.*

Key words: *time, science of time, life, investment of life, vigilance, carelessness.*

Kirish. Vaqt muhim falsafiy tushunchadir. Vaqt falsafiy tushunchasi olam atributi bo‘lib, barcha obyektlar mavjudligining davomiyligi va holatlar almashinuvining izchilligini xarakterlaydi. Qadimdan hozirgi kungacha bu muammo faylasuflarni bahs mavzuyi bo‘lgan va bo‘lmoqda. Sitseron “Falsafa Falesdan boshlanadi, u birinchi edi”, deb aytgan. Ana shu inson, ya’ni, Fales: “Hammadan donoroq narsa nima?” degan savolga “Vaqt” deb javob berib, “Chunki yolg‘iz vaqtgina hamma narsani oydinlashtiradi” [1], degan. Qadimgi Yunonistondagi yetti yetakchi faylasufning biri prienalik Biant: “Eng yaxshi maslahatchi kim?” deb so‘raganda, “Vaqt” degan. Boshqa yunon faylasufi Lukresiy Tit Kar – “Vaqt ildamlagani sayin buyumlarning mohiyati ham o‘zgara boradi”, degan. O‘rta asr faylasufi italiyalik Foma Akvinskiy: “Vaqt va mangulik ayni bir narsa emas”, “Boesiyning fikricha, vaqt va mangulik o‘rtasidagi farq shundaki, mangulikning har bir lahzasi yaxlit voqelikdan iborat. Vaqt esa bunday sifatdan mahrumdir. Mangulik – mavjudlik mezoni bo‘lsa, vaqt – harakat mezoni”, “Vaqtning cheki yo‘q deydilar. Lekin uning ma’lum bir bo‘lagini olib boshlanish va tugash nuqtasini belgilash mumkin. Masalan, biz kun yoki yilning boshlanishi va oxiri haqida gapiramiz. Ammo mangulik haqida bunday deyolmaymiz. U bunday sifatdan xolidir”, degan. O‘rta Osiyo mutafakkirlari ham vaqt haqida mushohada va tadqiqotlar qilganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Naqshbandiya ta’limotida vaqt tushunchasining ilk ildizlaridan biri muhosibiya tariqatining asoschisi Horis Muhosibiyning muhosaba tushunchasidir [2]. Muhosiba – o‘z-o‘zini nazorat etuvchi, o‘z-o‘ziga hisobot beruvchi ma’nosini anglatadi. Muhosibiy fikricha, nazorat etish obyekti, eng avvalo, niyat va qalb harakati (xatarot) bo‘lishi lozim, chunki ular insonning xatti-harakatini belgilaydilar. Muhosaba – oriflar ruhiy kamolining uchinchi yo‘li. Hazrat Bahouddin Naqshband bu uchinchi yo‘l – oriflarning Haqqa yetish vositasini shunday izohlagan: “Muhosaba – o‘tgan har bir soatimizni hisoblash va tekshirish. O‘tgan har bir soatimiz, nafasimiz va zamonamiz huzur bilan o‘tdimi yoki nuqson bilanmi, agar hammasi nuqson bilan o‘tgan bo‘lsa, qaytamiz va amalni avval boshdan boshlaymiz” [3].

Muhosaba darajasiga yetish uchun orif vaqtning qadrini biladigan bo‘lishi kerak. Naqshbandiya tariqati ahli orasida butun tasavvuf ahliga xos bo‘lganidek, vaqt juda qadrlangan. Vaqtning naqadar qimmatli va aziz ekanligini bilish lozimligini soliklarga uqtirganlar. Uni bekorga zoye etib sarflashdan ularni saqlaganlar. Zero, vaqtnaqddir. Uni boshqa qaytarib bo‘lmaydi. Shuning uchun soliklar yo‘lning qaysi martabasida bo‘lsalar ham vaqtni muhofaza va muhosaba etib, uni zoye etmaslikka harakat qilganlar. Turkiyadan chiqqan “Tasavvufiy axloq” degan kitobda muhosaba haqida gap ketganda, quyidagi misralar yozilgan:

Naqdi umri yo‘q yerga sarf etma g‘aflat aylayib,
Har zamon toatda bo‘l, ul g‘aflatla eptar bo‘lmagil.
Vaqtingga olim bo‘lib, dark ayla dur-u naf’ini,
Bo‘lma johil vaqtingga, xusronga mazhar bo‘lmagil [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Vaqtni saqlash, asrash uchun bu ta’limot kunduzlari – ro‘zador, kechalari bedor bo‘lishni talab etadi. Ya’ni, vaqtni yeyish va uxlashga sarflamasdan, oz yeyish, oz uxlash kerak, deydi. Qalbni beqarorlikdan, Ollohdan o‘zgaga bog‘lanishlardan himoya etish, tilini quruq so‘zdan, ko‘zini foydasiz narsaga boqmoqdan, quloqlarni keraksiz va gunohkor ovozlardan, oyoqlarini behuda yerga, gunohga botgan joylarga borishdan muhofaza eta olishi kerak. Harom va shubhali narsalarni yeyishdan juda ham saqlanishi kerak. Axloqi zamimani to‘laligicha tark etishi, bu moddiy dunyodagi taalluqotlarini uzishi lozim. Vaqtida qilinishi lozim bo‘lgan toat va zikrlarni qilish, uni boshqa zamonga qoldirmaslik kerak. Dangasalikdan juda saqlanish kerak.

Hazrat Bahouddin Naqshband asoslagan bu tariqat ahli o‘rtasida shunday fikr hukmron bo‘lgan: “Musibatlar juda ko‘pdir. Faqat eng buyuk musibat esa vaqtning foydasiz, bekorga ketishidir” [5].

Tahlil va natijalar. Hujviriy “Kashf ul mahjub” asarida vaqt ilmi haqida yozgan [6], Muhosibiy o‘tgan vaqtni doimo hisob-kitob qilib turish lozim degan. Abduxoliq G‘ijduvoniy: “Umr eng ulug‘ sarmoya, yo‘qotilgan vaqt shu sarmoyaning behuda sarflanishi” deb, uni asrash lozimligini vasiyat qilganlar [7]. Orif Revgariy “Orifnoma” asarida “Vaqt qilich kabi keskirdir”, degan. Umuman, tasavvuf ahli vaqtni qadrlagan. Xojagon ta’limotida Yusuf Hamadoniy tomonidan kiritilgan “Hush dar dam” tamoyilida ham mazkur g‘oya aks etadi. Ammo Bahouddin Naqshbandning xizmatlari shundaki, “Vuqufi zamoniy” rashhasini nazariy jihatdan asoslab, Naqshbandiya tariqati amaliyotida joriy etdi [8].

Vaqt falsafiy tushunchasi olamni atributi bo‘lib, barcha obyektlar mavjudligining davomiyligini va holatlar almashuvining izchilligini xarakterlaydi. Ilk tasavvufiy g‘oyalarni nazariy tahlil etgan Hujviriy ilmlarni quyidagi xillari borligini yozgan: 1. Vaqt ilmi. 2. Asosiy va ikkinchi darajali ilm. 3. Haqiqat ilmi. 4. Qonun ilmi. Hujviriyning ilmlar tasnifidan ma’lum bo‘ladiki, tasavvuf ahli ilmlar ichida “vaqt ilmi”ni muhim sanaganlar, vaqtni ilm sifatida ko‘rib, uni o‘rganganlar, tadqiq etganlar va uni hayot uchun muhim deb bilganlar. Hujviriy “Ilmi vaqt”–vaqt ilmiga oid g‘oyalarni “Kashf-ul mahjub” asarida keltiradi. U “Vaqt ilmi (ilmi vaqt)ni – vaqtga ta’sir etuvchi barcha ichki va tashqi shart-sharoitlarni bilish” deb ta’rif beradi va bu ilmni egallash har bir kishining burchidir, deb uqdiradi.

Vaqt tasavvufda, shuningdek, ruhiy holatni ta’rifi bo‘lib, bunday holatda inson vaqt ustidan nazorat etib biladi, ya’ni o‘z-o‘zini shu vaqt ichida boshqara oladi. Vaqt ilmi tushunchasi Abu Sulaymon Doroniyda ham uchraydi. U vaqtni ruhiy holatni himoya etuvchi sifatida tilga oladi. Sahl ibn Abdulloh Tustari vaqtni hol haqidagi ilmni izlash sifatida ta’rif beradi.

Hujviriy “Kashf ul-mahjub” asarining 24-bobida asosiy tasavvufiy tushunchalarni izohlashni “hol” va “vaqt”ni talqinidan boshlagan. Vaqt so‘fiyona istiloh bo‘lib, shayxlar uni juda ko‘p muhokama qiladilar. “Vaqt o‘tmish va kelajakdan qat’i nazar, inson hozir amalga oshiradigan ishi”, deydi Hujviriy. So‘fiy o‘tmishni eslash, qo‘msash, kelajakni orzu qilish bilan emas, vaqt ichida – andar vaqt bo‘lishi va hushyor, ogoh bo‘lishi kerak. So‘fiylar uchun “o‘tmish” va “kelajak” bilan band bo‘lish kamolotlariga hijob, ya’ni to‘siq deb ta’rif qiladilar. Chunki inson faqat o‘tmish bilan yashasa va yoki kelajak orzusida vaqtini o‘tkazsa faol bo‘lmaydi, unga berilgan vaqtni behuda o‘tkazadi. Kelajakni bilmaymiz va bilmagan narsa haqida o‘ylash xato ish. Eng qimmatli narsa o‘tmish va kelajak orasida senga berilgan vaqtdir. Uni behudaga o‘tkazmaslik kerak, deydilar so‘fiylar.

So‘fiylarda vaqt ikki xil bo‘ladi: 1. Faqd – vaqtni yo‘qotmoq holati. 2. Vajd – vaqtni ichida bo‘lish, uni egallash holi. Tasavvuf ahli deydiki, vaqt – reallik, u bizni ixtiyorimizdan tashqarida, uni tanlash erkinligi yo‘q. Istasak yoki istamasak ham vaqt bor. Vaqtni bozordan sotib ololmaymiz, uni biror narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi, hatto hayotimizni berib ham vaqtni qaytara olmaymiz. Inson vaqtni o‘ziga yaqinlashtirib ham, uzoqlashtirib ham bilmaydi.

Horis Muhosibiy g‘oyalarini Abdulxoliq G‘ijduvoniy rivojlantirgan. “Maslak al-orifin” asarining 13-bobida Xojagon tariqati asoschisi Abdulxoliq G‘ijduvoniyning tariqat maqomlari va inson ruhiy kamolotining bosqichlari haqidagi fikrlari yoritilgan. Ushbu bobda muhosaba tushunchasiga maxsus e’tibor berilgan: “Muhosaba har bir o‘tgan vaqtning hisobidir”. Abdulxoliq G‘ijduvoniydan so‘radilarki, “Muhosaba nima?” U javob berdi: “Muhosaba nafasni saqlashdir, toki u behuda o‘tmasin”. Ko‘rinib turibdiki, Abdulxoliq G‘ijduvoniy nafas tushunchasi bilan vaqtni bir ma’noda ishlatgan.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy ustozi Yusuf Hamadoniyning “Hush dar dam” – har bir dam, on, nafasni asrash ogoh bo‘lish, hushyor bo‘lish o‘gitini Xojagon tariqatiga tamoyil sifatida kiritadi va inson hayotining

asosini nafasda, deydi. Xuddi shu nafas ichida amal bor, vaqt bor, o‘lim bor, hayot bor. Odam eng so‘nggi nafasini olayotganda, nafas qadrini to‘liq anglaydi. Shuning uchun “Muhosabadan maqsad oxirgi nafasdir. Muhosaba nafasni nigohdosht, ya’ni, saqlash bilan izohlanadi, toki u g‘aflat bilan behuda o‘tmasin”, deydi.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy buyuradikim, “Zoye ketgan vaqtlarni tavba bilan tadorik qilish, ya’ni, chorasini ko‘rish lozim va bo‘sh bo‘lgan vaqtni aziz deb bilish kerak. Uni muhofaza etishga harakat qilingki, barcha futuhlar vaqtni saqlashga bog‘liqdur. Haq yo‘lidagilar vaqtning rioyatiga juda katta g‘ayrat qiladilar. Chunki Tangri har bir nafasni ehtiyot qiluvchilarni sevadi”.“Vaqtni aziz deb saqlang va uning odobini joyiga qo‘ying. Vaqtni aziz tutish so‘fiylar uchun lozim bo‘lgan ishlardandir”.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy biror nafasni ham g‘aflat bilan o‘tkazmaslik, ogoh bo‘lish va asrash lozimligini uqdiradi: “Umr nafaslarning sarmoyasidir. Bu sarmoyani tun-u kun, uyqu va bedorlikda ogohlik bilan harj qilish kerak. Har bir o‘tadigan bir nafasni zoe ketkazmaslik uni javohir kabi asrash lozim. Agar u zoe ketsa, katta zarar ko‘riladi. Xuddi bu asl javohir bir xazina, behuda nafas xazinani o‘g‘irlatish bilan barobardir. Shuning uchun har bir fursatni g‘animat bilish kerak va uni e’tibor va istig‘for bilan o‘tkazish lozim. Chunki zarracha qilingan yaxshilik va zarracha qilingan yomonlikning ham hisobi bor”.

Xojayi Jahon nafasni asrash, uni qadrlash botin ish ekanligi va inson kamolotining asosi deydi. U ta’kidlaydiki, nafasingizni ehtiyot qiling, nafas botin ishdir. “Vaqt qilich kabi keskirdir” har bandaki, bir soatini hayotidan kesadi, uni qaytib qo‘liga kirita olmaydi”, deb har on, har nafasni asrashni G‘ijduvoniy o‘git bergan. Xoja Orif Revgariy ham “Orifnoma” asarida vaqtni qilich bilan tenglashtiradi. U shunday yozadi: “Hushyor bo‘lsinki, al vaqtu sayfun qotiun! Ya’ni, vaqt shamshir kabi keskirdur! Turfatul ayn (daqiqa)ni ham g‘aflat va behuda o‘tkazmasin”.

Bahouddin Naqshband muhosaba bilan “Vuqufi zamoniy” tushunchasini bir ma’noda ishlatadi. Muhosaba darajasiga yetish uchun orif vaqtning qadrini biladigan bo‘lishi kerak. Naqshbandiya tariqati ahli orasida butun tasavvuf ahliga xos bo‘lganidek, vaqt juda qadrlangan. Vaqtning naqadar qimmatli va aziz ekanligini bilish lozimligini soliklarga uqdirganlar. Uni bekorga zoye etib sarflashdan ularni saqlaganlar. Zero, vaqt-naqddir. Uni boshqa qaytarib bo‘lmaydi. Shuning uchun soliklar yo‘lning qaysi martabasida bo‘lsalar ham, vaqtni muhofaza va muhosaba etib, uni zoye etmaslikka harakat qilganlar.

Vaqtni saqlash, asrash uchun bu ta’limot kunduzlari – ro‘zador, kechalari bedor bo‘lishni talab etadi. Ya’ni, vaqtni yeyish va uxlashga sarflamasdan, me’yorida yeyish va uxlash kerak, deydi. Qalbni beqarorlikdan, Ollohdan o‘zgaga bog‘lanishlardan himoya etish, tilini quruq so‘zdan, ko‘zini foydasiz narsaga boqmoqdan, quloqlarni keraksiz va gunohkor ovozlardan, oyoqlarini behuda yerga, gunohga botgan joylarga borishdan muhofaza eta olishi kerak. Harom va shubhali narsalarni yeyishdan juda ham saqlanishi kerak. Axloqi zamimani to‘laligicha tark etishi, bu moddiy dunyodagi taalluqotlarini uzishi lozim. Dangasalikdan juda saqlanish kerak.

Demak, vaqt tasavvufiy talqinda, bir tomondan, ilm sifatida tasniflangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, muhosaba – hisob-kitob qilib turishi zarur hodisa, uchinchi tomondan, o‘tmish va kelajak orasida mavjud bo‘lgan, real imkoniyat, on, nafas, to‘rtinchi tomondan, ogoh bo‘lish zarur damdir. Uni bilish, anglash va undan foydalana olish inson holatiga ta’sir etib kamolotga yetishiga yordam beradi.

Tasavvuf ahli vaqtga insonni unga bo‘lgan munosabatiga qarab ta’rif bergan. Vaqt ichida bo‘lish, vaqt imkoniyatini anglash, shu vaqt, ya’ni, o‘tmish va kelajak orasidagi muddatda insoniy holatda yashash, vaqtni samaradorligini oshirish – bir onni ming yil bilan tenglashtirish. Demak, tasavvuf ahli uchun vaqt abstrakt bir tushuncha emas, inson bilan chambarchas bog‘langan va insonni ikki dunyo saodatiga yetaklay oladigan tushunchadir. Vaqt insoniyatni abadiyatga daxldor qilgani kabi, inson ham vaqtni o‘lmas, abadiy qila oladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, Xojagon va Naqshbandiya ta’limotida vaqt quyidagicha talqin etilgan.

•Vaqt bu hozirgi zamon. O‘tgan o‘tdi, keladigan vaqt noma’lum. Shuning uchun vaqt inson uchun berilgan yashash va ijod qilish uchun imkoniyat. Vaqt umr sarmoyasidir.

•Vaqt ilmdir va uni o‘rganish, bilish lozim. Vaqt ilmiga amal kamolot mezonidir.

•Vaqtni bilish, undan samarali foydalanish inson holatiga ta’sir etuvchi asosiy mezondir.

•Vaqt naqddir. U qadriyat bo‘lib, aksiologik ahamiyatga ega. Shuning uchun “hush dar dam” bo‘lib, uni asrash, “Vuqufi zamoniy” – zamon, vaqtdan ogoh bo‘lib, uni qadrlash lozim.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun yoshlarni vaqtni qadrlash hissida tarbiyalash zarur. Bu masalani hal etishda Xojagon va Naqshbandiya tasavvufiy ta’limotidagi vaqt haqidagi g‘oyalarni o‘rganish, tushunish, anglash va targ‘ib etishning ahamyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ҳақиқат манзаралари. “Янги аср авлоди”, Т., 2007, 10-бет.

(2). Наврўзова Г.Н., Рахматова Х.Х. Нақшбандия тушунчалари генезиси. “Бухоро”, 2010, 150-бет.

(3). Сафий Фахриддин Али. Рашаҳот (Оби ҳаёт томчилар). Табдил ва сўнгсўз муаллифи М.Ҳасаний, Т., Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003, 39-бет.

(4). Аҳмад Заҳид Кутку. Тасаввуфи Ахлақ. Истанбул, “Сена”, 1985, 102-бет.

(5). Тасаввуфий ахлоқ. 102-бет.

(6). Али ибн Усман аль-Джулаби аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой для сведущих в тайнах сердец (Кашф аль-махжуб ли арбаб аль-кулуб). Перевод с английского А.Орлова, Москва, “Единство”, 2004, с. 107–108.

(7). Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Маслак ал-орифин. Қўлёзма, 22-бет.

(8). Navruzova G.N. The Tendency “Wuqufi Zamoniy” of Bahauddin Naqshband. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2020, 3(3), p. 41–45.

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich (Urganch davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi; sardorbek8828@gmail.com)

OILA VA NIKOH IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA VUJUDGA KELISHINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada oila va nikohning kelib chiqishi, ularning mazmun-mohiyati, jamiyatda er va xotin munosabatlari shakllanishini tarixiy ildizlari, oilaning ijtimoiy institut sifatida tashkil topishi haqidagi olimlarimiz qarashlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, nikoh, jamiyat, qadriyat, er va xotin munosabatlari, ijtimoiy institut.*

ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СЕМЬИ И БРАКА КАК СОЦИАЛЬНОГО ИНСТИТУТА

Аннотация. *В статье описывается происхождение семьи и брака, их сущность, исторические корни формирования супружеских отношений в обществе, взгляды наших ученых на становление семьи как социального института.*

Ключевые слова: *семья, брак, общество, ценность, отношения мужа и жены, социальный институт.*

HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL BASIS OF THE EMERGENCE OF THE FAMILY AND MARRIAGE AS A MAIN PART OF SOCIAL INSTITUTION

Annotation. *The article describes the origin of family and marriage, their essence, the historical roots of the formation of husband and wife relationships in societies and the views of our scientists on the for-mation of the family as a social institution.*

Key words: *family, marriage, society, value, husband and wife relationship, social institution.*

Kirish. Tarixiy taraqqiyot shuni ko‘rsatadiki, oila jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim omili ekanligi, insoniyat taraqqiy etishi natijasida oilaning ijtimoiy funksiyalari ham o‘zgarib, jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib borishi tahlil etilgan. Bizda azal-azaldan oila eng muqaddas, mo‘tabar maskan hisoblanib, jamiyat uchun yetuk hamda komil shaxslarni tarbiyalash ajdodlarimizning yuksak burchi va mas’uliyati sanalgan. Demak, oila jamiyatning tabiiy hujayrasi, ijtimoiy asosidir. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘lib, tez rivojlanadi. Jamiyat va shariatdagi huquqiy ko‘rsatmalar inson hayotini muayyan tartibga solib turuvchi mezonlar hisoblanadi. Inson hayotda yolg‘iz yashay olmaydi. Juft holda, er-xotin bo‘lib yashashning qonun-qoidalarini, shar’iy hukmlarini teran anglab olish o‘sha oilaviy hayotning baxt-saodatini ta’min etishi mumkin. Jamiyat tayanchi va asosi bo‘lgan oila institutining mustahkamligini ta’minlovchi asos bu nikohdir. Avvalo, shuni aytish joizki, nikoh shartnomasi tarixi uzoq moziyga borib taqaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Oilaviy munosabatlarining dunyoviy va diniy muammolari doimo olimu fuzalolar, tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb etib kelgan. Oilaning milliy, diniy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni, barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli klassik va hozirgi zamon falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Mazkur masalaning tarixiy ildizlari: “Avesto”, “O‘rxun-Enasoy bitiklari”da hamda Aflotun, Aristotel, Konfutsiy qarashlarida, Sharq mutafakkirlari - Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Abdurahmon an-Nasoiy, Hakim Termiziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Ahmad Yassaviy, Muhammad Huzuriy, Rizouddin ibn Faxruddin, Amir Temur [1] kabi arboblar va allomalarning ko‘plab asarlarida alohida o‘rin olgan. Ayniqsa, o‘sha davrda yashab ijod etgan Ahmad Yugnakiy, Imom G‘azzoliy, Farididdin Attor, Husayn Voiz Koshifiy, Maxdumi A’zam, Alisher

Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida oilada milliy, diniy tarbiya masalalariga oid ibratli fikrlar bayon qilingan.

Diniy manbalarda oilaning mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ota va onalarning mas’uliyatlari, farzandlarning burchi, oiladagi odob-axloq, odob tarbiyasining teologik nazariy-metodologik asoslari ko‘rsatilgan. Qur’oni karim, Hadislarning mustaqillik davrida o‘zbek tilida nashr etilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Demokratiya, fikr erkinligi, e’tiqodiy bag‘rikenglikka katta e’tibor berilayotgan hozirgi kunda oila munosabatlariga asos bo‘lgan umuminsoniy – dunyoviy va diniy qadriyatlarni falsafiy tahlili zaruriy holga aylanmoqda. Zero, oila munosabatlarini sof dunyoviy yoki diniy hodisa sifatida qarash ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish masalaga bir tomonlama yondashishdir. Oilaning paydo bo‘lishi va uning rivojlanishi tendensiyalari O‘rta Osiyo xalqlari shakllanishi jarayonida quyidagi ko‘rinishda vujudga kelgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar oilaning ijtimoiy institut sifatida tashkil topishi haqidagi tarixiy manbalar olimlarimiz tomonidan quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganilgan:

•birinchi bosqich – Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelgungacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar (yahudiylik, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik);

•ikkinchi bosqich – IX–XII asrlarda, ya’ni, islom Uyg‘onish davridagi ta’limotlar (Qur’oni karim, Hadislar, pandnomalar, mutafakkirlarning ta’limotlari: Forobiy, Beruniy, Ibn Sino);

•uchinchi bosqich – XIV–XV asrlar, ya’ni, Amir Temur va temuriylar davrida mavjud bo‘lgan ta’limotlar;

•to‘rtinchi bosqich – xonliklar davridagi ta’limotlar (XVI – XIX asrlar);

•beshinchi bosqich – Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan davrdagi ta’limotlar (XIX asr 60-yillarining oxiri va 1917-yilning Oktabr inqilobi davrigacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar);

•oltinchi bosqich – Ittifoq davridagi ta’limotlar (1917-yil Oktabr inqilobidan 1991-yil avgust oyigacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar);

•yettinchi bosqich – Mustaqillik davri, ya’ni, 1991-yilning sentabr oyidan 2016-yilga qadar bo‘lgan davr;

•sakkizinchi bosqich – 2017-yildan hozirgi davrgacha bo‘lgan islohotlar.

“Avestoda” oila va uning vazifalari haqida ahamiyatli ma’lumotlar mavjud. Qadim ajdodlarimiz tabiat bilan uyg‘unlikda yashagan, o‘zlarini atrof-muhit bilan bir tan, bir jon deb hisoblagan. “Yosh kelin eriga go‘dak hadya etganiday, er ham uni chap va o‘ng qo‘li bilan parvarish qilgan odamga mo‘l-ko‘l hosil beradi. Ishlov berilmagan va ekilmagan yer, yersiz va farzandsiz johil qiz kabi baxtsizdir. Qiz yaxshi erni orzu qilganiday, er ham yaxshi qo‘shchiga ilhaq” [2]. “Avesto”da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilishning qonun-qoidalari batafsil qayd qilingan. Unda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish kabi fikrlar berilgan.

Oilaning tarixiy asoslari haqida so‘z yuritganda, diniy qadriyatlar va xalq ijodiyotiga oid manbalar muhim ahamiyatga ega. G‘oyat uzoq taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati IX–XII asrlarda yangi kamolot pallasiga qadam qo‘ydi. Bu davr Sharq Uyg‘onishi deb atalib, uning mohiyatini islom madaniyati tashkil etadi. Islom madaniyati (yoki ba’zi manbalarda islom mintaqa madaniyati) turkiy, eroniy va arabiy xalqlar yashagan ulkan hududda siyosiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hamkorlikni vujudga keltirdi, xalqlarni bir-biriga tanitdi va yaqinlashtirdi. Ularga mansub bo‘lgan arabiy, forsiy va turkiy tillar o‘rtasida assimilasiya jarayoni yuz berib, tillarning lug‘at tarkiblarida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Fanda jahon ilmiy yutuqlariga suyangan yangi yo‘nalish va ta’limotlar vujudga keldi. “Bu yagona mintaqa madaniyatini birlashtirib turgan ichki bosh ma’naviy omil tavhid e’tiqodini borgan sari teranroq va mukammalroq tushunishga intilish edi” [3].

Johiliyat davrida, ya’ni, islomdan oldingi zamonlarda erkak va ayolning, oilaning jamiyatda tutgan o‘rni bahsli munozaraga aylangan. Ayollar jinsiga past nazar bilan qaralganini eslasak, “Qur’on”dagi ilohiy hukmlarning ahamiyati beqiyos. Oyatlarda oiladagi er va xotinning shar’iy o‘rni belgilab berilgan. Shariat hukmiga ko‘ra, er, birinchi navbatda, oilaning barcha moliyaviy va ma’naviy masalalariga mas’ul bo‘lib, turli-tuman xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Erkak tadbirkorlik, vazminlik, og‘ir-bosiqlik kabi xislatlari tufayli oilaning boshlig‘i hisoblanadi. Xotin iffat va diyonatli, o‘z erining xonadonini obod qiluvchi hamda unga bir umr sodiq bo‘lgan pok umr yo‘ldoshidir. Qur’oni karimda erkak va ayol o‘rtasida bahs yoki kelishmovchiliklar sodir bo‘lishi mumkinligi ham ta’kidlanadi. Har bir erkak va ayol Alloh taolo tomonidan berilgan iqtidorini ishga solib, shunday hollar yuz bermasligiga harakat qilishi kerak. Nizo va kelishmovchiliklar oiladek muqaddas birlikning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladi. Bundan jamiyat ham zarar ko‘radi. Oilaviy munosabatlarning buzilishi bolalar taqdirini xavf-xatarga qo‘yadi. Islom ta’limotida ni-

koh va taloq masalasiga jiddiy e'tiborni talab qiladi. Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida barcha oilaviy masalalar "Nikoh" kitobi va "Taloq» kitobi" [4] deb nomlangan ikki yirik bo'limda keltirilgan. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oila tarbiyasi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo'lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o'rin egallaydi.

Forobiy oila, shaharni inson tanasidagi a'zolarga qiyoslaydi. A'zolar tabiati, holati va harakatiga ko'ra turlicha bo'lib, yagona maqsad, ya'ni, inson tanasi faoliyatini ta'minlash maqsadida o'zining ma'lum ishini bajarishi haqida ma'lumot beradi. Demak, biror mamlakatda o'nlab shaharlar, bu shaharlarning har birida yuzlab va minglab oila va xonadonlar yashashi tabiiy hol bo'lib, garchi bu uy yoki shaharlar har xil, biri ikkinchisini takrorlamaydigan bo'lishiga qaramay, ular o'zaro birikib, shahar yoki mamlakatni tashkil etadilar hamda uni takomillashtiradilar [5].

Natija va muhokama. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Yer yuzida bundan 4 milliard yillar muqaddam hayot nishonalari, jonzodlar yuzaga kelgan. Hozirgi zamon odamlarining dastlabki ibtidoyi ajdodlari (Homo-sapiens) fikrlovchi odam bundan 3 million yillar muqaddam shakllangan. Uzoq muddat davom etgan ibtidoiy taraqqiyotdan so'ng asta-sekinlik bilan ibtidoiy jamoalar, kishilik jamiyatlari yuzaga kela boshlagan va odamlar o'rtasida dastlabki o'zaro munosabatlar, muloqotlar shakllana borgan. Lekin ularni hali tom ma'noda insoniy munosabatlar deb bo'lmas edi.

Umuman, erkak va ayollarning bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi jins vakillari sifatida o'zaro munosabatlarining ilk ko'rinishlarida, ya'ni, nikoh munosabatlarining yuzaga kelishining ilk bosqichlarida jinslar o'rtasidagi munosabatlar, asosan, biologik omillar bilan boshqarilgan. Xuddi maymunlarda bo'lgani kabi ibtidoiy odamlarning ayollari ham vaqti-vaqti bilan, qisqa muddatli (oy davomida 4–5 kungacha, faqat ayrim turlardagina 19 kungacha) «estrus» degan holatni, estrus davrini his qilganlar (estrus – qo'shilishga moyillikning shiddatli, kuchli nomoyon bo'lishi). Bunday kunlarda ayollar kimni xohlasa o'shalar bilan farqlab o'tirmay qo'shilavergan, qolgan kunlari esa qo'shilish bo'lmagan. Odamlarning tik yurishga o'tishi bilan odam organizmida ro'y bergan o'zgarishlar, «ilk ayollarni» ko'z yorish jarayonida ko'p nobud bo'lishiga va oqibatda odamlar to'dasida ularni sonining keskin kamayib ketishiga olib kelgan. Shu tufayli erkaklar o'rtasida ko'plab nizolar yuzaga kelgan, ularning ko'pchiligi qonli to'qnashuv ishtirokchilaridan birining nobud bo'lishi bilan tugagan. Bunday tabiiy tanlanish estrus hodisasi uzoqroq muddat davom etgan urug'larning ko'proq yashab qolishiga olib kelgan.

Tadqiqotda hozirgi odam tushunadigan, his qiladigan "sevgi" hissining ilk elementlari, ayollarning shu holati xususiyati evaziga insoniyat ruhiyatiga singib borgan. Shulardan so'ng, asta-sekinlik bilan, garchi hech qanday ijtimoiy me'yorlar bilan boshqarilmasa-da, bir-birlarini shahvoniy ma'qul ko'radigan juftlardan iborat unchalik katta bo'lmagan guruhlar tashkil topa boshlaydi. Shunday qilib, estrusning uzayishi hamma uchun ham qulay, ma'qul bo'lmagan. Bu esa urug' tarkibiga kiruvchi erkaklar o'rtasida yana janjallar, qon to'kilishlarga sabab bo'ladigan holatlarni keltirib chiqargan. Odamlar jamoasi xo'jalik faoliyatining jiddiy buzilishi, urug'ning yashab qolishi uchun xavfning ro'yobga chiqishiga olib keldi. Shu tarzda yuzaga kelayotgan jamiyatda, urug' ichidagi jinsiy muloqotni boshqarish, biologik instinkt, zoologik individualizmni jilovlash uchun maxsus ijtimoiy me'yorlar shakllana boshladi. Ana shunday ijtimoiy me'yorlardan biri mazkur urug' ichida erkak va ayollarning jinsiy muloqotlarini ma'lum bir muddatga (ovga tayyorlanish, ov vaqtlarida) taqiqlovchi "jinsiy tabular" (taqiqlash)ning yuzaga kela boshlaganligidir. Tabu [6] – axloqiy me'yorlarga qaraganda, ancha jiddiy va qattiq ta'qiqdir. Axloqiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolashi, uni yo'q qilib yuborishi ham yoki kechirib tirik qoldirishi ham mumkin. Ko'pincha, "tabu"larni buzganlar, ular buni bilib qilganmi yoki bilmaymi bundan qat'iy nazar, so'zsiz jazolangan, yo'q qilib yuborilgan. Ishlab chiqarishdagi jinsiy "tabu"larni yuzaga kelishi urug'o'rtasida erkak va ayolni maishiy ajratib qo'yish bilan kuzatiladi. Tabu vaqtida erkaklarga nafaqat ayollarga teginish, balki ularga qarash, ular bilan gaplashish, ular tayyorlagan ovqatni iste'mol qilish, hatto ular bilan bir tom ostida, ya'ni «bir uyda» bo'lish taqiqlangan. Dehqonchilikning yuzaga kelishi, mavsumiy dala ishlarining ortib borishi bilan jinsiy tabulardan holi vaqtlar borgan sari kam muddatli bo'lib boravergan. Erkaklarda ham, ayollarda ham jinsiy zo'riqishning jadalligi ortib borgan. Shuning uchun tabulardan xoli qolgan vaqt oralig'i o'ziga xos shahvoniy ayshu-ishratlarga aylana borgan. Atoqli psixolog Z.Freyd bu davrni, o'z navbatida, bayramlarga qiyoslagan. Chunki aksariyat bayramlarda, boshqa kunlari taqiqlangan deyarli barcha narsaga ruxsat beriladi. Bu bayramlarda hech nima bilan cheklanmagan, jo'shqin jinsiy muloqotlar amalga oshirilgan.

Shunday qilib, qisqa muddatli estrus yuzaga kelgan, biroq endi bu estrus biologik sabablar bilan emas, ijtimoiy sabablar bilan bog'liq bo'lgan. Bu vaqtlarda hali na nikoh va na oila mavjud bo'lgan. O'z navbatida, tabular, keyinchalik, nikohning ilk turlaridan bo'lmish ekzogam nikohlarni yuzaga keltiradi (ekzogam nikoh – urug'lararo, qabilalararo nikoh). Chunki tabular faqat o'z urug'i uchungina taalluqli bo'lib,

unda qon-qarindoshlar o‘rtasida jinsiy muloqot taqiqlangan, boshqa qabila yoki urug‘ a’zolariga esa taalluqli bo‘lmagan. Shuning uchun erkaklarga qayerdadir, ovloq joyda boshqa urug‘ga mansub bo‘lgan ayolni uchratib qolib, undan shahvoniy obyekt sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan. Mabodo, erkaklar uzoq muddat qishloq xo‘jalik ishlari bilan band bo‘lgan vaqtlarida biron-bir begona erkak bilan ayollar ham bu ishni qilishgan. Tabu davom etayotgan davrda bir urug‘ erkagi o‘z ayollaridan uzoqda, o‘z kulbasida boshqa urug‘ga mansub ayolni saqlashi mumkin bo‘lgan. Keyinchalik, bu tasodifiy aloqalar qabila qoidalarida odatiy, zaruriy, ko‘zda tutilgan odatlarga aylanib bordi. Bu o‘rinda odamlarga, bu «boshqa urug‘dagilar» bilan bo‘lgan aloqalardan tug‘ilgan nasllar nisbatan bo‘ydor, baquvvat abjir ekanligi sezilib bordi. Bu aynan hozirgi zamon odami gomosapiens shakllana boshlagan davrga, taxminan, bundan 42–45 ming yillar muqaddamga to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, endogamiya (faqat bir urug‘ vakillari o‘rtasidagi jinsiy aloqa)dan, agomiya, ya’ni, jinsiy munosabatlarning vaqtinchalik taqiqlanishi orqali ekzogamiya (turli qabila vakillari o‘rtasidagi muntazam jinsiy aloqa) yuzaga keldi. Bundan nikohning guruhli nikoh turi yuzaga kelgan. Guruhli nikohda bir urug‘ erkaklari boshqa urug‘ning barcha ayollari uchun er va aksincha, ikkinchi urug‘ning erkaklari birinchi urug‘ ayollarining erlari hisoblangan. Guruhli nikohning yuzaga kelishi qaytanga nikoh juftlari doirasini ma’lum bir guruh a’zolari bilangina chegaralab, birmuncha, qisqartiradi. Bunday hollarda boshqa urug‘dagi «erkak» bu qabilaga faqat bitta maqsadda, «nikoh» maqsadidagina kelar edi, o‘zlari esa ona oilalarida yashardi va ishlashardi, ular o‘zlarining «xotin»lari yashaydigan oilada hech qanday huquqqa ega emas edilar.

Sivilizatsiyalar tarixi shuni ko‘rsatadiki, oila – jamiyat va davlat taraqqiyotining asosidir. Insoniyat paydo bo‘lishi va rivojlanishini tahlil etish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, uni shakllanishi va taraqqiy etishida oila institutining ahamiyati kattadir. Qadimgi davrda oila insonni himoya qilish (ko‘payish, ovqatlanish, yirtqichlardan himoya) vazifasini bajarib kelgan. Tarixiy taraqqiyotni o‘zgarishi najijasida oilaning ijtimoiy funksiyasi ham o‘zgarib, jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib bordi. Bizda azal-azaldan oila eng muqaddas va mo‘tabar maskan bo‘lib, jamiyat uchun etuk shaxslarni tarbiyalash mas’uliyati hisoblangan. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan shiddatli axboriy o‘zgarishlar, hayotimizga kirib kelayotgan kommunikatsion yangilanishlar oilalarimizdagi asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan yuksak insoniy an’analarimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Hozirgi davrda bola tarbiyasida, ayniqsa, qalbida vatanparvarlik, odamiylik, iymon-e’tiqod tuyg‘ularini uyg‘otib, oila qarshisidagi mas’uliyatni his qilishi, oilaviy hayotning murakkab jihatlarini anglash, har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga o‘rgatishimiz lozim. Oila fuqarolik jamiyatining harakat nuqtasi, barqaror va tinch tuzilmasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma’nan va axloqan tarbiya topadi. Oila jamiyatning tabiiy hujayrasi, ijtimoiy asosidir.

Oila, uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida mutafakkir va mutasavviflar turli xil fikrlar bergan. Bu borada jadid ma’rifatparvarlarining qarashlari alohida o‘ringa ega. Jadid namoyandalari inson va mamlakatning taqdiri, yuksalishi yoki tanazzuli oilaviy muhitga uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy maqolalarida jamiyatning ma’naviy qiyofasi oilalarga bog‘liqligi atroflicha tahlil etilgan. Abdurauf Fitrat o‘zining “oila yoki oila boshqarish tartiblari” risolasida “Kim badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga katta dushmanlik qilgan bo‘ladi” degan edi [8].

Agar oilada sog‘lom turmush tarzi ustuvor bo‘lib, farzand har jihatdan to‘g‘ri tarbiya topgan bo‘lsa, u, shubhasiz, o‘zidagi ijobiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko‘chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo‘llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ta’sir o‘tkazadi. Oila go‘zal odob-axloq, xushmuomalalik, samimiylik, mehnatsevarlik, ilm-ma’rifat asosiga qurilsa, ijtimoiy munosabatlarga muntazam ta’sir etib, unga kuch-quvvat beradi. Tarbiyali insonning so‘zi, fikri, odobi, xulqi, axloqi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteriga ta’sir etib, Forobiy ta’kidlaganidek, fozil odamlar jamoasining shakllanishiga zamin hozirlaydi. Behbudiyning “Hifzi sihati oila” (“Oila sog‘lig‘ining himoyasi”), Abdusalom Azimiyning “Ta’lim va tarbiya”, Ibratning “Millatni kim isloh etar?” kabi maqolalari oila tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko‘tarib chiqqan [9]. Abdusalom Azimiyning “…bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolaga, otani ta’siridan ziyodadur. Chunki ona bolani bir necha oylar qani birla g‘izolanturur. Va bahdaz tavallud sanalarcha suti birla parvarish etar. Va muddatlarcha og‘ushi mushfiqonasiga tarbiya etar. Bu sababli bola ona tarbiyasida bo‘lg‘usi ovonlarda muhitiga muvofiq holda tabiatlanur, ki bul tabiat va odat agar nomahqul holda bo‘lunsa, katta bo‘lganidan so‘ng islohi mushkuldir” [10].

Jadidchi ma’rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar. Oila asosini to‘g‘ri qurmay turib va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq [11].

O‘zbek xalqining oilaviy turmushga xos tarixiy taraqqiyot davomida orttirgan tajribasi, turmush tarzini maqsadga muvofiq tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi Y.I.Semenovning “Nikoh va oilaning kelib chiqishi” asarida oila shakllanishining tarixiy bosqichida ishlab chiqarish faoliyati yaxshi bo‘lishi uchun munosabatlarining ma’lum tizimi bo‘lishini talab qilgan. Ya’ni, xususiy mulkchilik munosabatlari, nafaqat taqsimlash, balki ishlab chiqarish birlashma a’zolari o‘rtasida jinsiy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan [12].

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, oilada qadriyatlarimizning mazmun-mohiyati chuqur tasavvurlar shakllantirilsa, yoshlar ongi, tarbiyasi, ularning dunyoqarashi va turmush tarzida ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi. Oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyati tizimini takomillashtirishga innovatsion yondashuv jamiyatning ma’naviy-axloqiy, ta’lim-tarbiya taraqqiyotida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda [13]. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida “... yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor, uning farzandlari timsolida namoyon bo‘ladi, ro‘yobga chiqadi”, degan fikrlari yosh avlod tarbiyasiga har doimgidan ham ko‘proq mas’uliyatli va befarq bo‘lmaslikni talab etadi [14]:

–oila jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim omilidir;

–insoniyat taraqqiy etishi najijasida oilaning ijtimoiy funksiyalari ham o‘zgarib, jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib bordi;

–oilaga bo‘lgan e’tibor har qaysi davrda ham, jamiyatda ham dolzarb bo‘lgan;

–oila instituti avlodlar orasidagi vorisiylik ko‘prigidir;

–aynan oiladagi vorisiylik, dunyo tamaddunining asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). “Avesto”. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. T., “Sharq”, 2001.

(2). Платон. Соч. в 3-х томах. М., 1871, т. 3, ч. 1.

(3). Аристотель. Сочинения 4-томах. М., “Мысль”, 1983.

(4). Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1-jild, T., 1968.

(5). Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993.

(6). Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild, tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev. T., A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 3-jild, 1992.

(7). Al-Buxoriy. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to‘plam). 4 jildlik, T., Qomuslar bosh tahririyati, 1991–1999.

(8). At-Termiziy. T., G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1993.

(9). Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1992.

(10). Rizouddin Ibn Faxruddin. T., “Cho‘lpon”, 1993.

(11). Amir Temur Ko‘ragon. Zafar yo‘li. T., “Nur”, 1992.

(12). Mahmudov T. “Avesto haqida”. Toshkent, «Sharq», 2000, 38-bet.

(13). Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., «Sharq»,1998, 160-bet.

(14). Marg‘inoniy B. Hidoya, 1-jild. Nikoh kitobi. 645-bet; Taloq kitobi. 763-bet, Toshkent, «Adolat», 2000.

(15). Forobiy. Risolalar. Toshkent, “Fan” 1975; Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993.

(16). Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. 1915, 24-bet.

(17). Oyina. Toshkent, “Akademiya”, 2001, 4, 41–49-betlar.

(18). Alimova D. Oila poydevori haqida risola (asarning ikkinchi nashriga kirish so‘zi). Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000, 4-bet.

(19). Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. М., 1974.

(20). Davronova D.S. Oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimiga innovatsion yondashuv muhim ijtimoiy masala sifatida. T., 2017, 24 – 25-betlar.

Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich (O‘zMU doktoratni)

YANGI O‘ZBEKISTONDA – INSON QADRINI YUKSALTIRISH ZARURIYAT

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi xalq farovonligini yanada oshirish, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilganligi, bu borada “Davlat – insonlar uchun” degan ezgu g‘oya hayotimizda izchil qaror topib, ko‘p millatli xalqimiz tinch va osuda hayot kechirayotganligi, O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro yurt tinchligi, inson qadri ulug‘langan yurt rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatini safarbar etishi lozimligi tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar*: inson qadri, ta’lim, fan, tarbiya, barqaror taraqqiyot, ma’naviy yetuklik.*

Шодиев Джахангир Джуракулович (докторант УзМУ)

В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ – НЕОБХОДИМО ПОВЫШАТЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация. *В данной статье говорится о том, что конечной целью реформ, проводимых в Новом Узбекистане, является дальнейшее повышение благосостояния народа, улучшение условий жизни людей. В связи с этим реализуется благородная программа «Государство для человека», которая нашла последовательное решение в нашей жизни, наша многонациональная страна живет мирно. Каждый гражданин, проживающий в Узбекистане, должен мобилизовать все свои силы и потенциал для развития страны, где ценится и прославляется человеческое достоинство.*

Ключевые слова: *ценность человека, образование, наука, воспитание, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Shodiyev Jahongir Jurakulovich (doctoral student of UzMU)

IN THE NEW UZBEKISTAN – IT IS NECESSARY TO INCREASE HUMAN VALUES

Annotation. *In this article, the ultimate goal of the reforms carried out in New Uzbekistan is to further increase the welfare of the people, to improve the living conditions of people, in this regard, the noble idea of "State-for-people" has found a consistent solution in our lives, and our multi-ethnic nation is living peacefully and peacefully, every citizen living in Uzbekistan it was analyzed that it should mobilize all its strength and potential for the development and progress of the country, where human dignity is glori-fied.*

Key words: *human value, education, science, upbringing, sustainable development, spiritual maturity.*

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlat asoslarini barpo etish izchillik bilan davom ettirilmoqda. O'zbekiston dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari qatori o'z taraqqiyoti sari olg'a qadam bosmoqda. Buyuk kelajak, qudratli davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barkamol insonlarga tayangandagina, qad ko'taradi, yaratiladi. Tabiiyki, har qanday avlod vakillari ma'lum bir jihatlari bilan bir-birlaridan farq qiladi. Bunda taraqqiyotning ta'siri katta. Shunday bo'lsa-da, avlodlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan, asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan yaxshi an'analar, umrboqiy qadriyatlardan uzilib yashay olmaydi. Istiqlol avlodi deb, ya'ni, biz yoshlarga qo'yilayotgan katta talablardan biri ham – shu. Taqdir siylovi bilan millionlab ajdodlarimiz orzu qilgan kunlarni ko'rish, chin ma'nodagi toza havodan nafas olish baxti aynan bizga nasib etdi. Dunyoni yorug' ko'ra olyapmiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'-lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadlarga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish vazifasini o'z oldimizga qo'ymoqdamiz.

"Mahalla – davlatning zamini. Mahalla obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi". Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Shu bois bundan buyon har bir mahallada insonlarni bir-birini hurmat qilishi va qadrlashi borasida samarali ish olib borish faoliyatimizning bosh mezoniga aylanadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Inson bu dunyoning azizu mukaram xilqati, mavjudotlar ichra sarvaridir. Insonning qadr-qimmati pok qalbga, ezgu maqsadga egaligi, undagi imon-e'tiqod va qilgan go'zal amallari bilan o'lchanadi. Inson qadrini o'lchashning ana shu ilohiy mezonlari ishga solingandagina, odamlar haqiqiy qadr topadi.

Inson huquqlarini ta'minlash, uning qadrini oshirish borasida davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, OAVlarning roli, aholi va jamoat birlashmalari siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Olib borilgan bu kabi ishlar natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi [2].

Tahlil va natijalar. Inson qadri – odam zotining Allohning eng buyuk mo'jizasi sifatida ulug'lanishi, har tomonlama munosib qadr-qimmat topishini anglatadigan tushuncha. Inson uchun qadriyatlar mezonini anglashda, dastlab, oila muhiti, ota-ona, qarindosh-urug', o'qituvchilar muhim o'rin tutadi. Aynan ana shu omillar negizida inson kamol topib boradi. Insonning butun umri o'zida shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, jamiyat, zamonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga in-

tilishdan iboratdir. O‘zi va boshqalarning qadrini anglab yetish uchun insonning ma’naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi, uning o‘zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to‘g‘ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim. Bu ma’noda, Suqrotning “O‘z-o‘zingni anglab yet!” degan da’vati g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. O‘z qadrini anglashning obyektiv, subyektiv, ijtimoiy va shaxsiy jihatlari mavjud bo‘lib, doimiy ravishda o‘zaro aloqadorlikda yashaydi, inson tabiatining turli jihatlarini aks ettiradi. Har qaysi shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ko‘zgusida namoyon bo‘ladi. Muhit va davrning talablari shaxsning qadrini shakllantirib, yuksaltirib boradi. Inson va uning qadri muammosi–falsafaning azaliy mavzularidan biri. Odam naslining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o‘rni, insoniy fazilatlari, shaxsiy xususiyati to‘g‘risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ma’lumki, odamning jismoniy tuzilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o‘rganish ilm-fan olamida hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, uning ijtimoiy, ma’naviy qiyofasi bilan bog‘liq masalalari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzod uchun o‘ziga o‘xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o‘rni, qadri, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq muammolar qadimdan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obyekti bo‘lib kelgan. Insonning o‘zini qadriyat sifatida talqin qilish bilan uning qadri va shaxsiy darajadagi qadriyatlar tizimi to‘g‘risidagi masalalar bir-biridan farq qiladi. Bu borada uch yo‘nalishda fikr yuritish mumkin.

Birinchidan, har bir insonni qadriyat sifatida qarash kerak. Bunda insonning o‘zi, uning tabiiy-tarixiy jarayondagi mavjudligi, tirik jonzotlar orasida yagona ijtimoiy vujud ekani e’tiborga olinadi. Bu yo‘nalishdagi tahlil aniq insonga qaratilgan bo‘lib, uni maxsus tadqiqot mavzusi obyektiga aylantiradi.

Ikkinchidan, insonning qadri, ya’ni, uni ijtimoiy jarayonlardagi o‘rnini, atrof-muhit va boshqa kishilar uchun ahamiyati, jamiyatdagi mavqeyi kabi masalalarni tadqiq qilish ham mumkin. Bunday tahlil insonning ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini o‘rganishga asoslanadi.

Uchinchidan, shaxsning ma’naviy olami, qiyofasi, qiziqish dunyosi, talab va ehtiyojlari, faoliyati bilan bog‘liq qadriyatlar tizimini ham tahlil qilish mumkin. Bunda asosiy e’tibor qadriyatlarning shaxsiy (alohida, yakka) darajada namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlariga qaratiladi. Hozirgi davrda har qaysi odamning qadri, avvalo, uning tabiatga, tashqi olamda ro‘y berayotgan jarayonlardagi o‘rni va faoliyatiga, turli irq, millat, ijtimoiy qatlamlarga mansub bo‘lgan, rang-barang maqsad va qadriyatlarga intiladigan kishilarga, o‘ziga, oila, turmush, jamoa jamiyatdagi mavqeyiga nisbatan munosabatida yaqqol ko‘rinadi. Shuningdek, mehnat, ishlab chiqarish va iqtisodiyot borasidagi jarayonlardagi ishtiroki, jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va moddiy boyliklarni yaratish jarayoniga qo‘shayotgan hissasi ham inson qadrini belgilaydi. Bundan tashqari, qadr-qimmat insonning ma’naviy barkamolligini, bilimi, qobiliyati, iste’dodi, iqtidori va ulardan qanday maqsadlarda foydalanayotgani, o‘zining shaxsiy, milliy, diniy, irqiy, sinfiy va boshqa sohalardagi manfaat hamda maqsadlari, talab-ehtiyojlari, intilish va faoliyatini umuminsoniy talablarga moslashtira olgani bilan bog‘liq sifatlarda ifodalanadi. Bu borada uning turli buzg‘unchi g‘oyalar, vayronkor mafkura va boshqa bid’atlarning mohiyatini to‘g‘ri anglab olgani, ularga nisbatan munosabati ham muhimdir. Ana shu jihatlarning barchasini hisobga olgan holda, inson qadrini baholash va shu asosda shaxslarning tiplarini aniqlash mumkin [3].

Inson baxti va kelajagining asosi mehnatda ekanligini anglab, agar inson taqdirga ishonib ishlamasa, u yanglishadi, bunday odam aqlsizdir. Shu bilan birga, u odam o‘z g‘ayrati va harakati bilan maqsadiga erisha oladi. Agar inson o‘z hayoti uchun zarur bo‘lgan narsalarni topishga yalqovlik qilsa, taqdirda menga kerakli narsalar, jumladan, uy-joy, kiyim-kechak va oziq-ovqat yozilgan bo‘lsa, men mehnat qilmasam ham, o‘z-o‘zidan davlat kelaveradi, degan fikrda bo‘lsa, “bunday odam o‘z yo‘lini bilmagan dunyodagi eng tuban darajadagi ahmoqlardan hisoblanadi”, chunki tiriklik uchun zarur bo‘lgan bu narsalarni topish o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi. Buning uchun, avval, uning sabablarini aniqlash zarurdir [4].

Inson hayoti, uning orzu-umidlari, maqsadi yo‘lida intilishlari, bu yo‘lda duch kelgan to‘siqlar, tortgan mashaqqat, uqubatlari, ruhiy iztirob-alamlari, quvonch, shodliklari, taqdir-qismati to‘g‘risidagi o‘y-kechinmalari, kishilararo munosabatlar murakkabligi kabilar azal-azaldan falsafiy asarlarning asosiy mavzusi bo‘lib keladi. Bu masalalar falsafiy asarlar uchun azaliy muammo sanaladi. Bu muammolarni yechish, hal qilish hech kimning qo‘lidan kelmaydi. Chunki inson va uning hayoti, taqdiri bilan bog‘liq muammolar benihoya chigal. Ularni osongina tushunib, jo‘ngina qilib tushuntirib bo‘lmaydi. Inson hayoti muammolarini anglaganing sari u chigallashib boradi. Bu murakkablikning chek-chegarasi yo‘q. Uning poyoniga yetish hech kimga nasib qilmagan. Oddiy odamlarni azoblagan hayotning mashaqqatli muammolari payg‘ambarlar, avliyo zotlarni ham iztirobga solgan. Inson qalbida dabdurustdan, kutilmaganda, sodir bo‘ladigan g‘ayritabiiy taassurotlarni ifodalagan asarlar, aniqrog‘i, ulardagi qahramonlar o‘quvchilar qalbidan joy oladi,

ularga ma’naviy-ruhiy quvvat beradi. Kino san’atida ham qahramonlar ruhiy olamdagi o‘zgarishlarni, ular qalbida kechgan keskin jarayonlarni aks ettirishga alohida ahamiyat beriladi. Buning uchun turli texnika vositalaridan foydalaniladi. Rejissorlarning izlanishlari, topilmalari, aktyorlar mahorati, operatorlar, chiroq ustalari, boshqa texnik xodimlar mehnati ayni shu nuqtayi nazardan baholanadi.

Xulosa va takliflar. Inson ruhiyati, qalb kechinmalari haqqoniy aks ettirilgan asarlar barcha millat kishilari diqqatini beixtiyor jalb etadi. G‘arblik bilan sharqlikning, yapon bilan inglizning, rus bilan fransuzning, xitoy bilan nemisning milliy turmush tarzida, oila tartiblarida, urf-odatlarida, to‘y-marosimlarida, ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasida jiddiy farq-tafovut mavjud. Ammo ularning qalb kechinmasi, his-tuyg‘ularida, muhabbat quvonchi, iztiroblarini, mehr-oqibatini his qilishida, yovuzlikka munosabatda juda yaqin o‘xshashlik, uyg‘unlik bor. Bu jihatdan Yer yuzidagi barcha millat kishilari birlashib ketadi va ularni, avvalambor, inson ekanligini uqdirib, bir-birini qadrlashga undaydi.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi xalq farovonligini yanada oshirish, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Bu borada “Davlat – insonlar uchun” degan ezgu g‘oya hayotimizda izchil qaror topib, ko‘p millatli xalqimiz tinch va osuda hayot kechiryapti. O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro yurt tinchligi, inson qadri ulug‘langan yurt rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatini safarbar etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Mahalla – davlatning zamini. “Xalq so‘zi” gazetasi, 36-son, 18-fevral 2022-yil.

(2).https://www.namhaqiqat.uz/siyosat/yangi_uzbekistonning_taraiyot_strategiyasi_mamlakatimizda_inson_adrini_yuksaltirish_va_erkin_fuarolik_zhamiyatini_barpo_etish_asosidir.html

(3). Қиём Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси. Биринчи жилд, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Т., 2019, 492–493-betlar.

(4). Insani kamil // Islamskiy ensiklopedicheskiy slovar. Avt.: A. Alizade. Moskva: 2007.

Badridinova Nilufar Sadridinovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi)

“MABDAYI NUR” ASARIDA QALB TUSHUNCHASINING TASAVVUFIY MOHIYATI

Annotatsiya. *Maqolada tasavvuf ta’limotida qalb masalasi, qalbning Haq mazhari ekanligi, Boborahim Mashrabning qalb tushunchasiga oid fikrlari, tasavvufdagi maqomlarda qalbning o‘rni haqidagi qarashlari “Mabdayi nur” asari asosida falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Boborahim Mashrab, “Mabdayi nur”, Haq mazhari, mutasavvif, qalb, qalb nuri, ruhiy qalb, dil va ong, zohiriy qalb, botiniy qalb.*

Бадридинова Нилуфар Садридиновна (Бухарский Инженерно-технологический институт, научный сотрудник)

МИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ СЕРДЦА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МАБДАИ НУР»

Аннотация. *В статье рассмотрен вопрос о душе в учении суфизма, о том, что душа является источником Истины, изложены мысли Боборахима Машраба о понятии души, его взгляды на роль души в состояниях, суфизм анализируется с философской точки зрения на основе произведения “Мабдаи Нур”.*

Ключевые слова: *Боборахим Машраб, “Мабдаи Нур”, источник Истины, мистик, душа, свет души, духовная душа, сердце и разум, внешняя душа, внутренняя душа.*

Badridinova Nilufar Sadridinovna (Bukhara Engineering and Technology Institute – researcher)

MYSTICAL ESSENCE OF THE CONCEPT “HEART” IN THE WORK “MABDAI NUR”

Annotation. *The article examines the issue of the soul in the teachings of Sufism, that the soul is the source of Truth, Boborahim Mashrab’s thoughts on the concept of the soul, his views on the role of the soul in states, Sufism is analyzed from a philosophical point of view based on the work “Mabdai Nur”.*

Key words: *Boborahim Mashrab, “Mabdayi Nur”, source of Truth, mystic, soul, light of the soul, spiritual soul, heart and mind, outer soul, inner soul.*

Kirish. Xalqimizning buyuk siymolari milliy va jahon ilm-fani, madaniyatining barcha sohalari rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelganlar. Yangi taraqqiyot bosqichining eng buyuk ne’mati shu bo‘ldiki, elimizning boy tarixi, milliy va ma’naviy qadriyatlari, yetuk mutafakkir alloma va donishmandlari xaqidagi haqiqat tiklandi. Buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, undan ko‘p millatli hamda turli e’tiqoddagi fuqarolarimizni bahramand qilish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar xalqimiz ongida axloqiy yetuklik, ma’naviy boylik va insoniylik g‘oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur nuqtayi nazardan maqolamizda Boborahim Mashrabning nodir asari “Mabdayi nur” asarila qalb tushunchasining tasavvufiy mohiyatini o‘rganishga jazm etdik.

“Mabdayi nur”, asosan, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”si ta’sirida yozilgan. “Mabdayi nur” quyidagi tartibda bitilgan: asarning boshlanish qismida Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sidan ilk bayt olingan va shu ilk bayt sharhi sifatida kirish qismi yozilgan. Bundan keyin shu “Masnaviy”dan turli baytlarni saylab olib har bir qismning boshlanmasiga bitilib, undan keyin Mashrabning o‘zi shu baytlarning sharhi sifatida turli diniy-afsonaviy, axloqiy hikoyatlarni bergan. “Mabdayi nur” 176 ta diniy, afsonaviy, axloqiy hikoyatlardan, 30 ta ta’limiy parcha, 35 ta g‘azal, 2 ta o‘zbekcha, 1 ta arabcha mustazoddan iborat”.

“Mabdayi nur” (“Nurning boshlanishi, chiqish joyi”) Alloh nurining jilosi, olamni yorituvchi nur, degan ma’noni anglatadi. Jahon mumtoz adabiyotining buyuk siymolaridan biri, bashariyat shoiri Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodi Mashrabni befarq qoldirmagan, albatta. Mashrab Rumiy g‘azallaridan zavqlangan, “Masnaviy”ni yod olgan, ta’sirlangan va ilhomlangan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mashrab ijodida ijtimoiy-axloqiy mavzudagi “Mabdayi nur” va “Kimyo” she’riy asarlari alohida o‘rin tutadi. “Mabdayi nur”ning ahamiyati, mazmuni va Mashrabga tegishli ekanligi haqidagi turli munozaralarga Ismatulloh Abdullohning aniqlik kiritishi va uning chop etilishi haqida akademik Alibek Rustamov, professor Botirbek Hasanovlar o‘z munosabatini bildirib, shunday yozadilar: Boborahim Mashrabning hayot va ijod yo‘li murakab, turli afsona-yu rivoyatlarga boy. Bular haqida fikr yuritish uchun mashrabshunoslar oldida yagona manba “Devonayi Mashrab”, “Shoh Mashrab” va “Qissayi Mashrab” nomli asargina mavjud edi. Asarning qo‘lyozma va bosma nusxalari ko‘p. Sharqshunos V.A.Vyatkin (1869–1932) 1923-yili Toshkentda nashr qilingan “Сборник Туркистанского Восточного института в честь профессора А.Э.Шмидта” to‘plamidagi farg‘onalik mutasavvif “Devonayi Mashrab” maqolasida Mashrab xalq orasida mashhur tasavvufiy-axloqiy “Mabdayi nur” asarini ham yozganini aytib o‘tadi. Fitrat bu da’voni ham misollar bilan rad etadi. Fitrat “Mabdayi nur” nomli mashhur asarni Mashrab Ofoqxo‘janing taklifi bilan shu dargohda turkiy-o‘zbek tiliga forsiydan o‘girganligini “Mabdayi nur”dan olingan quyidagi misralar bilan isbotlashga harakat qilgan. Fitrat quyidagi misralarni keltiradi: “Yetushti Mashrab o‘shal kun “Mabdayi nur”ga Valiyi Xo‘jayi Ofoq shohni himmatidandur, desa, shunga yaqin fikrni “Mabdayi nur”dan ko‘plab keltirish mumkin. Masalan, Nido keldi, ey Mashrab talabdin uzma umiding, Ochildi “Mabdayi nur”i haqiqat nuktadoniyman”.

Afsuski, yigirmanchi yillarda boshlangan bunday munozarali, chalkash fikrlar keyingi yillarda yaratilgan G‘afur G‘ulomning “Ikki Mashrab”, V.Abdullayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kabi maqola va darslik asarlarida davom etib, hatto uning ayrim muxammaslari ham shubha ostiga olindi. Bunday fikrni olg‘a suruvchi mualliflar yuqorida tilga olingan V.Vyatkin, A.Fitrat maqolalariga o‘z munosabatlariii bildirmasdan, qat’iy hukm chiqarib, “Mabdayi nur” kabi asarlar Mashrabi Soniy taxallusli muallifga tegishli bo‘lib, ularni Boborahim Mashrab qalamiga mansub deyish isnod deyish darajasiga borib yetdilar (“Ikki Mashrab”. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1959-yil, 12-iyul). Bunday munozarali qarashlarga Beruniy mukofoti sovrindori, professor I.Abdullayev, taniqli mashrabshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Muhsin Zokirovlar so‘nggi yillarda yozilgan maqolalarida ishonchli dalillar orqali javob berib, “Mabdayi nur” va “Kimyo” asarlari, hech shubhasiz, Boborahim Mashrab qalamiga mansubdur, degan fikrni isbot etdilar. Binobarin, endilikda mazkur asarlarni nashr etish, tadqiq qilish vaqti yetdi. Ulardagi falsafiy-axloqiy qarashlar bugungi kun kitobxonlarini ma’naviy kamolot sari yuksaltirishda muhim manbalardan bo‘lib xizmat qilishi, shubha-siz. “Mabdayi nur” asari haqida ilk mulohaza yuritgan adabiyotshunos M.Zokirov shunday fikrlarni bayon qiladi: “Mabdayi nur”, asosan, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”si ta’sirida yozilgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti kitob xazinasida “Mabdayi nur”ning qo‘lyozma nusxasi saqlanmoqda. Shulardan 9 tasi ilmiy tavsif qilingan. Bu tavsiflar mashhur sharqshunoslardan V.I.Belyaev, A.N.Kononov, N.D.Mikluxo-Maklay, A.A.Molchanov, N.D.Sale, A.A.Semyonov, O.I. Smirnova, A.E.Shmidt tomonidan amalga oshirilgan. Tavsiflarda “Mabdayi nur” muallifi Mashrab taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Mullo Muhammad Boborahim Devonayi Namangoniy deb ko‘rsatilgan. “Mabdayi nur” hikoya va rivoyatlarida dunyoga hirs qo‘yish, molparastlik juda qattiq qoralangan. Shoir boylik, ayniqsa, harom topilgan mol-mulkni najosat, jiyfa (o‘limtik) deb ataydi, dunyoparast, molparastlar musulmonlig-u kofirlikni farqiga bormaydi, deydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Boborahim Mashrabning “Mabdayi nur” asarida qalb tushunchasining tasavvufiy mohiyatini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dialektik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Inson butun tanaga qon yetkazib beradigan qalbdan tashqari ruhiy qalbga ham egadir. Bu ruhiy qalb moddiy qalbga oliy darajada bog‘liq. Bu ruhiy qalb voqelikda nafs bilan ruh o‘rtasi-

dagi bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Islomshunos olimlarning yozishicha, Qur’onda qalbning to‘rt darajasi nazarda tutilgan. Uni yuksalish tartibiga ko‘ra taqsimlanishi: yurak, qalb, dil va ong. Ong deb gohida dil bilan aqlning birikmasini aytishadi. Yurak nafsda ko‘rinadi, ong esa ruhda ko‘rinadi. Ollohning nazargohi qalbdir. Ruhiy qalbni haqiqatini tarixlar davomida ko‘plab ulamolar va oriflar tadqiq etishgan. Misol uchun mufassir Sahl Tustariy (283h/896m) o‘z qasidasida shunday deydi:

Ko‘zi bordir oriflar qalbining,
Ko‘z bilan ko‘rilmagan narsani ko‘rar.

Demak, Tustariy qalbni ko‘ngil ko‘zi deb hisoblagan. Aflotunning “Davlat” kitobida Suqrot misolida shunday deydi: «Har bir insonning qalb ko‘zi mavjud bo‘lib, bu ko‘z ilm bilan mashg‘ullikda poklanib, qaytadan jonlanadi, boshqa mashg‘ulotlar esa uni mahv etib, ko‘r qiladi. Biroq uni asrab-avaylash mingta ko‘zga ega bo‘lishdan afzaldir, chunki, haqiqatni faqat ana shu qalb ko‘zi bilangina ko‘rish mumkin».

Qalandar shoir, darvesh faylasuf Boborahim Mashrab ham qalbni Ollohning nazargohi deb biladi. “Muminning qalbi – Ollohning uyi” degan qoidaga amal qilgan Boborahim Mashrab inson qalbini ilohiy olam, inson esa muqaddas zot deb bilgan [2]. Boborahim Mashrab Haq oldida dilozorlik qilmaslikni, dilozorni Olloh bandam demasligini, bu dunyoda har kim o‘zini faqir deb his qilishi kerakligini, qaysi kishi o‘zining fe’lini tarbiyalay olmasa, u hayvondek maxluqdan farqi yo‘qligini yozgan [3].

Gar qo‘lingdan kelsa hargiz, mo‘rchani og‘ritmagil,
Kim, Xudo bandam demas, har kimki, dil ozordir.
Bo‘lmagil badholat bo‘lib, ketti tani murdordir [4].

Boborahim Mashrab Alisher Navoiy asarlari bilan ham tanishgan, o‘zining tasavvufiy-falsafiy g‘oyalarini ifodalashida ularni ta’siri sezilarlidir. Alisher Navoiy mazkur g‘oyani “Olamdan notavon o‘tmak biayni, erur hammomdin nopok chiqmoq” deb tushuntiradi. Mutafakkir notavon deganda aynan dilozor, insonga zarar keltiruvchi, uning qalbini ohritadiganlarni nazarda tutganligi fikrimizning dalilidir.

Boborahim Mashrab “Mabdayi nur” asarida qalbning oliy makon ekanligiga ishora qilib, quyidagi misralarni keltirgan: “Yugurtirma bu aqling marg odamga barobardur, Nekular ahliga dor-u, bu marham badga nashtardur. O‘zingdandir hama nuqsonu rasvoligu ko‘tahlik, Vagarna ikki olam qalbi pokingga muyassardur”.

Mazkur misralarda mutasavvif barchaning borar manzili bir, o‘lim barcha uchun barobar ekanligi, qalbi toza yaxshi insonlar uchun o‘lim dori-yu darmon bo‘lsa, yomon odamlar uchun esa nashtar (ma’nosi: chaquvchi pardaqanotlilar zahar sochuvchi organining sanchuvchi qismi) sanchiqdir, degan. Agar inson qalbini pok tutsa, barcha rasvoliklardan qutulishi, ikki olamda ham munavvar bo‘lishini uqdirgan.

Boborahim Mashrab Imom G‘azzoliyning asarlarini bilgan, ularni o‘rgangan, qolaversa, “Kimyoyi saodat” asariga tayangan holda “Kimyo” asarini yozgan. Imom G‘azzoliy shunday yozgan edi: Inson to‘rtta unsurdan tashkil topgan. Bular tana, aql, ruh va qalbdir [5]. Inson bir umr qiynalib yashaydi, ya’ni qaysining yo‘liga yurish muddaoga olib keladi.

Xoja Ahror Valiy 65-rashhalarida shunday baytni o‘qiganlar: Joy kun dar andarunho xeshro, Dur kun idroki g‘ayr andeshro. Mazmuni: Qalbda do‘stga joy berginu, Do‘stdan boshqa begonalarni chiqar. Demak, Xoja Ahror Valiy qalb faqat ilohiy makondir, ilohdan o‘zgasi qalbga munosib emas, deb ta’kidlagan [6].

Muqaddas kitoblarimizda ham qalb masalasiga e’tibor qaratilgan. Payg‘ambarimiz “Ogoh bo‘linglar! Albatta, jasadda bir parcha go‘sht bordir. Qachon u solih bo‘lsa, jasadning hammasi solih bo‘lur. Qachon u buzuq bo‘lsa, jasadning hammasi buzuq bo‘lur. Ogoh bo‘linglar! O‘sha narsa qalbdir”, degan ekanlar. Bu hadisda ham bu jasaddagi bir parcha go‘sht, ya’ni qalbning solihligi, pokligi ulug‘langan. Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy va Nasoiy rivoyat qilganlar.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Albatta, Alloh suratlaringizga va mol-u dunyolaringizga nazar qilmaydi. Lekin qalblaringizga va amallaringizga nazar qiladi”, dedilar [7].

Islomiy manbalardan xabardor bo‘lgan Boborahim Mashrabning quyidagi misralarida qalb – Haqning mazhari sifatida ko‘rilganligi ifodalangan:

Ibo birla qadam qo‘y xalqni dahliziga, ey komil,
Agarchi uyda sohib yo‘qtur, qalbi noshinosi bor.
Agar arzancha shubhang bor, tarozuga kirar oxir,
Kishidin igna olsang ro‘zi mashharda jazosi bor [8].

Mutasavvif har bir inson o‘ziga xos olam ekanligi, unga munosabatda ogoh bo‘lmoq kerakligi, insonning hech kimi bo‘lmasa-da, uning qalbida iymon borligini uqdirgan. Inson o‘z xilqati, tuzilishi bilan ilohiy xususiyatlarni aks ettirgan timsoldir, uning qalbi bo‘lsa, nuri Rahmon maskanidir, deb hisoblagan Boborahim Mashrab.

Xulosa va takliflar. Boborahim Mashrabning “Mabdayi nur” asarida qalb tushunchasining tasavvufiy mohiyatini o‘rganish barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mutasavvifning qalb sofligini saqlash uchun inson kibr va manmanlikdan, nafsning istaklaridan o‘zini xoli tutmoqligi kerakligiga doir pand-u nasihatlari hozirgi davrda namoyon bo‘layotgan xudbinlik, insonlarga kamsitish nazari bilan qarash, nafsga berilish kabi illatlarning oldini olishda ilg‘or g‘oyalar qatoridan o‘rin oladi, deb o‘ylaymiz. Mutafakkir Mashrab tasavvufiy-falsafiy qarashlaridan bugungi avlodlarga meros qolgan saboq shuki, u butun olam va odam yaratuvchisiga e’tiqod qo‘yish, pok niyat bilan yashash, tabiat tilsimotlaridan boxabar bo‘lish va uni ardoqlashdir. Inson ulug‘ niyat va pok e’tiqod bilan hayot kechirsagina, bir-biriga rahm-shafqat, adolat qilsa, uni ulug‘ manzillar kutadi, deya ta’kidlaydi. Mashrab tashqi borliqqa, davrning dolzarb masalalariga faol munosabatda bo‘lishni ham o‘rgatgan [9].

Insoniyat tarixining turli davrlarida dunyo xalqlari ulkan taraqqiyot, buyuk siljishlar va keskin ko‘tarilish hodisalariga guvoh bo‘lgan. Kishilik taraqqiyoti dinamikasidagi rivojlanish va tanazzullar mohiyati har bir davr odamlari tafakkuri mahsuli sifatida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Zotan, inson aql va tafakkur, qalb va hissiyot olami orqali o‘z hayotini o‘zi yo‘lga qo‘yadi. Yangi taraqqiyot bosqichida ham qalb tushunchasi dolzarb tushunchadir. Qalb da’vati, qalb hayqirig‘i bilan ezgulik, insoniylik, vatanparvarlik, iymon e’tiqodni vijdon va imon degan tuyg‘ularni o‘zlashtirsak, millat istiqboliga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Замира Исҳоқова. Машраб. “Ўзбекистон” нашриёти, 2015, 87-бет.

(2). Мўмин Ҳошимхонов. Машраби мўътабар ўзим. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 128-бет.

(3). Мўмин Ҳошимхонов. Машраби мўътабар ўзим. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 300-бет.

(4). Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним, қайдасан. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат институти нашриёти, 1990, 9-бет.

(5). Соҳибназар Каримов. Тасаввуф фалсафаси. Ўқув қўлланма, СамДУ нашри, 2021, 209-бет.

(6). Хожа Аҳрор Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. Х.Х.Раҳматова, Тошкент, “Adib” нашриёти, 2014, 128-бет.

(7). Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “Хислатли ҳикматлар шарҳи”. 2022, 1-жуз, “Hilol Nashr”, 416-бет

(8). Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур. Сайланма (ғазаллар ва мустазодлар). Нашрга тайёрловчилар: Г. Ниёзов, Қ.Аҳмедов, “Фан”, 1994, 33-бет.

(10). Хожа Аҳрор Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. Х.Х.Раҳматова, Тошкент, “Adib” нашриёти, 2014, 128-бет.

TILSHUNOSLIK

Yuldashev Doniyor Toxirovich (filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent)

SARLAVHALAR VA ULARGA YASHIRINGAN BADIIYAT

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sarlavhalar, ularning matn yaxlitligida tutgan o‘rni va ularga yuklanuvchi nominativ, akkumulativ, diskursiv, intertekstual, transonimizatsion vazifalari hamda sarlavhalarning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiyati xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *sarlavha, biblionim, lingvopoetika, aktualizator, idionim, badiiy san’at, N.Mahmudov, bag‘ishlov.*

ТИТУЛЫ И ИСКУССТВО, СТОЯЩЕЕ ЗА НИМИ

Ключевые слова: *название, библионим, лингвопоэтика, актуализатор, идионим, художественное искусство, Н.Махмудов, посвящение.*

Аннотация. *В данной статье говорится о заглавиях, их роли в целостности текста и возложенных на них номинативных, аккумулятивных, дискурсивных, интертекстуалных, трансонимизирующих задачах, а также о лингвопоэтических возможностях и художественности заголовок.*

TITLES AND THE ART BEHIND THEM

Key words: *Title, biblionym, linguopoetics, actualizer, idionym, artistic art, N.Mahmudov, dedication.*

Annotation. *This article talks about titles, their role in the integrity of the text and the nominative, accumulative, discursive, intertextual, transonymization tasks assigned to them, as well as the linguo-poetic possibilities and artistry of titles.*

1. Kirish. Jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham sarlavhalar masalasi ko‘plab tadqiqotlar uchun o‘rganish obyekti bo‘lgan. Lekin “Sarlavha haqida qancha aytilgan va yozilgan bo‘lsa ham, bu mavzuni to‘liq tugatib bo‘lmaydi, uning matndagi roli juda katta. Uning ko‘pgina funksiyalari deyarli barcha matn toifalarining aktualizatori bo‘lgani bilan izohlanadi” [5;90-b.]. Chunki o‘qishni boshlab beruv- chi har qanday sarlavha o‘ziga qaytishni talab qiladigan ramka belgisiga ega. Ayni shu belgisi bilan u matn- ning yakuni va boshlanishini bog‘lab turadi, shu bilan birga, retrospeksiya kategoriyasini ham faollashti- rishda qatnashadi. Biblionimning retrospeksiya kategoriyasi bilan munosabati matn bilan tanishib, sarlav- haga ikkinchi bor qaytgandan keyin yaqqol ifodasini topadi. Ya’ni, “Yangi ma’nolar bilan boyitilgan, pertospeksiya aspektidagi sarlavha umumlashtiruvchi “rema” belgisi sifatida qabul qilinadi, matnning birlamchi talqini allaqachon o‘quvchining butun asarning barcha aloqalarini hisobga olgan holda talqini bilan o‘zaro ta’sirlashadi” [6;172-b.]. Matnga qo‘yilgan sarlavha xoh badiiy, xoh publitsistik, xoh ilmiy matn bo‘lishidan qat’iy nazar, muallifning nomlash mahoratini ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi. Ushbu maqolamizda sarlavhalarning nominativ, akkumulativ, diskursiv, intertekstual, transonimizatsion vazifalari hamda ularning lingvopoetik imkoniyatlari N.Mahmudov sarlavhalari misolida yoritishga harakat qilindi.

2. Metodologiya. Ma’lumki, har qanday matnga qo‘yiladigan sarlavhalar o‘ziga xos xususiyatlarga va tarkibiy ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Sarlavhalarning kommunikativ o‘ziga xosliklari quyidagilar: 1) matnning kommunikativ maqsadini bajarishga qaratilganligi; 2) matnning mantiqiy-semantik tarkiblarda ifodalanib kelishi; 3) ijtimoiy-psixologik ifoda vazifalarining aks ettirilishi kabilar. Har qanday matnga qo‘yilgan sarlavha tugallangan fikrni anglatuvchi gap sanaladi, u kommunikativ birlik bo‘lib, uning asl mazmuni lingvistik va ekstralingvistik funksional ko‘rsatkichlar orqali umumlashtiriladi. Sarlavhalarning xabar berish, nominativlik, ekspressivlik vazifalari uning lingvistik vazifalari hisoblanib, ular tilning leksik-grammatik vositalari va turli xil til birliklari orqali amalga oshiriladi. Sarlavhaning reklama imkoniyati esa ekstralingvistik vazifalaridandir. Tadqiqot materiallari tahlil jarayonida tasviriy, tasniflash, lingvopoetik, konseptual kabi metod va usullaridan foydalanildi. “Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o‘rnini, qo‘llanishini, tuzilishini, o‘ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi” [7;257-b.].

3. Natijalar. Har qanday matn va uning sarlavhasi o‘rtasidagi chambarchas aloqa mavjud. Bunda sarlavhaning tanlanishi, uning leksik-semantik va grammatik tarkibi juda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchiga yetkazilayotgan xabarning eng muhim qismini sarlavha tashkil etadi. Ular oddiy matnga qaraganda farqliroq grammatik va uslubiy qoidalarga bo‘ysunadi (yoki atay bo‘ysundirilmaydi). Matnga qo‘yiladigan sarlavhalar sifatida, ko‘pincha, maqollar, aforizmlar, frazeologizmlar qo‘llanib, sarlavhaning pragmatik ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday leksik-grammatik birliklar matnlarning sarlavhalari sifatida qo‘llanganida, ularning kitobxonga nisbatan pragmatik ta’sir doirasi ancha kengayadi, matn mazmuni haqida ma’lum tushuncha beradi, muallifning matn orqali aytilmoqchi bo‘lgan fikrlarga munosabatini ifodalaydi. Bu leksik-semantik birliklar xabar berish, aniqlik, fikrning qisqa bayoni, obrazlilik, kitobxonni o‘ziga jalb qilish kabi o‘ziga xosliklarni namoyon etadi. Shu bilan birga, sarlavha orqali kitobxon matnning mazmuni haqida dastlabki tasavvurga ega bo‘ladi yoki sarlavha ostiga yashiringan “sir”larni ochishga o‘zini tayyorlaydi. Turli xil stilistik usullar sarlavhalarning yanada yorqinroq, kitobxon (yoki tinglovchi)lar e’tiborini o‘ziga jalb etadigan, mazmunan teran bo‘lishini ta’minlaydigan vositalar hisoblanadi. Ana shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, muallifning vazifasi ko‘zga tashlanadigan, tez esda qoladigan, diqqatni tortadigan sarlavhalarni tanlashdan iborat. Chunki tanlangan sarlavha butun matnning asosiy mazmuni haqida xabar berishi (bu bilan sarlavhaning informativlik vazifasi ham amalga oshiriladi), ma’lum kommunikativ-pragmatik vazifalarni bajarishi kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, sarlavhalar ham biblionim sanaladi. O‘zbek tili biblionimlarining tarkibi, uslubiy-semantik xususiyatlari yuzasidan monografik ish ham amalga oshirilgan [2]. Ushbu ishda bu atamaga berilgan aksariat ta’rif-u izohlar qayd qilingan. Jumladan, “Bibilionim idionim turlaridan biri bo‘lib, badiiy, ilmiy va folklor asarlari nomidir” [1;19-b.]. “Biblionim har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarga berilgan nom, sarlavha, idionim turi” [4;21-b.]. “Biblionim – har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarlarga qo‘yilgan atoqli ot” [3;46-b.] kabilar. Aytish mumkinki, biblionimlar ham o‘ziga xos belgi-xususiyatlarga ega bo‘lgan til hodisasi sifatida yozma nutq taraqqiyoti jarayonini kuzatish uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki unda “matnning siqilgan, ochilmagan” mazmuni ifodalanadi. Har bir davr biblionimlari o‘z tuzilishi va tarkibi bilan o‘sha davr tili maromlarini aniq aks ettiradi hamda til tarixida muhim o‘rin tu- tadi. Darhaqiqat, N.Mahmudovning ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik asarlari va maqolalari sarlavhala- riga tanlangan nomlar ham o‘ziga xos tanlanish tamoyillari, etikasi va lingvopoetikasiga ega. Ular biblionimlarning nomenklatura qoidalariga to‘la muvofiq keladi va muallifning badiiy tafakkur imkoniyatlarini o‘zida namoyon etadi. Ular orasida struktur jihatdan so‘z biblionimlar ham, birikma biblionimlar ham, gap biblionimlar ham uchraydi. Ammo biz bu yerda sarlavhalarning struktur modellari haqida emas, ularning lingvopotik imkoniyatlariga e’tibor qaratmoqchimiz.

4. Muhokama. N.Mahmudov “Biz suv ichgan buloqlar” maqolasida: “Bizda tilshunos, faqat tilshunos, adabiyotshunos faqat adabiyotshunos bo‘lib qolgan. Menimcha, bu noto‘g‘ri, chunki har ikki mutaxassisning ham o‘rganish obyekti, asosan, bitta, u ham bo‘lsa, Til…Shunday ekan, tilshunos adabiy jarayonning tomir urishini, adabiyotshunos esa tilimizning taraqqiyot qonunlarini chuqur bilib borishi shart. Ana shunda juda ko‘p foydali va zarur lingvopoetik tadqiqotlar yuzaga keladi” deb yozgan edi. Muallifning bu qarashi o‘z ijodida yaqqol ifodasini topdi. Olimning ilmiy asar va sarlavhalarining ayrimlari an’anaviy shakllarga ega bo‘lsa, aksariyati yangicha ilmiy-badiiy tafakkur mahsullari sifatida maydonga keldi. Jumladan, tilshunos olimning adabiyotshunos yoki yuksak badiiy shuur egasi ekanligini namoyon qiliuvchi biblionimlari talaygina. Bular ichidagi lingvopoetik salmoqdor biblionimlar, ya’ni o‘zida badiiy san’atlarni jilolantiruvchi sarlavhalar ham anchagina.

1. Takrir-ta’kidga asoslangan sarlavhalar [badiiy san’atlar izohida 8–9-adabiyotlarga qarang]: “**O‘zbek** filmi va **o‘zlik** ilmi”, “**O‘zbek** ilmi va **o‘zbek** filmi”, “Til **mavqeyi** – el **mavqeyi**”, “Til **maqomi** – el **maqomi**”, “**Qon**dan **qon**ga o‘tib yashar xotirot”, “Milliy **o‘zlik**ning **o‘zagi**”, “Tilning **nufuzi** – millat **nufuzi**”, “So‘zi **boy**ning o‘zi **boy**”, Dil **birligi** – dil (go‘ngul) **birligi**”, “Tilning **tirikligi** – millat **tirik- ligi**”…

2. Ishtiqoq-tavzi va takrirga asoslanuvchi sarlavhalar. “**So‘z**ni **so‘zla**tgan olim”, “Oybekning **o‘xshashsiz o‘xsha**tishlari”, “**So‘z**-la **so‘zla**shmoq baxti”, “**Ko‘ngilochar** gazetalardagi **ko‘ngilsiz** gaplar”, “Til **ta’limi** va **muallim**”, “**Navqironlar** so‘zi **navqiron** bo‘lsin”, “Milliy **o‘zligimiz**ning rost va raso **o‘za- gi**”, “**Charchoq**ni **charcha**tgan olim”…

3. Alliteratsiya va tanosubga asoslanuvchi sarlavhalar. “**T**il – **t**irik va **t**iniq **t**uyg‘u”, “**M**uallim va **m**uallif **m**unozarasi”, “**T**il **t**ilsimi **t**adqiqi”, “Tilimizning tilla sandig‘i”, “**M**a’rifat **m**anzillari”, “**S**o‘zga **s**inchilik **s**aodati”, “**T**ilshunos **t**aqdiri”, “**A**jdod-u **a**vlodni **a**llalagan til”, “**S**o‘z va **s**oz”, “**S**o‘z va **s**an’at”, “**T**il va **t**afakkur”, “**T**il va **t**aqdir”, “**T**ilning **t**irikligi millatning **t**irikligidir”, “Oybekning **o‘**xshashsiz **o‘**xshatishlari”, “**S**o‘zni qayliq **s**aylagandek **s**evib **s**ayla”, “**Sh**ishaga yashringan **sh**ovunizm”, “So‘z-la so‘zlash- moq baxti”, “**B**orligimiz va **b**irligimiz **b**axti”, “**M**o‘tabar tilimiz **m**aqomining **m**untazamlashuvi”, **T**il: ilm, **t**a’lim va **t**arg‘ib”, “**S**o‘z **s**andiqchasi”, “**M**a’naviyat **m**anzaralari”, “Mukammal ma’naviyat so‘qmoqla- rida”, “Yurakka **s**ozlangan **s**o‘zlar **s**inoatlari”, “**K**omillik **k**aliti”, “Predikatsiya va polipredikatsiya”, “**E**h- tirosga **e**rk bermang”, “Istiqlol **q**o‘rg‘onining **q**o‘riqchisi”, “**Ch**archoqni **ch**archatgan olim”, “**M**illiy **m**o-

hiyatning **m**o‘tabar tamali”, “**R**ost va **r**aso so‘zlar”, “**R**ostlik **r**asolikdir”, “**T**irik **t**il va uyg‘oq **t**afakkur”, “**T**ilning **t**ilini **t**opmoq baxti”, “**Z**akiy va **z**abardast tilshunos”, “**O‘**ktam va **o‘**lmas tilimiz”, “**T**ilning **t**ilini **t**opgan olim”, “**S**o‘z asliga **s**ayohat”, “**O‘**zbekning **o‘**lmas s**o‘**zi”, “**M**illatlar **m**inbariga **m**unosib tilimiz”…

4. Antitezaga asoslanuvchi sarlavhalar: “**Muxtasar** va **ko‘rkam** bayon”, “**Predikatsiya** va **poli-predikatsiya**”, “O‘zbekiston **qaramlik** va **mustaqillik** yillarida”, “**Johillar** shahridan **fozillar** shahriga”, “Tilimizning **kecha** va **kunduz**i”, “**Muallim** va **muaallif** munozarasi”, “**Funksional** va **nofunksional** to‘l-diruvchilar”…

5. Ichki qofiya (usuli saj’)ga asoslanuvchi sarlavhalar. “**O‘z**imiz va **so‘z**imiz”, “**Til**ni bilish **dil**ni bilishga yo‘l ochar”, “Tilimizdagi **o‘z so‘z**lar tarixi”, “**Til** mavqeyi – **el** mavqeyi”, “**Johil**lar shahridan **fozil**lar shahriga”, “**Imkon namoyish**i – **zamon farmoyish**i”, “**So‘z** va **soz**”, “Zamonaviy **kadr** va milliy **qadr**”, “**Ta’lim** va **muallim**”, “**Shaxsiyat** va **qobiliyat**”, “**Jamiyat** va **hamiyat**”, “Badiiy **til** va lingvopoetuk **tahlil**”, “Millat **hamiyat**i – til **mas’uliyat**i”, “**Hurriyat saodat**ining **shahodat**i”, “Jamiyatda til **sezgi**si va so‘z **sevgi**si barqarorlashmog‘i zarur”, “Til – **millat**ning **hamiyat**i”, “Alifbo **takomil**i – tilimiz kamolotining **omil**i”, “**Adabiy** va **abadiy** bayroq”, “Sinonimlar – til **zangilligi** va **rangilligi** ko‘zgusi”, “Biri birine **ustad**, biri birine **şakird**”...

6. Metaforaga asoslanuvchi sarlavhalar. “Komillik kaliti” (lug‘at), “Tilimizning tilla sandig‘i” (*lug‘at*), “So‘z sandiqchasi” (lug‘atcha), “Jaranglagan oltin soz” (Pushkin she’rlari), “Ezgulik nurlari” (B. Boyqobilov asarlari), “Istiqlol timsoli” (Davlat tili), “Xalq ruhining xolis ko‘zgusi” (matbuot), “Ruhiyatimiz ko‘zgusi”, “Milliy o‘zligimizning rost va raso o‘zagi” (til); “Tilimiz jozibasining tilsimi” (Sinonimlar lug‘ati), “Tilimizning ko‘rkli libosi” (alifbo), “Qalb inqilobi”, “Milliy ruh qanoti”, “Tiniq va pokiza ko‘z- gu” (*Davlat tili*), “Ma’naviyat tayanchi” (rostlik), “Pokiza osmonning ilk yulduzlari” (A.Suyunning “Me- ning osmonim” kitobi) kabilar. Shuningdek, “Saodatli kelajak darvozasi”, “Milliy tafakkur mevalari”, “Alifbo tartibidagi olam”, “Muqaddas timsol”, “Milliy o‘zlikning o‘zagi”, “Besarhad ifoda maydoni”, “Mustaqilligimizning muqaddas timsoli”, “Filologiyamiz ko‘zgusi”, “Millatning azaliy va abadiy timsoli”, “Istiqlol qo‘rg‘oning qo‘riqchisi”, “Hurriyat saodatining shahodati”, “Jamiyatning qudratli kuchi”, “Milliy yuksalishimiz tayanchi”, “Bemisl tilsim”, “Milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli” kabi sarlavhalar ham ramziy o‘xshatishga asoslangan.

7. Ta’didga asoslanuvchi sarlavhalar. “Tili sodda, uslubi ravon, mazmuni teran”, “Ilmiy matnda shaxs, daraja va makon”, “Davlat tiliga e’tibor, ehtirom va sadoqat”, “Tirik til va uyg‘oq tafakkur”, “Mahorat va burch mas’uliyati”, “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkur ifodasi”...

8. Tardi aksga asoslanuvchi sarlavhalar. “**Til siyosati** va **siyosat tili**”, “**Fan tili** va **til fani**”…

9. Istifhomga asoslanuvchi sarlavhalar. “Til qanday paydo bo‘lgan?”, “Yozuv qanday paydo bo‘lgan?”, “Ortak kelimeler ortak anlamlar mi demektir?”, “O‘xshatishdan maqsad nima?”…

10. Tashbehga asoslanuvchi sarlavhalar. “Paxta**dek** oq so‘zlar”, “So‘zni qayliq saylagan**dek** sevib sayla”...

11. Bag‘ishlov sarlavhalar. “So‘zga chinchilik saodati”, “Davlat tiliga e’tibor, erhtirom va sadoqat”, “Mehnatkash adib”, “Nurli ufqlar sari” (*S.Karomatov–50 yoshda*), “Shijoatkor olim”, “So‘z zargari”, “Turkiyshunoslar otaxoni”, “Qondan qonga o‘tib yashar xotirot”, “E’tiborga molik tadqiqot”, “Ezgulik nurlari” (*B.Boyqobilov asarlari*), “Til – millat qalbi” (*Davlat tili haqida*), “Istiqlol timsoli” (*Davlat tili qonuni haqida*), “Xalq ruhining xolis ko‘zgusi” (*Matbuot*), “Ustivor istiqlol qonuni”, “Rost va raso so‘zlar” (*A. Qodiriy tili*), “Tilimizning ko‘rkli libosi” (*Alifbo*), “So‘zni so‘zlatgan olim” (*A.Hojiyev haqida*), “Davlat tili va milliy mustaqillik”, “So‘z-la so‘zlashmoq baxti”, “Tiniq va pokiza ko‘zgu” (*Davlat tili 7 yilligi*), “Tilning tilini topgan odam”, “O‘zbekning o‘lmas so‘zi” *(“Alpomish” tili*), “Til dahosi”, “Tilning tilini top- moq baxti” (*Sh.Rahmatullayev haqida*), “O‘zbek tilida so‘z va olamning lisoniy manzarasi” (*Abduali Berdialiyev haqida*), “Umr ibrati” (*B.Nazarov haqida*), “Pokiza osmonning ilk yulduzlari” (*A.Suyun “Me- ning osmonim” kitobi haqida*), “Istiqlol qo‘rg‘onining qo‘riqchisi”, “Til ilmining saodatmand otaxoni” (*M.Mirtojiyev haqida*), “Asos ul-balog‘a”dan boshlangan zahmat”, “So‘zga sinchilik saodati”, “Zakiy va zabardast so‘zshunos”, “So‘z shayxining mo‘jizalari”, “So‘z shayxining karomatlari”, “Muqaddas timsoli- miz”, “Ijod va umr kamolati”, “Milliy o‘zlikning o‘zagi”, “21-fevral – Xalqaro ona tili kuni”, “Asrlar osha taralayotgan ziyo”, “Mustaqilligimizning muqaddas timsoli”, “Filologiyamiz ko‘zgusi”, “Charchoqni charchatgan olim”, “Yo‘ldoshi benazir saodat bo‘lgan umr ibrati” kabilar.

Bulardan tashqari, iboralarga asoslanuvchi sarlavhalar ham anchagina. Masalan, “Tilning **tilini top-moq** baxti”, “**Gapga do‘ppi kiydirib**”, “**Yuzi yorug‘** bo‘lgan til”, “**Iligi to‘q** o‘zbek tili”, “Har bir so‘z **a do bersin**”, “**So‘z yarador bo‘l**sa, qo‘shiq parvoz qilolmaydi”, “Yolg‘onning **“po‘rim qalpog‘i”** kabi sarlavhalarda iboralar o‘ziga xos jilo kasb etgan.

5. Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, dilida til sehrini jo qilgan, tilimizning tilla sandig‘idan mohirona foydalanuvchi, ajdod-u avlodni allalagan ona tilimiz jonkuyarlaridan bo‘lgan ustoz Nizomiddin Mahmudov o‘zining ilmiy, ilmiy-ommabop asar va maqolalariga tanlagan sarlavhalariga nominativ, akkumulativ, diskursiv, intertekstual va transonimizatsion yuk-vazifalar yuklab, xuddi tilimizda bo‘lgani kabi, sarlavhalarda ham har so‘zning o‘z o‘rni borligini ochiq-oydin namoyon qilgan. Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, olimning nomlash mahoratiga har qanday shoir-u yozuvchi, har qanday adabiyotshunos havas bilan qarasa, arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф., Тошкент, 2012.

(2). Ақманова Ш. Ўзбек тили библионимларнинг структур ва функционал-семантик тадқиқи. Филология фан. бўйича фалс. докт. дисс., Урганч, 2022.

(3). Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент, “Фан”, 2013.

(4). Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006.

(5). Кухаренко В.А. Интерпретация текста. Учеб.пособие, 2-ое изд., перераб., М., “Просвещение”, 1988.

(6). Николина Н.А. Филологический анализ текста. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений, М., издательский центр “Академия”, 2003.

(7). Rasulov Ravshanxo‘ja. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2010.

(8). Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Тошкент, “Хазина”, 1996.

(9). Ҳусайний А. Бадойиъ ус-санойиъ. Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

Gulamova Dilobar Imamkulovna (Osiyo Xalqaro universiteti o‘qituvchisi)

FUNKSIONIMLARNING LUG‘AVIY TIZIMDAGI BOSHQA YONDASH LUG‘AVIY-MAZMUNIY HODISALARGA MUNOSABATIDA EVFEMIZMLARNING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada funksionimlarning lug‘aviy tizimdagi boshqa yondash lug‘aviy-mazmuniy hodisalarga munosabati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ekvonimlar ham til lug‘at tarkibining medioqurilmalar tizimiga mansubligi jihatidan funksionimlar bilan bir paradigma doirasida tutashadi. Bu ikki lug‘aviy-mazmuniy hodisaga tegishli so‘zlar anglatgan ma’nolar asoslangan denotatlarning har xilligi bu ikki hodisaning o‘zaro o‘xshashligini bildirsa ham, ekvonim va funksionimlar til lug‘at tarkibining medioqurilmalari tizimida lisoniy jihatdan keskin farq qiluvchi ikki xil hodisa ekanligi tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, leksika, ifoda, ritorik chalg‘itish, satirik ma’no, abstraksiya, litota, bilvosita ifodalanish.*

МЕСТО ЭВФЕМИЗМОВ В ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ФУНКЦИЙ ПО ОТНОШЕНИЮ К ДРУГИМ ПРИБЛИЗИТЕЛЬНЫМ ЛЕКСИКО-СОДЕРЖАТЕЛЬНЫМ СОБЫТИЯМ

Аннотация. *В статье приводятся сведения о соотношении функций с другими родственными лексико-содержательными явлениями в лексической системе. Экономы также относятся к системе средств массовой информации в рамках той же парадигмы, что и идиомы. Хотя разнообразие денотатов, основанных на значениях слов, принадлежащих к этим двум лексическим предметным явлениям, указывает на взаимное сходство этих двух явлений, эквонимы и функционализмы представляют собой два лингвистически различных явления в системе медиаприборов языковой лексики.*

Ключевые слова: *язык, лексика, экспрессия, риторическая диверсия, сатирический смысл, абстракция, литота, косвенное выражение.*

THE PLACE OF EUPHEMISM IN THE LEXICAL SYSTEM OF FUNCTIONS IN RELATION TO OTHER APPROXIMATE LEXICAL-CONTENT EVENTS

Annotation. *The article provides information about the relation of functionyms to other related lexical-content phenomena in the lexical system. Equonyms also belong to the system of media devices within the framework of the same paradigm as idioms. Although the variety of denotations based on the meanings of the words belonging to these two lexical substantive phenomena indicates the mutual similarity of these two phenomena, equonyms and functionyms are two linguistically distinct phenomena in the system of medio-devices of the language vocabulary.*

Key words: *Language, lexicon, expression, rhetorical diversion, satirical meaning, abstraction, litota, indirect expression.*

Kirish. Til lug‘at tarkibi, ya’ni leksika, o‘ziga xos murakkab tizimdir. Bu tizim mikroqurilma, mediooqurilma va makroqurilma singari biri boshqasi bilan mantiqiy va lisoniy aloqadagi ichki lug‘aviy-mazmuniy guruhlar munosabatidan tashkil topadi.

Lug‘aviy tizimning mikroqurilmalar deb ataluvchi guruhi polisemantik so‘zlar, ya’ni ko‘p ma’noli lug‘aviy birliklar tizimini o‘z ichiga oladi. Bu guruhga mansub hodisalarda bir leksema bir necha sememaga ega bo‘ladi: lug‘aviy birlikning shakl va ma’no munosabatida (ma’nolarning ko‘pligi hisobiga) nomutanosiblikning paradigmatik deb ataluvchi turi amal qiladi [1]. Masalan, *ko‘z* leksemasi o‘z ma’nosi (inson va hayvonlar organizmining ko‘rish a’zosi)dan tashqari, ishning ko‘zi, buloqning ko‘zi, daraxtning ko‘zi va h.k. mikrokontekstlarda har xil ma’nolar anglatgan, bu mikromatnlardda ko‘z so‘zi bir leksema va shu leksema ifodasidagi uch semema xarakterini kasb etgan. Ko‘z so‘zi ifodasidagi uch semema “ko‘z” leksemasining mazmun planiga xos paradigma tavsifida, mazkur so‘zning shakl va mazmun jabhalaridagi paradigmatik nomutanosiblik shundaki, bu nomutanosiblik bir leksema uch sememani ifoda etgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Lug‘aviy tizimning mediosurilmalariga mansub hodisalarda so‘zning ifoda va mazmun planlari birliklari munosabatida nomutanosiblik bo‘lmaydi: ularda “bir leksema = bir semema” tengligi amal qiladi. Professor A.Berdialiyev lug‘aviy tizimda amal qiluvchi medioqurilmalarni “shakldosh so‘zlar guruhi”, “ohangdosh so‘zlar guruhi” va “ma’nodosh so‘zlar guruhi” singari uch turga bo‘ladi. Keyingi “ma’nodosh so‘zlar” turi, o‘z navbatida, “zid ma’noli lug‘aviy birliklar” (antonimiya, enantiosemiya) va “zid ma’noli bo‘lmagan lug‘aviy birliklar” singari guruhlarga ajratilib, ularning keyingisiga sinonimlar, dubletlar, tabu, evfemizm va graduonimlar kiritiladi. Bu guruhga xos asosiy xususiyat shundaki, ular anglatgan ma’nolar denotatlarida farq bo‘lmaydi yoki ular bir-biriga yaqin bo‘ladi [2]. “Ma’nodosh lug‘aviy birliklar” tizimining denotativ asosda farq qiluvchi yana shunday medioqurilmalari ajratiladiki, ularga mansub lug‘aviy birliklar ma’nosi asoslangan denotativlari, sinonim, dublet, tabu, evfemizm va graduonimlar ma’nosi asoslangan denotativlardan farqli ravishda, har xil bo‘ladi, ya’ni bu tag guruh anglatgan ma’nolar o‘zaro farq qiluvchi turli xil denotatlarga ega bo‘ladi. Lug‘aviy birliklarning bu tizimiga giponilar, ekvonimlar, partonimlar va funksionimlar kiritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Demak, ma’lum bo‘ladiki, lug‘aviy tizimnning medioqurilmalar deb ataluvchi guruhi ma’nolarining denotativ asoslari bir xil yoki o‘zaro yaqin hamda denotativ asoslari har xil, ya’ni o‘zaro farq qiluvchi lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi. Shu guruhga mansub funksionimlar o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Shunisi ham borki, funksionimlar ma’lum lisoniy jihatlari bilan shu guruhga mansub giponim, ekvonim va boshqa hodisalar bilan ma’lum bir umumiylikka, o‘xshashlikka ham egadir. Quyida ana shular haqida qisqacha ma’lumot berishga harakat qilamiz.

Tahlil va natijalar. Lug‘aviy-mazmuniy mediotizimlarning funksionimlar deb ataluvchi lisoniy munosabatlar bir necha so‘zlar-leksemalar ma’nolaridagi so‘zlarni quyidagicha tahlil qilish mumkin.

1. Funksionimlar polisemiyaning funksiyadoshlik turiga munosabati. Funksionimlar lug‘aviy-mazmuniy mikroqkurilmalar tizimiga qarashli ko‘p ma’nolilikning funksiyadoshlik (vazifadoshlik) deb ataluvchi turiga o‘xshaydi. Funksionim va funksiyadoshlik hodisalari munosabatidagi asosiy farq shundaki, polisemiyaning vazifadoshlik deb ataluvchi turida bir lug‘aviy birlik (leksema) bir necha sememani ifodalash uchun xizmat qiladi, ya’ni, lug‘aviy birlikning ifoda plani uning mazmun planiga muvofiq bo‘lmaydi: bir shakl vositasida bir necha ma’no ifodalanadi, lug‘aviy birlikda shakl va ma’no nomutanosibligi (asimmetriyasi) amal qiladi [3].

Lug‘aviy-mazmuniy mediotizimlarning funksionimlar deb ataluvchi lisoniy munosabatlar bir necha so‘zlar-leksemalar ma’nolaridagi “vazifa” semasining integral (o‘xshashlik) xususiyatiga asoslanadi. Funksionomiya paradigmasini hosil qiluvchi har bir so‘zda ham leksemalik, ham sememalik xususiyati mavjud bo‘ladi. Lug‘aviy birliklarning ifoda va mazmun jabhalarida nomutanosiblik emas, balki mutanosiblik (simmetriya) kuzatiladi. Masalan, ko‘ylak, shim, ishton, mayka, chopon va h.k. lug‘aviy birliklardan hosil bo‘lgan paradigmada (mikrotizimda) nechta so‘z ishtirok etgan bo‘lsa, o‘shancha leksema va o‘shancha semema bor: lug‘aviy birliklarning ifoda jabhasi uning mazmun jabhasiga mutanosib. Vazifadoshlik asosida hosil bo‘lgan ko‘p ma’nolilikda, yuqorida aytilganidek, lug‘aviy birliklarning ifoda va mazmun jabhalari uchun bunday mutanosiblik xos emas. Masalan, qanot so‘zi funksiyadoshlik tavsifidagi polisemantik lug‘aviy birlikdir. Shu bir leksema denotati vazifa umumiyligiga ega ikki har xil ma’noni ifodalaydi:

1) parrandalarning ularni havoda harakatlantiruvchi a’zosi (so‘zning o‘z ma’nosi);

2) samolyotlarning ularni havoda harakatlantiruvchi qismi (so‘zning ko‘chma ma’nosi): fonetik qiyofasi aynan bir xil bir so‘zda ikki ma’noni ifodalaydi.

Demak, ma’lum bo‘ladiki,, ma’no ko‘chishiga aloqador funksionomiyada so‘z, ya’ni lug‘aviy birlik bitta bo‘ladi. Lisoniy munosabat bir so‘zning har xil nominativ ma’nolari va ularning aloqasiga asoslanadi.

Ularning paradigmasi sememalardan, sememalar munosabatidan hosil bo‘ladi. Lug‘aviy birliklarning ifoda va mazmun jabhalarida nomutanosiblik (asimmetriya) amal qiladi .

2. Funksionimlarning giperonim va giponimlarga munosabati. Ijtimoiy hayotda vtomobil zamonaviy naqliyot vositalaridan biri ma’nosini bildiradi. U jins ma’nosidagi lug‘aviy birlik ekanligi bilan shu so‘z ma’nosini tashuvchi jiguli, moskvich, opel, matis, mersedes va h.k. boshqa so‘zlarini o‘z ma’noviy tizimiga oladi. Shu bois jiguli, moskvich, opel, matis, mersedes va h.k. so‘zlarning har biri “avtomobil” ma’nosini bildiraveradi. Avtomobil va jiguli, avtomobil va moskvich, avtomobil va opel, avtomobil va matis, avtomobil va mersedes va h.k so‘zlararo jins-tur ma’noviy munosabati mavjud. Bunday munosabatlarni gipo-giperonimik munosabat deyiladi. Demak, “Giponim ma’lum jins turlarining nomlarini ifodalovchi hamda o‘zining semantik tarkibida implitsid tarzda jins ma’nosini ifodalovchi tarkibda iso‘zni biriktirib kelgan” semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik”dir.

Jins ma’nosdagi avtomobil va uning turlari ma’nosidagi moskvich, jiguli, opel, mersedes, matis va sh. k. lug‘aviy birliklar ayni o‘rinda Markiziy Osiyo xalqlari turmushida asrlar osha naqliyot vositalari bo‘-lib kelgan ot, eshak, tuya, xachir (Sibir xalqlari turmushida it, bug‘u ham) kabi so‘zlar ma’nosi asoslangan hayvonlar bilan mushtarak vazifa bajargan. Shu bois avtomobil so‘zi va uning ma’nosini tashuvchi jiguli, moskvich, opel, mersedes, matis va h.k. so‘zlar ot. eshak, tuya, xachir (it, bug‘u) so‘zlari bilan funksionim degan lug‘aviy ma’noviy hodisalar denotativ asosi vazifadosh so‘zlar paradigmasini tashkil qiladi, ya’ni funksionimlar hisoblanadi. Bu so‘zlar funksionim maqomida kelganda, ularning semantik qurilishida “ulov (naqliyot) vositasi” arxisemasi, giponim maqomida kelganda. Ularning semantik qurilishida “avtomol” arxisemasi ustuvorlik qiladi [4].

Aytilgan bu dalillar funksionim deb ataluvchi lug‘aviy ma’noviy hodisaning giponim deb ataluvchi lug‘aviy ma’noviy hodisa bilan o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Shunisi ham borki, avtomobil ma’nosi va tushunchasini tashuvchi jiguli, moskvich, opel, mersedes, matis va h.k. so‘z-larning har biri o‘z ichki turlarini ma’nosini bildiruvchi boshqa lug‘aviy birliklar (ekvonimlar)ga nisbatan giperonim ham hisoblana oladi.

3. Funksionimlarning ekvonimlarga munosabati. O‘zbek tilshunosligida ekvonimlar haqidagi dast-labki ma’lumot prof. A.Berdialiyev va R.Xidirov hammuallifligida yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”-ning leksikologiya bo‘limida uchraydi.

Ekvonimlar ham til lug‘at tarkibining medioqurilmalar tizimiga mansubligi jihatidan funksionimlar bilan bir paradigma doirasida tutashadi. Bu ikki lug‘aviy mazmuniy hodisaga tegishli so‘zlar anglatgan ma’nolar asoslangan denotatlarning har xilligi bu ikki hodisaning o‘zaro o‘xshashligini bildirsa ham, ekvonim va funksionimlar til lug‘at tarkibining medioqurilmalari tizimida lisoniy jihatdan keskin farq qiluvchi ikki xil hodisadir. A.Berdialiyevning e’tirof etishiga ko‘ra, “ekvonimlar til lug‘aviy sathida giponimlar bilan munosabatdosh, ularga o‘xshash ma’noviy vazifaviy birliklardir. Ekvonim hukmidagi har bir lug‘aviy birlik shu maqomdagi boshqa lug‘aviy birlikdan in’ikos etgan denotatiga ko‘ra farq qiladi. Masalan, “qo‘y” leksemasining ma’no doirasi qo‘chqor, sovliq, qo‘zi, chori kabi so‘zlar ma’nosini ham o‘z ichiga oladi. Yoki “qoramol” so‘zining ma’no doirasida sigir, novvos, ho‘kiz, buqa, tana, g‘unojin va buzoq so‘zlari anglatgan ma’nolar ham mavjud. Qo‘chqor, sovliq, qo‘zi, chori; sigir, novvos, ho‘kiz, buqa, g‘unojin va buzoq so‘zlari ekvonimlardir” [5].

Kiyim-kechak ma’nosida qo‘llanuvchi ayrim so‘zlar, u qadar faol bo‘lmasa-da, ekvonim xarakterini kasb etishi ham mumkin. Masalan, chopon so‘ziga ma’no jihatdan tobelanuvchi beqasam chopon, baxmal chopon erkak chopon, ayol chopon singari lisoniy birliklar giponimlar bilan qorishgan ekvonimlar xarakteridadir;

4. Funksionimlarning partonimlarga munosabati. Funksionimlar til lug‘aviy tarkibining medioqurilmalar guruhiga mansubligi jihatidan partonimlar bilan bir paradigma doirasida tutashadi. Biroq funksionimlar va partonimlar munosabatida funksionim va giponim, funksionim va giperonim, funksionim va ekvonimlar munosabatida ko‘zga tashlanuvchi yaqinlik, o‘xshashlik yo‘q. Chunki partonimiya hodisasi butun xarakteridagi narsa hodisalar nomi bilan ularning qismlarining nomlari orasidagi o‘zaro bog‘lilikka asoslanadi. Boshqacha aytganda, partonimiya va partonimik munosabatlar vositasida borliqdagi butun va bo‘lak munosabatlari lisoniy in’ikos etiladi. Masalan, daraxt so‘zi orqali jonli tabiatdagi yirik va ko‘p yillik o‘simlik ma’nosi ifodalanadi; ildiz, tana, shox, butoq, kurtak, barg (yaproq) singari daraxtning tabiiy uzvlari organik qismlaridir. Ildiz va tana, tana va shox, shox va buta, buta vabarg (yaproq) va h.k. mikroparadigmalarda ularning a’zolariaro partonimik munosabat mavjudki, bunday lisoniy munosabat funksionimlar tizimiga xos emas [6].

Tilda evfemizmning qo‘llanishi tabu hodisasi bilan bog‘liq holda tarixiy-etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me’yorlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me’yorlari asosida evfemizmning yangi yangi shakllari yuzaga keladi. Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma’nosi ko‘pincha matn orqali oydinlashadi.

Xulosa va takliflar. Xullas, fnksionimlar til lug‘at tarkibining medioqurilmalari tizimiga mansub denotativ asosi har xil giponim, giperonim, ekvonim va partonim singari lug‘aviy-ma’noviy hodisalar bilan bir umumiy paradigmaga qarashli bo‘lsa-da, o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega ekanligi bilan ularning har biridan farq qiladi. Shuningdek, bu farq funksionimlarning lug‘aviy sath mikroqurilmalariga mansub polisemantik tizimning funksiyadoshlik deb ataluvchi hodisasiga munosabatida ham ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Агрикола Микро, медио-и макроструктуры словаря. “Вопросы языкознания”, 1984, № 2.

(2). Berdialiyev A. Leksikologiya, Frazeologiya. Berdialiyev A., Xidirov R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya, Frazeologiya. Leksikografiya. Xujand, “Rahim Chalil” davlat nashriyoti, 2013, 82 – 90-betlar.

(3). Safarova R. Leksik semantik munosabatning turlari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996, 12-bet.

(4). Абдувалиев И. Кыргиз тилинин кесиптик лексикасина салыштырма-типологиялык илик. Бишкек, 2005.

(5). Berdialiyev A., Xidirov R. O‘sha asar, 85-bet.

(6). Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимлар. Тошкент, “Фан”, 1996, 6-бет.

Saparova Mohira Fayzullayevna (O‘zMU erkin izlanuvchisi; Ma’mun universiteti “Roman-german filologiyasi” kafedrasi, Xiva, O‘zbekiston; e-mail: saparovamokhira93@gmail.com)

XORIJIY TEZAURUS LUG‘ATLARINING NAZARIY ASOSLARINI O‘RGANISHDA LEKSIKOGRAFIK TADQIQOTLAR

Annotatsiya. *Bugungi kunda jamiyatimizning barcha jabhalarida muhim islohotlar amalga oshirilib, ilm-fan jadallik bilan rivojlanayotgan bir paytda amaliy tilshunoslikning kompyuter lingvistikasi sohasini dolzarb tarmoqlardan biri sifatida qayd etish mumkin. O‘zbek kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlarning yetarli darajada emasligi ushbu sohada jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bois xorijiy tezaurus lug‘atlarining nazariy asoslarini tahlil qilishga harakat qilamiz.*

Kalit so‘zlar: *kompyuter lingvistikasi, kompyuter leksikografiyasi, korpus lingvistikasi, statistik tadqiqotlar.*

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ ЗАРУБЕЖНЫХ ТЕЗАУРУСНЫХ СЛОВАРЕЙ

Аннотация. *Сегодня важные реформы реализуются во всех аспектах жизни нашего общества, и в то время, когда наука стремительно развивается, область компьютерной лингвистики прикладной лингвистики можно отметить как одну из актуальных отраслей. Недостаточный уровень исследований по узбекской компьютерной лингвистике указывает на необходимость серьезных научных исследований в этой области. Поэтому мы попытаемся проанализировать теоретические основы зарубежных теаурусов-словарей.*

Ключевые слова: *компьютерная лингвистика, компьютерная лексикография, корпусная лингвистика, статистические исследования.*

LEXICOGRAPHIC STUDIES IN THE STUDY OF THEORETICAL FOUNDATIONS OF FOREIGN THESAURUS DICTIONARIES

Annotation. *Today important reforms are being implemented in all aspects of our society, and at a time when science is rapidly developing, the field of computer linguistics of applied linguistics can be noted as one of the relevant branches. The insufficient level of research on Uzbek computer linguistics indicates the need for serious scientific research in this field. Therefore, we will try to analyze the theoretical foundations of foreign thesaurus dictionaries.*

Key words*: computer linguistics, computer lexicography, corpus linguistics, statistical research.*

Kirish. Bugungi globallashuv va integrallashuv jarayonida kompyuter texnologiyalari kiberfazoning muhim va ajralmas qismiga aylanar ekan, kompyuter lingvistikasi sohasi tabiiy til bilan bog‘liq masalarni kompyuter texnologiyalari va metodlari orqali o‘rganadi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida “…ta’lim

tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish”ga alohida e’tibor qaratilgan [1; 24–25-b.]. Shu borada kompyuter lingvistikasi sohasini chuqur o‘rganish va ishlab chiqarishga yo‘naltirish, uning sohalar kesimidagi tadqiqot predmetlarini belgilashda nazariy va amaliy jihatdan fanning umummetodologik konsepsiyasini yaratish muhim masalalardan sanaladi. Kompyuter texnologiyalarining til rivojiga va aksincha, til texnologiyasining kompyuter texnologiyalariga ijobiy ta’siri natijasida ko‘plab ilmiy o‘zgarishlar va yutuqlarga erishildi. Buning natijasida mashina tarjimasi, korpus lingvistikasi, kompyuter leksikografiyasi, tahrirlovchi dastur nutqiy sintezator, lingvostatistik analiz qiluvchi dastur, matnlarni referatlash, matnlarni tasniflash kabi qator yo‘nalishlar vujudga keldi [2;56–57-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijda kompyuter lingvistikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko‘lami juda keng, ayniqsa, AQSHda olib borilgan izlanishlar izchilligi, qamrab olingan muammolar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Nashr qilinayotgan tematik to‘plamlardan tashqari «Computational Linguistics» (Kompyuter tilshunosligi) nomli jurnal ham nashr etiladi. AQSHda Kompyuter tilshunosligi assotsiatsiyasi mavjud bo‘lib, bu uyushma kompyuter tilshunosligi bilan bog‘liq ko‘plab tashkiliy va ilmiy ishlarni amalga oshiradi. AQSHning 10 ta universitetida kompyuter lingvistikasi fakultetlari mavjud. Kompyuter tilshunosligining muammoli masalalari ana shu fakultetlarda o‘zining mutaxasislari tomonidan ko‘rib chiqilgan holda yechimi izlanmoqda. Shuningdek, Niderlandiyada «Artificial Intelligence» (Sun’iy intellekt) jurnali chop etiladi. Bu jurnal ham kompyuter muammolari yechimiga, yangi yaratilayotgan dasturlar ustida bosh qotirishga undamoqda. MDHga a’zo mamlakatlarda ham kompyuter lingvistikasi bo‘yicha muhim izlanishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, rus kompyuter tilshunosligidagi tadqiqotlar diqqatga sazovordir. Unda quyidagi yo‘nalishlarni alohida ta’kidlab ko‘rsatish mumkin: 1. Mashina tarjimasi (MT). 2. Avtomatik tahrirlash (AT). 3. Til o‘rgatish jarayonini kompyuterlashtirish (avtomatik tarzda tilga o‘qitish – ATO‘). 4. Statistik tadqiqotlar (ST). Y.N.Marchuk tarjimani modellashtirish metodlari va uni avtomatlashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan holda, bugungi rus kompyuter lingvistikasiga asos solgan olimlardan hisoblanadi [5;78–79-b.]. Shuningdek, ko‘plab rus, ukrain, moldovan olimlari ham mashina tarjimasi masalalari bilan shug‘ullanishgan, ularning izlanishlari kompyuter lingvistikasida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘tgan asrning 60–80-yillarida mashina tarjimasi xususiyatlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ta’kidlanganidek, mazkur tadqiqotlar rus tili bo‘yicha jahon kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar bazasi yaratilishi, buning natijasi sifatida rus tilidagi matnlarni avtomatik tarzda boshqa tillarga tarjima qiluvchi dasturlarning vujudga kelishi uchun asos bo‘ldi. O‘zbek tilida ham shu kabi ma’lumotlar bazasini yaratish bugungi kundagi eng dolzarb vazifadir.

Rus tilshunosligida kompyuter tilshunosligining yana bir yo‘nalishi matnlarni avtomatik tahrirlashdir. Mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar sirasiga R.R.Kotov, V.Y.Berzon, V.G.Britvin, I.A.Melchuk, L.I.Belyaeva, V.A.Chijakovskiy, G.G.Belonogov, I.S.Duganova, A.B.Kuznetsov kabilarni kiritish mumkin [1;90-b.]. Ushbu olimlarning asosiy xizmati shundaki, ular avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar uchun lingvistik ta’minot yaratib berishgan. Buning natijasida kompyuterlardagi ruscha matnlarni tahrirlovchi dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar bugungi kunda barcha kompyuterlarda mavjud. Ya’ni, bunda noto‘g‘ri yozilgan so‘zning tagiga qizil chiziq chiziladi, so‘z to‘g‘ri yozilganidan so‘ng chiziq yo‘qoladi. Ko‘rinadiki, bu dastur, asosan, imloni tekshirishga mo‘ljallangan, unda uslubiy xatolarni aniqlash ko‘zda tutilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’kidlash lozimki, bunday dasturlarni ishlab chiqish uchun til birliklarining nafaqat fonetik, semantik, morfologik xususiyatlari, balki aynan sintaktik valentlik xususiyatlari hisobga olingan lingvistik ta’minot yaratish lozim bo‘ladi. Rus tilshunosligida avtomatik tarzda tilga o‘qitish yo‘nalishida ham izchil tadqiqotlar olib borilgan. Ular oliy va o‘rta maktabda til o‘qitishni optimallashtirishning psixologik-kibernetik, semiotik, lingvostatistik, injener-lingvistik va lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Xususan, G.G.Piotrovskiyning o‘quv qo‘llanmasida EHM vositasida o‘qitish, ya’ni lingvodidaktik vazifalarni kompyuter yordamida yechish, til o‘rgatish jarayonini optimallashtirish, o‘qituvchi lingvistik avtomat (O‘LA) uchun nutqiy materiallarni tayyorlash (tanlash) kabi masalalar tadqiq qilingan [3;34-b.]. Tadqiqotlar natijasida ko‘plab o‘qituvchi lingvistik avtomatlar uchun lingvistik ta’minot yaratilgan bo‘lib, bu dasturlar rus tilini o‘qitish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Tezaurus bir necha darajalarga bo‘linadi. Tezauruslar darajalanishini tuzish muammosi esa yangilik emas, bir necha yillar davomida mamlakatimiz va chet elning qator lingvistlari (V.V.Morkovkin, L.P.Stupin, K.Marello va h.k.) e’tiborini tortgan [2;28-b.]. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko‘rsatilgan leksigrafik asarlarning alternativ darajalari yaratildi. Darajalanish, asosan, ingliz tilining zamonaviy tezauruslar materiallari asosida, bosma va elektron variantda ifodalangan qayta paydo bo‘lgan leksikografik hosilalarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu darajalashga quyidagi kriteriylar (mezonlar) asos qilib olingan:

1. So‘zlik birliklari o‘rtasidagi ma’noviy bog‘lanishlar turi.
2. So‘zlik hajmi.
3. So‘zlikning generallashuvi (asosiylashishi).
4. Leksemalar qiymatini ishlab chiqish.
5. Leksemalarning grammatik-stilistik malakasi.
6. Leksemalar faoliyatining namoyishi.
7. Berilgan tillar soni.
8. Leksemalarni sistemaga solish uchun ishlatiladigan semiotik vositalar turi.

Darajalash O.M.Karpova va I.Burxanovlar tomonidan avvalroq yaratilgan darajalashga, shuningdek, inglizlar tomonidan tadqiq qilingan 30 dan ortiq lug‘at-tezauruslar ko‘rinishlaridan olgan shaxsiy natijalarga asoslangan. Darajalashda foydalaniladigan terminologiya V.V.Morkovin, Y.N.Karaulov, I. Burxanov, K.Marellolar tomonidan leksikografik apparatga kiritilgan. Darajalash mezonlari va O.M. Karpovalar tomonidan ifodalangan, mezonlar ta’riflari esa L.P.Stupinga tegishli [2;89-90-b.].

Bugungi kunda tezaurus, taksonomiya, ontologiya kabi atamalar keng qo‘llanilib kelmoqda. Taksonomiya–maxsus lug‘at bo‘lib (tarmoqli, shajarasimon), tuzilgan ajdod-avlod (ota-ona-farzand), butunqism kabi semantik munosabatlar asosiga qurilgan iyerarxik majmuadir. Tezaurus esa toksonomiyadan kattaroq so‘zlardagi ichki munosabatlarni o‘z ichiga oluvchi boshqariladigan lug‘at turidir. Unda ham iyerarxik, ham ekvivalent munosabatlar aks etadi. Tezaurus yunoncha xazina ma’nosini anglatishi manbalarda qayd etilsa-da, Duglas Xarper tezaurus yunoncha fe’l so‘z turkumi ildizidan kelib chiqqan bo‘lib, joylashtirish, joylashish degan ma’noni bildirishini ta’kidlaydi. Robert Beekesning nuqtai nazaricha, ushbu termin ilk bor XVI–XIX asrlarda “tezaurus” sifatida lug‘at yoki ensiklopediya ma’nolarida qo‘llanilgan. (masalan, “Thesaurus lingualatinae” (1532) va “Thesaurus linguagraecae” (1572).

Ilk tezaurus sifatida Filon Biblskiyning “Sinonimlar lug‘ati” termin sifatida “Amar-kosha” (III–IV asr) asarida qo‘llanilgan. Ingliz tilidagi dastlabki zamonaviy tezaurus 1805-yilda Piter Mark Roget tomonidan tuzilgan va 1852-yilda “Rogetning Thesaurusi” nomi bilan nashr etilgan [1;34–35-b.].

Dastlab, Tezaurus bir tilli lug‘at sifatida qaralgan bo‘lib, unda so‘zlarni mavzu sarlavhalariga ko‘ra guruhlash orqali semantik munosabatlar aniqlanadi. Masalan, 1962-yilda nashr etilgan (1852-yil 1-nashri) ingliz Tezaurusi (muallifi P.M.Roget) 1040 sarlavhani o‘z ichiga oladi, ular orasida 240 mingga yaqin so‘z tarqalgan. Ushbu Tezaurusning indeksi (kalitida) har bir so‘z tegishli bo‘lgan sarlavha va sarlavhalarni ko‘rsatuvchi so‘zlarning alifbo tartibidagi ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. Ingliz, fransuzcha, ispancha. Har bir so‘zning asosiy semantik parametrlarining ifodalarini belgilaydigan monolingual lug‘atlar Tezaursga juda yaqin, masalan, S.I.Ozhegovning rus tilining lug‘ati.

20-asrning 70-yillarida axborot-qidiruv hajmlari keng tarqaldi. Bu jildlarda hujjatli ma’lumotlarni avtomatik ravishda izlash uchun foydalaniladigan maxsus leksik birliklar, ya’ni tavsiflovchilar aniqlandi [5;154 b.]. Bunday atamaning har bir so‘zi sinonimik tavsiflovchi bilan bog‘lanadi va aniqlovchilar uchun semantik munosabatlar aniq ko‘rsatilgan: jins≈tur, qism≈butun, maqsad≈ma’no va boshqalar. Odatda jinsni ajratish odatiy holder–turlar (iyerarxik) va assotsiativ munosabatlar sanaladi. Shunday qilib, 1973-yilda sobiq Sovet Ittifoqida nashr etilgan “Informatikada ma’lumot qidirish tezaurusi” har bir deskriptor uchun sinonim kalit so‘zlar, umumiy, o‘ziga xos va assotsiativ deskriptorlarni alohida ko‘rsatadigan lug‘at yozuvini taqdim etadi. Deskriptorlar orasidagi assotsiativ aloqalarni yaxshiroq yo‘naltirish uchun ushbu Tezaurusga tematik sinflarning semantik xaritalari biriktirilgan [5;45-46-b.]. Avtomatlashtirilgan ma’lumotni qidirishda indeksida nafaqat so‘rovlar tavsiflovchilari, balki ular bilan ma’lum semantik aloqada bo’lgan identifikatorlar ham mavjud bo‘lgan hujjatlar qidiriladi.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolada biz “o‘rmon” so‘zining rus tezaurus lug‘atlarida ifodalanishini tahlil qilishga harakat qilamiz, ushbu leksemani o‘rganish orqali tezaurus lug‘atlarining an’anaviy ravishda leksik (semantik) bilimlarni va ensiklopedik bilimlarni (mavzu bo‘yicha bilimlar, terminologiya) o‘z ichiga olishini bilib olamiz.

O‘rmon leksemasining sinonimlari (jami 13). O‘rmon hududi, o‘rmon zonasi, o‘rmon muhiti, o‘rmon yeri, o‘rmon kvartal, o‘rmon landshafti, o‘rmon maydoni, o‘rmonli, o‘rmon xomashyosi, o‘rmonlar majmuasi, o‘rmon bog‘i, bargli o‘rmon, yog‘och o‘rmon.

Sinonimlar bilan quyidagi atamalar keltirilgan: o‘rmon (M), shahar bog‘i, yashil maydon, yashil massiv, o‘rmon parki, o‘rmon xo‘jaligi, park zonasi), ovlash uchun o‘rmon, yumshoq o‘rmon, qattiq yog‘och o‘rmon, eman o‘rmoni, igna bargli o‘rmon ignabargli massiv, to‘q ignabargli o‘rmon.

Qism-tushunchalar sinonimlari bo‘lgan qismlar: shamoldan himoya qilish, shamol, kesish maydoni, o‘rmon yerlari, o‘rmon fondi yerlari, o‘rmonli yer, o‘rmon maydoni, o‘rmon plantatsiyalari, o‘rmon- lar barpo etish, o‘rmon chekkasi, quruq yer.

Xulosa va takliflar. Shuningdek, o‘rmon tushunchasida qaramlik munosabatlari deb ataladigan boshqa munosabatlar ham mavjud (zamonaviy versiyada ular ASC 2-assimetrik assotsiatsiya deb ataladi): o‘rmon yong‘inlari, o‘rmon xo‘jaligi, o‘rmondan foydalanish, o‘rmon fondi uchastkalaridan foydalanish, o‘rmonga egalik qilish. Asosan, rus tezaurus lug‘atlarida butun-qism tushunchasi ASC 1 munosabati bilan belgilanadigan “daraxt” tushunchasiga bog‘liq. Butun tushuncha o‘rmon munosabatlarning tranzitivligini hisobga olgan holda, 28 ta boshqa tushunchalar bilan bevosita bog‘liq – 235 ta tushuncha bilan (jami 650 dan ortiq matn kiritish mumkin). Xorijiy tezaurus lug‘atlarining leksikografik tadqiqotlari, global leksikografiya sohasidagi yuqori darajadagi ilmiy va nazariy islohotlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar o‘rtasidagi umumiylik va xususiy so‘zlar, sinflar va ularning tahlilini o‘rnatishda tadqiqotlar juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abduraxmonova N.Z. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent, “Nodirabegim” nashriyoti, 2021.

(2). Abdurakhmonova N.Z., Alisher I. and Toirova G. Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language processing. 2022, 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73–75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.

(3). Осокина, С.А. Естественно-научные истоки лингвистической концепции тезауруса. Известия Алтайского государственного университета. Серия «Педагогика и психология. Право. Филология и искусствоведение. Философия, социология и культурология. Экономика». 2014, № 2/1 (82), с. 164 –180.

(4). Осокина, С.А. Принципы построения языкового тезауруса: серийная организация. В мире научных открытий. Серия «Социально гуманитарные науки», 2014, № 3.2 (51), с. 1159–1171.

(5). Loukachevich, N. Ruthes Linguistic Ontology vs. Russian Wordnets. N.Loukachevich, B.Dobrov. GVC-2014, Proceedings of the Global Wordnet Conference. Tartu, Estonia. January 25–29, 2014, p. 154–162. [электронный ресурс]. URL: http://wordnet.princeton.edu (accessed 08.08.2014).

Professor, doktor Ercan Alkaya (Fırat Üniversitesi, Insani ve sosyal bilimler fakültesi, Çağdaş türk lehçeleri ve edebiyatlari bölümü; ealcaya16@gmail.com),
Tojiboyeva Mahbuba Rahimovna (Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat Pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; tojiboevaimona2019@gmail.com),
Goziyev Alisher Nematovich (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi; alisher.goziyev@mail.ru)

“LO‘G‘AT-E CHEG‘ATOYI BE FORSI” SO‘ZLIGIDAGI OMONIMLAR MASALASI

Annotatsiya. *Nazir Ali Sayyid o‘zining “Lo‘g‘at-e cheg‘atoyi be forsi” deb nomlanuvchi so‘zligi chig‘atoy va fors tilidagi mushtarak so‘zlarning bayoniga bag‘ishlangan. Lug‘atning birinchi fasli chig‘atoy tili leksikasi naqadar boy va rang-barang ekanligini isbotlovchi omonim va ko‘p ma’noli so‘zlar hamda ularning tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, so‘zlarning ma’nolarini tahlil qilish jarayonida Alisher Navoiyning asarlaridan keng foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar*: lug‘at, ma’no, imola, omonim, ko‘p ma’noli so‘zlar, shakldosh so‘zlar, sinonim.*

Профессор, доктор Эрджан Алкайя (университет Фырат, факультет гуманитарных и социальных наук, кафедра современных турецких диалектов и литературы; ealcaya16@gmail.com),
Тожибаева Махбуба Рахимовна (доцент Коканского государственного педагогического института имени Мукими, кандидат филологических наук; tojiboevaimona2019@gmail.com),
Гозиев Алишер Нематович (старший преподаватель Ташкентского государственного университета Узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; alisher.goziyev@mail.ru)

ВОПРОС ОМОНИМОВ В СЛОВАРЕ “LO‘G‘AT-E CHEG‘ATOYI BE FORSI”

Аннотация. *Словарь Назира Али Сайида, известный как “Lo‘g‘at-e Cheg‘atoyi be forsi”, посвящен описанию общеупотребительных слов чагатайского и персидского языков. Первая глава словаря посвящена омонимичным и многозначным словам и их анализу, которые доказывают, насколько богат и разнообразен чагатайский лексикон. Его труды широко используются.*

Ключевые слова: *лексика, значение, сравнение, омоним, многозначные слова, сходные слова, синоним.*

Prof. Dr. Ercan Alkaya (Fırat University, Faculty of Humanities and Social Sciences, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literature; ealcaya16@gmail.com),
Tojibayeva Mahbuba Rakhimovna (Associate professor of the Kokan State Pedagogical Institute named after Mukimi, candidate of philological sciences; tojiboevaimona2019@gmail.com),

Goziyev Alisher Nematovich (Senior teacher of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature; alisher.goziyev@mail.ru)

ISSUE OF HOMONYMS IN THE DICTIONARY "LO'G'AT-E CHEG'ATOYI BE FORSI"

Annotation. *Nazir Ali Sayyid's dictionary, known as "Lo'g'at-e Cheg'atoyi be forsi" is devoted to the description of common words in Chigatai and Persian languages. The first chapter of the dictionary is dedicated to homonymous and polysemous words and their analysis, which prove how rich and diverse the Chigatai lexicon is. His works are widely used.*

Key words: *vocabulary, meaning, simile, homonym, polysemous words, similar words, synonym.*

Kirish. Nazir Ali Sayyidning "Lo'g'at-e chig'atoyi be forsi" nomli so'zligi Eron mamlakatining "Ketobxone-ye majles-e sho'ro-ye melli" nomli kutubxonasida 85417-inventar raqami ostida saqlanib kelinmoqda. Katalog raqami 9174. Asar to'liq saqlangan. Hijriy 1382-yil kutubxonaga keltirilgan [1;1-b.].

Nazir Ali Sayyidning mazkur "Lug'at-e chig'atoyi be forsi" so'zligining birinchi fasli chig'atoy va fors tilidagi mushtarak so'zlarning bayoniga bag'ilashlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nazir Ali Sayyidning "Lo'g'at-e chig'atoyi be forsi" nomli so'zligidagi omonim so'zlar tahlil qilingan. Qiyos sifatida o'sha davrdagi boshqa adabiyotlardan foydalanilgan. Bundan tashqari, "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga ham murojaat etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada qiyosiy-tipologik tahlil metodidan foydalanilgan. Shuningdek, so'zlarni tahlil qilishda tarixiy metoddan ham foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Asarda ot (آت), o't (اوت), tuz (توز), tush (توش), uz (اوز), it (ایت), yosh (یاش), o'q (اوق) kabi omonim va ko'p ma'noli so'zlar misolida chig'atoy tilining naqadar boy va rang barangligini ta'kidlab o'tadi hamda tubandagi so'zlarning tahlilini keltiradi.

Ot (آت) so'zi bir necha ma'noda kelgan.

1) hayvon ma'nosini anglatuvchi ot so'zi.

2) ism, ya'ni nom ma'nosini anglatuvchi ot so'zi.

Nazir Ali Sayyid o'zining "Lo'g'at-e cheg'atoyi be forsi" so'zligidagi ba'zi so'zlarning ma'nolari omma uchun tanish bo'lganligi sababli ularga izoh bermagan.

Muallifning yozishicha Chig'atoy tilida "ot" so'zidagi "te" harfi "dol" harfi bilan yozilganligi, ammo aslida esa bu so'z "te" harfi bilan yozilishini aytib o'tadi, ya'ni "آد" emas "آت" shaklida. Bu so'z haqida esa Haydarning masnaviylaridan quyidagi baytni misol qilib keltiradi:

*Charxu falakdur aytar **ot**idin,*
Jumlai jahon bo'ldi ayon zotidin.

Nazir Ali Sayyid yuqorida keltirilgan so'z borasida Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" asaridan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi.

Vah, netib ishqin nihon asrarg'a bo'lg'ay murtakib,
*Xasta ko'nglumkim, bo'lur **ot**in eshitkach, muztarib.*

Ot so'zini ***ad*** shaklidagi variant ham bor. Bunda bu so'zni faqat ism ma'nosida tushunish kerak. Masalan, turkman tilida isming nima degani ***ading na?*** tarzida aytiladi. Bu holat ko'pincha, og'uz sheva-sida ishlatiladi. Bunda, asosan, **t** harfining **d** shaklida talaffuz qilinishi bilan bog'liq holat. Chunki ***t*** va ***d*** harflari jarangli va jarangsizligi nuqtayi nazaridan ***t*** harfi baz'ida ***d*** tarzida talaffuz qilinadi. Masalan, Alisher Navoiyning "Oqquyunli muxlislar devoni"da ***topmadim*** so'zi ***dopmadim*** tarzida yozilgan va shun-day talaffuz qilanadi. Sababi bu devon og'uz lahjasiga moslashtirilib ko'chirilganligi uchun shunday holat-da yozilgan. Demak, bu so'z turli lahjalarda turlicha talaffuz qilanadi, ammo adabiy tilda ***ad*** shaklida yoziladi hamda shunday o'qiladi. So'zning omonimlik xususiyatlarini e'tiborga olganda esa matndagi o'rniga diqqat qaratish lozim.

Yana bir e'tiborli jihati shuki, tilshunos Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'ati" kitobida ***ot*** so'zi eski turkiy tilda **at** tarzida yozilganligi ta'kidlaydi. Bunda o'zbek tilidagi ***a*** unlisi **â** unlisiga almashgani sabab sifatida ko'rsatiladi: **at**>**ât** [2;258-b.];

3) *otmoq* fe'lining buyruq mayli, birlik shakli.

Muallif "ot" so'zi haqidagi fikrlarini davom ettirib, agar mazkur so'z imolasiz ***o't*** (اوت) shaklida yozilsa, ikki ma'no anglatishini aytib o'tadi va **birinchi** ma'nosi ***olov***, **ikkinchi** ma'nosi esa alaf ya'ni ***o't*** (o'simlik, maysa) ekanligini yozadi. Muallif o't, ya'ni ***olov*** ma'nosi barchaga tushunarli bo'lagnligi sabali uning bu ma'nosiga alohida to'xtalmasdan ikkinchi ma'nosi sanalmish *alaf* so'ziga izoh berib, bu so'z Eronda keng tarqalganligi hamda *o'simlik* ma'nosini ifoda etishini aytadi. O't so'zidagi **"te"** harfini **"dol"**

bilan yozilsa **“ud”** (cholg‘u asbobi) bo‘lishi, agar imolasiz yozilsa ***o‘tmoq*** fe’lining buyruq maylining birlik shaklidagi ***o‘t*** ma’nosini ifoda etishini aytib o‘tadi.

It (ایت) so‘zi bir necha ma’noda kelgan:

1) **it** (hayvon);

2) **ket**. yo‘qol, ya’ni ko‘zdan yo‘qol;

3) **elt**, **olib bor**, **itar**.

Nazir Ali Sayyid **it** so‘zining barcha ma’nolarini ifoda etish maqsadida Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridan olingan quyidagi to‘rtlikni misol qilib keltiradi:

*Ayt raqib, o‘zni anga tutsang ham **it**,*
*Bizga rahm aylab, oning ko‘yidan **it**.*
Garchi bor do‘zaxcha ishqing shu’lasi,
*Bizni o‘z ilging bila ul sori **it**.*

Yuqorida keltirilgan misolni izhlaydigan bo‘lsak, **birinchi** misradagi “it” hayvon ma’nosidagi so‘z. Ya’ni: *Ey raqib, o‘zingni unga itdek tutsang ham...* (bu o‘rinda *sadoqatli bo‘lmoq, mudom ergashib yurmoq* ma’nolari ifodalangan). **Ikkinchi** misradagi “it” *o‘tmoq*, *kechmoq* ma’nosida kelgan: *Bizga rahm qilib uning bahridan o‘t, voz kech*. Bu ma’nodagi “it” so‘zi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi. Adabiy tilda “*uloqtirmoq*” ma’nosidagi *itqitmoq* degan so‘z ishlatiladi. Bu so‘z Navoiy tuyuqlarida qo‘llangan “it” asosining orttirma nisbat shaklidir. **To‘rtinchi** misradagi “it” *elt*, *olib bor* ma’nolarida kelgan: *Garchi ishqing shu’lasi do‘zaxcha bo‘lsa ham* (bu yerda ishqning azoblari nazarda tutilgan), *bizni unga o‘z qo‘ling bilan elt.*

Muallif **o‘q** (اوق) so‘ziga to‘xtalar ekan, uning qurol-aslahalarda foydalaniladigan predmetni anglatuvchi ***o‘q*** ma’nosi bilan mashhur ekanligini aytadi. Bu so‘zning yana boshqa bir ma’noda ham kelishini aytib, unda tanqid ma’nosi ayon bo‘lishini yozadi va Alisher Navoiyning “Badoyi ul-bidoya” asaridan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi:

*Ko‘yung-**o‘q** istar Navoiy, nasya jannat ahli zuhd,*
*Muncha-**o‘q** bo‘lg‘ay tafovut olimu johil aro.*

Keyingi ma’nosi esa tez va tekisdir.

Nazir Ali Sayyid yana Alisher Navoiyning “Badoyi ul-bidoya” asaridan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi.

*May tutki, jom davridin-**o‘q** toptilar iloj,*
Jam’iki charx davrini nazzora qildilar.

Asar muallifi ***o‘q*** so‘zi hamon ma’nosini anglatishini ham aytib o‘tadi va Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi.

To tirikmen ishq harfidur tilda ey rafiq,
*O‘lsam ani **o‘q** mozorim toshig‘a marqum qil.*

Uz (اوز) so‘zi bir necha ma’noda kelgan. Muallif bu so‘zni “alif”, “vov” va “ze” harflari bilan yozgan va uni “yuz” ma’nosini anglatuvchi so‘z sifatida qayd etgan. Ammo bunday o‘qilishi uchun “yo”, “vov” va “ze” harflari orqali yozilishi lozim.

1) **yuz** sonini ifoda etuvchi son;

2) **sust** ma’nosini anglatuvchi so‘zning buyruq mayli;

3) **suzmoq** fe’lining buyruq mayli, birlik shakli.

Suzmoq fe’lining asosi sanalmish **suz** borasida Shavkat Rahmatullayev o‘zining “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da “suvda biror tomonga harakatlan” degan ma’noni berishi va u qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan mazkur fe’lning asli **yuz** tarzida talaffuz qilinganligini aytib o‘tadi. Muallif bu boradagi fikrlarini davom ettirib mazkur so‘z keyinchalik so‘z boshidagi **y** undoshi **s** undoshiga o‘zgarganligini aytadi [2;302-b.];

4) **yuz** (insonning tana a’zosi).

Tush (توش) so‘zi bir necha ma’noda kelgan:

1) **teng**, **barobar**. Muallif **tush** so‘zining bu ma’nosi haqida Haydar masnaviysidan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi:

*Kimgaki himmat nazari **tush** bo‘lur,*
Ko‘kni taloshg‘uncha uchar quyosh bo‘lur;

2) ***tush*** (uyqu holatida ko‘riladigan tush).

Bu o‘rinda lug‘at muallifi bo‘lmish Nazir Ali Sayyid Alisher Navoiyning “Badoyi ul-bidoya” asaridan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi.

*Va'dayi vasl etib edi, **tush**da ayog'in o'pmisham,*
Dema, Navoiy, ul pari aylamasun hisob anga.

3) ***t*ushmoq** fe'lining buyruq mayli, birlik shakli;

4) **tush vaqti** (kun bo'lagi).

Muallif asarda **tush** so'zining kun bo'lagi ma'nosini anglatishi haqida Jaloliddin Rumiydan quyidagi misolni keltiradi: **Qushluq zamoni** (tushlik vaqti).

Tuz (توز) so'zi bir necha ma'noda kelgan:

1) **to'g'ri**. Muallifning ta'rifga ko'ra bu so'z o'q, nayza va boshqa aslahalarda qo'llanganligini aytib, quyidagi misolni keltiradi: ***O'q tuzdur, ya'ni o'q to'g'ridur;***

2) **to'g'ri** va **tekis**. Muallif ta'rifga ko'ra, bu so'z yer, dasht va boshqa shu kabi so'zlar bilan birga qo'llanganligini aytib, quyidagi misolni keltiradi: ***Bu yer va yozi (dasht) tuzdur.*** Bu esa forsiyda **in zaminu dasht hamvor ast** tarzida aytilishi va yozilishini ta'kidlab o'tadi;

3) ***ohang*** va ***ohangsoz*** (musiqachi). Nazir Ali Sayyid "tuz" so'zining mazkur ma'nosi haqida Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asaridan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi.

*Mug'anniy bir navoe **tuz**, Navoiy nag'mae ko'rguz,*
Ayoqchi, tomsa tut, to'qquzki Doroi jahon keldi;

4) ***sabr***. Muallif ta'rifga ko'ra "***tuz***" so'zi ***sabr*** ma'nosini anglatish maqsadida qo'llanganligini aytib, quyidagi misolni keltiradi: ***Faloni falon isha tuzdi***. Bu esa forsiyda **be on kor tob ovarde** tarzida aytilishi va yozilishini ta'kidlab o'tadi.

Yosh (ياش) so'zi bir necha ma'noda kelgan:

1) **bola**. Muallif **yosh** so'zining bola ma'nosini anglatishi borasida Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" asaridan olingan quyidagi baytni misol qilib keltiradi:

Ko'zum yoshiki yurak qonig'a tutosh ko'runur,
*Berur qonimg'a tonug'luq, agarchi **yosh** ko'runur;*

2) **ko'z yoshi**.

3) **xo'l** (nam). Muallif **tuz** so'zining mazkur ma'nosi haqida quyidagi jumlani misol qilib keltiradi: ***Falonchining to'ni yoshdir.*** Bu jumla esa forsiyda **qaboye faloni tar ast** tarzida yozilishini zikr qiladi;

4) **yil**. Muallif "tuz" so'zining mazkur ma'nosi haqida quyidagi jumlani misol qilib keltiradi: ***Falonning necha yoshi vor*** (bor). Bu esa forsiyda ***chand sol dorad*** shaklida kelganligi va mazkur mushtarak ma'noda kelgan so'zlar juda to'g'ri ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Xulosa va takliflar. Risolada muallif mazkur faslda keltirilgan so'zlarga batafsil izoh berilmaganligi, ammo so'zlar izohiga lug'atning keyingi fasllarida yanada mufassal to'xtalishi haqida aytib o'tadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asar muallifi Nazir Ali Sayyid chig'atoy ya'ni turkiy tilning naqadar jozibador ekanligini lug'atning birinchi faslida omonim so'zlarga izoh berish orqali ko'rsatib bergan. Bu esa turkiy tilning leksik jihatdan juda boy ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Nazir Ali Sayyid. Lo'g'ate cheg'atoyi be forsi. Tehron, 1382-hijriy, 1-bet.
(2). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. T., "Universitet", 2000, 258-bet.

Ismailov Is'hoqjon Otabayevich (Urganch davlat universiteti dotsenti, f.f.n.),
Sapayeva Gulnoz Ulug'bekovna (Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi)

"FIRDAVS UL-IQBOL" ASARIDAGI O'XSHATISHLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Munis va Ogahiy o'xshatish san'atini ifodalash orqali tabiat hodisalari, hayvonlar, parrandalar, hasharotlar va tarixiy joy nomlarini mohirona ochib berishgan. Bir xil o'xshatishlar ko'p o'rinda qo'llanilganki, bunda muarrixlar bir so'zning turli sinonimlaridan unumli foydalanib, o'zlarining yuksak badiiy mahorat qirralarini namoyon qilishgan.*

Kalit so'zlar*: muarrix, xotif, dabur, Osaf, pariychehra, mushkin, sel, nishona.*

О СРАВНЕНИЯХ В «ФИРДАВС УЛ-ИКБАЛ»

Аннотация. *В статье Мунис и Огахи умело раскрывают в искусстве сравнения названия природных явлений, животных, птиц, насекомых и исторических мест. Одни и те же сравнения использовались во многих местах, где историки проявили свое высокое художественное мастерство, эффективно используя разные синонимы одного и того же слова.*

Ключевые слова*: муаррих, хатиф, дабур, Осаф, парийчехра, мушкин, сель, значок.*

ON THE SIMILES IN "FIRDAWS UL-IQBAL"

Annotation*. In this article, Munis and Agahi skillfully revealed the names of natural phenomena, animals, birds, insects and historical places in the art of simile. The same similes were used in many places, in which historians showed their high artistic skills by effectively using different synonyms of the same word.*

Key words*: muarrikh, khatif, dabur, Osaf, pariychehra, mushkin, sel, badge.*

Kirish. Asarda Xorazm tarixnavislari Munis va Ogahiyning Xiva xonligida yashagan o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, fors va boshqa xalqlarning ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon, Eron, Xuroson podsholiklari bilan bo'lgan munosabatlari, o'zaro urushlar, Rossiya bilan savdo-sotiq munosabatlari, xon va beklar jabr-zulmiga qarshi xalq qo'zg'olonlari, xalqlarning urf-odatlari, urushlar natijasida Eron va Xurosondan Xorazmga ko'chirilgan forsiyzabon aholi haqida ham keng ma'lumotlar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'xshatishlar bo'yicha N.Mahmudov, D.Xudoyberganovalar o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiqotlar olib borgan bo'lib, 530 ta o'xshatish jamlangan maxsus lug'at ham tuzishgan [4]. Munis va Ogahiy qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol" asarida voqealar bayoni jara- yonida o'ziga xos o'xshatishlarni qo'llashar ekanlar, asarda o'xshatilayotgan narsani (mushabbihun bih) ifodalashda, ko'pincha, tabiat hodisalari, hayvonlar, parrandalar, hasharotlar va tarixiy joy nomlaridan foydalanishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli tarzida paydo bo'ladi. Ular nutqada hamisha badiiy-estetik qimmatga ega bo'ladi, nutqning hissiy-bo'yoqdorliligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Odatda, uning ikki xil turi farqlanadi: 1) erkin o'xshatishlar (individual-muallif o'xshatishlari); 2) turg'un o'xshatishlar.

Biz ushbu tadqiqot ishimizda mavzu ko'lamiga qarab, o'xshatishlarni qo'llashni maqsad qildik.

Bir xil o'xshatishlar ko'p o'rinda qo'llanilganki, bunda muarrixlar bir so'zning turli sinonimlaridan unumli foydalanib, o'zlarining yuksak badiiy mahorat qirralarini namoyon qila olgan.

Tahlil va natijalar. Bunday matnlarda talmih usuli qo'llanilib, muarrix o'z fikrlarining isboti sifatida barchaga tanish bo'lgan mashhur insonlar nomini shunchaki keltirib o'tmasdan, bevosita ifoda etilayotgan fikr mazmuniga aloqador nomlarni tanlaydi. Bunday talmihlarga asarda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

Biz muarrixlarning qanday mushabbihun bihlardan foydalanganligiga ko'ra, ularni istisno tariqasida quyidagicha tasnifladik:

a) Sulaymon nomi bilan bog'liq o'xshatishlar. Muarrix Sulaymon nomini keltirishda uning saxiylik, davlat boshqaruvidagi adolatparvarlik kabi xislatlarini e'tiborga olgan holda yondashgan. Birgina "Firdavs ul-iqbol" asarida bu nom 32 ta o'rinda misol tariqasida keltirilgan: *"Alar dog'i **Sulaymon** hazratig'a malax oyoqin qorinchqa peshkash kelturgandek, ul hazratning dargohi falak ishtibohig'a boru yo'qin nisor qildilar"*[1;181-b.]. Bu parchada hazrati Sulaymon alayhissalomning chumoli (qarinchqa) bilan suhbatiga ishora qilinmoqda [3;37-b.];

b) Hotami Toyi nomi bilan bog'liq o'xshatishlar. Ogahiy hukmdorlarning saxovatpeshalik, karamsevarlik xislatlari bayonida Hotami Toyi nomini keltirib, uning ismiga monand xislatiga ishora qilgan:

*"...xazinai karamidin ul mushobihda ganjrezlik ko'rguzdikim, **Hotami Toyi** ehsonining fasonasi naqdi qalbdek bee'tibor bo'ldi va ma'nizoida bazlining zikri daftari abtar yonglig' toqi nisyonda qo'yuldi"* [1; 252-b.].

Matndagi Hotami Toyi nomi bu o'rinda bejiz keltirilmagan, albatta. Xoqonning jangda qahramonlik ko'rsatgan mard va jasur yigitlarga ehson ulashish holati yuqorida nomlari keltirilgan ulug' insonlarning tabiatiga xos bo'lgan saxovatpeshalik xislati bilan qiyos qilingan. "Firdavs ul-iqbol" asarida Hotam nomi bilan bog'liq o'xshatishlarni 19 o'rinda kuzatish mumkin. Ogahiyning boshqa tarixiy asarlarida ham bunday talmihlar ko'plab kuzatiladi: "*Va ahvolpursliq va dodarslik va zarbaxshliq marosimin **Anushervon** va **Hotam Toyi yonglig'** taqdimg'a yetkurub, ul havolidag'i jame'i ulug'-u kichik fuqaroni xushhol qilib, duoyi xayrlarin olg'ondin so'ng davlat samandarig'a rokib bo'lub ...*" [1;197-b.];

d) diniy-tarixiy siymolar nomi bilan bog'liq o'xshatishlar. «*Muhammad Niyozbek oning izidin barqi **xotif**dek etib, ikki shonasi arolig'idin andog' nayza urdikim, siynasidin bosh chiqardi va sakaroti mavt bexudlig'i bila otdin mazallat tufroqig'a sarnigun yiqildi*» [1;219-b.]. «***Osaf**i zamon, sohibdevon vaziri a'zam va mukarram Nizomalmulk vaddin Yusuf mehtarni mamlakat harostig'a tayin qilib…*» [1;125-b.].

1. Tabiat hodisalari bilan bog'liq o'xshatishlar.

a) quyosh bilan bog'liq o'xshatishlar:

***Quyoshdek** bo'lub borcha zar ichra g'arq,*

Ki bo'lmay olarg'a quyosh birga farq [1;178-b.], *"Shanba kuni ondin ko'chub, **oftobi olamtob yonglig'** qat'i manozil va tayyi marohil qilib..."* [1;197-b.]. «*Va so'ngg'i kunkim, jum'a erdi, chosht chog'i ul hazrat mazkur Qalandarxonadin **quyoshdek** davlat abrashig'a rukub qilib, Ko'hi chag'ro jonibig'a ravona bo'ldi*» [2;177-b.] – (Va so'nggi kun, juma kuni edi, tush chog'i u hazrat (Muhammad Rahimxoni soniy Feruz) Qalandarxonadan **quyosh tepaga ko'tarilgandek** davlat otiga minib, Ko'hi chag'ro tomonga ravona bo'ldi).

«Firdavs ul-iqbol» asarida 281 o'rinda quyosh (xurshid, oftob) bilan bog'liq o'xshatishlarni uchratish mumkin;

b) Oy (qamar), yulduz tasviri bilan bog'liq o'xshatishlar: «*...besh kun sur'ati tamom bila **qamari sari' us-sayrdek** qat'i manozil qilib, dushanba kuni, oyning yigirmasida mustaqari xulofatg'a nuzul qilib…*» [1;288-b.].

d) shamol, yashin, chaqmoq bilan bog'liq o'xshatishlar: «***Dabur** sur'ati zamharir shiddatin ul masobag'a etkurdikim, aqlning tavsani tezkomi bir qadam urmoqdin muta'azzir erdi*» [1;319-b.];

e) yomg'ir bilan bog'liq o'xshatishlar:

*Har soridin **sel kabi** oqdi qon,*

Ul kun bo'lub, xaslig'a oxir zamon [1;311-b.].

«*... ul qal'aning atrofi javonibin taxt-u toz qilib, **seli ofa**t va **muhitimaxofat yanglig'** ihota etdilar*» [1;343-b.].

2. Hayvon va parrandalar bilan bog'liq o'xshatishlar. «*Olomon dog'i **sheri g'arrandadek** fidoyivor hamla etkurdilar. Dushman sipohi bir hamlag'a toqat qila olmay, **ruboh misol** ro'ygardon bo'-lub, faror tariqig'a hazimat markabin surdilar*» [1;323-b.].

3. Xayoliy-to'qima obrazlar nomi bilan bog'liq o'xshatishlar. «*...ufqi ismatdin tulu' etgan va muxdirae erdi, pardai iffatda kamolg'a etgan, qirq **pariychehra** bilakim, Oqyoqish qaroqalpoqidin asir bo'lub erdilar, andoqkim, yuqori guzorish topib erdi*» [1;276-b.].

***Malakquvvat-u devxay'at** kelib,*

G'azanfaru babrsavlat kelib [1;122-b.].

4. Hasharotlar bilan bog'liq o'xshatishlar. «*Chahorshanba kuni tojik cherikikim, adadda **mo'ru malaxdin** afzun erdi*» [1;339-b.]. «*... sarsar ihtizozidin **pashsha xayli qochg'ondek** tura olmay, qal'ag'a kirib, matahsan bo'ldi*» [1;210-b.].

5. Joy nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar.

a) tarixiy joy nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar:

Qaysi mavzeda aylasa tamkin,

*Topar ul shahar **Chin kabi** tazyin* [1;346-b.];

«*...bir hamlada o'zlarin qal'a devorig'a etkurib, bovujudi xasonat va matonatda **Iskandar saddig'a barobarlig'** da'vosin qilur erdi*» [2;344-b.];

b) diniy tushunchalarga aloqador joy nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar: «*Najobatpanoh, diyonatogoh, ixloskesh, sadoqatandesh Abdiboy va Gadoyniyozkim, ul mavze'i **jannatson**, nazohat nishonning*

mushrifi erdilar» [1;254-b.]. «*...zabonai* ***do‘zax nishona*** *bavoriqi hirqat bila falak xirmonin xokistar qildi*» [1;122-b.].

Ogahiy ba’zi o‘rinlarda mushabbihun bihning go‘zal namunalarini yarata olgan: «*...fitr iydining hiloli nishotsipehridin yuz turluk nazokat va latofat bila jilvagar bo‘lub,* ***sho‘xlarning mushkin qoshidek*** *dilkash imolar bila olam ahlig‘a masarrat va behjat sharobidin seroblig‘lar yetkurdi*» [1;338-b.].

Ma’lumki, mumtoz adabiyotda go‘zallar qoshi yangi chiqqan oyga qiyos qilingan. Bu misolda esa, aksincha, yangi chiqqan oyning ko‘rinishi go‘zallarning (sho‘xlar) egilgan qoshiga o‘xshatilgan. Bunda Ogahiy o‘zining yuksak mahoratini namoyon qilib, o‘quvchi kitobxonning qalbida muhrlanib qoladigan, uni hayajonlantiradigan, ta’sirlantiradigan go‘zal o‘xshatish namunasini yaratgan.

Xulosa va takliflar.

–Munis va Ogahiy badiiy tasviriy vosita turlaridan hisoblangan o‘xshatish san’atini qo‘llashda o‘ziga xos badiiylik kashf etishgan. Kuzatishlardan ko‘rinadiki, garchi bu ikkala muarrix ko‘proq mumtoz o‘xshatishlarga murojaat qilishsa-da, bu san’atning xalq tiliga yaqin bo‘lgan turidan ham samarali foydalanishgan. Bu holat muarrixlarning xalq orasida mavjud o‘xshatishlarni chuqur o‘zlashtirishganidan dalolat beradi;

–bu ikkala muarrix ham asar o‘qimishliligini oshirish, tarixiy voqealarni o‘quvchi kitobxon ongida jonli tasvirlash va uzoq vaqt esda qolishini ta’minlash, badiiyligini yuksaltirish maqsadida goh xalqona o‘xshatishlarga murojaat qilishsa, gohida mumtoz tashbehlardan unumli va o‘rinli foydalanishgan. Bu holat o‘quvchi kitobxonga bayon qilinayotgan hodisa to‘g‘risida o‘ziga xos tasavvur hosil bo‘lishiga yordam beradi;

–asar voqealarini yoritishda muarrixlar xolislikni bosh mezon qilib olishgan;

–asar voqealari bayonida mumtoz saj’ turlariga ham ko‘plab murojaat qilingan. Bu holni, birinchidan, asar voqealarini o‘quvchi kitobxonga yetkazib berishda ularni quruq voqealar bayoni bilan zeriktirib qo‘ymaslik bo‘lsa, ikkinchidan, muarrixlarning asosiy mashg‘uloti shoirlik bo‘lib, tabiiy holda, nasriy parchalarni nazmiy parchalar bilan omuxta olib borishlariga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Firdavs ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov. T., “O‘qituvchi”, 2010.

(2). Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Shohid ul-iqbol. Toshkent, “Muharrir”, 2009.

(3). Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. II jild, Toshkent, “Yozuvchi”, 1991.

(4). Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T., “Ma’naviyat”, 2013.

Rahimova Bekposhsha Bahodirovna (UrDU dotsenti; filolograhimova@gmail.com)

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE’RIYATI BADIIYATIGA DOIR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining taniqli vakillaridan biri, shoir, tarjimon, publitsis Matnazar Abdulhakim she’riyati, uslub va badiiy mahorat masalasi borasida so‘z yuritiladi. Shoir lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari, ramziy-majoziy obrazlilik, badiiyat qirralari, lirik qahramon yaratish mahorati masalalari tahlil qilinadi. Ijodkorning teran poetik nigohi, obrazli tafakkurdagi o‘ziga xoslik, ohorli tasvir va badiiy kashf salohiyatini tadqiq qilish orqali muayyan xulosalar chiqariladi.*

Kalit so‘zlar: *shoir, badiiyat, obrazlilik, lirik qahramon, she’riy san’atlar, poetik tafakkur, tashbeh, ramziy-majoziy tasvir.*

Рахимова Бекпошша Баходировна (доцент Ургенчского государственного университета)

О ПОЭТИКЕ ПОЭЗИИ МАТНАЗАРА АБДУЛХАКИМА

Аннотация. *В данной статье рассказывается о поэзии, стиле и художественном мастерстве одного из известных представителей современной узбекской поэзии, поэта, переводчика, публициста Матназара Абдулхакима. Анализируются особенности лирики поэта, символическая образность, художественные аспекты, мастерство создания лирического образа. Определенные выводы делаются на основе исследования глубокого поэтического взгляда художника, своеобразия образного мышления, творческого образа и потенциала художественного открытия.*

Ключевые слова: *поэт, художественность, образность, лирической герой, поэтическое искусство, поэтическое мышление, аллегория, символико-метафорический образ.*

Rakhimova Bekposhsha Bakhodirovna (docent of Urgench State University)

ON THE ARTISTRY OF THE POETRY OF MATNAZAR ABDULKHAKIM

Annotation. *This article learns the poetry, style and artistic skills of one of the famous members of modern Uzbek poetry, poet, translator, publicist Matnazar Abdulhakim. Specific features of the poet's*

lyrics, symbolic imagery, artistic aspects, and the skill of creating a lyrical character are analyzed. Certain conclusions are drawn by researching the deep poetic talent of the artist, the originality of figurative thinking, the creative image and the potential of artistic discovery.

***Key words**: poet, artistry, imagery, lyrical hero, poetic arts, poetic thinking, allegory, symbolic-figurative image.*

Kirish. Zamonaviy o‘zbek she’riyati qator iste’dod sohiblariga ega bo‘lgan ulkan ummondir. Mustaqillik yillarida milliy she’riyatimiz har jihatdan yangilandi: shakliy-uslubiy izlanishlar ko‘payib, mavzu qamrovi kengaydi, ramziy-falsafiy talqin kuchaydi. Shuningdek, ijodkorlarning mavjud voqelikni anglash hamda badiiy kashf etishdagi individual yondashuvlari ifodasi bo‘lgan uslubda ham takomillashish, rang-baranglashish, turfalik kuzatildi. Oliy xilqat bo‘lmish insonning ma’naviy olamini, ruhiy dunyosini, ichki evrilishlarini teranroq anglashga intilish ortdi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatining taniqli vakillaridan biri - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoir, tarjimon, publitsist Matnazar Abdulhakim (1948 –2010), garchi 1970-yillarning ikkinchi yarmidan badiiy ijodga kirib kelgan bo‘lsa-da, asosan, istiqlol yillarida “ko‘p va xo‘b” ijod qildi.

Ma’lumki, she’riyatda ijobiy o‘zgarishlar va yangicha tamoyillarning ilk namunalarini Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjonlar boshlab berdilar va badiiy tafakkurda haqqoniylik, hayot haqiqatini dadil e’tirof etish tuyg‘usini chuqurlashtirdilar. Matnazar Abdulhakim o‘zining zamondosh, tengqur ijodkorlari Rauf Parfi, Shavkat Rahmonlar bilan ana shu evrilish, estetik anglashning yangilanish jarayoniga qo‘shildi va bu boshlamaga o‘z hissasini qo‘sha bordi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Matnazar Abdulhakim ijodini o‘rganish, asarlarini tahlil qilish shoir hayot davridayoq boshlangan bo‘lsa-da, bu jarayon, asosan, uning vafotidan keyin yana ham jonlanganligi kuzatiladi. Ayniqsa, keyingi o‘n-o‘n besh yillikda bu boradagi ishlar birmuncha kuchayib, qator maqola va risolalar yaratildi, tadqiqot ishlari olib borildi.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni A.Oripovning M.Abdulhakim ijodi, xususan, she’riyatiga oid fikrlari har jihatdan ibratlidir. U Matnazar Abdulhakim merosini “teran ijod”, shaxsini “donishmand shoir”, “nihoyatda nozik fikrlaydigan inson”, adabiy-tahliliy bitiklarini “tadqiqot maqolalar” deb atadi. Xususan, “Saylanma”sini o‘qib, yuksak fikrlar bildirishga ishtiyoq tug‘ilganini alohida ta’kidladi.

Adabiyotshunos H.Abdullayev adabiy-ommabop risolasida Matnazar Abdulhakim “Shaxsi va ijodiga chizgilar” ruknida shoir ijodiy faoliyati qirralariga umumiy nazar tashlaydi, she’riyatidagi falsafiy-intellektual motivlarning yetakchiligini, fors tilidan tarjimalaridagi mahoratini ko‘rsatib, adabiy-estetik qarashlaridagi zukkolikni qayd etadi.

Ijodkor Q.Solayev o‘zining ma’naviy-ma’rifiy xarakterdagi kitobini “To‘rtinchi muallim saboqlari” deb nomlagan. Unda Matnazar Abdulhakim she’riyatidagi falsafiy-didaktik fikrlar, ilohiy va dunyoviy aqidalar munosabati qiyosiy-tipologik yo‘sinda tahlil etilib, boqiy qadriyat sifatida ta’riflanadi.

Adabiyotshunos I.Yoqubov Matnazar Abdulhakim nazmidagi ramziy-majoziylikning ayrim jihatlari va shoirning an’anaga ijodiy munosabatiga doir o‘ziga xoslikka e’tibor qaratib, “bahor”, “yurak”, “yaproq”, “ishq”, “o‘lim” kabi tushunchalarning ramziy ma’no doirasini kengaytirishga intilganiga diqqat qaratadi, majoziy obraz, tafsil, istiloh, fikr, vositalar vazifasini muxtasar ta’kidlaydi.

Muhammad Boboxon Sharif, Davlatyor Rahimlar shoirning Vatan va do‘stlik mavzusiga yangicha yondashuvini ko‘rsatish bilan birga, Najmiddin Kubro ruboiylari tarjimasiga oid ba’zi fikrlarni qayd etsalar, Sh.Matkarimov M.Abdulhakim ijodining umumiy yo‘nalishi, E.Ochilov esa u amalga oshirgan Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud ruboiylari va Mirzo Abdulqodir Bedil g‘azallari tarjimasining yutuq va kamchiliklari, I.Ismoilov esa, umuman, tarjimonlik faoliyati xususida fikr yuritadilar.

Adabiyotshunos N.Jumaniyozovaning “Istiqlol davri o‘zbek lirikasida uslub va mahorat” nomli monografiyasida Matnazar Abdulhakim she’riyatida individual uslub va o‘ziga xos mahorat masalalari tahlilga tortiladi va shoir ijodida, asosan, falsafiy-ijtimoiy mazmun an’anaviy yo‘nalishda talqin etilishi ta’kidlanadi.

H.G‘ayipovaning nomzodlik dissertatsiyasi Matnazar Abdulhakimning ayrim she’rlari, asosan, publitsistik maqolalari talqiniga, bu boradagi shoirning badiiy mahoratini ko‘rsatishga bag‘ishlangan. Yosh olimaning “Teran tafakkur va tiniq tuyg‘ular kuychisi” (2021) nomli kitobida shoir mahoratining bosh yo‘nalishi badiiy-falsafiy talqinda to‘la namoyon bo‘lishi alohida ta’kidlanib, Matnazar Abdulhakim badiiy-ilmiy tafakkur yo‘nalishlarini uyg‘unlashtira olgan serqirra ijodkor sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda, asosan, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Matnazar Abdulhakim lirikasining mavzu doirasi nihoyatda keng va ko‘lamli, shakl jihatdan rang-barang bo‘lib, aruz va an’anaviy barmoq vaznida yozilgan she’rlardan iboratdir. Shoir asarlarida milliy adabiy an’analarni novatorona o‘zlashtirish bilan birga, jahon she’riyati tajribalaridan, ayniqsa, rus she’riyatidan bahramand bo‘lish, ularni ijodiy qo‘llash barobarida lirik qahramon talqini, tasvir shakli, ifoda vositalari, badiiyati va janriy o‘ziga xoslik xususiyatlari ajralib turadi. Matnazar Abdulhakim she’rlarini mutolaa qilar ekansiz, uning badiiy mahorati yuksak, tafakkur ufqlari keng ekanligi tobora yorqin namoyon bo‘la boradi. Shoir she’rlarida o‘ziga xos betakror lirizm va falsafiy fikr teranligini ta’sirchan ifodalab, badiiy yuksaklikka erisha olgan. Biroq shoir shaxsiyatida kamtarlik, ijod va so‘zga mas’uliyatlilik hamisha juda yuqori bo‘lganligi bois ham “Men yaxshi bilaman qo‘shiqlarim jo‘n, Bilaman, bular bir oddiy mashqlar”, deydi.

Matnazar Abdulhakim she’rlarida ibratomuz hikmatli fiklar ohorli tashbehlar, betakror badiiyat, ramziy-majoziy tasvir ustuvorligi vositasida go‘zal talqin qilinadi. Zero, “Poeziya tili zavqli, ohangli, ulug‘vorlik bilan yo‘g‘rilgan; nafis, nozik, latif, favqulodda lutflarga boy bo‘lmog‘i lozim. She’rning alifbosi – obrazli tafakkur” [Bahodir Karim. 99-b.]. Haqiqatan ham, chin shoir dunyoni boshqacha, hech kimga o‘xshamagan nigoh bilan ko‘radi, anglaydi, his qiladi va go‘zal, ta’sirchan badiiy kashfiyotlar yaratadi. Matnazar Abdulhakimning “Qorachiqdagi dunyo”, “Oydinlik”, “Qor qo‘shig‘i”, “Yolg‘iz yaproq” kabi to‘plamlaridan o‘rin olgan ko‘plab she’rlari o‘quvchini o‘yga toldiradigan, falsafiy mushohadaga chorlaydigan asarlardir. Shoir ijodida inson, uning ko‘ngil kechinmalari, ma’naviy olami talqini keng yoritiladi. “U insonni havoyi ideal emas, murakkab xarakterli kuchli va ojiz xilqat sifatida tasvirlaydi: yuksakligini qutlab, tubanligiga achinadi, lekin undan voz kechmaydi, balki poklik va xolislikni shaxs kamolotining asosiy mezonlaridan deb biladi va tasvirda shunga alohida urg‘u beradi” [H.G‘ayipova. 48-b.]. Shuningdek, shoir lirikasida “ezgulik” so‘ziga alohida urg‘u beriladi, yaxshilikka, mehr-oqibatga doimiy da’vat etiladi, haqiqat, rost so‘z, halollik uning ijodida qizil ip bo‘lib o‘tadi. Matnazar Abdulhakim “Yurakda ezgulik g‘olib bo‘lsa, bas”, degan fikrda sobit, shaxsiyati va ijodi uyg‘un ijodkor sanaladi. Borliqni ziyrak kuzatadigan pokdomon ijodkor olamga ezgulik yoyilishini istaydi, bu esa shoir shaxsiyatidagi ezgu fazilatlar, go‘zal xislatlardan nishonadir. Matnazar Abdulhakimning bir she’rida shunday misralar bor:

Har qadamni tashlang ezgulik tomon,
Xudbinlik yot bo‘lsin ko‘zlaringizga.
O‘z ko‘zingiz tegar o‘qdan ham yomon,
Mahliyo bo‘lmanglar o‘zlaringizga!

Sodda so‘zlar zamiriga teran fikr, oddiy ifoda qatlariga ko‘ngilning cheksiz murakkabliklarini mohirlik bilan singdira oladigan shoir insonlarni o‘zgalarga beminnat, beta’ma yaxshilik, ezgulik qilishga chorlaydi. Kamtarlik, samimiylikni ulug‘lab, kibr-u havo, manmanlik, shuhratparastlik, o‘ziga bino qo‘yish kabi illatlarni qoralaydi. Har qachon ham ezgulik jaholatni, yovuzlikni yengishi uchun yaxshi (ezgu) amallarga ehtiyoj hissi inson qalbiga, ruhiga ko‘chishi lozimligi shoir she’rlarida ko‘p bora tasvir etiladi. Matnazar Abdulhakim she’rlarida ruhiy va hayotiy holat tabiiy chiziladi. Shoirning yana bir she’rida esa ezgulik har bir insonning libosi bo‘lishi kerakligini go‘zal tarzda uqdiradi:

Senga bizning maktubimiz shul,
Shuldir senga bizning nomamiz –
Bizning xirqamizdir ezgulik,
Samimiyat bizning jomamiz.

Bu satrlar Matnazar Abdulhakimning teran falsafiy-ijtimoiy qarashlari aks etgan “Ko‘chki” dostonidan olingan. Buyuk tasavvuf allomasi, yirik mutafakkir olim Yusuf Hamadoniy hazratlarini eslab, uning qalbidan otilib chiqqan so‘zlar kabi yangragan bu misralarda shoir mahorati yana ham yorqin ko‘rinadi. Shoir “xirqa”, “joma” kabi mumtoz so‘zlar orqali ezgulik libosi bilan dunyoga mashhur bo‘lgan ajdodlarimizning yaxshi amallarini davom qildirish millat kelajagining kafolati ekanligini ta’kidlaydi.

Menga birov yaxshilik qildi.
Bilmay qoldim – kim ul, xudoyim.
Qaysi Hotam, qaysi javonmard.
Qanday g‘aniy. Qanday fidoyi.
Ikki kunki, xudoyim, mana
Yuragim g‘ash, ruhim bulutdir,
Mendan kimki yaxshilik ko‘rsa

Endi menga barin unuttir.[1]

Misralar ketma-ketligiga asoslangan ushbu sakkizlikda o‘zgalarga beminnat ezgulik qilgan shaxs kamtarligi, samimiyligi ulug‘lanadi. Bu g‘oya ifodasi ikkala to‘rtlikning yagona shaklini taqozo qilgan. Chunki dastlabki ikki misra juftligida ko‘zlangan fikr tugal bo‘lmay, uning davomiga zarurat tug‘dirgan. Shu bois asosiy poetik ma’no sakkizlik yaxlitligida o‘z ifodasini topgan. Banddagi badiiylik unsurlari fikr va ifoda ta’sirini yuzaga keltirgan. Jumladan, yaxshilik tushunchasining ilohiy ne’mat ekanligi “xudoyim” so‘zining takrori orqali izohlansa, “Hotam” ismida talmeh san’ati, “qanday” so‘zi takrorida urg‘ulangan ta’kid, “bulutdir” so‘zida istioraviy ko‘chim, “g‘aniy” va “fidoyi” kalomlarida yaqin ma’nodoshlik namoyondir. Fikr mohiyati mujassamlashgan yakuniy ikki misrada esa Hadisi shariflardlagi “birovga yaxshiligingni unut, birovning yaxshiligini unutma” hikmatining ta’siri ravshanlashgan. Shoir insonni qandaydir mavhum tushuncha emas, balki real borliqning ilohiy mavjudoti, murakkab tiynatli yaratig‘, yaxshi-yomon amallar sohibi sifatida tasavvur etadi va uning oliyjanobligini ohorli fikr va badiiyat mezonlari rakursida qadrlash, targ‘ib qilishga erishadi.

Matnazar Abdulhakim she’rlarida shoirning yuksak estetik didi, voqelik va kechinmalarni, hayot haqiqatini badiiy kashf etish salohiyati yorqin namoyon bo‘ladi. Uning quyidagi sakkiz misradan iborat “Qarsaklar” sarlavhali she’riga diqqat qarataylik. Unda hayot falsafasi oddiy, ammo ma’nodor tasvir etiladi:

Sen ishonding bu qarsaklarga
Va kekkayding bamisli xoda.
Sotding, sotib qo‘yding o‘zingni,
Yana – juda arzon bahoda.
Farosating yetmadi, afsus,
Bu qo‘llar qarsillab tolmaydi.
Taltaytirib otar osmonga,
Lekin hech vaqt ilib olmaydi.

Hayotda ba’zi insonlar xushomad va qarsaklardan taltayib, “xoda”day kekkayadi, ularning “sururi”-dan osmonga otiladi, lekin bu olqishlar uni hech qachon qulab tushishidan saqlay olmasligiga farosati yetmaydi. Matnazar Abdulhakim she’rlarida yetuk poetik lavhalar yaratib, inson manaviy dunyosini yanada teranroq idrok qilishga, uning tubsiz qalb kengliklaridan o‘ziga xos qirralarni kashf qilishga intilish kuchli.

Xulosa. Matnazar Abdulhakimning ayrim she’rlarini tahlil qilish orqali quyidagi fikr-xulosalarga kelindi:

–Matnazar Abdulhakim badiiy mahorati yuksak, so‘zni nozik his qiluvchi hassos shoir. Uning she’riyatida nozik tuyg‘u va kechinmalar chuqur falsafiy fikrlar bilan uyg‘unlashgan holda beriladi;

–shuningdek, barcha mavzulardagi she’rlarda inson ma’naviy olami va ijtimoiy-estetik muammolar tasvirida fikr va kechinmalar silsilasining rangin badiiy bo‘yoqdorligidagi betakrorlik, ramziy-majoziy obrazlar tanlashdagi mahorat Matnazar Abdulhakim she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir;

–yana shuni alohida ta’kidlash joizki, shoir lirikasining markaziy obrazi bo‘lgan – Insonni ulug‘lash, uni ezgulikka da’vat etish g‘oyasi she’rdan she’rga o‘sib boradi. Shoir original tashbehlar, ohorli badiiy yaratiqlar orqali insonning ezgu fazilatlarini ulug‘laydi, tabiat tasviri, qushlar, daraxt-giyohlarning ramziy talqinlari vositasida rang-barang asarlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Абдуллаев Ҳ. Бадиийлик ка мухтасар назар. Урганч, “Хоразм”, 2018, 57-бет.

[2]. Б.Карим. Руҳият алифбоси. Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2016, 361-бет.

[3]. Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. 1-жилд, Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2017, 327-бет.

[4]. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. Тошкент, “Фан”, 2007, 21-бет.

[5]. Ғайипова Ҳ. Теран тафаккур ва тиниқ туйғулар куйчиси. Урганч, 2021, 119-бет.

[1] Матназар Абдулҳаким. Жавзо ташрифи. Сайланма. Тошкент, “Шарқ”, 2008, 84-bet (Кейинги парчалар шу манбадан олиниб, қавс ичида кўрсатилади).

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi; e-mail: esanovas@mail.ru),
Tangirova Ruhshona (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: tangirovar@bk.ru)

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ERTAK TERAPIYANI QO'LLASH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun zamonaviy ertak texnologiyalarini taklif qiladi. Maqolada ertak bilan ishlashning asosiy usullari muhokama qilinadi. Shuningdek, turli pedagogik va psixoterapevtik usullarni yagona ertak kontekstiga birlashtirish murakkab ertak terapiyasi usulining yangiligi va dolzarbligini tashkil etishini ko'rsatib berishga harakat qilinadi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, bolalar, ta'lim, tarbiya, ertak, terapiya, texnologiyalar.*

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СКАЗКОТЕРАПИИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье авторы предлагают современные технологии обучения и воспитания посредством сказок детей дошкольного возраста. В статье рассматриваются основные методы работы со сказками. Также была предпринята попытка показать, что сочетание различных педагогических и психотерапевтических методов в контексте одной сказки составляет новизну и актуальность метода комплексной сказкотерапии.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, дети, образование, воспитание, сказка, терапия, технологии.*

TECHNOLOGIES OF USING FAIRY-TALE THERAPY AT PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. *In this article, the authors propose modern fairy-tale technologies for teaching and raising preschool children. The article discusses the main methods of working with fairy tales. Was also made an attempt to show that the combination of various pedagogical and psychotherapeutic methods in the context of one fairy tale constitutes the novelty and relevance of the method of complex fairy tale therapy.*

Key words: *preschool education, children, education, upbringing, fairy tale, therapy, technologies.*

Kirish (Introduction). Hozirgi kunda yangilanayotgan O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasini har tomonlama isloh qilish, ushbu yoshdagi bolalarni ma'nan va jismonan sog'lom qilib tarbiyalash masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-maydagi PQ-4321-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori muhim tarixiy hujjat vazifasini bajaradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularning nutqiy qobiliyatlari va tasavvur dunyosini rivojlantirishga ertak terapiyani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimidagi eng samarali ta'lim va tarbiyaviy usullardan biri bo'lib, uni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ertak terapiyaning bolalar tarbiyasi uchun yanada foydali bo'lishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ertak terapiyaning ahamiyatini yoritish bo'yicha bir qancha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, rus tadqiqotchilaridan E.A.Borisovaning "Формирование плавности речи у детей дошкольного возраста с заиканием", A.B.Gnezdilovning "Авторская сказкотерапия", M.A.Panfilovaning "Игротерапия общения" nomli kitoblarida ertak terapiyani qo'llash usullari va zamonaviy texnologiyalari, uning bola ruhiyatidagi ijobiy jihatlari borasida mufassal ma'lumotlar keltirilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan X.Akramovaning "Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat texnologiyasi" nomli tadqiqot ishida ham mazkur mavzu atroflicha tahlil qilinib, ertak terapiyani maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llashning zamonaviy metodlari bo'yicha namunalar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada o'rganilayotgan muammo, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarda ertak terapiyani qo'llash texnologiyalarini tasniflash uchun ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ertak terapiyasi – bu psixoterapevtik yo‘nalish bo‘lib, unda qahramonlar tasvirlarini tahlil qilish va ulardan foydalanish orqali inson o‘zining qo‘rquvi va salbiy harakatlarini yengib o‘tishi mumkin. Ertak terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda eng faol qo‘llaniladigan texnologiyalardan biridir. Bola uchun ertak alohida haqiqatni ifodalaydi. Ertak orqali ishlash, o‘yin bolaning salbiy xatti-harakatlarini tuzatishi mumkin. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bolaning hayoti uning sevimli ertaklarida dasturlashtirilgan. “Menga o‘zingizning sevimli ertagingiz nomini ayting, men sizga kimligingizni aytaman” – psixoanalitiklar mashhur maqolni shunday izohlashadi [2;132–136-b.].

Ertak terapiyasi bolani tarbiyalashning eng samarali, albatta, eng qadimiy usullaridan biridir. Zero, ota-bobolarimiz ham farzand tarbiyalash chog‘ida aybdor bolani jazolashga shoshilmay, unga ertak aytib berishgan, shundan qilmishning ma’nosi oydinlashgan. Ertaklar axloqiy va ma’naviy qonun bo‘lib xizmat qilgan, bolalarni baxtsizliklardan himoya qilgan, hayotga o‘rgatgan. Ertakning inson hayotiga qanday ta’sir qilishini bilib, siz bolangizga ko‘p jihatdan yordam bera olasiz. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda ertak terapiyasi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi, chunki u bolalar ijodiyoti va tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ertak terapiyasi usuli artterapiyadan ba’zi xususiyatlarni o‘zlashtirgan. U shaxsiy, xulq-atvor va hissiy muammolarni hal qilishga qaratilgan. Bugungi kunda ertak funksiyasiga uning diagnostik roli ham qo‘shildi: bolalar bog‘chasidagi ertak terapiyasi darslari maktabgacha ta’lim muassasasiga tezda moslashishga, bolaning ichki salohiyatini ochib berishga va rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular sizga ishni to‘g‘ri rejalashtirish va muammoli guruhlarni aniqlash, psixokorreksiya yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ertak terapiyasida qo‘llaniladigan ertaklarni o‘z xususiyatlari va maqsadlaridan keli chiqqan holda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

•xalq ertaklari o‘zaro yordam, qo‘llab-quvvatlash, hamdardlik, burch, mas’uliyat kabi axloqiy va estetik tuyg‘ularni tarbiyalashga yordam beradi;

•didaktik ertaklar – bolalarga ular uchun yangi bo‘lgan bilimlarini berish uchun ishlatiladi. Ushbu ertaklarda bola uchun mavhum bo‘lgan belgilar: harflar, raqamlar, tovushlar jonlanadi va bola uchun yangi tushunchalar haqida hikoya qilinadi;

•diagnostik ertaklar – bolaning muammosi bor-yo‘qligini aniqlashga, shuningdek, uning xarakterini va uni o‘rab turgan narsalarga munosabatini aniqlashga imkon beradi. Misol uchun, agar bola bosh qahramon qo‘rqoq quyon bo‘lgan ertaklarni afzal ko‘rsa, unda biz uning o‘zini juda uyatchan, tashvish darajasi yuqori deb taxmin qilishimiz mumkin. Diagnostik ertak bolaning istamaydigan yoki baland ovozda gapira olmaydigan holatini aniqlashga yordam beradi;

•psixokorreksiya ertaklari – kattalarga bolaning xatti-harakatiga yumshoq ta’sir o‘tkazishga yordam beradi, samarasiz xulq-atvorni yanada samaraliroq bo‘lishiga va bolaga sodir bo‘layotgan voqealarning ma’nosini tushuntirishga e’tibor qaratiladi. Bola o‘z qo‘rquvi va muammolariga qarshi kurashda ijobiy qahramonning namunasidan foydalanishga intiladi;

•meditatsion ertaklar bolalarning ijobiy his-tuyg‘ularini faollashtiradi va ularga ijobiy munosabatni o‘rgatadi. Ushbu ertaklarning o‘ziga xos xususiyati – salbiy belgilar va ziddiyatli vaziyatlarning yo‘qligi. Meditativ ertaklar dam olishga yordam beradigan maxsus musiqa jo‘rligida aytiladi. Bunday ertaklar bola ruhiyatini tinchlantiradi, ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, ijobiylik, xotirjamlik, qulaylik, dam olish muhitini yaratadi, stress va hayajonni yengillashtiradi [3;149-b.].

Bolalar bog‘chasida ertak terapiyasi darslari ham taniqli ertaklarni, ham o‘qituvchi yoki ota-onalar tomonidan ixtiro qilingan ertaklarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday hikoyalardagi bosh qahramon ma’lum bir bolaga juda o‘xshaydi. Tashqi tomondan, harakatlar yaxshiroq ko‘rinadi va bola o‘zini qahramon bilan osongina tanishtiradi. Ertakdagi barcha to‘siqlarni yengib o‘tish muhim, shunda, haqiqatda, bola hozirgi vaziyatlardan chiqish yo‘lini ko‘radi. Bolalarning o‘zlari muallif sifatida harakat qilishlari mumkin.

Har bir ertak guruhi o‘z yoshidagi bolalar auditoriyasiga ega. 3–5 yoshli bolalar hayvonlar haqidagi ertaklarni hamda odamlar va hayvonlarning o‘zaro munosabatlari haqidagi ertaklarni yaxshiroq tushunadilar. Bu yoshda bolalar, ko‘pincha, o‘zlarini hayvonlar bilan tanishtiradilar va osongina ularga aylanadilar, ularning xatti-harakatlariga taqlid qiladilar. 5 yoshdan boshlab bola o‘zini, birinchi navbatda, inson qahramonlari: shahzodalar, malikalar, askarlar bilan tanishtiradi va u odamlar haqidagi ertaklarni yaxshi ko‘radi, chunki bu hikoyalarda insonning shaxsiy kechinmalari aks etadi. T.D.Zinkevichning ta’kidlashicha, ertak terapiyasidan tibbiyot kabi 4 yoshdan foydalanish mumkin, chunki ertak terapiyasi inson ertak va fantastika

o‘rtasidagi hayot hamda voqelik o‘rtasidagi farqni aniq tushungandagina samarali ta’sir qilish vositasiga aylanadi. Bolada esa bu tushuncha faqat 4 yoshning boshida boshlanadi [4;93-b.].

Bolalar bog‘chasida ertak terapiyasidan haftada bir marta 10–12 kishilik guruhlarda foydalanish yetarli hisoblanadi. O‘yinda turli xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalar ishtirok etishi uchun kompozitsiyani to‘g‘ri aniqlash muhimdir. Ertak terapiyasi mashg‘ulotlari ma’lum bir ertakni sahnalashtirish, o‘ziga xos spektakl shaklida o‘tkazilishi mumkin. Siz sahna ko‘rinishini, kostyumlarni oldindan tayyorlashingiz, sujetga mos keladigan ohanglarni tanlashingiz kerak – bularning barchasi jarayonning samarali bo‘lishiga yordam beradi. O‘qituvchi ertakni aytadi va bola o‘zini har qanday qahramon sifatida tasavvur qilishi, sujetning barcha burilishlarini boshdan kechirishi, ularga hissiy munosabatda bo‘lishi mumkin. Bola haqiqiy dunyoga qaytganida, u o‘z qobiliyatiga ko‘proq ishonch hosil qiladi. Ikkinchidan, bolalar bog‘chasida ertak terapiyasi darslari ertakni o‘qish yoki muhokama qilish shaklida bo‘lishi mumkin. Har bir bolaga gapirish imkoniyatini berish muhimdir, shu bilan birga, sinfda to‘liq fikr erkinligi hukmron bo‘lishi kerak, har qanday fikr mavjud bo‘lish huquqiga ega va uni qoralamaslik kerak [5;14-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq bilan bog‘liq turli nuqsonlarni bartaraf etish, ularning ijodiy taassurotlarini kengaytirishda ertak terapiyasining ahamiyati yuqori darajada bo‘lib, tarbiyachi ushbu tarbiya usulidan samarali metodlar asosida foydalana olishi ma’nan yetuk va axloqan barkamol avlodning tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ertak terapiyasi bolalarning ijodiy va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan, salomatlikni saqlaydigan pedagogik texnologiyalarning eng samarali turlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-maydagi PQ-4321-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

(2). Akramova, X. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyasi. “NamDU xabarlari” jurnali, Namangan, 2020, 132–136-betlar.

(3). Вачков И.В. Введение в сказкотерапию, или Избушка, избушка, повернись ко мне передом… М., “Генезис”, 2011, 288 с.

(4). Зинкевич-Евстигнеева Т.Д. Практикум по сказкотерапии. СПб, “Речь”, 2013, 198 с.

(5). Шорохова О.А. Играем в сказку: Сказкотерапия и занятия по развитию связной речи дошкольников. М., “ТЦ Сфера”, 2008, 208 с.

Ruziyev Islambay Samandarovich (Urganch davlat universiteti, t.f.n., dotsent; islambay68@mail.ru),
Ismoilov Rahmatjon Ilxom o‘g‘li (Urganch davlat universiteti; rahmatjon_6622@mail.ru),
Atajanova Saodat Avezovna (Urganch davlat universiteti; atajanova-s@mail.ru),
Yuldasheva Muhayyo Alimbayevna (Urganch davlat universiteti; yuldashevamuhayyo_3383@mail.ru)

BO‘LAJAK TRANSPORT MUHNDISLARINI TAYYORLASHDA “KLASTER” METODINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Klaster” metodi tushunchasi va dars jarayonida foydalanishning mohiyati, texnologiyasi va ularning amaliyotidagi metodikasi “Transport vositalarida qo‘llaniladigan yonilg‘i va moylash materiallari” fanini o‘qitish jarayonidagi samaradorlik jihatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *klaster, metod, texnologiya, fikrlash, talabalar, muhandis, transport, talaba, muammo, bilim, mashg‘ulot.*

ЗНАЧЕНИЕ «КЛАСТЕРНОГО» МЕТОДА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ ТРАНСПОРТА

Аннотация. *В данной статье рассмотрено понятие метода «Кластер» и сущность его использования в ходе урока, его технология и методика на практике, аспекты эффективности в преподавании предмета «Горюче-смазочные материалы, используемые в транспортных средствах»,данные понятия анализируются с научно-педагогической точки зрения.*

Ключевые слова: *кластер, метод, технология, мышление, студенты, инженер, транспорт, студент, проблема, знания, обучение.*

THE IMPORTANCE OF THE “CLUSTER” METHOD IN TRAINING FUTURE TRANSPORT ENGINEERS

Annotation. *In this article, the concept of the "Cluster" method and the essence of its use in the course of the lesson, its technology and methodology in practice, the aspects of effectiveness in the teaching*

of the subject "Fuel and lubricants used in vehicles"are analyzed from a scientific and pedagogical point of view.

Key words: *cluster, method, technology, thinking, students, engineer, transport, student, problem, knowledge, training.*

Taqrizchi p.f.d., professor Xodjaniyazov S.U.

Kirish (Introduction). XXI asr insoniyat oldiga mustahkam, yengil, arzon, ko‘p funksiyali, avtomatlashgan va raqobatbardosh zamonaviy texnikalarni yaratish vazifasini qo‘ymoqda. Buning uchun, birinchi navbatda, ilmiy asoslangan hamda puxta tekshirilgan texnik loyihalarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Albatta, bu yetuk kadrlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Zamonaviy va yuksak bilimlarga ega bo‘lgan, axborot texnikalarini mukammal tushungan, o‘z sohasini chuqur o‘rgangan, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlash zamonning talabi bo‘lib qolmoqda. **Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta’minlagan holda talabalarning bilim, ko‘nikma va malaka egallashlarini,** texnika sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ilg‘or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar aso-sida tubdan takomillashtirish, o‘quv jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamo-naviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, malakali muhandislarni **tarbiyalashning peda-gogik mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.**

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’limda klasterga asoslangan yondashuv asoslari I.Y.Lerner va M.N.Skatkin M.A.Danilov va B.P.Yesip va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan. Bunday natijalarga erishish uchun bugun ta’limi eng rivojlangan mamlakatlar andozalariga murojaat qilmoqdamiz, qolaversa, ta’limning eng zamonaviy texnologiyalaridan biri bo‘lgan “klaster” metodidan foydalanish orqali o‘quvchi dunyoqarashi o‘sib rivojlanishiga juda katta yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “Transport vositalarida qo‘llaniladigan yonilg‘i va moylash materiallari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida muhandislarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

–transport vositalarida ishlatiladigan yonilg‘i va moylash materiallarining hozirgi davrdagi holati va kelajakda rivojlanishi, neftdan yonilg‘i va moylar ishlab chiqarishning zamonaviy va eng arzon texnologiyalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

–avtomobil ekspluatatsiya jarayonida yonilg‘i, moylash materiallari va maxsus suyuqliklarning roli va ahamiyatini, ularning fizik-kimyoviy xossalarini avtomobil ishlash sharoitiga qarab o‘zgarishini va sifatini dvigatel ishiga ta’sirini bilishi;

–yonilg‘i, moylash materiallari va maxsus suyuqliklar xossalarini, sifatini va texnik ko‘rsatkichlarini baholash va ulardan foydalanishda sohadagi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

–maxsus sovituvchi suyuqliklar assortimenti va ularni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalarni;tormoz suyuqliklariga bo‘lgan ekspluatatsion talablar, ularning assortimenti va qo‘llash bo‘yicha tavsiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi;

–transmission moylarning xalqaro klassifikatsiyasini, plastik moylar vazifasi, tarkibi, xossalari, klassifikatsiyasi va markalanishini, plastik moylar turlari va qo‘llanish sohalarini bilishlari kerak [3].

Fan-texnika taraqqiyoti ta’lim jarayoniga, asosan, yangicha yondashishni, ta’limning faol metodlari va texnologiyalarini qo‘llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an’anaviy ta’lim berish usuli ta’lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o‘sishiga ham yordam beradi. O‘qitishning klaster usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, ta’lim muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi [1].

Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida talabalarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko‘nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi.

Klaster metodi deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida bo‘lgan o‘qituvchi va talabalarni faol ishtirok etishga chaqiradi. Talabalar o‘qitish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar o‘qib-o‘rganishni yuqori darajada bo‘lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas’uliyat, amalda bajarish orqali fikr-mulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Dars mashg‘ulotlarini olib bo-

rish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Klaster metodini o‘tkazish texnologiyasini amalga oshirishda talaba nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni qog‘ozga yozadi. U o‘z fikrlarining sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boradi. Yozuvining orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermaydi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to‘xtamaydi. Agar talaba ma’lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasa, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlaydi. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilgunicha davom ettiradi. Ma’lum bir tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiladi. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatish cheklanmaydi [5].

Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan, yangi mavzu “Transport vositalarida ishlatiladigan moylash materiallari” [2] bo‘lsa, talabalarga u haqida ko‘z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda talabalar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni doskada bo‘r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin. Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli sifatida ta’lim oluvchilarga muammo (mavzu)lar xususida ixtiyoriy, erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish imkoniyatini yaratadi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalarni fikrlash, aniqlashda amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dars mashg‘ulotlarida ushbu metod talabalar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo‘ladi. Chunki ushbu jarayonda har bir talaba tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchi ularning fikrlarini umumlashtiradi qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda, klasterga yana qo‘shimcha kiritishi uning mahoratiga bog‘liq.

Dars mashg‘ulotlarda ushbu metod guruh a’zolari tomonidan bildirilayotgan fikrlarning majmuyi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa guruhning har bir a’zosi tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarni uyg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi [6].

Mazkur metodni mashg‘ulotlarga quyidagicha qo‘llash mumkin.

Mavzu: “Transport vositalarida ishlatiladigan moylash materiallari”.

Darsning maqsadi: Motor moylariga qo‘yiladigan asosiy ekspluatatsion talablar, moylarning klssifikatsiyasi, motor moylariga qo‘shiladigan qo‘shilmalar va ularning xossalari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishdan iborat [4].

Darsni tashkil etish: Yangi mavzuni o‘zlashtirishning samaradorligiga erishish uchun o‘tilgan mavzular yuzasidan qisqacha takrorlash mashqlari o‘tkaziladi.

O‘tilgan mavzuni takrorlash bilan bo‘lajak muhandislar ongida yangi mavzuni o‘zlashtirishga zamin hozirlanadi. Bu esa yangi mavzuni o‘zlashtirishning samaradorligini ta’minlaydi. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda ushbu metod guruh a’zolari tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo‘ladi. Har bir guruh a’zosi biror-bir g‘oyani ilgari suradi, shundan so‘ng barcha g‘oyalar uyg‘unlashtiriladi. Buning uchun talabalar guruhlarga ajratiladi. Talabalarga muayyan mavzu yetkaziladi. Mazkur mavzuni puxta o‘zlashtirgunlariga qadar bosib o‘tiladigan yo‘lning namunasini keltiradi [1].

Darsning borishi: Takrorlash uchun avvaldan tuzib qo‘yilgan savollar beriladi. Shu orqali talabalar o‘tilgan mavzuni takrorlab olishadi. Pedagog yuqorida keltirilgan metoddan foydalanib, aytilgan fikrlarini o‘rtaga tashlaydi. Mazkur bosqichlar bo‘lingach, guruhdagilar o‘z fikrlarini uyg‘unlashtiradilar, ular o‘rtasidagi aloqalarni topib, bitta andozaga solishini guruh a’zolarining hukmiga havola etadi. Buning uchun har bir guruhdan vakil saylanadi. Guruh tomonidan jamlangan g‘oyalar turkumi o‘qib eshittiriladi. Klaster metodi bo‘yicha keltirilgan ushbu bosqichlar bosib o‘tilgach, talabalar yangi mavzuni tushunib oladilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o‘qituvchilar mahoratini oshirish, avvalo, ularning maxsus kasbiy salohiyatiga bog‘liq. Innovatsion usullardan foydalanish o‘qitiladigan fanlarning soatini inobatga olgan holda, ular bilimini oshirish muammosini ham har xil yo‘llar bilan hal qilish zarur. Ammo, klaster metodi mahorati shunday universal komponentlarni o‘z ichiga qamrab oladiki, ushbu komponentlar-dan turli o‘quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu yo‘nalishda ular tez vaqtda yaxshi natijaga eri-shishlari mumkin. Salohiyat aniq fan yo‘nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga zos xususiyatni bildiradi. Salohiyat tushunchasi o‘z ichiga maxsus bilimlar, o‘ziga xos ko‘nikmalar, fikrlash usullarini va o‘z harakatlariga javobgarlikni tushunishni qamrab oladi. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay,

qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Pedagogik texnologiya, o‘z mohiyatiga ko‘ra, subyektiv xususiyatga ega, ya’ni, har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda, ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar, pedagogik texnologiyalar:

–pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;

– o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

– o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallashini ta’minlashi;

– o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;

– o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

– pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Rejabov M. Klaster–erkin fikrlashning asosiy metodi. «Scientific progress» ISSN: 2181-1601, “Proceedings of the 4th International Scientific – practical Distance Conference”, p. 177.

(2). Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent, 2011, 420-bet.

(3). Bekiyev M.A., Ismoilov R.I. Oliy ta’lim muassasalarida muhandis kadrlarni tayyorlashda “Texnik mexanika” fanining ahamiyati. “Iqro” jurnali, 2023, 17–19-betlar.

(4). Alimova Z.X. Transport vositalarida ishlatiladigan ekspluatatsion materiallar. Toshkent, 2011.

(5). Otabekovich, B.M. (2023). The importance of the science of “technical mechanics” in the training of engineering personnel in higher educational institutions. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(1), p. 11–14.

Abdiyeva Shoira Shukurovna (Chirchiq DPU tayanch doktoranti; e-mail: shabdiyeva@mail.ru)

O‘QUVCHILARNING VIZUAL TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada algebra va analiz asoslarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantirishda loyihalash metodidan foydalanish mumkinligi asoslanadi. Loyiha ishining mazmunini kvadrat uchhadning ildizlari joylashuvi haqidagi masalalar tashkil etadi. Loyiha ishini bajarish namunasi keltirilgan, bunda vizual tafakkurni mantiqiy tafakkur bilan uzviyligini ta’minlashda uchhad grafigidan foydalanish mumkinligi asoslangan. Taqdim etilgan loyiha ishi tenglama va funksiya mavzulari orasida bog‘lanishni ochib berishi orqali mavzuni chuqurroq o‘rganishni ta’minlaydi.*

Kalit so‘zlar: *loyihalash metodi, loyiha, vizual tafakkur, kvadrat tenglama, kvadrat funksiya, diskriminant, koeffitsiyentlar.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТА В РАЗВИТИИ ВИЗУАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается возможность использования метода проектов для развития визуального мышления учащихся в процессе обучения алгебре и основам анализа. Содержание проектной работы составляют вопросы о расположении корней квадратного трёхчлена. Приведен пример выполнения проектной работы, в которой обоснована возможность использования графика квадратного трёхчлена для обеспечения преемственной связи между визуальным и логическим мышлениями. Представленная проектная работа, раскрывая связь уравнений и функций, обеспечивает более глубокое изучение темы.*

Ключевые слова: *метод проекта, проект, визуальное мышление, квадратное уравнение, квадратная функция, дискриминант, коэффициенты.*

USING THE PROJECT METHOD IN THE DEVELOPMENT OF VISUAL THINKING OF STUDENTS

Annotation. *This article argues that the project method can be used to develop of students visual thinking in the process of teaching the algebra and fundamentals of analysis. The content of the project work consists of questions about the location of the roots of a quadratic polynomial. An example of project work is provided, which demonstrates the use of a quadratic polynomial to ensure that visual thinking is consistent with logical thinking. The project work presented provide a deeper study of the topic by revealing the connection between the topics of equations and functions.*

Key words: *project method, project, visual thinking, quadratic equation, quadratic function, discriminant, coefficients.*

Kirish. Umumiy o‘rta ta’limning matematika fani o‘quv dasturida [10] matematika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatuvlar orqali amaliy faoliyatlarini bog‘lagan holda loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo‘lgan ko‘nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirish asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, matematika fani yo‘nalishida o‘quvchilarning loyihalashtirish- ga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish matematika ta‘limini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi ko‘rsatilgan.

Loyihalash (lot. projectus–olg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz), nomini o‘zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, proyekt ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrning mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi [7].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Loyihalash metodini ta’lim jarayonida qo‘llash [2], [8], matematika darslarida loyihalash metodidan foydalanishning ahamiyati va loyihalar namunalari [9] turli metodistlar tomonidan o‘rganilgan. Bu ishlarda qo‘llash orqali o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil hayotga tayyorlash ko‘nikmalari, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo‘ljal olish, turli taxmin, g‘oyalarni ilgari surish, tadqiqot o‘tkazish, tahlil qilish, o‘z faoliyati natijasiga mas’ul bo‘lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to‘g‘irlash, turli yechim va takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish, jamoada ishlash kabi xislatlarni shakllantirilishi aytilgan. Lekin o‘quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantirishda loyihalash metodidan foydalanish alohida qaralmagan. Quyida asosiy tushunchalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Vizual tafakkur, ya’ni, R.Arnxeym [3] yozishicha: “Vizual (ko‘rish) jarayonlari ta’siridagi tafakkur” ma’nosini anglatadi. Vizual tafakkur – bu shunday faoliyat bo‘lib, u obrazlarni yaratishni, ular ustida amal bajarishni, obrazlarni ixtiyoriy yoki berilgan yo‘nalishda qayta qurishni, obrazni qurishda turli hisob sistemalaridan foydalanish, obrazda inson o‘ziga muhim bo‘lgan turli alomat va xossalarini ajratishni ta’minlaydi. V.P.Zinchenko fikricha, vizual tafakkur mahsuloti yangi obrazlarni yaratish, ma’lum bir axborotni o‘zida mujassamlashtirgan vizual shakllarni yaratishdan iborat inson faoliyatidir [5].

Psixologlar fikriga ko‘ra, obyektning asosiy mazmunini talqin qilishda vizual-grafik shaklga (masalan, chizma, rasm va boshqalar) o‘tkazish obyektning fotosuratiga nisbatan afzal hisoblanadi. Vizual-grafik shakldan foydalanib, obyektning muhim xususiyatlarini tasavvur qilish va aqliy operatsiyalarni amalga oshirishda ularga tayanish (so‘zlarga emas) vizual tafakkurning mohiyatidir [6].

B.A.Dalinger fikriga ko‘ra, vizual tafakkurning mohiyati ko‘rgazmalilikning namoyish funksiyasidan kognitiv funksiyasiga o‘tish orqali ta’limni rivojlantiruvchi funksiyasiga o‘tkazishni ta’minlaydi [4].

E.S.Polat shunday yozadi: “Loyiha metodi – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning yuzaga kelgan muammo, muammoli vaziyatning yechimini topishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir” [9].

Loyihalash metodiga bag‘ishlangan ishlarda loyiha turlari, uni bajarish bosqichlari ta’riflangan. O‘quv loyihalari loyihadagi faoliyatning ustunligi jihatidan uch guruhga bo‘linadi: informatsion (axborot beruvchi), tadqiqiy va amaliy yo‘naltirilgan. Loyihalash ikki usulda – shaxsiy va guruhiy asosda amalga oshiriladi.

Ushbu maqolada guruhiy usuldagi loyiha mavzusida ishlab chiqilgan. 10-sinfning algebra va analiz asoslari [1] kursining takrorlash bobi kvadrat funksiya mavzusidan boshlanadi, bunda analitik usulda berilgan kvadrat funksiya grafigini yasash, nollarini topish, qiymatlar to‘plamini topish, eng katta (eng kichik) qiymatlarini topish, biror parametrning qanday qiymatlarida funksiyaning xossalari qanday bajarilishini topish talab qilingan parametrik masalalar qaralgan. Aksariyat o‘quvchilar kvadrat tenglama nima, kvadrat tenglamani yechishning disriminant usulini, kvadrat uchhad va uning grafigini yasash, kvadrat funksiyaning xossalari haqidagi bilimlarga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘phadlar, funksiyalar va ularning xususiyatlari bo‘yicha o‘quv materiallari, pedagogik va metodik adabiyotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning tajribasi. Tadqiqot jarayonida empirik usullar (nazorat, intervyu), umumiy ilmiy usullar (tahlil, sintez, konkretlashtirish, tizimlashtirish, umumlashtirish), matematik tahlil usullari qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar. Loyihaga kirishda quyidagi masala o‘qituvchi tomonidan taqdim etiladi va uni yechishda kvadrat funksiya grafigining koordinata tekisligida joylashishidan foydalanib, funksiya grafigi asosida muhim xossalarini ajratishni talab qiladi.

O‘quvchilar diqqatini kvadrat tenglamalar faqat koeffitsiyentlari bilan bir-biridan farq qilishiga va ularga bog‘liq holda, ildizlari haqida fikr aytish mumkinligiga qaratamiz va quyidagi muammoni qo‘yamiz:

1-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlariga qanday shartlar qo‘yganimizda uning ikkala ildizi ham musbat bo‘ladi?

Shunga o‘xshash yana qanday muammolarni qo‘yish mumkin? O‘quvchilar fikrlari va takliflari aso- sida quyidagicha masalalarni qo‘yish mumkin.

2-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlariga qanday shartlar qo‘yganimizda, uning ikkila ildizi ham manfiy bo‘ladi?

3-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlariga qanday shartlar qo‘yganimizda, uning ildizlari turli ishorali bo‘ladi?

4-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlariga qanday shartlar qo‘yganimizda, u bitta musbat (karrali) ildizga ega bo‘ladi?

5-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlariga qanday shartlar qo‘yganimizda, u bitta manfiy (karrali) ildizga ega bo‘ladi?

6-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlariga qanday shartlar qo‘yganimizda, uning haqiqiy ildizlari mavjud bo‘lmaydi?

O‘qituvchi: 1 va 2 masalalarni yana ham umumlashtirish mumkinmi? 0 ning o‘rniga boshqa son olish mumkin emasmi?

Iqtidorli o‘quvchilar uchun yuqoridagi masalalarni umumlashtirib berishni taklif qilamiz. Natijada quyidagi masalalar shakllantiriladi:

7-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ildizlari qachon biror p G 0 sondan katta bo‘ladi [11]?

8-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ildizlari qachon biror p G 0 sondan kichik bo‘ladi?

9-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ildizlaridan biri p G 0 sondan katta ikkinchisi kichik bo‘ladi?

Sinfni ikki guruhga ajratamiz va birinchi guruhga Viyet teoremasidan, ikkinchi guruhga kvadrat tenglamaga mos grafikdan foydalanish tavsiya etiladi.

Farazni ilgari surish va isbotlashda vizual-grafik shakllardan foydalanib, yuqoridagi 1-masalani yechishni namuna sifatida keltirib o‘tamiz. Qolgan masalalarni loyiha ishi sifatida mustaqil hal qilishni o‘quvchilarga qoldiramiz.

1. $ax^2 + bx + c = 0$ tenglama ildizlari musbat bo‘lganda, uning koeffitsiyentlari va diskriminanti ishoralarini aniqlashni $y = ax^2 + bx + c$ funksiyaning grafigidan foydalanish orqali ko‘rib chiqamiz. Bunda, avvalambor, $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ikkita musbat ildizlarga ega bo‘lganda $y = ax^2 + bx + c$ kvadrat funksiyaning grafigi Ox o‘qining musbat qismini kesib o‘tishini grafikdan ko‘rishimiz mumkin (1–2-rasmlar).



1-rasm.



2-rasm.

1. $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ bo‘lganda, $a > 0$ holatni ko‘ramiz (1-rasm).

1) kvadrat tenglamaning $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ haqiqiy ildizlari mavjud ekanligidan, diskriminant $D > 0$ musbat ekanligini aniqlaymiz;

2) $x_0 > 0$, chunki $x_1 < x_0 < x_2$. $x_0 = \frac{x1+x2}{2} = -\frac{b}{2a} > 0$ va $a > 0$ ekanligidan, $b < 0$ kelib chiqadi;

3) $y(0) = a \cdot 0^2 + b \cdot 0 + c = c$, ya'ni c ning qiymati funksiya grafigining Oy o'qi bilan kesishish nuqtasi ekanligini bilgan holda, funksiya grafigining Oy o'qi bilan kesishish nuqtasi $c > 0$ ekanligini aniqlaymiz.

Demak, $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ bo'lganda, $D > 0$, $a > 0$, $b < 0$, $c > 0$ bo'ladi. a, b, c koeffitsiyentlar ko'paytmasi esa $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$, $b \cdot c < 0$.

2. $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ bo'lganda $a < 0$ holatni ko'ramiz (2-rasm).

1) kvadrat tenglamaning $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ haqiqiy ildizlari mavjud ekanligidan, diskriminant $D > 0$ musbat ekanligini ravshan;

2) $x_0 > 0$, chunki $x_1 < x_0 < x_2$. $x_0 = \frac{x1+x2}{2} = -\frac{b}{2a} > 0$ va $a < 0$ ekanligidan $b > 0$ kelib chiqadi;

3) $y(0) = a \cdot 0^2 + b \cdot 0 + c = c$, ya'ni, c ning qiymati funksiya grafigining Oy o'qi bilan kesishish nuqtasi ekanligini bilgan holda, rasmdagi funksiya grafigining Oy o'qi bilan kesishish nuqtasi $c < 0$ ekanligini aniqlaymiz.

Demak, $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ bo'lganda, $D > 0$, $a < 0$, $b > 0$, $c < 0$ bo'ladi. a, b, c koeffitsiyentlar ko'paytmasi esa $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$, $b \cdot c < 0$.

Yuqoridagi natijalarni xulosalab, quyidagi farazni ilgari suramiz.

1-faraz. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ikkita turli musbat ildizlarga ega bo'lsa, u holda $D > 0$ va uning koeffitsiyentlari ko'paymasi $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ bo'ladi.

1-farazning isboti. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ikkita turli musbat $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ ildizlarga ega bo'lishidan, koeffitsiyentlari $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ bo'lishini isbotlaymiz.

Viyet teoremasiga ko'ra, $x_1 + x_2 = -\frac{b}{a}$, $x_1 \cdot x_2 = \frac{c}{a}$. Shartga ko'ra, $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ ekanligidan

$$\begin{cases} x_1 + x_2 = -\frac{b}{a} > 0 \\ x_1 \cdot x_2 = \frac{c}{a} > 0 \end{cases}$$

ularning yig'indisi va ko'paytmasi $\begin{cases} a \cdot b < 0 \\ a \cdot c > 0 \end{cases}$ bo'lishi ravshan. Bundan kelib chiqadi.

Ma'lumki, $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning ikkita turli ildizlari mavjudligi, uning diskriminanti $D > 0$ musbat bo'lishini ifodalaydi.

Demak, $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ va $D > 0$ shartlarning bajarilishi isbotlandi. 1-farazning to'g'riligi ko'rsatildi.

1- farazga teskari faraz ham o'rinlimi? degan savol qo'yib, teskari farazni tuzamiz va uning to'g'riligini isbotlaymiz.

2-faraz. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama koeffitsiyentlari ko'paymasi $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ va $D > 0$ bo'lsa, u holda kvadrat tenglama ikkita turli musbat $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ ildizlarga ega bo'ladi.

2-farazning isboti. $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ va $D > 0$ shartlarning bajarilishidan kvadrat tenglamaning $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ turli musbat ildizlari mavjud bo'lishini ko'rsatishimiz kerak.

$D > 0$ ekanligidan ravshanki, kvadrat tenglama ikkita turli ildizlarga ega bo'ladi. Endi bu ildizlar musbat ekanligini ko'rsatamiz:

$\begin{cases} a \cdot b < 0 \\ a \cdot c > 0 \end{cases}$ sistema $\begin{cases} -\frac{b}{a} > 0 \\ \frac{c}{a} > 0 \end{cases}$ sistemaga teng kuchli. Bundan $\begin{cases} -\frac{b}{a} = x_1 + x_2 > 0 \\ \frac{c}{a} = x_1 \cdot x_2 > 0 \end{cases}$ kelib chiqadi.

$\begin{cases} x_1 + x_2 > 0 \\ x_1 \cdot x_2 > 0 \end{cases}$ shartlar $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ bo'lgandagina bajariladi.

Demak, farazning to'g'riligini ya'ni $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ va $D > 0$ shartlarning bajarilishidan kvadrat tenglama turli musbat $x_1 > 0$ va $x_2 > 0$ ildizlarga ega ekanligini ko'rsatdik.

Yuqoridagi 1-va 2-farazning to'g'riligini isbotlab, biz quyidagi teoremani hosil qilamiz.

1-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ikkita turli musbat ildizlarga ega bo'lishi uchun, uning koeffitsiyentlari ko'paymasi $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ va diskriminanti $D > 0$ bo'lishi zarur va yetarli.

Yuqoridagi masalalarni yechish orqali o'quvchilar quyidagi natijalarga kelishadi.

2-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ikkita turli manfiy ildizlarga ega bo'lishi uchun, uning koeffitsiyentlari ko'paymasi $a \cdot b > 0$, $a \cdot c > 0$, va diskriminanti $D > 0$ bo'lishi zarur va yetarli.

3-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama ikkita turli ishorali ildizlarga ega bo‘lishi uchun, uning diskriminanti $D > 0$ musbat, koeffitsiyentlari $a \cdot b < 0$, $a \cdot c < 0$ yoki $a \cdot b > 0$, $a \cdot c < 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

Kvadrat tenglama ikkita turli ishorali ildizlarga ega bo‘lganda, $a > 0$ bo‘lganda, funksiya grafigi quyidagi ko‘rinishda tasvirlash mumkin (3–4-rasmlar).



$|x_1| < x_2, x_0 > 0$

3-rasm.



$|x_1| > x_2, x_0 < 0$

4-rasm.

4-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama bitta musbat (karrali) ildizga ega bo‘lishi uchun, uning diskriminanti $D = 0$, koeffisiyentlari $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

5-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama bitta manfiy (karrali) ildizga ega bo‘lishi uchun, uning diskriminanti $D = 0$, koeffitsiyentlari $a \cdot b > 0$, $a \cdot c > 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

6-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning haqiqiy ildizlari ega bo‘lmasligi uchun, uning diskriminanti $D < 0$, koeffitsiyentlari $a \cdot b < 0$, $a \cdot c > 0$ yoki $a \cdot b > 0$, $a \cdot c > 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

Yuqoridagi masalalarda $x = 0$ bo‘lganda, funksiya $f(0) = c$ edi. Endi $x = P$ G 0 bo‘lganda, $f(P) = c$ uchun qanday shartlar o‘rinli bo‘lishini 7-8-9-masalalar misolida ko‘rib chiqamiz.

Yuqoridagi 7-masalani yechishda $a > 0$ bo‘lganda (5-rasm), $a < 0$ bo‘lganda (6-rasm) P ning qiymati $f(P)$ ni kvadrat funksiya grafigidan ko‘rish mumkin (5–6-rasmlar).



5-rasm.



6-rasm.

7-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning ildizlari P G 0 sonidan katta bo‘lishi uchun, uning diskriminanti $D \geq 0$, $x_0 > P$, $a \cdot f(P) > 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

8-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning ildizlari P G 0 sonidan katta bo‘lishi uchun, uning diskriminanti $D \geq 0$, $x_0 < P$, $a \cdot f(P) > 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

9-teorema. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglamaning ildizlari P G 0 sonidan katta bo‘lishi uchun, uning diskriminanti $D > 0$, $x_1 < P < x_2$, $a \cdot f(P) < 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

Yuqorida hosil qilingan teoremalarni isbotlashni loyiha ishi sifatida o‘quvchilarga berishni tavsiya qilamiz.

Xulosa va takliflar. Chizmalar, grafiklar teorema isbotini bermaydi, biroq o‘quvchiga teoremani oson va tushunarli bo‘lishida, xotirasida uzoq vaqt saqlanib turishida muhim ahamiyatga ega. Biz o‘quvchilarga funksiya grafiklari bilan qanday ishlashni o‘rgatsakkina, ular shu kabi masalalarni grafik orqali hal qila olish mumkinligini tushunishadi. Bu huddi o‘quvchilarga xarita bilan ishlashni o‘rgatsangiz, kerakli manzilni xarita yordamida o‘zi topib bora olishiga o‘xshaydi.

Bu loyihani bajarish natijasida quyidagi natijalarga erishiladi:

1. O‘quvchilarning kvadrat tenglama va unga mos funksiya xossalari orasidagi aloqalarni chuqurroq tushunishga erishiladi.
2. O‘quvchilar kvadrat tenglamani tadqiq etishda unga mos grafikdan foydalanish tajribasini o‘zlashtiriladi.
3. O‘quvchilar funksiya grafigi yordamida mantiqiy fikrlash tomon yo‘naltiriladi;
4. Kvadrat funksiyaga doir nazariy bilimlarni qo‘llash orqali amaliy natijalar olish mumkinligini tushunib yetadi.
5. Muhim teoremalar ham aslida shunday izlanishlar natijasining mahsuli ekanligini anglab yetadi.

Loyiha ishining natijasi o‘quvchining muammoli vaziyatlarni bartaraf eta olish qobiliyatiga ega ekanligini bilib olishiga, o‘rganilgan bilimlarini yanada chuqurroq, shu bilan birga, biror mavzuning boshqa mavzular bilan aloqadorligini bilib olishiga olib keladi.

Matematik masalalarni yechishda chizmalar, grafiklardan foydalanish masala shartini aniq tushunib olishga imkon beradi. Shu bilan birga, masala yechish metodini to‘g‘ri tanlab olishga imkon beradi. Masala shartida berilgan vaziyatni chizmalar, grafiklarda aniq ko‘rish imkoni mavjud va shu orqali masalani yechish yo‘lini qidirib topish ma’lum darajada osonlashadi. Chunki ko‘rinib turgan vaziyatga baho berish uni chizmalarsiz faqat matndan iborat qismini o‘qib, xulosa chiqarishdan ko‘ra ancha osonroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Zaitov A. va boshqalar. Algebra va analiz asoslari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2022, 192-bet.

(2). Abdullaxo‘jayeva M.A., Xalikova N.M. Darslarda loyihalash texnologiyasidan foydalanish. Journal of Universal Science Research. 2023, 1-t, №. 3, 175–177-betlar.

(3). Арнхейм, Р. Визуальное мышление. Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления. под ред. Ю.Б.Гиппенрейтер, В.В.Петухова. М., изд-во МГУ, 1981, с. 97–107.

(4). Далингер, В.А. Обучение математике на основе когнитивно-визуального подхода. Вестник Брянского государственного университета, 2011, № 1, с. 299.

(5). Зинченко В.П., Вергилес Н.Ю. Формирование зрительного образа. Исследование деятельности зрительной системы. М., изд-во МГУ, 1969, с. 106.

(6). Крюкова С.А. Понимание визуального мышления. “Аналитика культурологии”, 2012, №. 22, с. 152 –155.

(7). Nuranova L. Innovatsion ta’lim texnologiyasida loyihalash metodi imkoniyatlari va uni amalga oshirish bosqichlari. Журнал “Педагогики и психологии в современном образовании”, 2021, 1-t, №. 4.

(8). Пахомова Н.Ю. Учебное проектирование как деятельность. Вестник московского государственного областного университета. Серия “Педагогика”, 2010, № 2, с. 57–63.

(9). Полат Е.С. Метод проектов: история и теория вопроса. Проблемы и перспективы теории и практики ученического проектирования. Сборник статей. Под ред. Н.Ю.Пахомовой, М., “МИОО”, 2005, с. 20–30.

(10). Umumiy o‘rta ta’limning Matematika fani o‘quv dasturi. Umumiy o‘rta ta’limning 3-,6-,7–10-sinflari uchun, Toshkent, 2022.

(11). Raximov N.N., Jonuzoqov Sh.Sh. Parabola yordamida parametrli kvadrat tenglamalarni yechish. «Fizika, matematika va informatika», Respublika ilmiy-uslubiy jurnali, Toshkent, 2018, 5-son, 47–51-betlar.

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti v.b.;
e-mail: fayziyev@samdchti.uz)

“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN “TAKRORLANUVCHI ALGORITMLAR” MAVZUSIGA OID MASALALARNI YECHISHNI MULTIMEDIA ASOSIDA O‘RGATISH

Annotatsiya. *Maqolada “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mavzularidan takrorlanuvchi algoritmlar mavzusiga oid masalalarni yechishni multimedialar asosida o‘zlashtirish metodikasi haqida fikr yuritilgan. Bu mavzuni o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanib, dars jarayonini tashkil etish va bularni tushuntirish jarayonini animatsiya yordamida ko‘rsatish nazarda tutilgan.*

Kalit so‘zlar*: algoritm, xossalari, diskretlilik, aniqlilik, tushunarlilik, ommaviylik, natijaviylik, natija, analitik, chiziqli, takrorlanuvchi, tarmoqlanuvchi, aralash, python, multimedia, animatsiya, imitatsion model.*

ОБУЧЕНИЕ НА ОСНОВЕ РЕШЕНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ЗАДАЧ ПО ТЕМЕ ПОВТОРЯЮЩИХСЯ АЛГОРИТМОВ ПО ПРЕДМЕТУ «ИНФОРМАЦИЯ И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ»

Аннотация. *В статье рассматривается методика решения задач, связанных с повторяющимися алгоритмами из предметов «Информатика и информационные технологии» на основе мультимедиа. При преподавании данной темы предполагается использовать средства мультимедиа для организации процесса урока и показать процесс объяснения с помощью анимации.*

Ключевые слова*: алгоритм, свойства, дискретность, точность, понятность, масса, результат , аналитический, линейный, итеративный, ветвящийся, смешанный, питон, мультимедиа, анимация, имитационная модель.*

TEACHING ON THE BASIS OF MULTIMEDIA PROBLEM SOLVING ON THE SUBJECT OF REPETITIVE ALGORITHMS FROM THE SCIENCE OF “INFORMATION AND INFORMATION TECHNOLOGIES”

Annotation. *The article discusses the methodology of solving problems related to repetitive algorithms from the subjects of “Informatics and information technologies” based on multimedia. In the teaching of this topic, it is intended to use multimedia tools to organize the lesson process and to show the process of explanation with the help of animation.*

Key words*: algorithm, properties, discreteness, accuracy, comprehensibility, mass, result, result, analytical, linear, iterative, branching, mixed, python, multimedia, animation, simulation model.*

Kirish. Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning ilmiy metodik muammolariga va ta’limga axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuning bilan bir qatorda, ta’limni axborotlashtirish sharoitida multimediali texnologiyalar (ovoz, video, tasvir, grafika, imitatsion modellar) asosida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mazmunini to‘liq qamrab oladigan tizimli tadqiqotga ehtiyoj mavjudligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Hozirgi paytda ta’lim jarayonini avtomatlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim jarayonini avtomatlashtirishning qulay vositalaridan biri kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdir. Dasturiy vositalarning qo‘llanilishi o‘qituvchilarga metodik qo‘llanmalarni tayyorlashdagi murakkabliklar- ga amaliy yordam berish jarayonni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Yuqoridagi fikrlar asosida mavzuda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mazmunini boyitish maqsadida multimediali elektron qo‘llanma yaratish va uning asosida o‘qitish metodikasi belgilangan [1].

Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini aks ettiradigan muhim sohalardan biri – bu ta’lim sohasi hisoblanadi. Bu soha alohida mamlakatlar va butun insoniyatning kelajagini ta’minlaydigan omil bo‘lib, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi va istiqbolini belgilovchi kuchdir. So‘nggi yillarda respublikada ta’lim jarayo- nini elektron resurslar asosida takomillashtirish va o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga katta aha- miyat berilmoqda. Shu bois zamonaviy dasturiy vositalarni yaratish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish hozirgi kunda ta’lim tizimini takomillashtirishning dolzarb muammosiga aylanmoqda. Bu borada elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Multimediali elektron qo‘llanmalar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jam- lash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni jonli muloqot usulida taqdim etish va nazorat qilish imkoni- yatlariga ega bo‘lgan manbadir. Elektron o‘quv adabiyotlari turli kategoriya bo‘yicha tasniflanib, giper-

matnli elektron qo‘llanma grafika, tasvir va matn elementlari bilan, multimediali elektron qo‘llanmaga gi- per matn, audio, video, animatsiyalar va imitasion modellar kabi o‘quv elektron nashrlar misol bo‘ladi [2]. Tajribadan ma’lumki, inson eshitish a’zolariga nisbatan ko‘rish a’zolari yordamida olingan ma’lu- motlarni sezilarli darajada eslab qolishi, tabiiy. Buning boisi, eshitish a’zolaridan farqli ravishda, ko‘rish a’zolaridan olinayotgan ma’lumotlar qayta kodlashtirilmay, to‘g‘ridan to‘g‘ri xotiraga o‘tadi va uzoq vaqt saqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish va ta’limni axborotlashtirish vositalarini yaratish hamda ulardan foydalanishning nazariy asoslari bo‘yicha M.H.Lutfillayev, A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulovlar izla- nish olib borishgan.

Ta’limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning metodik masalalari, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha M.M.Abdurazaqov, M.M.Aripov, N.I.Taylaqov, G.Abilqasimova, A.X.Abdullayev, B.B.Mo‘minov, H.O.Jo‘rayev, M.A.Fayziyev, Q.T.Olimovlar tomonidan o‘rganilgan.

Multimediali o‘qitish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari va axbo- rot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash muammolarga doir mustaqil davlatlar hamdo‘st- ligi mamlakatlaridan S.A.Beshenkov, O.M.Gudireva, T.A.Gudkova, H.Y.Postalyuk, Y.A.Prozorova, I.V. Robert, Y.Y.Smirnova, M.A.Surxayev, A.R.Taneyeva, N.D.Ugrinovichlar tomonidan nazariy jihatlari tad- qiq qilganlar.

Multimediali elektron qo‘llanma an’anaviy darsliklarga qaraganda o‘quv materiallarini namoyish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Multimediali elektron qo‘llanma o‘quvchilarning ko‘proq mustaqil ishlashlari uchun mo‘ljallangan didaktik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o‘quv jarayoniga qo‘yilgan barcha talablarga javob berishi kerak.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish metodi- kasining didaktik imkoniyatlari interaktiv darslarni tashkil etish multimediali elektron qo‘llanmalarning ta’lim berishga mo‘ljallangan qismida o‘quv materiallarini taqdim etishda o‘quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e’tibor beriladi. Taqdim etilayotgan o‘quv materiallari ta’lim oluvchilar uchun sodda, qulay, ko‘rgazmali va o‘zlashtirish uchun izohli ma’lumotlar tavsiya etilgan bo‘lishi, shuningdek, muvofiq- lik va izchillik, tashkiliy-metodik, texnologik-jarayonli tamoyillar hamda motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi nazariy va amaliy jihatdan rivoj- lantirilgan bo‘lishi asoslangan [3].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida multimediali elektron qo‘llanmlar asosida o‘quv jarayonini tash- kil etish ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarini qo‘llashda mavjud gipermatn, gipermedia, grafika, ani- matsiya va ovoz dasturlarining mavjudligi katta samara beradi. Chet ellar va respublikamizda to‘plangan tajribalar tahlil qilinganda axborot texnologiyalarining pedagogik dasturiy vositalari o‘qitishda yangi vo- sitalar sifatida o‘quv jarayonini takomillashtirish nuqtayi nazaridan keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, an’a- naviy o‘qitish vositalaridan keskin farq qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida multimediali elektron qo‘llanmaning o‘quv materiallardan samara- li foydalanish uchun imkoniyatlar yaratadigan vosita sifatida alohida o‘rni bor.

Elektron qo‘llanma o‘quvchilarning ko‘proq mustaqil ishlashlari uchun mo‘ljallangan didaktik funk- siyalarni bajarish bilan bir qatorda, o‘quv jarayoniga qo‘yilgan talablarga javob beradi. Shunday qilib, mul- timediali elektron qo‘llanmani ta’lim jarayoniga tatbiq etishda pedagogik tomonlaridan tashqari, psixologik va gigiyenik tomonlarini ham e’tiborga olish, o‘quvchilarning intelektual qobiliyatlarini va o‘quv jarayo- nida faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

Elektron ta’lim resurslari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda multimedia texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarni o‘qishga qiziqishni yanada orttiradi, ta’limning interaktiv xususiyati asosida o‘quvchilarning fikrlash qobilyatini rivojlantiradi va o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishining samaradorli- gini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, elektron ta’lim resurslari real hayotlarda namoyish qilinishi murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini beradi [4].

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish boshqa fanlarga nisbatan alohida o‘rinda tu- radi. Buning boisi kompyuter va dasturiy ta’minot “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining aso- sini tashkil etishidir. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining “Takrorlanuvchi algoritmlar” mav- zusi asosiy hisoblanib, bu mavzuni o‘zlashtirgan o‘quvchilarda dasturiy ta’minot yaratish uchun kerakli bi- lim va ko‘nikma hosil bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchilarga ushbu bo‘limlarni o‘zlashtirishlari uchun ke- rakli nazariy va amaliy bilimlarni berish lozim. Hozirgi zamon ta’lim tizimida ushbu masalani yechish

uchun turli ko‘rinishdagi usul va metodikalarni qo‘llash mumkin. Bularga misol tariqasida axborot texnologiyalarining multimedia elektron qo‘llanma asosida dars jarayonini tashkil etishni ko‘rsatish mumkin [7]. **Tadqiqot metodologiyasi**. Multimediali elektron qo‘llanmada 9-sinf “Informatika va axborot tex- nologiyalari” faniga oid mavzular animatsion ko‘rinishda mazmunan yoritib berilgan. Yaratilgan multime- diali elektron qo‘llanma muqovasidagi kirish tugmasi ishga tushirilganda ekranda “Algoritmlar” bo‘limi ochiladi (1-rasm).

1-rasm. Multimediali elektron qo‘llanma “Algoritmlar” bo‘limi.

“Algoritmlar” bo‘limi darchasida algoritm tushunchasi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Shuning bilan birga, mazkur darchada “Algoritmning xossalari”, “Algoritmni tasvirlash usullari” va “Algoritm turlari” mavzulariga doir multimediali elektron ishlanmalarga o‘tish tugmalari ham mavjud. Xossalari tugmasi ishga tushirilsa algoritmning asosiy xossalari darchasi ochiladi [5].

Algoritmning asosiy xossalari darchasidagi har bir tushunchaga oid tugmaga sichqoncha ko‘rsatkichi olib borilganda, mos ravishda xossalariga tegishli ma’lumotlar ekranda namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi darchada tasvirlash usullari tugmasi ishga tushirilganda ekranda “Algoritmning tasvir- lash usullari” darchasi ochiladi. Algoritmlarni tasvirlash usullari darchasidagi har bir tushunchaga oid tugmaga sichqoncha ko‘rsatkichi olib borilganda, mos ravishda, ma’lumotlar ekranda namoyon bo‘ladi va dar- chada turlari tugmasi ishga tushirilsa, ekranda “Algoritmning turlari” darchasi ochiladi. Maskur darchada ham har bir turga tegishli tugmaga sichqoncha ko‘rsatkichi bosilsa, unga mos algoritm haqida ma’lumot va masalalar tugmalari ekranda namoyon bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Takrorlanuvchi algoritmlar darchasi.

Takrorlanuvchi algoritm. Takrorlanuvchi shartga muvofiq bajariladigan ko‘rsatmalar bilan tuziladi- gan algoritmlar tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi.

Yuqorida berilgan 2-rasmda ko‘rinib to‘rgan takrorlanuvchi algoritmlar darchasidagi masalalar tug- malari ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi bosilganda, ularga xos masalalar va ularning yechish jarayonlari oy- nalari ochiladi.

Dars berish jarayonida kompyuter ekranida o‘quvchilarga imitasiya ko‘rinishida namoyish etiladi. o‘quvchilar imitasion model asosida takrorlanuvchi jarayonni bajarilishini nazorat qiladilar va uning maz- mun-mohiyatini tushunib yetadilar. Zarur hollarda bu jarayonni ular takror ko‘rish imkoniyatiga egadirlar [6].

Tahlil va natijalar. Takrorlanuvchi algoritmlarga doir masalalardan birini yechish jarayonini ko‘ra- miz. Masala. 5 dan 11 gacha bo‘lgan toq sonlar ko‘paytmasini, ya’ni p=5*7*9*11 ni hisoblash algoritmi va dasturini tuzing. Bu masalani yechish jarayonini kompyuter imitatsion modeli asosida quyidagi oynada ketma-ket tushuntirib o‘tilgan.



3-rasm. Takrorlanuvchi algoritmlarga doir masala.

Bu oynadan ko‘rish mumkinki, masalani yechishning so‘zli algoritmi, blok-sxemasi va dasturi kelti- rilgan. Bu yerda takrorlanuvchi jarayon to shart bajarilgangacha davom etadi.

Xulosa va takliflar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining takrorlanuvchi algoritm va ularga iod masalalar mavzularini o‘rgatishda kompyuter imitasion mo- delidan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularga mus- taqil ishlash imkoniyatlarini oshiradi [8].

Bundan ko‘rinib turibdiki, axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida umumta’lim mak- tablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini multimedia ko‘rinishida taqdim etish dolzarb mu- ammolardan hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni multimedia ko‘rinishi- da taqdim etish, unda obrazli fikrlash, intellektual rivojlanish darajasini yuqoriga ko‘tarib qolmasdan, mul- timediali va an’anaviy o‘qitish o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartirishga olib keladi [9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Asfandiyorovich F.N. et al. Basics of programming from the textbook of informatics and information tech- nologies chapter python programming language methodology of multimedia. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2022, T. 10, №. 1, p. 778 – 781.

(2). Xasanovich, Prof L.M., et al. “Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student*”. JournalNX*, vol. 7, №. 03, 2021, pp. 167–171.

(3). Asfandiyorovich F.N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Ma- nuals. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. 2023, T. 16, p. 42–45.

(4). Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). Tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusini doir kompyuter imitate- sion modeli asosida takomillashtirish. Research and education, 1(2), p. 273–278.

(5). Fayziyev, N. (2023). Umumta’lim maktablarida “informatika va axborot texnologiyalari” fanini multimer- diali elektron qo‘llanma asosida o‘qitish samaradorligini aniqlash. International Scientific and Practical Conference

on Algorithms and Current Problems of Programming, 1(01). Retrieved from http://ojs.qarshidu.uz/index.php/con/article/view/175

(6). Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o‘g‘li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics, 1(1), 66–71. Retrieved from http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11

(7). Nozim Asfandiyorovich, F., & Ramziddin Toshpo‘latovich, R. (2023). Improving the teaching of the subject “computer tools in linguistic research” based on software tools. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 674–676. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2295

(8). Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini takomillashtirilgan metodika asosida o‘qitishni takomillashtirish. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(5), p. 198–200. Retrieved from https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/515

(9). Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2023). Teaching the subjects of “Informatics and information technology” on the basis of multimedia. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 1(10), p. 135–137. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/2300

Nazarova Kamuna Farhod qizi (Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi; nazarovakamuna02@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI LOYIHALASH TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalash tamoyillari haqida ilmiy-pedagogik va psixologik qarashlar ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalash tamoyillari haqida ham ma’lumot berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutq, qobiliyat, kompetensiya, loyiha, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, o‘qituvchi, ona tili, nutq ko‘nikmalari, malaka, tajriba.*

ПРИНЦИПЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены научно-педагогические и психологические взгляды на методику проектирования процесса развития речевой компетентности учащихся младших классов. Кроме того, была предоставлена информация о методике проектирования процесса развития речевой компетентности.*

Ключевые слова: *речь, способности, компетентность, проект, начальный класс, ученик, учитель, родной язык, речевые навыки, компетентность, опыт.*

PRINCIPLES OF DESIGNING THE PROCESS OF DEVELOPING SPEECH COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *In this article, scientific, pedagogical and psychological views on the methodology of desi-gning the process of development of speech competence in elementary school students are considered. In addition, information was provided about the methodology of designing the process of developing speech competence.*

Key words: *speech, ability, competence, project, primary class, student, teacher, mother tongue, speech skills, competence, experience.*

Kirish (Introduction). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ularning umumiy tilni egallashi va kognitiv rivojlanishining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Samarali muloqot qobiliyatlari nafaqat akademik samaradorlikni oshiradi, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Nutq kompetensiyasini rivojlantirishning keng qamrovli metodologiyasini ishlab chiqish uchun o‘qituvchilar yoshga mos strategiyalar, qiziqarli faoliyat va texnologiya integratsiyasi kabi[1] turli omillarni hisobga olishlari kerak. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mustahkam jarayonni loyihalashning asosiy tamoyillari va mulohazalari haqida umumiy ma’lumot berilgan [1;789–792-b.].

Odatda, 6 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tilni o‘zlashtirishning muhim bosqichida bo‘ladi. Bu davrda ular nafaqat yozma tilni, balki o‘z fikrlarini og‘zaki ifodalash qobiliyatini ham rivojlantiradilar. Nutq kompetensiyasi metodologiyasini ishlab chiqish ushbu yosh o‘quvchilarning

[1] Vigotskiy, L.S. Jamiyatdagi aql: oliy psixologik jarayonlarning rivojlanishi. Garvard universiteti matbuoti, 1978.

kognitiv va hissiy rivojlanishiga mos kelishi kerak. Faoliyat va strategiyalar guruh ichidagi turli til qobiliyatlarini hisobga olgan holda, yoshga mos bo‘lishi kerak.

Ishtirok etish, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda samarali o‘rganish uchun zarurdir. Talabalar o‘rtasida o‘zaro ta’sir va hamkorlikni rag‘batlantiradigan tadbirlarni loyihalash nutq malakasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Guruhdagi muhokamalar, rolli o‘yinlar, hikoyalar va bahslar interfaol faoliyat namunalari bo‘lib,[1] ular nafaqat nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki tanqidiy fikrlash va jamoada ishlashni rivojlantiradi [2;46-b.].

XXI asrda texnologiyani sinfga integratsiyalash samarali ta’lim uchun zaruriy holga aylandi. Ta’lim dasturlari, onlayn platformalar va interaktiv multimedia resurslari nutq malakasini rivojlantirish uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkin. Videotaqdimotlar, virtual til almashinuvi va til o‘rganish ilovalari o‘quvchilarga turli kontekstlarda so‘zlashishni mashq qilish imkoniyatini beradi, bu esa o‘quv jarayonini yanada dinamik va qiziqarli qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish puxta o‘ylangan va ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasiga sarmoya kiritish ularni nafaqat akademik muvaffaqiyatga tayyorlaydi, balki ularni umrbod muloqot qilish uchun zaruriy ko‘nikmalar bilan jihozlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ularning umumiy tilni o‘zlashtirishning muhim jihati hisoblanadi. Nutq ko‘nikmalarini oshirish jarayonini loyihalashda qo‘llaniladigan metodologiya yosh o‘quvchilarning lingvistik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu adabiyot tahlilida biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan metodologiyalar bilan bog‘liq asosiy tushunchalar va tadqiqot natijalarini o‘rganamiz.

Rivojlanish psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv va emotsional bosqichlariga o‘qitish metodikasini moslashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Vigotskiyning sotsial-madaniy nazariyasiga ko‘ra, tilni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarning tegishli yordami bilan hozirgi qobiliyatlaridan tashqarida qiyinchilik tug‘diradigan proksimal rivojlanish zonasini yaratish juda muhimdir. Samarali metodologiyalar rivojlanish nuanslarini hisobga oladi, bu esa faoliyatning yoshga mos kelishini va o‘sishni rag‘batlantirish uchun yetarlicha qiyin bo‘lishini ta’minlaydi.

Krashen va Swain kabi olimlar til o‘rganishda interfaol va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidladilar. Guruhdagi munozaralar, rol o‘ynash va tengdoshlarning o‘zaro ta’siri kabi real hayotdagi muloqotni rag‘batlantiradigan faoliyatni birlashtirish ushbu tamoyillarga mos keladi. Ushbu metodologiyalarning interaktiv tabiati nafaqat nutq malakasini oshiradi, balki tilni muloqot vositasi sifatida chuqurroq tushunishga yordam beradi. Til o‘rganishda texnologiyaning roli keng o‘rganilgan. Warschauer kabi tadqiqotchilar texnologiyaning nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida potensialini, ayniqsa, XXI asr sinfi kontekstida ta’kidlaydilar. Ta’lim dasturlari, onlayn platformalar va multimedia resurslari talabalarga turli kontekstlarda nutq so‘zlash uchun interfaol imkoniyatlarni taklif etadi. Metodologiyaga texnologiyani integratsiyalash faollikni oshiradi va dinamik o‘quv muhitini ta’minlaydi.

Adabiyotlar nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasida mustahkam baholash va qayta aloqa mexanizmlari zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim sohasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish asosiy ta’lim sohasi hisoblanadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini oshirish uchun samarali metodologiyalarni qidirar ekanlar, metodologiyalarning o‘zlari bo‘yicha tadqiqotlar bilan shug‘ullanishlari kerak.

Olimlar boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq tarixiy kontekst, nazariy asoslar va asosiy topilmalarni tushunish uchun mavjud tadqiqotlar, maqolalar va kitoblarni o‘rganadilar. Ushbu bosqich tadqiqotchilarga asos yaratadi va bo‘shliqlar yoki qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladigan joylarni aniqlashga yordam beradi.

Metodologiya bo‘yicha tadqiqotlar, ko‘pincha, miqdoriy va sifat tahlilining kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi. Miqdoriy usullar, masalan, test natijalarini statistik tahlil qilish yoki so‘rov javoblari, raqamli tushunchalarni taklif qiladi. Sifatli usullar, jumladan, suhbatlar yoki kuzatishlarning tematik tahlili turli metodologiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi kontekstual omillarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Ikkala yondashuvning integratsiyasi tadqiqot natijalarini boyitadi.

[1] Skinner, E.A. va Belmont, M.J. Sinfdagi motivatsiya: o‘quv yili davomida o‘qituvchi xulq-atvori va o‘quvchilar faolligining o‘zaro ta’siri. “Pedagogik psixologiya” jurnali, 1993, 85 (4), 57–581-betlar.

Metodologiyalarning samaradorligi to‘g‘risida amaliy tushunchaga ega bo‘lish uchun tadqiqotchilar amaliy tadqiqotlar o‘tkazishlari yoki sinfga aralashuvni amalga oshirishlari mumkin. Ushbu real dunyo ilovalari metodologiyalarni amalda kuzatish imkonini beradi, bu esa tadqiqotchilarga ularning vaqt o‘tishi bilan talabalarning nutqiy malakasiga ta’sirini baholash imkonini beradi. Ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda axloqiy me’yorlar birinchi o‘rinda turadi.

Mutaxassislar tomonidan ko‘rib chiqilgan nashrlar ishonchli ma’lumotlarni tarqatish va sohani rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonini loyihalash tamoyillarini tadqiq qilish dinamik va ko‘p qirrali ishdir. Adabiyotni puxta o‘rganish, aniq tadqiqot savollari, o‘ylangan namunalar, turli xil ma’lumotlarni yig‘ish usullari va axloqiy mulohazalarni o‘z ichiga olgan tizimli yondashuvni qo‘llash orqali olimlar ta’lim sohasiga qimmatli fikrlarni qo‘shadilar. Tadqiqot landshafti rivojlanishda davom etar ekan, ushbu tadqiqotlar natijalari o‘qituvchilar va siyosatchilarga yosh o‘quvchilarda nutq malakasini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar to‘g‘risida ongli qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonini loyihalashda qo‘llaniladigan metodologiya ularning lingvistik qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tahlil boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanish bosqichiga mos keladigan tamoyillarni o‘rganishdan boshlanadi. Tadqiqotlar ushbu yosh o‘quvchilarning kognitiv va hissiy o‘sishini ta’minlaydigan yoshga mos faoliyatning muhimligini doimiy ravishda ta’kidlaydi.

Turli tadqiqotlar natijalari nutq malakasini rivojlantirish metodologiyasida interfaol va qiziqarli faoliyatning ahamiyatini ta’kidlaydi. Guruhdagi muhokamalar, rolli o‘yinlar va hikoyalar o‘quvchilarni o‘z fikrlarini og‘zaki ifoda etishga undashning samarali vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, interfaol mashg‘ulotlar nafaqat nutq mahoratini oshiradi, balki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumiy faolligi va motivatsiyasiga ham hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari nutq qobiliyatini rivojlantirish jarayonida texnologiya integratsiyasining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi [3;56–59-b.]. Metodikalarni tekshirish doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitining muhimligini ta’kidlaydi. Tahlil o‘rganilayotgan metodikalarda til ko‘nikmalarining o‘zaro bog‘liqligiga urg‘u beradi. Nutq faoliyatini tinglash, o‘qish va yozish komponentlari bilan birlashtirish umumiy til malakasini oshiradi. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, yaxlit yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani yanada kengroq va barqaror rivojlantirishga yordam beradi. Metodologiya bo‘yicha tadqiqot natijalari samarali baholash va qayta aloqa strategiyalarining ahamiyatini ta’kidlaydi.

Tahlilning e’tiborga loyiq natijasi – nutq kompetensiyasi tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda o‘qituvchilarning malakasini oshirishning o‘rni. Ushbu strategiyalarni amalga oshirishda ta’lim va yordam olgan o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni namoyish etadilar [4;24–27-b.].

Xulosa va takliflar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashda qo‘llaniladigan tamoyillarning tahlili va natijalari o‘qituvchilar va siyosatchilar uchun asosiy tushunchalarni ochib beradi. Rivojlanish masalalarini tushunish, interaktiv faoliyatni o‘z ichiga olish, texnologiyadan foydalanish, qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish, til ko‘nikmalarini integratsiyalash, samarali baholash strategiyalarini amalga oshirish va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sarmoya kiritish orqali o‘qituvchilar boshlang‘ich sinflarda nutq kompetensiyasining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlash uchun o‘z yondashuvlarini optimallashtirishlari mumkin. Ushbu sohadagi tadqiqotlar rivojlanishda davom etar ekan, ushbu topilmalar yosh o‘quvchilar uchun til ta’limi sohasidagi ilg‘or tajribalarni takomillashtirish va ilgari surish uchun qimmatli asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Vygotskiy, L.S. Jamiyatdagi aql: oliy psixologik jarayonlarning rivojlanishi. Garvard universiteti matbuoti, 1978.

[2]. Skinner, E.A. va Belmont, M.J. Sinfdagi motivatsiya: o‘quv yili davomida o‘qituvchi xulq-atvori va o‘quvchilar faolligining o‘zaro ta’siri. “Pedagogik psixologiya” jurnali, 1993, 85(4), 571–581-betlar.

[3]. Skinner, B.F. Ta’lim fani va o‘qitish san’ati. Garvard Educational Review,1954, 24(2), p. 86–97.

[4]. Varshauer, M. Ikkinchi til sinfida yuzma-yuz va elektron suhbatni solishtirish. CALICO jurnali, 1996, 13(2/3), 7–26-betlar.

Tursunova Saida Isakovna (Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;
r-mail: saidatursunova@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA OG‘ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqni rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar ularni erkin fikrlashga va o‘g‘zaki nutqini rivojlantirishga, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarish darajasining o‘rni va ahamiyati mantiqiy ketma-ket yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *metod, harf, so‘z, talaffuz, intonatsiya, matn, maqol, o‘quvchi, sinf, tafakkur, fikr, natija, samaradorlik.*

ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье логически последовательно освещаются роль и значение уровня выполнения проблемных и сложных заданий в процессе урока, роль и значение внеурочной деятельности в развитии устной речи младших школьников, способствующей их свободному мышлению и развитию устной речи, содержательной организации их досуга.*

Ключевые слова: *метод, буква, слово, произношение, интонация, текст, пословица, ученик, класс, мышление, мысль, результат, эффективность.*

OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF ORAL SPEECH IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Annotation. *This article covers in a logical sequence the role and significance of the level of performance of problematic and difficult tasks in the course of classes in the course of elementary students in the development of oral speech, allowing them to think freely and develop oral speech, to organize their free time in a meaningful way.*

Key words: *method, letter, word, pronunciation, intonation, text, proverb, reader, class, thinking, thought, result, efficiency.*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining amaliy natijalari maktab o‘quvchilarining erishayotgan yutuqlari, tub mohiyati sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars tizimini tashkil etish yuksak ahamiyatga ega. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim tizimida turli amaliy metodlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi maqsadga muvofiqligi hamda o‘zining amaliy samaradorligini oshirishda asosiy o‘rin egallaydi. Nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda bajarilishi hamda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni, so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuv- da qayd etilgan va o‘g‘zaki nutqiy fikrlar, hikoyalar, matnlar, ertaklar, hikmatli so‘zlar, dostonlar, maqol- lar, rivoyatlar, asarlar, she’r va g‘azallar) tushuniladi [1]. Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum o‘g‘zaki nutq va til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng xarakterli ko‘rinishlaridan bo‘lgan aniq, umumiy til tushunchasiga tog‘ridan tog‘ri va qarama-qarshi qo‘yiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma’lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o‘rni va roli qadimdan ko‘pchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida nutqni ma’naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so‘zlash quvvati haqida shunday deydi: “...so‘zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi”. Boshlang‘ich sinflarda nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida badiiy adabiyotni o‘rganishga katta e’tibor beriladi. Badiiy adabiyot ko‘p qirrali hodisadir. Bu yerda nutq vositasi sifatida taqdim etiladi va subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyotdagina odam “so‘zlovchi” bo‘ladi. Ta’kidlanganidek, F.K.Murodov o‘zining “Bolaning ijtimoiy rivojlanishi diagnostikasi”da: “Adabiyotning asosiy xususiyati shundaki, bu yerda til faqat muloqot va ifoda vositasi emas, balki tasvir obyekti hamdir” [2]. K.D.Ushinskiyning ta’kidlashicha, “…bola ikki-uch yilda shuncha narsani oson va tez o‘rganib oladiki [3], keyin yigirma yil qunt bilan astoydil o‘qigan taqdirda ham uning yarmini o‘zlashtira olmaydi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Og‘zaki nutqda, asl nutq (“tashqi nutq”) bilan bir qatorda, ichki nutq ham bor. U so‘zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Nutqning monologik va dialogik turlari mavjud. Nutq aloqa aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida ko‘rinishi o‘qishdir.

Har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi individual nutqqa va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi va tilning asosiy unsurlari – lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli bo‘lmay, umumnikidir, ya’ni muayyan til jamoasiga, umuman, taalluqli bo‘ladi. Nutq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri, uning fikri, ongi bilan chambarchas bog‘liqdir. Nutqda bolaning o‘y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo‘ladi.

Nutq qo‘llanish sohasiga qarab badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllarga bo‘linadi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, ta’sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo‘lib qolishi kerak. Boshqa o‘quvchilar xulq-atvori va o‘qish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish maqsa- dida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya’ni, gapirish, til belgilari- ning eshitish a’zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalar yordamida qayd etiladi- gan va qayta takrorlanadigan) artikulatsiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi. Nutq o‘zaro muloqot jarayoni va aloqa, xabar, o‘z fikrini bayon etish hamda his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

Demak, rivojlangan nutq jamiyatda shaxs faoliyatining muhim vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish asosidir. Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning og‘zaki nutqi bilan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi, bog‘lanishli va tafakkurda fikrlab bayon etilishi) nutqni faol amalga o‘stirish tushuniladi. Nutq o‘stirish deganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tili talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, unli va undosh harflar va tovushlar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutq kabi qismlarni o‘z ichiga oladi.

Maqsad. Boshlang‘ich sinfning birinchi sinfda qabul qilingan bolalar orasida nutqida nuqsoni bor o‘quvchilar ham uchraydi. Ular, ko‘pincha, r, p, q, s kabi harflarni talaffuz qilishda qiynalishadi. Ular bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, maktab psixologi bilan hamkorlikda maxsus o‘yinli, nutq o‘stiruvchi mashg‘ulotlar olib boriladi. Bu o‘quvchilar harflar ustida ishlash va tez aytishlar, so‘zlarni takrorlash va so‘zlarni tushunib gapirishi ustida o‘qituvchi ishlashi kerak.

O‘qituvchi bolalar bilan ishlashda ularning nutqini o‘stirishga asosiy e’tiborni qaratar ekan, maqollar, matinlar, ertaklar, rivoyatalr, tez aytishlar, she’r, hikoyalarini qayta mulohaza qilish o‘quvchilarning ongini shakllan diktant, bayon, hikoya tizish orqali materiallarini puxta tayyorlash, har bir darsni ko‘rgazmali vositalar asosida o‘tishi lozim [6]. Bunda o‘quvchinig xarakteri inobatga olinadi. Men ham, masalan, r harfi talaffuzida qiynalayotgan o‘quvchilar bilan ishlashda r tovushiga oid materiallarni to‘plab, shu asosda ish olib boraman. Bolaga -ar, -ir talaffuzidan ko‘ra -yer, -o‘r talaffuzi osonroq [5]. U nutqdan sirg‘alib chiqayotgan tovush orqali r harfini “ertak”, “ertalab” kabi so‘zlar orqali nutqiy mashqlar olib boriladi. Shu so‘zlar ishtirokida tez aytish, rangli rasmlar mazmunini so‘zlab berish, diktant yozish, she’r yodlash asosida o‘quvchi nutqi asta-sekin rivojlanadi. Hozir o‘qitayotgan sinfimda bir o‘quvchim 1-sinfga qabul qilinganda k, q harflarini t deb talaffuz qilar edi. O‘quvchi bilan ishlash jarayonida t deb talaffuz qilar edi. O‘quvchi bilan ishlash jarayonida q harfiga oid so‘zlar bilan mashg‘ulotlar olib bordim. O‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartlarga rioya qilish o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga chiqarishiga vaziyat yaratish hisoblanadi.

Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z va so‘z birikmalari, gap, nutq rivojlanishi yordamida ifodalansagina, tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni mavaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta’lim metodikasiga asoslanadigan ongli ravishda tilni sezish va his qilish shakllanadi [4]. Nutq o‘stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya’ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o‘rgangan til vositalaridan foydalanilish zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nutqining yuzaga chiqishi uchun talab qo‘yiladigan, o‘quvchilar nutqini, o‘z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi. Buning o‘zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o‘zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari bor. Bular quyidagilar hisoblanadi:

•Adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirish. Maktab o‘quvchilarni adabiy tilni sodda so‘zlashuv tilidan, sheva farqlashga o‘rgatadi. Adabiy tilning badiiy, ilmiy, so‘zlashuv variantlari bilan tanishtiradi va o‘zlashtirishga harakat qiladi.

•Jamiyatimizning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish. Bu bilan o‘quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og‘zaki so‘zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

•O‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatlaridan kelib chiqib, maktabda o‘quvchilarning nutqiy madaniyatiga alohada e’tibor beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchilar nutqni o‘stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir (1-rasm) [7].



1-rasm. O‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi mezonlar.

Ko‘rsatilgan uch yo‘nalish birga olib boriladi, lug‘at ishi gap uchun material beradi, so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z navbatida, bog‘lanishli hikoya va insho lug‘atni boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish o‘z metodik vositalariga ega, o‘zining mashq turlari bor. Shulardan eng muhimlari bog‘lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Hikoya yoki bayon o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalil va isbotlar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina, namunali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida o‘stirishda yod oldirish, so‘zlarning ma’nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo‘lgan o‘yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko‘zlangan maqsad, yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixoligik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zlikni anglashda, bog‘lanishli nutqni o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Darslarda o‘quvchilar zo‘r qiziqish bilan ishtirok etadigan bir nechta metod va o‘yinlardan namunalar keltiramiz (2-rasm) [8].

Tahlil va natijalar. Umuman, boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma’lumki, birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3–4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.



2-rasm. O‘quvchilar faolligini oshiradigan metod va o‘yinlar.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazilish shakliga ko‘ra, darslardan farq qiladi, ko‘pincha, qiziqarlilik xarakteriga ega boladi. Og‘zaki hisob, ko‘pincha, sinfdagi hamma o‘quvchilarning «yana, yana» degan istaklari bilan o‘tkaziladi. O‘quvchilarning talabiga kora, darsda boshlangan ishlarning davomini darsdan tashqari vaqtga ko‘chirish mumkin. O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni oldin ularning talabiga ko‘ra, so‘ngra yechiladigan misol, masalalar, o‘yin va qiziqishning ortishiga qarab oyida ikki marta sistemali o‘tkazib turish mumkin.

Xulosa. Mashg‘ulotlarni o‘tkazishga ketadigan vaqt ularga qo‘yilgan maqsadga qarab aniqlanadi. Agar o‘quvchilar bilan uchrashish darsdan keyin o‘tkazilsa va o‘z oldiga biror o‘yin bilan tanishish maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lsa, bu holda bunday mashg‘ulotga dastlabki paytlarda 10–15 minut vaqt yetarli bo‘ladi. O‘quvchilar o‘yin bilan tanishgandan keyin, odatda, ular, ko‘pincha, o‘zlari ota-onalari, aka-ukalari va boshqalar bilan ham shunday o‘yinni bajaradilar, ya’ni ularni ham jalb qiladilar. Mashg‘ulotlar murakkablashib ketsa, uni o‘tkazish uchun, taxminan, bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o‘quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa ular shu sinf uchun programmada ko‘rsatilgan masalalarning ko‘rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin.

Tavsiyalar. Davlat ta’lim standarti talablarida o‘quvchilarning o‘zgalar fikrini, matn mazmunini to‘liq anglash, o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda aniq va ravon bayon etish malakasini oshirish maqsadi ko‘zda tutilgan ekan, bunda ona tili fani nafaqat o‘quv, balki butun ta’lim tizimida muhim jarayon hisoblanib, bu jarayonga asosiy diqqat-e’tiborini qaratmoq zarurligi alohida uqdirib o‘tialadi. Barchamizga ma’lumki, nutq fikrni ifodalovchi vositasi bo‘lib, u orqali inson o‘z fikrini, qarashlarini bayon etadi. Qolaversa, biz insonning ichki dunyosiga, bilim darajasiga ham uning nutqidan kelib chiqib baho beramiz. Shunday ekan, bilimni o‘zlashtirish, tabiat va borliq haqida ma’lumot to‘plashda samarali hisoblangan nutq o‘stirishga maktab yoshidayoq alohida ahamiyat bermoq lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Tursunova S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash. Interpretation and researches. 2023, t. 2, №.1, 89-bet.

(2). Murodov, F.K., B.T.Mamatkulov, and R.M.Khakimov. Traumatic rupture of a hepatic hydatid cyst. (1984), p. 104.

(3). Ушинский К.Д. Избранные педагогические произведения [Selected pedagogical works]. Moscow, “Мысль” (1968), p. 155.

(4). Abzairov T.Y., Ibragimov T.I. Methods and techniques of teaching russian language. Modern Scientific Research International Scientific Journal. 2024, T. 2, №.1, p. 83.

(5). Isakovna T.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. “Pedagogs” jur- nali, 2023, t. 36, №. 1, c. 71.

(6). Isakovna T.S. Oilada bola tarbiyasi. Scientific aspects and trends in the field of scientific research. 2023, t. 1, №. 9, p. 174.

(7). Tursunova S., Kh T.M. Regarding the development of linguistic competences in primary education International Journal of Pedagogics. 2023, t. 3, №. 04, p. 17.

(8). Tursunova S., Ashuroy D. Specific characteristics of oral speech development of young students. World Bulletin of Management and Law. 2023, t. 27, c. 46–48.

Nurmatov Ilxom Ismoilovich (Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi; ilxomjon050783@gmail.com)

MOBIL ILOVALAR DARS MASHG‘ULOTIDA O‘QITUVCHILARNING IMKONIYATLARINI OSHIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchilarni mobil ilovalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlash hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llari bayon etilgan. Mobil ilovalardan foydalanish asosida o‘quvchilarda zaruriy ma’lumotlarni ko‘rish, eshitish, o‘qish, topshiriqlarni bajarish va tahlil qilish o‘quv faoliyatining kompotensiyasi shakllantiriladi va rivojlantiriladi.*

Kalit so‘zlar: *sifatli ta’lim, mobil ta’lim, mobil ilova, kommunikativ, tanqidiy, kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik, mantiqiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar.*

МОБИЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ РАСШИРЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ УЧИТЕЛЯ НА УРОКЕ

Аннотация. *В статье описывается, как учителя могут дополнительно углубить знания учащихся и развить навыки логического мышления с помощью мобильных приложений. На основе использования мобильных приложений у учащихся формируется и развивается компетентность учебной деятельности видеть, слышать, читать, выполнять задания и анализировать необходимую информацию.*

Ключевые слова: *качественное образование, мобильное обучение, мобильное приложение, коммуникативность, критическое мышление, творческое мышление, совместная работа, исследования, логическое мышление, творческие навыки.*

MOBILE APPLICATIONS AS A TOOL TO ENHANCE TEACHERS' OPPORTUNITIES AT A LESSON

Annotation. *This article describes how teachers can further strengthen students’ knowledge and develop logical thinking skills using mobile applications. Based on the use of mobile applications, students form and develop the competence of educational activities to see, hear, read, complete tasks and analyze the necessary information.*

Key words: *quality education, mobile learning, mobile application, communication, critical thinking, creative thinking, collaboration, research, logical thinking, creative skills.*

Namdu dostenti, PhD, M.Qo‘ldasheva taqrizi asosida

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023-yilga yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berishni taklif qildi. 2023-yildan maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanadi. Ta’lim sohasida boshlangan islohotlarni davom ettirish zarurligini ta’kidladi [1]. Prezidentimizning davlat dasturi to‘g‘risidagi farmoni loyihasi doirasida “2023–2024-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ, tanqidiy, kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi o‘quv dasturlarini amaliyotga kiritilish” vazifasi belgilangan [2].

So‘nggi paytlarda bir qator xorijiy mamlakatlarda informatika erta yoshdan o‘qitilmoqda. Bunday yondashuv bolalarda mantiqiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va muammoga turli texnologiyalar yordamida yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Qolaversa, kelajak avlodni tez o‘zgarayotgan

raqamli dunyoga tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasiga xizmat qiladi. Keyingi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etishga qaratilgan ko‘plab farmon va qarorlar qabul qilingani bejizga emas. Zero, yaxshi, sifatli ta’lim dasturi va darsliklar ta’lim sifatini oshirishga, bolalarni o‘qishga qiziqtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘rganilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, A.N.Rusak mobil ilova ma’lumotlar o‘quvchilarning uzoq muddatli xotirasida saqlanishi uchun o‘rganilgan narsalarni takrorlashning qulay usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, katta hajmdagi ma’lumotlarni yodlash jarayoniga ijobiy ta’sir haqida, shuningdek, o‘yin elementlari orqali mavzuni to‘laqonli o‘rganish haqida ilmiy tadqiqot ishida atroflicha o‘rganilgan [3].

S.V.Titovaning ilmiy tadqiqot ishlarida mobil ilovalarning didaktik ahamiyati bo‘yicha turlarga ajratgan hamda mobil qurilmalardan foydalanish maktab o‘quvchilari uchun universal ta’lim faoliyatining barcha turlarini shakllantirishga, fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘quvchilarning mustaqil ishlari ulushini oshirishga, o‘qitishda foydalaniladigan axborot resurslari doirasini kengaytirishga yordam berishi haqida to‘xtal o‘tgan [4].

AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Italiya, Avstraliya, Kipr, Meksika, Yangi Zelandiya, Polsha, Turkiya, Chili, Shvetsiya va JAR davlatlarida ichki axborot va telekommunikatsion vositalar (mobil kompyuter tizimlari: telefon, planshet va smartfon) asosida ta’lim olish texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda [5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bugungi davrda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko‘lamda foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga qaramay, ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni, o‘qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalari bo‘yicha pedagogik tatqiqotlar natijalarini joriy etish darajasini hozircha yetarli, deb bo‘lmaydi.

Yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir o‘qituvchining o‘z faniga va barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid axborotlarni muntazam o‘rganib borish, ularni pedagogik faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Boshlang‘ich sinf dars mashg‘ulotlarida va darsdan tashqari jarayonlarda mobil ilovalaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Quyidagi boshlang‘ich sinf darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan mobil ilovalar haqida to‘xtatib o‘tamiz:

Maktab.uz – xalqaro standartlarga javob beruvchi ilg‘or raqamli ta’lim texnologiyasi bo‘lib, maktab o‘quvchilari uchun sifatli uzluksiz masofaviy ta’lim taqdim etilishini ta’minlaydi. Mobil ilovada o‘qituvchi va ota-onalar uchun ham o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib borish, mavzular mazmuni bilan tanishish singari keng imkoniyatlar taqdim etiladi.

Maktab.uz ilovasi sizning e’tiboringizga o‘quv dasturiga kiritilgan mavzularni yangicha qiziqarli usulda yoritgan videodarslar taqdim etadi. Shuningdek, mobil ilovada dasturlash, grafik dizayn, robototexnika, samarali muloqot, yetakchilik singari zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘rganish imkoniyati mavjud.

Maktab.uz ilovasidagi videodarslarni siz istalgan joyda o‘zingizga qulay vaqt va sharoitda tomosha qilishingiz mumkin. Mavzularni puxta o‘zlashtirishingiz uchun esa darslar so‘ng savollar ham taqdim etilib, olgan bilim va ko‘nikmalaringizni mustahkamlashga yordam beradi.

Mobil ilova imkoniyatlaridan foydalanish uchun ilovadan ro‘yxatdan o‘tish lozim. Bu esa ko‘p vaqt olmaydi. Ro‘yxatdan o‘tish tugmasi orqali formani to‘ldiring va bir necha daqiqada ilova foydalanuvchilari qatoridan joy oling. Mobil ilovaga xalqaro hamkorlar taqdim etgan interfaol videodarslar bilan birga mahalliy mutaxassislar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan sermazmun videoroliklar ham jamlanmoqda. Asosiysi, ushbu foydali kontent hech biringizni qiziqtirmay qo‘ymaydi.

Asosiy sahifasida fanlar ro‘yxati mavjud bo‘lib, foydalanuvchi o‘ziga kerakli fanni tanlaganidan so‘ng, yangi oynada barcha mavjud darslar paydo bo‘ladi. Kerakli darsni tanlab, chap tarafda joylashgan piktogrammani bosish orqali dars bo‘yicha video, uning tavsifi va testlar jamlanmasi bilan tanishish mumkin. Kerakli fanni tanlashi bilanoq, fan bo‘yicha mavjud darslar aks ettirilgan oyna paydo bo‘ladi. Dars nomidan chap tomonda har bir dars uchun taqdimotlar, shuningdek, “Yuklab olish” so‘zi mavjud bo‘lib, uning ustiga bosish orqali siz taqdimotni yuklab olishingiz mumkin.



Savodxon – Respublika ta’lim markazi tomonidan yaratilgan mobil ilova “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi uchun qo‘shimcha multimedia sifatida ishlab chiqilgan. Bu ilova yordamida savodxonlik darajangizni oshirishingiz mumkin.

Matematika Sayyorasi Respublika ta’lim markazi tomonidan yaratilgan yana bir mobil ilova bo‘lib, “Matematika Sayyorasi” ta’limiy o‘yini 1–4-sinf Математика darsliklari uchun qo‘shimcha manba hisoblanib, mazkur ilovadan bilimlarni rivojlantirishda va baholashda foydalanish mumkin.

Kitob.uz ilovasi davlat bolalar kutubxonasining yangi va zamonaviy portali bo‘lib, kitobxonlarga ma’naviy boyligi, madaniyati, millat ko‘zgusi sifatida xizmat qilib kelayotgan o‘zbek tilidagi elektron va audio kitoblarni o‘qishga imkon beruvchi yagona bilim portali hisoblanadi. Unda **kitob.uz** mobil ilovasini zarur kontent bilan to‘ldirish, ilovani mamlakatimiz aholisi, chet eldagi vatandoshlarimiz va o‘sib kelayotgan yosh avlod orasida o‘zbek tilini ommalashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda, ilovani elektron kutubxona sifatida takomillashtirish, mobil ilovalarni rivojlantirish orqali yoshlar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, kitobxonlarga multimedia shaklidagi ommaviy kitoblar yangiliklarini taqdim etish orqali elektron resurslarga o‘tish.



Bugungi kunda mobil ilova kitobxonlar uchun “O‘zbek adabiyoti”, “Elektron adabiyotlar”, “Matbuot xizmati”, “Loyihalar”, “Jahon adabiyoti”, “Rivoyatlar”, “Ertaklar”, “Bilasizmi?” va ko‘plab boshqa xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Tabiiy fanlar 3-sinf mobil ilovasi 3-sinf Tabiiy fanlar darsligi uchun qo‘shimcha manha hisoblanib, mazkur ilovadan bilimlarni rivojlnatirish hamda baholashda foydalanish mumkin.





smartland.maktab.uz 130 dan ortiq ta’lim o‘yinlari bo‘lib, o‘quvlarni har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, umumta’lim maktablari o‘qituvchilariga uslubiy yordam ko‘rsatish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. Dars davomida ilovadan foydalanish o‘quv jarayonida yangi texnikalarni yaratish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shubhasiz, bu o‘qituvchining o‘quv va ilmiy tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘quvchilarning bilish faolligini yukladi, ta’limga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi.



Ushbu mobil ilovada 15 ta fan bo‘yicha rus va o‘zbek tillarida bo‘lgan o‘yin va mashqlarni o‘z ichiga oladi. Foydalanuvchi o‘ziga qulay bo‘lgan til hamda butun o‘yin davomida unga hamroh bo‘ladigan qahra- monni tanlash imkoniga ega. O‘yinni boshlagach, u turli mamlakatlar bo‘ylab sayohatga chiqadi hamda uyerdagi diqqatga sazovor joylar bilan tanishib, dunyoqarashini kengaytiradi. Turli mashq va vazifalarni ba- jarish natijasida esa bilimlarini mustahkamlaydi. Mamlakatlar sinflar bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, 1–4-sinflarda qahramon O‘zbekiston va Italiya bo‘ylab, 5–9-sinflarda Xitoy va Buyuk Britaniya, 10–11-sinflarda esa AQSH bo‘ylab sayohat qiladilar.

Ta’lim darajasidan birining vazifalarini bajarib, o‘yinchi keyingi darajadagi vazifalarni bajarish imkoniyatini ochadi, u ilgari tanlagan mavzu maydonidan, shu bilan birga, tegishli miqdordagi “Yulduzlar” ni qo‘lga kiritib, keyinchalik, qahramonning maslahatiga almashtirilishi mumkin.

Ta’lim darajasini tanlagandan so‘ng, o‘yinchi mavzu maydonini tanlash imkoniyatiga ega 1–4-darajali sinflar quyidagi mavzularni o‘z ichiga oladi (vazifalar soni bo‘yicha):

1. Alifbo.
2. Butunning qismlari.
3. O‘qish va savodxonlik.
4. Ranglar.
5. Raqamlarni o‘rganish.
6. Ufqlar.
7. Binoni sahifalar.
8. Atrofdagi dunyo.
9. Musiqa.
10. O‘qish.
11. Tasviriy san’at.

Ushbu mobil ilovani Google Play va App Store-da yuklab olish:

AppStore.

https://apps.apple.com/us/app/smart-land-talim-platformasi/id1597450463.

PlayMarket.

https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.ITSM.Smartland.

Mobil ilovalaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini faollashtirishga hamda o‘zlashtirish jarayonini samaradorligini oshrishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Boshlang‘ich sinf darslarida raqamli texnologiyalaridan, ya’ni mobil ilovalar asosida harakatli, didaktik, ko‘rgazmalilik, tovushli sermazmun tarzda mashg‘ulotlarni tashkil orqali yuqori darajadagi samaradorlikka erishish mumkin. Ta’lim jarayonida mobil ilovalaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun quyidagi qulayliklarni yaratadi:

–fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi;

–topshiriqlarni bajarish qiziqarli bo‘ladi

–o‘quvchilar faoliyatini yaxshilaydi;

–vaqtlaridan unumli foydalanishga yordam beradi;

–o‘quvchilarga texnologiya ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi;

–o‘quvchilarning kelajakdagi faoliyatiga ko‘mak beradi;

–o‘qitishning yangi usullaridan foydalanishga imkon beradi;

–mobil ilovalardan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi;

–turli yoshdagi o‘quvchilarni, turli yoshdagi o‘qituvchilar bilan moslashishini ta’minlaydi;

–dars jarayonida mobil ilovalaridan foydalanish o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi va dars jarayonining sifatli hamda sermazmun bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda mobil ilovalardan foydalanish o‘quvchi bolalarning dunyo qarashini shakllanishida, ruhan va aqlan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishlarida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

(1). Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-27-sonli farmoni.

(3). А.Н.Русак. “Мобильные образовательные приложения как электронная обучающая среда”. Наука – образованию, производству, экономике: материалы XXIII науч.-практ. конф., 2018, с. 44 – 45.

(4). С.В.Титова. “Мобильное обучение сегодня: стратегии и перспективы”. Вестник Московского университета. Серия 19, “Лингвистика и межкультурная коммуникация”, 2012, № 1, с. 57–71.

(5). Б.Баннистер “М-обучение, новая реальность в текущий момент”. “Мобильные системы”, 2006, № 2, с. 3–12.

(6). uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi veb sayti

Rozimova Yorqinoy Yuldashevna (O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi “Gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi, dotsent, mayor)

HARBIY-VATANPAVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining ta’limi jarayonida tinglovchi va kursantlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar va turli vositalardan foydalangan holda, harbiy kasbga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish hamda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish masalalari yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Vatan, vatanparvarlik, fidoyilik, ma’naviy meros, milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ong, millat obro‘si, sadoqat, sodiqlik, jasurlik, intizomlilik, zukkolik, matonat, e’tiqod, mas’uliyat.*

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКИХ ЧУВСТВ

Аннотация. *В статье в ходе обучения в Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан рассмотрены современные подходы к формированию чувства военного патриотизма у студентов и курсантов, а также вопросы дальнейшего повышения их интереса к военной профессии и уделено внимание формированию патриотических качеств с помощью различных инструментов.*

Ключевые слова: *Родина, патриотизм, самоотверженность, духовное наследие, национальная гордость, национальная гордость, национальное самосознание, преданность, верность, мужество, дисциплина, ум, сила духа, вера, ответственность.*

ISSUES OF FORMING MILITARY SENSE OF PATRIOTISM

Annotation*. In the article today, in the course of education of the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, modern approaches to forming a sense of military patriotism in students and cadets, and the issues of further increasing their interest in the military profession and improving patriotic qualities using various tools are highlighted.*

Key words: *motherland, patriotism, dedication, spiritual heritage, national pride, national pride, national consciousness, national reputation, loyalty, loyalty, courage, discipline, intelligence, fortitude, faith, responsibility.*

Kirish. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ona-Vatanga sadoqati, ma’naviyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir.

Harbiy-vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma’naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Harbiy-vatanparvarlik – bu insonning o‘z mamlakatidan faxrlanish tuyg‘usini, uning taqdiriga daxldorlik hissiyotini, mustaqil Vatanini himoya qilish hamda xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas’uliyatini anglab yetishdir.

Asosiy qism. Vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur joy oladi, faoliyatiga ta’sir etadi. Vatanparvarlik – bu Vatan ozodligi, ota-ona, el-yurt, jigargo‘shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma’naviy tayyor bo‘lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrorlari bilan puxta qurollanish, bu iroda muayyan bilimga ega bo‘lishdir. Vatanparvarlik – bu har qanday dushmandan o‘z yurtini himoya etish, millat, xalq, Vatan ozodligi, el-yurt tinchligi yo‘lida kerak bo‘lsa, jonini fido etishdir. Vatanparvarlik jumlayi jahondagi barcha xalqlarning donishmand va solih farzandlariga xos tuyg‘udir. Ma’lumki, har bir davr va avlod hayotida o‘ziga xos ma’naviy meros yaratadi. Ma’naviy meros qanday bo‘lsa, davr va avlodlar ham shunday bo‘ladi. Ma’naviy meros muallifi xalq ommasi hisoblanadi. Xalqimiz azal-azaldan insoniy fazilatlarga boy bo‘lgan. Ajdodlarimiz hayoti va ilmiy merosi bunga yorqin misoldir. Vatanparvarlik tarbiyasi har doim, har bir tarixiy davrda dolzarb masala hisoblangan. Ayniqsa, hozirgi kunda, Respublikamiz mustaqilligi qo‘lga kiritilgan, jamiyatimizning har bir jabhasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan, shu bilan birga, mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat murakkab, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi avj olgan bir paytda, har bir harbiy xizmatchini mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ong va o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, mamlakatimiz kelajagi uchun shaxsiy mas’uliyat hissini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy harbiy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta’lim oluvchi yoshlar bo‘lg‘usi Vatan himoyachilari shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o‘z munosib o‘rnini topishi uchun amaliy-hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan ularning harbiy hayotga moslashuviga, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlar Akademiyasi kursantlarining ta’limida asosiy vazifalardan biri vatanparvarlik tarbiyasidir. Vatanparvarlik – biz ta’lim berayotgan dargohda tinglovchi va kursantlarimizni ilm-u ma’rifat, adabiyot, san’at, sport kabilarda faxr-iftixor, shon-u shuhrat, g‘ururlanish tuyg‘usini vujudga keltirishdan boshlanadi. Bugun O‘zbekiston o‘z vatanparvarlarini, o‘z himoyachilarini tarbiyalab yetishtirish, o‘z hududlarining daxlsizligini ta’minlashi zarur. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli vositalardan foydalanish lozim. Ayniqsa, xalqimizning tarixi, bosib o‘tgan yo‘li, undagi tarixiy voqealar namuna bo‘la oladi. Yoshlarning harbiy kasbga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish maqsadida tarixiy qahramonlar To‘maris, Shiroq, Spitamen, buyuk ajdodlarimizdan vatanparvarlikning timsoli bo‘lgan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzoning hayoti va

faoliyati, jasoratiga doir, jangovar taktikasini ifodalovchi hamda ularning vatanparvarligini targ‘ib etuvchi uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etilishi katta ijobiy natija beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining harbiy sohaga oid ma’ruzalarining mazmun-mohiyatini tinglovchi va kursantlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish va yoshlar o‘rtasida harbiy sohadagi amalga oshiriladigan yangiliklarni yetkazish hamda mashhur va obro‘-e’tiborli faxriylarimiz, jasorat ko‘rsatgan harbiy xizmatchilar faoliyatini chuqur o‘rganib, targ‘ib qilish maqsadida “Vatan sha’ni har narsadan ulug‘”, “Ajdodlar merosi yoshlar uchun namuna”, “Biz buyuk yurt posbonlarining munosib vorislari”, “Avlodlarga munosib voris bo‘laylik”, “Ibratli insonlar”, “Milliy armiyamiz – tinchligimiz qalqoni” mavzularida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va suhbatlar tashkil etilishi, kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy oliy dargohlarda ofitser-murabbiylar kelajak Vatan himoyachisining aylanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash, har taraflama faol amaliy ta’sir ko‘rsatishi va bu tayyorgarlikni o‘smir hayotining eng muhim tomoni sifatida anglab tushunishiga yordam berishi kerak. Vatan himoyachisining matonatli va jasur bo‘lib shakllanishida ta’lim jarayoni, albatta, muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kursantlarning nafaqat harbiy bilimlar, balki birinchi qatorda armiya, harbiy qurilish, urush va tinchlik muammolariga bevosita munosabatda bo‘ladigan mezonlar bilan tanishtirishdir. Vatan so‘zi, asli, arabchadan olingan bo‘lib, insonning kindik qoni to‘kilgan zamin, bu zamin uning qalbida abadiy qoladi va hech qachon unutilmaydi. Vatan tushunchasi va unga bo‘lgan muhabbat ona suti, ona bag‘ri, ona allasi bilan bola yuragiga jo bo‘ladi. O‘R QK Akademiyasida tahsil olayotgan kursantlarimizni sog‘lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun ularda faqatgina o‘qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Ular ongida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o‘z Vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish tuyg‘usini hamda ma’naviy-ma’rifiy ongini rivojlantirish lozim bo‘ladi. Buning uchun esa mashg‘ulotlardan tashqari ta’lim va ilmiy to‘garaklarga alohida (kursantlarni fikrlashga undash va shu fikrlariga ularning ko‘zi orqali yondashishga) e’tibor berib, ularni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida hamda o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishlari uchun undashga yordam beradi. Ushbu to‘garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning eng so‘ngi yutuqlaridan xabardor qilib turish ular ongini ijobiy ishlar hamda tarbiyaviy va mafkuraviy tadbirlar bilan band qilish muhim ahamiyatga ega.

Rejalashtiriliyotgan har bir tarbiyaviy va mafkuraviy tadbirlar mazmunida, ilmiy to‘garaklar faoliyatida Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim. Tinglovchi va kursantlarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalashda eng avvalo buyuk bobokalonlarimizning bizlarga qoldirgan meroslari, ularning dunyoni hayratda qoldirgan jasorati, yurtimiz tarixi, muayyan davrlardagi mavqei, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Vatanni sevish, uning ravnaqi haqida qayg‘urish imon-etiqod ramzi ekanligi uqdiriladi. Shu nuqtayi nazardan asosiy maqsad – komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri – bu harbiy xizmatchilarni O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati, iqtisodiyot, fan, madaniyat, ijtimoiy sohada bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan tanishtirib borish, shu asnoda, tinglovchi va kursantlarda Vatanga muhabbat, iftixor, milliy g‘urur, shu Vatanning munosib farzandi bo‘lib yetishiga intilish hissini shakllantirishdan iboratdir.

Vatanparvarlik hammamizning o‘z xizmat vazifalarimizga mas’uliyat bilan qarash, Vatanning boyliklarini ko‘z qorachig‘iday asrash, boyliklariga boylik qo‘shishga o‘z ulushimizni qo‘shish, ilm-fan cho‘qqilari sari intilish va boshqalardir. Shu kunga qadar to‘plangan boy ma’naviy merosimizni tinglovchi va kursantlar qalbiga turli yo‘l va usullar bilan kiritishga harakat qilishimiz hamda ularni yuksak insoniy fazilat harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz zarurdir. Shu bilan ularda axloqiy yetuklik, Vatanga fidoyilik ruhini shakllantirish kabi zaruriy vazifalarni o‘z vaqtida ado etish mumkindir. Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy maqsadlari:

– yoshlarda o‘z xalqiga sadoqat, Vatan tarixiga va an’analariga chuqur hurmatda bo‘lishni shakllantirish;

– yoshlarni qonunlar, Prezident farmonlari, Oliy Majlis va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarini so‘zsiz bajarishga tayyorgarlik ruhida tarbiyalash;

– O‘zbekiston xalqlari jangovar an’analarini targ‘ib qilish, yoshlarda yuksak ma’naviy jangovar xislatlar, harbiy qasamyod va harbiy nizomlarni bajarishda shaxsiy javobgarlik hamda jasurlik, intizomlilik, zukkolik, o‘z Vatani himoyasiga doimo tayyor bo‘lishni tarbiyalash [3].

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy mazmuni:

– o‘z Vatanini himoya qilishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsion burchini tushuntirish;

– respublika mudofaasini kelgusida kuchaytirish masalalari bo‘yicha hukumat qarorlari bilan tanishish;

– O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan hal qilinadigan masalalarini, ularning vazifasi va hususiyatlarini tushuntirish;

– O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, harbiy qasamyod va Umumharbiy nizom talablarini o‘rganish va o‘zlashtirish;

– yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda maqsad va vazifalarini tushuntirish;

– harbiy, harbiy-texnik bilimlar o‘rganishda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish va yosh askarni tayyorlash doirasida egallash;

– o‘tgan ota-bobolarimiz jangovar udumlarini targ‘ibot qilish.

Vatanparvarlik tuyg‘usi:

– mamlakatimizga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishida;

– kishilarni vatan ravnaqi va yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashga tashabbuskor bo‘lishga;

– vatanni sevish, uni ko‘z qorachig‘idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga chaqirishga;

– vatanning o‘tmishiga oid qadriyatlarni e’zozlash, yurtimizda bugungi kundagi kishilarning bunyodkorlik va yaratuvchilik faoliyati asosida vujudga kelgan moddiy ashyolar va ma’naviy salohiyatni avlodlarga yetkazishga;

– vatan uchun jonini qurbon qilgan shaxslarni xotirasini doimo yod saqlashga kishilarni ilhomlantiradi.

Vatanparvarlik – insonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan zaminiga bo‘lgan muhabbatini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy fazilatlari yig‘indisi. Vatanparvarlikning asosiy belgisi fidoyilik, oliy ko‘rinishi esa jasorat hisoblanadi. Ana shu fidoyilik va jasorat xalqimizning ma’naviy merosida hamda ajdodlarimiz timsolida o‘z aksini topgan. Ulug‘ ajdodlarimizdan muqaddas meros bo‘lib, kelayotgan Vatanga muhabbat tuyg‘usi, farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e’tiqodga, chinakam aqidaga aylanishi lozim. Xalq og‘zaki ijodi ma’naviy merosimizda salmoqli o‘rin tutadi. Xalq maqollari, hikmatlar, ertaklar, rivoyatlar va dostonlar bizlarni ezgulik, mardlik, halollik, to‘g‘rilik va poklik sari chorlashi bilan bir qatorda, Vatanga muhabbatli, o‘z xalqiga sadoqatli bo‘lishga da’vat etadi. Dostonlarimiz durdonasi sanalmish «Alpomish» asari millatimizning o‘zligini namoyon etuvchi ajdodlarimizning qahramonlik qo‘shig‘i sanalib, u asrlar davomida vatan himoyachilarining irodasini mustahkamlash uchun xizmat qilgan. Shu bois “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. «Xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz» [4].

Darhaqiqat, ona Vatan ozodligi va xurligini har narsadan a’lo bilgan mard-u maydon kishilar har qanday mushkul holatlarga, murakkab, jidiy vaziyatlarga duch kelmasinlar, biroq ular oxirgi qon tomchilari qolguncha o‘z ahd-u paymonlariga, e’tiqodlariga sodiq qola biladilar. Shayx Najmiddin Kubro o‘zi bosh bo‘lib, qasoskor xalqdan lashkar tuzib, Urganch fuqarosini dushmanga qarshi jangga safarbar qiladi. Ikki tomon o‘rtasida qattiq, beomon jang bo‘ladi. Shunda Shayx bayroqni ushlagan holda, to so‘nggi nafasiga qadar uni qo‘lda mahkam ushlab boradi. Bayroqni olish uchun Shayxning barmoqlarini bir-bir kesib olishga majbur bo‘lgan ekanlar.

Xulosa. Vatanning kuch-qudrati, sog‘lomligi, yengilmasligi, e’tiqodi, jismoniy salomatligi yoshlarimizning harbiy vatanparvarligi bilan bog‘liqdir. Amir Temur bobomiz armiya tuzishda masalaning bu tomoniga katta e’tibor qaratganlar: “Cherik (qo‘shin, harbiy tuzilma) tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan, yigitning kuch quvvatiga; ikkinchidan, qilichni o‘ynata olishiga; uchinchidan, aql zakovati-yu, kamolotiga. Shu uch fazilat jamuljam bo‘lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-qudratli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uquqbatlarga chidamli bo‘ladi, qilich o‘ynata oladigan kishi raqibini mag‘lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog‘i mumkin” [5]. Umuman olganda, Amir Temur o‘z faoliyati, dono rahbarligi, ilgari surgan g‘oyalarining aniqligi va teranligi bilan Movarounnahrni mustaqil, qudratli davlatga aylantirdi va uning barcha hududlarini mustahkamladi. Uning shahzodalarga, avlodlarga qolgan o‘gitlari, pand-nasihatlarida Vatanni ko‘z

qorachig‘iday asrab, muqaddas saqlash chinakam vatanparvarlik va xalqparvarlik, insonparvarlik, qolaversa, harbiy-vatanparvarlik ruhi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Vatanparvarlik – bu Vatanimiz xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shish, uning haqiqiy jonkuyari bo‘lish. Vatanparvarlik – bu Vatan oldidagi mas’uliyat, millat, manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro‘siga obro‘ qo‘shish, xalqning shon shuhrati va manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lish demakdir. Yoshlarimiz Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshiramiz. Buning uchun ular zimmalariga yuklatilayotgan eng murakkab va mas’uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, vatanga, xalqqa xizmat qilish oliy saodat ekanligini his qilib yashash, mustaqilligimizni yanada mustahkamlashga o‘zlarining hissalarini qo‘shishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T., “O‘zbekiston”, 2018, 229 – 230-betlar.

(2). Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008, 61-bet.

(3). Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2018, 23-fevral, 140-son.

(4). Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008, 34-bet.

(5). Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi., T., 2016, 52-bet.

Rajabova Zamira Ravshanbekovna (Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi)

TALABALAR O‘RTASIDA GENDER TENGLIK VA FARQLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gender tushunchasining kelib chiqishi va talabalarning o‘quv faoliyatida gender farqlar psixologik xususiyati va ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda, ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o‘g‘il va qiz bolalarda bilish jarayonidagi gender farqlarning xususiyatlari yoritilgan. Gender nazariyasi tarixiga oid ma’lumotlar yoritilgan bo‘lib, jins identifikatsiyasi shakllanish jarayonida shaxs ulg‘ayishining dastlabki bosqichlari o‘ta ahamiyatliligi va ijtimoiy hayotda tatbiq etish kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender, ta’lim jarayoni, jins, bilim, ko‘nikma.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГЕНДЕРНОГО РАВНОПРАВИЯ И ГЕНДЕРНЫХ РАЗЛИЧИЙ В СТУДЕНЧЕСКОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются причины возникновения гендерной предвзятости и психологические особенности гендерных различий в учебной деятельности студентов, а также правильная организация учебного процесса с учетом этих особенностей. Также выделены особенности гендерных различий в познавательном процессе мальчиков и девочек. Освещены сведения по истории гендерной теории, отмечена значимость начальных этапов личностного роста в процессе формирования гендерной идентификации и ее применения в общественной жизни.*

Ключевые слова: *гендер, образовательный процесс, знания, навыки.*

PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF GENDER EQUALITY AND DIFFERENCES AMONG STUDENTS

Annotation. *The article discusses the reasons for the emergence of gender bias and the psychological characteristics of gender differences in the educational activities of students, as well as the correct organization of the educational process taking into account these characteristics. The features of gender differences in the cognitive process of boys and girls are also highlighted. Information on the history of gender theory is covered, the importance of the initial stages of personal growth in the process of forming gender identification and its application in public life is noted.*

Key words: *gender, educational process, gender, knowledge, skills.*

Kirish. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish masalalari bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respubli-

kasi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingan. O‘zbekistonda gender tenglik bo‘yicha komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi.

Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021-yildagi SQ-297-IV sonli 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqidagi qaroriga muvofiq, joylarda gender tenglikni ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi [1].

Gender tenglikni rag‘batlantirish va unga erishish uchun ommaviy axborot vositalari faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ijtimoiy va siyosiy faol xotin-qizlar imidjini aks ettiruvchi, xotin-qizlar va erkaklar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yorituvchi radioeshittirishlar va teleko‘rsatuvlar soni ko‘paydi. Gender strategiyasining asosiy maqsadi – irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta’minlashdan iborat. Gender tenglik psixologiya sohasining eng dolzarb masalalaridan bittasidir. Gender nazariyasining vujudga kelishida bugungi kunda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan feminizm hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘i, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik – bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi – bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). XX asrning 70-yillarida Z.Freyd va T. Parsons g‘oyalari bilan sug‘orilgan an’anaviy ijtimoiy fandan qoniqmagan feminizm nazariyotchilari o‘zlarining g‘arbona madaniy, tarbiyaviy, nazariy-uslubiy yondashuvlarini ifodalay boshladilar. Feministik g‘oyalarning madaniyat va ta’lim-tarbiyaning turli sohalariga kirib borishi nihoyatda jadal sur’atlar bilan davom etdi. 70-yillarning boshida hammani hayratga solgan bahs-munozaralar, genderga nisbatan yondashuvlar va qarashlar asta-sekinlik bilan jamiyat a’zolari ongiga singa boshladi. Amalda jinsiy chegaralashga qarshi kurash BMTning xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasida (1979) ham e’lon qilingan [2].

Ushbu g‘oyalar Unesko faoliyati, shuningdek, ko‘p sonli ijtimoiy, madaniy, ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar va ijtimoiy soha xodimlari uchun qo‘llanmalar chop etadigan tashkilotlar manfaatlariga uyg‘un bo‘lib, jinsiy chegaralashga oid aqidalarni bartaraf etishga xizmat qila boshladi. Rivojlangan mamlakatlar o‘quv jarayonida gender farqlar va o‘xshashliklarni yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiladigan o‘quv kurslari ham yuzaga keldi.

Gender farqlari bo‘yicha tadqiqotlar natijalarini jamlagan birinchi jiddiy va nisbatan ishonchli ish 1974-yilda nashr etilgan Eleanor Makkobi va Kerol Jeklinning “Jinsiy farqlar psixologiyasi” kitobidir. Makkobi va Jeklin kitob yozilgunga qadar nashr etilgan 2000 dan ortiq ilmiy maqolalarni to‘plashdi. Ular tahlil qilgan ko‘pgina parametrlarda, jumladan, hissiy idrok etish, o‘rganish va xotira jarayonlari, hissiy javoblar, taklif qilish qobiliyati, o‘zini-o‘zi qadrlash va boshqalarda gender farqlarini topmadilar. Shunday qilib, ularning umumiy tadqiqotining asosiy natijasi shundaki, gender o‘xshashliklari gender farqlariga qaraganda ancha muhimroqdir. Ammo Makkobi va Jeklinning kitobi klassik va keng iqtibos keltiriladigan kitob hisoblansa-da, bu ularning asosiy topilmasi emas, balki ular topgan istisnolar – bu bir nechta gender farqlari: nutq va matematika qobiliyatlari, fazoni idrok etish qobiliyati, tajovuzkorlik ustida ko‘p bahs yuritiladi.

Erkaklar va ayollarning nutq qobiliyatlaridagi farqlarning mavjudligi uzoq vaqtdan beri psixologik adabiyotlarda eng shubhasiz psixologik faktlardan biri sifatida taqdim etilgan. Umuman olganda, ayollar nutq qobiliyati bo‘yicha erkaklarnikidan ustunroq deb taxmin qilinadi. Biroq ushbu sohadagi empirik tadqiqotlarning eng katta sharhlari shuni ko‘rsatadiki, bu taxmin ishonchli dalillarni topa olmaydi. Makkobi va Jeklin ta’kidlaganidek, hayotning birinchi yillarida o‘g‘il bolalar va qizlarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi farqlarni aniqlagan eng ko‘p keltirilgan tadqiqotlar juda kichik namunalarga asoslangan edi, shuning uchun ular statistik ahamiyatga ega kattaroq misollar bilan topilgan farqlarga erisha olmadi. O‘sha

vaqtga qadar nashr etilgan bolalarning nutq qobiliyatlarini o‘rganish natijalarini umumlashtirib, ular maktabgacha, boshlang‘ich maktab, o‘smirlik yoshida nutq qobiliyatlarida doimiy sezilarli gender farqlari yo‘q degan xulosaga kelishdi, ammo qizlar foydasiga ustunlik bilan kichik farqlar mavjudligi aniqlandi

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Umumiy gender stereotipiga ko‘ra, o‘g‘il bola- lar va erkaklar matematikada qizlar va ayollarga qaraganda qobiliyatliroqdir degan farazlar juda ko‘p. Ilmiy tadqiqotlar bu fikrni rad etadi. Shunday qilib, 1990-yilda uch milliondan ortiq ishtirokchilarni qamrab olgan tadqiqotlarni umumlashtirgan metatahlil shuni ko‘rsatdiki, umuman olganda, o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rta- sida matematik topshiriqlarning muvaffaqiyatida sezilarli farqlar yo‘q. Qizlar foydasiga kichik farqlar ki- chik va o‘rta maktabda hisoblash ko‘nikmalarida, o‘rta maktabda muammolarni hal qilishda o‘g‘il bolalar foydasiga aniqlandi, lekin, shu bilan birga, kichik gender farqlari yoshga qarab kamayishi aniqlandi, o‘g‘il bolalar va qizlar matematik tushunchalarni teng darajada yaxshi o‘zlashtiradilar. 2005-yilda o‘tkazilgan ya- ngi metatahlil tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, olti oylik chaqaloq qizlar va o‘g‘il bolalar matematik qobiliyat- ning rivojlanishiga asos bo‘lgan vazifalarni teng darajada yaxshi bajaradilar [3].

Fazoviy idrok qobiliyatlarini o‘rganishda turli xil sinov usullari qo‘llaniladi. Ularning ko‘pchiligi, masalan, ikki yoki uch o‘lchovli obyektlarning aqliy aylanishi bilan bog‘liq vazifalardir. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning metatahlillari erkaklar foydasiga ustunlik bilan gender farqlari mavjudligini ko‘rsatadi, ular juda ahamiyatsizdan o‘rta darajada aniqgacha mavjud. Shu bilan birga, sakkiz oylikdan bir yarim yoshga- cha bo‘lgan bolalarda fazoviy idrok etish bo‘yicha tadqiqotlarning metatahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yo- shda fazoni idrok etish qobiliyatida gender farqlari yo‘q.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pedagogika va psixologiya fanida gender tenglik va farq- larni hisobga olish tamoyili ustuvor bo‘lishi kerak. Bu ustuvorlikni ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari:

– o‘quv materialini tanlashda o‘g‘il va qiz bolalar orasidagi o‘ziga xoslikni farqlash; – o‘g‘il va qiz bolalarning alohida o‘ziga xos faoliyatini rivojlantirish;

– muayyan jinsga mos keladigan o‘quv faoliyatini tashkil etish;

– har bir jinsning o‘ziga xos faoliyat turini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘quv materiallarini tan- lash;

– ta’lim jarayonida qat’iy, didaktik jihatdan shakllangan gender interpretatsiyalarini qo‘llashga yo‘- naltirilgan pedagogik faoliyatni shakllantirish.

Ta’lim jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarga mehnat ta’limi berish va ularni kasbga yo‘naltirishning bar- qaror pedagogik tizimini vujudga keltirishda o‘quvchilarning gender jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan shaxsiy sifatlarini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta’lim jarayonida quyidagilarga alohida e’tibor berish zarur:

– o‘g‘il va qiz bolalar orasidagi farqlarni neytrallashtirish va interpretatsiyalashga qaratilgan o‘quv harakatlarini tashkil etish;

– ularni gender o‘xshashlikni namoyon qilish ruhida tarbiyalash;

– o‘quv jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning alohida-alohida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

– o‘g‘il va qiz bolalarning shaxsiy qiziqishlariga mos keladigan o‘quv faoliyati turlarini tashkil etish;

– aniq o‘quv vaziyatini hisobga olgan holda faoliyat ko‘rsatishni ta’minlash. O‘g‘il va qiz bolalarning har biri qanday bo‘lishi, qanday faoliyat to‘rini egallashi ta’lim sifatiga bog‘liq [4].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumiy qilib aytganda, gender farqlar va psixologik xususiyatlari bilish jarayonlarida turlicha xarakterga ega bo‘lib, u bevosita o‘quv jarayonida va mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ma’lumot tariqasida agressiv xulq-atvordagi farqlar ilmiy dalillar bi- lan tasdiqlangan kam sonli gender farqlari qatoriga kiradi, ammo boshqa gender tafovutlar kabi, ular gender stereotiplari taklif qiladigan darajada katta emas. Hisoblashdagi gender farqlari kabi, metaanalitik sharhlar shuni ko‘rsatadiki, tajovuzkor xatti-harakatlardagi farqlar yengildan o‘rtachagacha, erkaklar foydasiga us- tunlik qiladi. Xususan, 1984-yilda Janet Xayd tomonidan o‘tkazilgan metatahlil shuni ko‘rsatdiki, tajovuz- kor xatti-harakatlardagi o‘zgarishlarning atigi 5% gender farqlari bilan bog‘liq va bu farqlar yosh bilan ka- mayadi. Gender tengligini singdirish tizimli yondashuv va uzoq muddatni talab qiladigan jarayon. Uni ta’- limning faqatgina ma’lum bir qismida yoki faqatgina oila instituti orqali singdirish mumkin emas. Shuning uchun ham ijtimoiy ongda gender bilan bog‘liq sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda oila–mahalla–ta’- lim tizimining o‘zaro hamkorligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021-yildagi SQ-297-IV sonli qarori.

(2). Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. Rus tilidan qisqar. tarjima. Oliy o‘quv yurtlari uchun, T., “O‘zbekiston”, 2003, 411-bet.
(3). Бёрн Шон. Гендерная психология. СПб., “Прайм-Еврознак”, 2002.
(3). Oliy o‘quv yurtlari. uchun. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2003, 411-bet.
(4). Mavlonova R., Goroxova O., Ogluzdina L. Mehnat ta’limi metodikasi. Oliy ped. hamda maxsus. o‘rta bilim yurt. uchun o‘quv qo‘ll., Toshkent, “O‘qituvchi”, 1985.
(5). Saylaubekovna R.R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2023, 1-t, №. 3, 21–24-betlar.
(6). https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_farqlari

Usarova Marg‘uba Nazar qizi (Qarshi davlat universiteti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” kafedrasi tayanch doktoranti; e-mail:margubahumoyun@gmail.com)

SAVODXONLIK DARSLARIDA O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada cavodga o‘rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrida o‘quvchilar faolligini oshirish metodikasi yoritib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *metod, ta’lim, tarbiya, faollik, o‘quvchining faoliyati, usul, “O‘zingni yelpi” o‘yini, “Sirli kataklarni to‘ldir” o‘yini, “O‘z juftingni top” o‘yini.*

Усарова Маргуба Назар кизи (Каршинский государственный университет, докторант кафедры “Теории и методологии образования и профессиональной подготовки”; e-mail: margubahumoyun@gmail.com)

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. *В данной статье освещен метод повышения активности учащихся в подготовительный и основной период уроков грамотности.*

Ключевые слова*: метод, обучение, воспитание, деятельность, деятельность ученика, метод, игра «Наполни себя», игра «Заполни загадочные коробки», игра «Найди свою пару».*

Usarova Marguba Nazar kizi (Karshi State University Doctoral student of the Department of Theory and Methodology of Education and Vocational Training; e-mail: margubahumoyun@gmail.com)

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF INCREASING STUDENTS' ACTIVITY IN PRIMARY EDUCATION

Annotation. *In this article, the method of increasing the activity of students during the preparation and main period of literacy lessons is highlighted.*

Key words: *method, education, activity, student’s activity, method, games “Fill yourself”, “Fill in the mystery boxes”, “Find your match”.*

Kirish. Boshlang‘ich sinflar ta’lim jarayonida qanchalik mustahkam bilim berilsa, u poydevor sifatida bola umrining so‘nggi onlarigacha mustahkam bo‘lib qoladi. 1-sinfning savod o‘rgatish davri o‘quvchilarda elimentar o‘qish va yozuvga o‘rgatish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Barkamol avlod taraqqiyoti savod chiqarishning asosi bo‘lgan alifbe darsliklarining ta’limiy-tarbiyaviy sifat darajasiga bog‘liq. Alifbe davrida o‘qish va yozishga o‘rgatishning uyg‘unlikda, baravar olib borilishi tahlil-tarkib tovush usulining eng asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi [1]. Bu ish nechog‘li murakkab bo‘lmasin boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uni o‘z o‘quvchilarida shakllantira oladi. Demak, savod o‘rgatish darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni o‘zbek tilidagi barcha tovushlar va harflar bilan tanishtirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishdan ibora**t** [2]. Yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berishda savod o‘rgatish jarayoni muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning savod o‘rgatish davrida egallagan o‘qish va yozish malakalari barcha o‘quv predmetlarini o‘zlashtirish uchun imkon yaratadi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, savod o‘rgatish davri murakkab jarayon. Ana shunday muhim va murakkab vazifani samarali hal etish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim metodlarini to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llashi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi, darsda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajalari hamda o‘zgaruvchanlik qobiliyatlariga muvofiq tarzda ish olib borishi lozimdir.

Adabiyotlar tahliliva metodlar. Savodga o‘rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrni o‘z ichiga qamrab olib, mazkur bosqichda o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy ishlar turli-tumandir. Xususan, bu davrda: matn, og‘zaki va yozma matn haqida, gap, matnning gaplardan tuzilishi, so‘z, gaplarning so‘zlardan tashkil topishi, ya’ni, matn tuzish va uni bo‘laklarga bo‘lib matn tarkibini tashkil qiluvchi qismlarni idrok etishga o‘rgatish, bo‘g‘in, tovush, harf haqida ma’lumot berish, unli tovushlar va undosh tovushlar haqida ma’lumot berish, erish, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajralishini o‘rgatish, alifbedagi rasmlar, o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan suratlar asosida matn tuzdirish, o‘quv-

chilar bilgan she’r, hikoya, ertak, maqol, tez aytish va boshqalarni yoddan ayttirish ishlarini olib borish ishlari rejalashtirilgan [3].

Keyingi yillarda ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Buning natijasida avvallari an’ana bo‘lgan ta’lim jarayonida qo‘llanadigan metodlar o‘rniga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar kirib kela boshladi. Bilimlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi va ularning tafakkur yuritishlariga undash bevosita o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liqdir. Zero, yangi ta’lim standartlarini o‘zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy metodlarni qo‘llashni talab etmoqda.

Savod o‘rgatish darslarida ham o‘quvchilarning mavzuni chuqur o‘zlashtirishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta’minlash kerakligini hisobga olgan holda, metod tanlashga e’tibor qaratiladi. Bunda interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Chunki zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi [4].

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfoal metodlar nomi bilan yuritilmoqda. ”Interfaol” atamasi ingilizcha “interact”– o‘zaro ta’sirlashishi (yoki “interaction”–o‘zaro ta’sir) so‘zidan olingan bo‘lib, biror faoliyat yoki ma’lumot o‘zaro muomalada, o‘zaro bahs-munozara, debat usulida, fikrlashni asnosida, hamjihatlik bilan hal qilish ma’nosini anglatadi. Bugungi kunda ta’lim amaliyotida interfaol metodlarning ”Aqliy hujum“, ”Klaster“, ”Guruhlarda ishlash“ ”Qarorlar shajarasi“, ”Qadamba-qadam“, ”Venn diagrammasi“ kabi ko‘rinishlaridan foydalanishmoqda. Shuningdek, savod o‘rgatish darslarining andozasiz noan’anaviy ko‘rinishlari ham ta’lim jarayonida qo‘llanilmoqda. ”Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatlilikni shakllantirishda shaxsiy faoliyatli yondashuvni tatbiq etishda barcha shaxslik sifatlari nafaqat namoyon bo‘ladi, balki shaxsning hayotini tashkil etuvchi faol faoliyatda shakllanadi

“O‘zingni yelpi” o‘yini. Bu o‘yinda bir o‘quvchiga yelpig‘ich beriladi. Qolgan o‘quvchilar esa unga savollar berishadi. Doskadagi o‘quvchi berilgan savollarga tezlik bilan javob berishi lozim. Agarda javob bera olmasa, u qo‘lidagi yelpig‘ich bilan o‘zini yelpiydi. O‘yinning qiziq tomoni shundaki, agarda yelpig‘ichda yelpish o‘quvchining yodidan ko‘tarilsa, u mag‘lub bo‘lib, o‘yindan chiqariladi. Ammo javob bera olmasa ham, o‘zini yelpisa, navbatdagi savolni eshitishi mumkin bo‘ladi. O‘yin oxirida esa uning berilgan savollarning nechtasiga javob bergani aniqlanadi. Shu zaylda o‘quvchida ziyraklik, topqirlik, faollik o‘zini tuta bilish layoqatlari rivojlantiriladi

“Sirli kataklarni to‘ldir“ o‘yini. Bu o‘yinning maqsadi ohang jihatdan bir-biriga yaqin ohangdosh so‘zlarni topib, xotirani charxlashdan iborat. Bunda o‘qituvchi O‘quvchilarga kataklarni to‘ldirib, tovushdosh so‘zlar hosil qilish vazifasini topshiradi. Masalan, non, qon, jon, son, yon, don.

“O‘z juftingni top” o‘yini. Sinfdagi o‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi, birinchi guruhdagi o‘quvchilar qarama-qarshi ma’noli so‘zning birinchi qismini aytishsa, ikkinchi guruhdan o‘quvchilar esa shu so‘zning qarama-qarshi ma’nosini topishi kerak bo‘ladi (masalan, past…, baland-…, uzun -…, tez-…, katta -… va h.k.). Bu o‘yinni partadoshlar orasida ham o‘zaro o‘tkazish mumkin.

Natijalar. Ta’lim jarayonida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish masalasi psixolog olimlarni ham, didaktik olimlarni ham, metodistlarni ham qiziqtirib kelayottan eng muhim masala hisoblanadi. Psixolog ta’lim jarayonida tashkil etiladigan ta’limiy o‘yinlarning o‘quvchi ruhiyatiga ta’siri, o‘yinlarning shaxsdagi individual-psixik xususiyatlar bilan aloqasi kabi masalalarni o‘rgansa, didakt olimlar o‘yinning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari, uning prinsiplari bilan aloqadorlik tomonlarini o‘rganadi. Metodistlar esa har bir fanning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘yinlarni tashkil etish hamda o‘yinlardan foydalanishning samarali metod, vosita va usullarini aniqlaydilar.

Ta’lim tizimidagi islohotlar munosabati bilan boshlang‘ich ta’lim oldiga qo‘yilgan talablar savod o‘rgatishning o‘qish va yozuv darslarida ham pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differensiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo‘naltirish, izlanish, muammoli o‘qitish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda, savod o‘rgatish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o‘quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o‘qitish, musobaqa–bellashuv metodlaridan, turli interfaol metodlardan foydalaniladi. Darslarni ta’limiy o‘yin, turli sahna ko‘rinishli andozasiz usullardan foydalanib uyushtirishga alohida e’tibor qaratiladi [5].

Xulosa va takliflar. O‘quv-biluv faoliyatida muammoli vaziyatlarlarni yaratish muammoli vaziyatlani yechishga va mustaqil fikrlashga zamin yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu davrda intellektual rivojlanishini amaliy obrazli fikrlashdan mantiqiy mavhum fikrlashga o‘ta boshlaydi. Ularning buyumlarni taqqoslashga, o‘xshash va farqli tomonlarini bilishga, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini anglashga aqli yeta boshlaydi. Ammo o‘quvchilar mantiqiy xulosa chiqarishga qiynaladilar, ta’riflarni yodlab olishga harakat qiladilar. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda ko‘rgazmalilik katta ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchining voqea-hodisalarni bevosita idrok qilishdan uning qonuniyatlarini, o‘zaro bog‘lanishlarini tushunib olishga va bilishga qaratadi, tajribalar o‘tkazadi. Bu borada matematika va tabiatshunoslikka oid fanlar qiziqarli. Bu yoshda bolalar badiiy asarlar o‘qishni sevadilar, ayniqsa, sarguzasht badiiy asarlar bilan bir qatorda teatr, kino, televedeniya ular hayotida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanar ekan, mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olishga harakat qiladilar. Lekin ular o‘yinqaroq va serharakatdirlar. Shuning uchun ham o‘qituvchi darslarda bolalarga mustaqillik berish bilan birga, bolalarni to‘g‘ri yo‘naltirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Farida Shailovna Yuldasheva, Komila Ubaydullayevna Yuzbayeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning yozuv malakalarini shakllantirish usullari. Academic research in educational sciences volume 1, 2020.

(2). Turimbetova Zamira Baymagambetovna. Hikoya qilish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish metodikasi. Образование и инновационные исследования (2022 год №12).

(3). Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish. Toshkent, 2009.

(4). Ochilov M. Oliy maktab pedogogikasi. Toshkent, 2018.

(5). Matchanov S. va boshqalar. “Ona tili va uni o‘qitish metodikasi”. Darslik, “Ishonchli hamkor”, Toshkent, 2021.

Yazdanov Ulug‘bek Toshmurotovich (Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Intimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori; yaz-81@mail.ru),
Raxmanov Bobur Axtamovich (Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti 1-bosqich tayanch doktaranti; bobur7779@gmail.com)

NOMUTAXASSIS YO‘NALISHLARDA O‘QITILADIGAN FANLARGA KREATIV YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada falsafa fanini hamda nomutaxasslik fanlarini kreativ o‘qitish metodologiyasini hisobga olgan holda, talaba-yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida kreativ fikrlashning tarkibini aniqlash, talabalarni kreativ fikrlash qobilyatini shakllantirish uchun konstruktiv modelini ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning o‘quv jarayonida kreativ fikrlash qobilyatining konstruktiv modelini eksperimental ravishda sinab ko‘rish va talaba-yoshlarga qulaylik yaratish maqsadida dasturiy vositani ishlab chiqish uchun qo‘yiladigan talablar va dasturiy vositalar asosida o‘qitilganda olingan natijalar tahlili aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *kreativ yondashuv, dasturiy vosita, eksperimental tadqiqotlar, falsafa fanini o‘qitish.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА К ПРЕДМЕТАМ, ПРЕПОДАВАЕМЫМ ПО НЕСПЕЦИАЛЬНЫМ НАПРАВЛЕНИЯМ

Аннотация. *В данной статье с учетом философии и методики творческого преподавания неспециализированных предметов, содержания творческого мышления в процессе обучения и обучения студентов разрабатывается конструктивная модель формирования способности студентов мыслить. творчески, развитие студентов и молодежи в высших учебных заведениях. С целью экспериментальной проверки конструктивной модели творческого мышления в образовательном процессе и разработки программного инструмента для удобства студентов проведен анализ результатов, полученных в ходе обучения на основе программные средства были определены.*

Ключевые слова: *творческий подход, программный инструмент, экспериментальное исследование, преподавание философии.*

IMPROVING THE CREATIVE APPROACH TO THE SUBJECTS TAUGHT IN NON-SPECIAL FIELDS

Annotation. *In this article, taking into account philosophy and the methodology of creative teaching of non-specialist subjects, the content of creative thinking in the process of education and training of students, the development of a constructive model for the formation of students’ ability to think creatively, the development of students and youth in higher educational institutions In order to experimentally test the constructive model of creative thinking in the educational process and to develop a software tool for the*

convenience of students, the analysis of the results obtained during training based on the software tools was determined.

Key words: *creative approach, software tool, experimental research, philosophy teaching.*

Kirish. Bugungi kunda dunyoda barcha sohalar jadal rivojlanib bormoqda. Shuningdek, insoniyat barcha sohada yangi bilimlar yaratishga va kreativ yondashishga intilmoqda. Mamlakatimizning bugungi taraqqiyotida yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki ta'lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan. Asosiysi, inson jamiyatdagi barcha munosabatlarda ijobiylikka erishish uchun, albatta, falsafiy bilimlarni mukammla egallamog'i lozim. Kelajakda erishishimiz lozim bo'lgan buyuk maqsadlarga yetishish uchun, eng avvalo, yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan, kre-ativ fikrlaydigan mutaxassis kadrlar tayyorlash zamon talabidir. O'quv jarayonida talaba-yoshlarning krea-tiv yondashuvini shakllantirish muammosini o'rganishning dolzarbligi–zamonaviy ta'lim sohasida va falsafiy bilimlarni egallashida sodir bo'layotgan tendensiyalar bilan bog'liq faoliyat mahsuli hisoblanadi. Jamiyatdagi o'zgarishlar ta'limni shaxsning erkin rivojlanishiga, ijodiy tashabbuskorlikka, o'quvchi-yoshlarlarning mustaqil fikrlashga yo'naltiradi.

Asosiy qism. Talaba-yoshlar ongini rivojlantirishda hamda ularni falsafiy bilimlarini takomillashtirishda ta'lim tizimining naqadar ahamiyatga egaligi, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan bir necha marta yoshlarga bog'liq tarzda yilga nom berilishi, jumladan, 2024-yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinganligidan ham ko'rish mumkin.

Shuning uchun ham o'quv jarayonini tashkil etish, talabalarning chuqur bilim olishiga yordam beruvchi o'quv uslublarida kretaivlikni qo'llashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bugungi kunda o'quv jarayonini tashkil etish ta'lim beruvchidan chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishni, dars berishning turli metodlarini bilishni hamda o'z ustida ishlashni, kreativ tarzda yondashishni talab qiladi [1]. Bunday mukammal dasturlar shu kabi muammolar ustida izlanish olib borishda va samarali natijalar olishda metodologik asos bo'ladi.

Tadqiqotning obyekti sifatida ta'lim olish jarayonida falsafa fanini o'qitishda kreativ yondashuvni shakllantirish hisoblanadi [2].Bunda o'quv jarayoni ishtirokchilarining samarali natijaga ega bo'lishi uchun yangicha yondashuvlar asosida tashkil etiladi, bu esa interfaol usulllarni ishlab chiqish zaruratini beradi.

Interfaol metodlar yordamida ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi [1]. Bu metodlarni kompyuterli o'qitish yordamida qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida individual holatda ishtirok etadi [3].

Tadqiqotning sifatiy ko'rsatkichi eng yaxshi darajaga chiqishi uchun zamonaviy ta'lim vositalari, jumladan, dasturiy vositalar asosida o'qitishning kreativligini ta'minlashga, ma'lumotlarni to'laroq olishga, tadqiqot predmetiga jamoatchilik fikri bergan bahoni tushunish va sharhlarni oshirishga mo'ljallangan. Zero, ko'rgazmalilik va yangicha texnologiyalardan foydalanish insonlarning xulq-atvor, ustanovkalari motivlari haqida ma'lumot olishga, ya'ni, korgan va hayratlangan voqeani tezda va umrbot eslab qolishga imkon beradi [4]. Boshqacha aytganda, sifatiy tadqiqot ko'proq kashf qilish (yangicha yondashish) jarayoni, kreativlik tarzidagi tadqiqot esa mavjud gipotezalarni tasdiqlash va isbotlash jarayonidir. Bu sifatlarni negizida esa kreativ yondashuvning foydali jihatlari shakllanadi (1-rasm).

1-rasm. Kreativ yondashuvning foydali jihatlari sxemasi.

Tadqiqotning miqdoriy ko‘rsatkichi sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, ishtirokchilarning miqdor jihatdan o‘lchash emas, balki o‘rganayotgan subyektning o‘rganilayotgan obyektdan kutgan natijasi hamda olishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar sifatiga qaratiladi [5]. Chunki tadqiqot o‘tkazishdan maqsad u yoki bu dolzarb masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini tasvirlashga qaratiladi [6].

Talaba-yoshlar nomutaxassilik fanlarini kreativ holatda o‘zlashtirishi yuzasidan ma’lumotlar olish jarayonida:

– o‘rganilayotgan fan haqida «taxminiy» ma’lumotlarni to‘plash;

– o‘rganilayotgan fanning kam o‘rganilganligi yoki, umuman, o‘rganilmagan holatiga e’tibor berish, shu bilan birga, o‘rganilayotgan fan haqida qo‘shimcha ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lish;

– mavjud dastur asosida hajm jihatdan qisqartirilgan savolnomalarni kompyuter dasturida ishlagan holda va undan foydalanishda ishtirokini ixtiyoriy vaqtda ta’minlash;

– o‘rganilayotgan fanning metodik mukammalligini ta’minlashda hamda kreativlik vazifalari va farazlarini ishlab chiqilganligini o‘zi uchun obraz sifatida qabul qilishi.

Ishlab chiqiladigan dasturiy vosita uchun ma’lumotlar to‘plashda qo‘llaniladigan metodlar sifatida so‘rov, intervyu o‘tkazish, ekspert so‘rovi, kuzatish, kontent-tahlil metodlaridan foydalanish samarali natijaga erishish imkoni beradi [7]. Chunki ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil etish jarayonida qo‘llaniladigan metodlar sifatida bilish metodlari (analiz va sintez, induksiya va deduksiya), tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, intellektual tahlil.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirib o‘tilgan qiyosiy tahlildan ham ko‘rish mumkinki, falsafa fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda yuqorida fikr yuritilgan talablar asosida dasturiy vosita yaratilsa, inson omiliga bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanayotganligi bilan belgilansa, uning subyektivligi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kreativlik, ya’ni, ijodkorlik natijasida “inson ongi” mahsuli bo‘lgan “ijodkorlik”, “ixtirochilik” va “yaratuvchilik” natijalariga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Ularning o‘zaro chambarchas bog‘liqlik aloqadorligi sifatida quyidagi xulosalarni keltirib chiqaradi:

4. Turli madaniyatni media orqali tarqatish.

Biroq bu olim bilan tortishish mumkin. Negaki, uning fikrlari nihoyatda umumiy hamda ancha tarqoq ko‘rinadi. Asl mass mediafuknsiyalarining eng maqbul ta’rifi hamda mazkur ta’rif va tavsiflarning mediaimij uchun yaqindan xizmat qilishi professor M.Xudoyqulov qalamiga mansub «Jurnalistika va publitsistika» asarida batafsil keltirilgan. Bunda tashqari, massmedianing dolzarbroq fundamental g‘oyaviy funksiyalari ham borki, ular odamlar e’tiborini o‘ziga jalb etish, kerak bo‘lsa, yo‘naltirish, ularga ta’lim berish hamda yaxshi ma’noda tarbiyalashdan tashkil topadi.

Mamlakat mediaimijning hozirgi konsepsiyalarida uning axborot-kommunikatsion tabiati alohida qayd etiladi. Tilga olinayotgan imij hozirgi kommunikatsiya jarayonlari vositasida biron bir obyekt haqidagi axborot asosida shakllanadi hamda rivojlanadi [Gavra D.Kategoriya imidja v sovremennoy kommunikavistike. Elektronniy resurs: http://www.jourssa.ru/sites/all/files/volumes /2013_4/Gavra_2013_4.pdf].

Yangi O‘zbekistonning hozirgi dolzarb media imijini shakllantirishda massmedianing aynan jalb etish funksiyasidan samarali foydalanish kerak bo‘ladi.

O‘zbek olimi D.Muitov zamonaviy massmedianing imkoniyatlari haqida yanada chuqurroq yozadi. Uning fikriga ko‘ra, «bugun ommaviy axborot vositalaridan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosatga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilish imkoniyatidan foydalanish yo‘liga o‘tilgan» [Muitov D. Geosiyosat va jurnalistika. T., “Turon-iqbol”, 2014, 11-bet].

D.Muitovga ko‘ra, «shunday paytda u siyosatning muhim bir elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan OAV turli davlatlar haqida hududiy tasavvurlarni rivojlantirishi, kayfiyatlarni o‘zgartirib turishi, aholining keng qatlamida tarqala olish imkoniyatiga ega».

Tadqiqotchining aytganiga tayanadigan bo‘lsak, media vositasida tarqatilgan xabarlar biron bir aniq mamlakat yoki uning tarkibiga kiruvchi aniq bir viloyat yoki hudud haqidagi tasavvurlarni bevosita rivojlantirishga xizmat qilishini anglash qiyin emas. Shuning barobarida, fokus guruhdagi axborot resipiyentining kayfiyatini tizimli tarzda o‘zgartish kuchiga egadir.

Moskvalik olimlar A.Demidov hamda A.Fedoseev jurnalistlar tomonidan amalga oshirilayotgan ayrim ishlar ko‘lamiga shunday ta’rif beradilar: «Medianing bu imkoniyati ijtimoiy fikrni shakllantirishda juda qo‘l keladi. Shu sababdan olib qaraganda, u geosiyosiy o‘yinchilarning o‘yinchog‘iga aylanishi hech gap emas. Bu jarayonda transmilliy korporatsiyalar, diniy tashkilotlar kabi boshqa turli faktorlarning teng ishtirok etishga intilishi sezilmoqda» [Демидов А.Л., Федосеев А.А. Основы политологии. Москва, “ Высшая школа”, 1995, с. 229]. Demak, OKV o‘zining birlamchi vazifalaridan chekinish holatlari hozirgi amaliyotda ko‘p kuzatiladi. Afsuski, ular xolis, obyektiv yangiliklarni auditoriyaga yetkazish bilan cheklanishni istamayaptilar.

Yuqoridagi olimlar bu singari ishlarni «turfa xil mafkuralarni tarqatish OAVning birinchi darajali vazifalari jumlasiga kiradi», deydilar, «va oqibatda, tarqatilgan axborot gazeta-jurnal, radio-televideniya, audiovideo kassetalar va internet tarmog‘i orqali belgilangan geosiyosiy vazifalarni bajara boshlaydi». Lekin mamlakat mediaimijini yuksaltirishda KV, avvalo, geosiyosiy manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘yishi nazariy jihatdan ham, professional etika nuqtayi nazardan ham to‘g‘ri bo‘lmaydi, deb o‘ylaymiz. Axir jurnalistikaning asosiy vazifasi – bu turli siyosiy o‘yinlarda ishtirok etish emas, balki mahalliy va xorijiy o‘quvchini qiziqtira oladigan obyektiv axborotni tarqatishdan iborat emasmi? Ma’lumki, media tarqatadi-

gan har qanday yangilik auditoriya tomonidan boricha o‘zlashtiriladi. Uning ongiga joylashadi. Muhimi, har xil ko‘rinsishda o‘zgarib turadigan aniq voqealar va faktlardan tashkil topuvchi mavjud holat haqidagi yaxlit tasavvurni uyg‘otadi

Keyingi davrda AKTning shiddatli tarzda rivojlanishi, sotsial medianing shu paytgacha kishilar ongida shakllanib kelgan an’anaviy ommaviy axborot vositalari ko‘lamini mutlaqo kengaytirib yuborgani rost. Natijada hozirgi axborot makoni – bizning misolimizda milliy jurnalistika «hududi», chegaralari tubdan o‘zgardi. «Ichkari»dan «tashqari»ga va aksincha «tashqari»dan «ichkari»ga axborot oqimlari shakli, hajmi, sur’ati tasavvur qilib bo‘lmas darajada kengayib ketdi.

Istalgan maqola ichidagi axborot, qolaversa, so‘z va iboralar, grafikalar, ovoz yoki videotasvirlar vositasida resipient ongiga kirib, o‘rnashib oladi. Natijada o‘quvchi xotirasida ma’lum bir voqeaning aksi, predmetning obrazi yoki alohida hududning imiji paydo bo‘ladi. E’tiborlisi, til imkoniyatlari imij bilan bog‘liq kommunikatsiya jarayonlari, ya’ni PR, reklama va jurnalistika amaliyotida beqiyos o‘ringa ega. Ayni ma’noda rossiyalik olim V.Taranov qayd etganidek, odamlar tasavvuridagi hudud imiji, asosan, massmedia tarqatgan xabarlar asosida shakllanadi [Таранов В. Традиционные и новые медиа v в революционном имиджмейкинге в информационном сетевом обществе. Электронный ресурс: http://izvestia. asu.ru/ 2010/4-1/pols/TheNewsOfASU-2010-4-1-pols-06.pdf].

Chet el va respublika OKVda Yangi O‘zbekistonning qiyofasi, uning obrazi, imijini shakllantirish va rivojlantirish yo‘lidagi turli shaklga ega mediakontent, sharh, suhbat va hokazo materiallarini atroflicha va tizimli o‘rganish, tadqiq, tahlil qilish, ularni ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, milliy-psixologik jihatlardan tahlilga tortish alohida ahamiyatga egadir. Lekin shuni ham e’tiborga olish zarurki, odamlar salbiy axborotni qiziqish bilan va tezroq qabul qiladilar. Ijobiy axborotga esa nisbatan e’tiborsiz munosabatda bo‘lishadi. Psixologlar bu haqda juda ko‘p tadqiqotlar olib borganlar.

Moskvalik media tadqiqotchilar T.Glushkova va O.Zaysevaning fikriga ko‘ra, obyektning media-obrazini yaratishda stereotip va freym kabi kognitiv strukturalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Nazariy jihatdan stereotip so‘ziga ta’rif bersak, u biron-bir aniq narsa, predmet yoki ayni mamlakat, ya’ni Yangi O‘zbekiston obrazi bilan bog‘liq barqaror, o‘zgarmaydigan, soddalashtirilgan, sxematik tushunchani o‘z ichiga oladi. Stereotiplar amaliyotda salbiy yoki ijobiy bo‘ladi. Albatta, imijni yuksaltirishda ijobiy stereotiplardan samarali foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Aslida, freym aniq bir ma’no yuzasidan o‘zaro birlashib ketadigan semantik munosabatlardan iborat bo’ladi. Nazariy jihatdan u modellashtirilayotgan obyekt haqidagi tasavvurlar va bilimlarni tartibga solishda qo‘l keladi [Т.Глушкова, О.Зайцева. Медиаобраз как инструмент создания территориального имиджа: когнитивный аспект. Электронный ресурс:https://cyberleninka.ru/article/n/mediaobraz-kak-instrument-soz-daniya-territorialnogo-imidzha-kognitivnyy-aspekt]. Mazkur maqolani yozish jarayonida OAV tomonidan shakllanayotgan tasavvurlarni mavzularga qarab tasniflashga harakat qildik. Ayni jarayonda ularning ma’no-mazmun jihatidan bir-biriga o‘zaro juda yaqin yoki tobe bo‘lgan freymlarni hosil qilishi kuzatildi. Tadqiqotimiz uchun material sifatida AQSH, Britaniya va Rossiya ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan maqolalariga murojaat qilindi. Ularga emperik baza sifatida qaraldi.

Respublika turizm salohiyati bilan bog‘liq ma’lumotlar New York Times gazetasida quyidagi freymda aks ettiriladi: «agar siz Ipak yo‘li bo‘ylab sayohat qilishni orzu qilsangiz, uni amalga oshirishga qulay fursat keldi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin oradan 25 yildan ortiq vaqt o‘tib, sobiq sovet respublikasi bo‘lgan O‘zbekiston nihoyat o‘zining qayta qurish davrini boshdan kechirmoqda. Aynan shu yerda tarixiy yo‘lning ajoyib maskanlari joylashgan» [52 places to go in 2019. Electronic resource: https:// shorturl. at/mvwE9]. Bunda amerikalik jurnalist O‘zbekistonning qadimiy Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liqligi stereotipidan foydalangan.

Londondan ushbu mavzuda material uzatar ekan, BBC quyidagi freymdan foydalanadi: «O‘zbekiston butun dunyo ziyoratchilarining manzili, ya’ni, ikkinchi Makkaga aylanishga intilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasining eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan mazkur mamlakatida, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi mashhur Ipak yo‘li shaharlarida yaxshi saqlangan masjid va ibodatxonalar bor» [Qobil R. Uzbekistan: Land of a thousand shrines. Electronic resource: https://www.bbc.co.uk/news/world-asia-44685414]. Ko‘rinib turibdiki, britaniyalik muxbir (asli o‘zbek) O‘zbekistondagi qadimiy shaharlarni musulmon olamidagi eng mashhur shahar hisoblangan Makka va Madinaga qiyoslaydi. Bir so‘z bilan aytganda, bu qadim shaharlarni ziyoratchilar talpinadigan ilohiy maskan sifatida freymlaydi.

Rossiyadagi TASS axborot agentligi xabarida Sankt-Peterburg shahrida O‘zbekiston Respublikasining madaniy yodgorliklarini asrash bo‘yicha maxsus Butunjahon kongressi tuzilganligi aytiladi [В Петербурге организовали всемирное общество по сохранению культурного общества наследия Узбекис-

тана. Elektronniy resurs: http://tass.ru/obschestvo/5277084]. Ruz muxbiri o‘zbek madaniyati merosining butun dunyo bo‘ylab yoyilib ketganligiga e’tibor beradi. Bu bilan u ko‘tarilgan mavzuni freymlashga urinadi.

Yangi O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar haqida ham freymlar uchraydi. Ya’ni bir-biriga mazmunan va shaklam yaqin maqolalar bor. Vashington DCda joylashgan Brukings instituti tomonidan chop etilgan «O‘zbekiston qanday qilib ochiq iqtisodiyotga aylanmoqda» sarlavhali maqolani o‘qiymiz: «O‘zbekiston ikki yildirki bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlar dasturini amalga oshirmoqda. Hukumat mamlakat iqtisodiyotiga uchta asosiy o‘zgartirish kiritmoqda: buyruq va boshqaruvga asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish; davlat sektori ustuvor bo‘lgan iqtisodiyotdan xususiy sektorni rivojlantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tish va yopiqlik va yakkalikdan hamkorlikka moyillik va ochiqlikka chiqish» [Lilia Burunciuc, Wolfgang Fengler, Wiebke Schloemer, and Daria Taglioni. How Uzbekistan is transforming into an open economy. Electronic resource: https://shorturl.at/ahtBW].

Bosh qarorgohi Londonda joylashgan Reuters axborot agentligining Jahon banki ma’lumotiga tayangan holda uzatgan maoqlasida yozilishicha Yangi O‘zbekiston biznes yuritishni yengillashtirish borasida 2017-yilda dunyo bo‘yicha birinchi 10 talikka kirdi. Jumladan, korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, qurilishga ruxsat olish, invesititsiyalarni himoyalash, elektr ta’minotiga ulanish kabi jarayonlar soddalashtirilgan [Узбекистан приоткрывает дверь иностранным инвесторам. Электронный ресурс: https://ru.reuters.com/ article/ businessNews/idRUKBN1DR1AN-ORUBS]. Londonlik muxbir bu gapi oqali O‘zbekistonning biznes va iqtisodiyot sohasida erkinlashayotgan mamlakat sifatidagi mediaobrazini berishga urinadi.

Moskvadagi RIA Novosti axborot agentligi xabarida ta’kidlanishicha, endilikda har qanday chet el fuqarosi Yangi O‘zbekistonda o‘z investitsiyalari evaziga barpo etiladigan korxonaning asoschisi maqomin bemalol olishi mumkin [Узбекистан упростил процесс получения визы. Электронный ресурс: https://ria.ru/ world/20180802/1525789408.html]. Bu kabi sarmoyadorlarga jami 3 yilga mo‘ljallangan ko‘p marotabalik viza nihoyatda yengillashtirilgan tarzda berilshi mumkin. Ayni fakt yordamida rus muxbiri O‘zbekistonda yangi iqtisodiy islohotlar joriy etila boshlaganligini e’tinorni qaratadi.

Albatta, yuqoridagi singari misollarni ko‘plab kelitirsak bo‘ladi. Biroq shu narsa aniqki, biror-bir mamlakatning boshqa bir davlat tomonidan yaratilgan imiji jahon hamjamiyati va ushbu davlat fuqarolarining munosabatiga juda katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sir emaski, kuchli axborot texnologiyalariga ega bo‘lgan tashqi kuchlar tomonidan uyushtiriladigan axboriy huruj katta xavf tug‘dirishi bor gap. Afsuski, bunday holat nafaqat jahon hamjamiyatiga, balki axborot bilan ta’minlanishi zaif yo‘lga qo‘yilgan, eng ayanchlisi, AKTning rivojlanmaganligi, axborotning yopiqligi, senzuraning mavjudligi sababli mamlakat jamoatchiligi ichida ham psixologik bo‘hron keltirib chiqarishi ehtimoli katta. Shu sababdan mamlakattning ijobiy obrazini yaratishda muayyan konstrukt, qonun-qoidalar bo‘lishi shart.

Tarixdan ma’lumki, turli davlatalr jahon sahnida bir-birlariga turli ko‘rinishda, masalan, goh oshkora, goh pinhona qarama-qarshi kayfiyatida bo‘lib kelganlar. Hozir esa aynan ana shu davlatlarning o‘zlari internet makonidan mutlaqo yangi ko‘rinishdagi jang maydonlarini yasab olmoqdalar. Ming afsuski, odamiylik, ezgulik uchun xizmat qiladigan jurnalistikani, OAVni, OKVni o‘sha jang maydonlarining jangchilariga aylantirmoqdalar. Qator davlatlar axborot urushiga hozirlikni ochiqchasiga boshlab yuborganlar. Ayni maqsadda cheksiz pul-mablag‘lar ajratilmoqda. Hozirgi axborot urushi uchun an’anaviy chegaralarni buzib o‘tish shart emas, qolaversa, bu urushda odamlarga qirg‘in keltirilmaydi, balki telekommunikatsiya, OAV tizimlari «hamkorligi»da keng ommaning dunyoqarashlariga zug‘um o‘tkaziladi, tamom. Shu orqali o‘z maqsadiga erishiladi.

Ming afsuski, harbiy qurol-yarog‘ uchun ajratiladigan ko‘p millionli xarajatlar bilan birga, tashqi axborot hurujlari uchun millionlab pul-mablag‘ ajratish oddiy holga aylanib ulgurdi.

Obraz aslida qiyofa, qolaversa, imij bilan bog‘liq hodisadir. Biroq nima bo‘lganda ham, u omma ongining hozirgi ruhiy oriyentatsiyasiga muvofiq bo‘lgan tabiiy qonunlarga tayanadi. Hozirgi globallashgan axborot sahnasida ruhiy-informatsion ta’sir vositalarini to‘liq nazoratga olish va cheklash imkonsiz hisoblanadi. Demokratik boshqaruv, fikrlar xilma-xilligi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Muhim jihati shundaki, ayni tizimlarni qudratli davlatlardan tashqari hech bir davlat yoki markazlar cheklash yoki nazorat qilish imkoniga ega bo‘lmaydi. «Aslida, – deb yozadi o‘zbek olimi J.Meliqulov, – buning ortida G‘arb qadriyatlari va qoliplariga moslangan g‘oyalarni butun dunyoga joriy etish va shu orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirish istagi yotadi. Maqsad esa begona ongni eksport qilishdan iboratdir» [Meliqulov M. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2006, 1-dekabr]. Ayni sababdan tarqatilayotgan har qanday axborot qayta-qayta tekshirilgan, fakt-cheking qilingan bo‘lishi shart. Oddiy va jo’n til imkoniyatlari, turfa iboralardan keng hamda eminerkin foydalanish ham ahamiyatlidir. Kezi kelganda xalq maqollari, naqllari, ideomalaridan samarali foy-

dalanish, ehtiros bilan bitilgan so‘zlar auditoriya bilan samimiy kayfiyat va psixologik muhitni paydo qiladi.

Zamonaviy media va axborot texnologiyalari vositasida turli millat va mamlakatlar vakillarining axborotni qabul qilish psixologiyasiga alohida ahamiyat berish zarur. Chunki OAV kanallarida uzatiladigan jurnalistik materiallar orqali kishilar ongiga kirib boriladi va ayni ish osonlikcha amalga oshirilmaydi. Unda qarama-qarshiliklar, turli kurashlar yuzaga keladi. Biroq mutaxassislar V.Abaturov va Y.Naumova iborasi bilan aytganda «jang maydonida qo‘lda avtomat bilan turgandan ko‘ra, efirda mikrofon bilan turgan afzalroqdir Абатуров, Наумова. “Экономическое обозрение”, 2003, № 6, с. 37].

XXI asr sivilizatsiyasining muhim xususiyatlaridan biri shuki, unda mavqe, salohiyat, taqdir ko‘p jihatdan axborot maydonidagi holatga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Fuqarolardan tortib yetakchi shaxslarning, davlat rahbarlarining, shuningdek, butun boshliq xalqlarning, davlatlarning hayoti, yashash tarzi, turmushi, istiqboli, kelajagi aynan axborot maydonlarida hal etilmoqda. Ko‘rinadiki, mustaqil davlatlarning oyoqqa turishi, mintaqada hamda jahon hamjamiyatida mustahkam o‘ringa ega bo‘lishi, har jihatdan axborotga, mediakontentga, yana bir karra milliy va jahon axborot makonida kechadigan jarayonlarga bevosita bog‘liq bo‘lmoqda.

Muhimi shundaki, milliy jurnalistika, ya’ni, milliy OAV, avvalo, mamlakat aholisining axborotga bo‘lgan ichki ehtiyojini qondiradi. Buning barobarida, xalq, jamiyat va davlat haqidagi tasavvurlarni yaratadi. Lekin har qanday ochiqdan ochiq targ‘ibot maqsadida tarqatiladigan axborotni demokratik prinsiplarga asoslangan jamiyatlar, umuman, olib qaraganda, biron-bir media makon shundayligicha qabul qilavermaydi. Masalan, professor X.Do‘stmuhammadning fikricha, «hozirgi bozor munosabatlari sharoitida axborot tovar, ya’ni buyum tusini olmoqda. Buyum bozorda o‘z xaridorini topgan taqdirdagina u bozordagi raqobatga barbdosh bera oladi, aks holda kasodga uchrashi, sinishi, ya’ni bankrot bo‘lishi muqarrardir. Teleko‘rsatuv yoki radioeshittirish bo‘ladimi, gazeta yoki jurnal bo‘ladimi – bularning oldida eng katta muammo bitta: aytilayotgan so‘zga xaridor bor-yo‘qligi» [Do‘stmuhammad X.N. Axborot – mo‘jiza, joziba, falsafa. T., Yangi asr avlodi, 2013, 320-b; 78-b.]. O‘zbek tadqiqotchisining yozishicha, «Zo‘raki targ‘ibotlar, hatto majburiy obuna qilish usullari ham endilikda ish bermaydi». Shu ma’noda, O‘zbekistonning ijobiy imijini yuksaltirishga qaratilgan targ‘ibot jarayonini ham bozor qonuniyatlariga e’tiborsizlik bilan amalga oshirish mumkin emas. Biz agar obyektiv va balanslangan va eng muhimi xorijiy o‘quvchining talabiga mos axborot tayyorlashni, uni o‘z vaqtida uzatishni o‘rgansakkina, bizning «mahsulotlarimiz» jahon media bozorida ra-qobatbardoshlikka erisha oladi, deb aytish mumkin.

OAV funksiyalari orqali Yangi O‘zbekiston imiji yaratilishining kognitiv jihati (AQSH, Buyuk Britaniya va Rossiya mediakontentlari asosida)

№	OAVning ijtimoiy funksiyalari	Imij shakllanishiga qo‘shiladigan hissasi	Ta’sirchanlik ko‘lami
1.	Muhim voqea-hodisalar haqida o‘z vaqtida, tezkor axborot yetkazish, ularni sifatli tasvirlash.	Eksklyuziv va tezkor xabarlar orqali voqea haqida ma’lum qiladi, tasvirlab beradi, ogoh etadi.	Mediacontent orqali auditoriyaning diqqat-e’tiborini qaratadi.
2.	Mavjud voqea-hodisalarni har tomonlama batafsil chuqur o‘rganish va tahlil etib berish.	Ayni paytdagi voqea-hodisaning kelib chiqishi sababini o‘rganadi, ko‘rsatadi va voqealarning keyingi rivojlanishi bo‘yicha prognoz beradi.	Resipientlar, ya’ni axborot qabul qiluvchilarining ma’lum bir hudud, mamlakat haqidagi tahliliy ma’lumotlari bazasi shakllantiriladi, rivojlantiradi.
3.	O‘zi uzatgan sifatli, tezkor, tahliliy axborot yordamida auditoriya ongostiga kognitiv ta’sir etadi.	Hudud auditoriyasining ma’lum bir chet mamlakatga nisbatan ma’lumoti, bilimi, o‘y-fikri, munosabati, dunyoqarashi mustahkamlanadi.	Asosiy axborot resipiyentlari uchun (xorijlik investor, turist, talaba va boshqalar) hududga nisbatan keyingi harakatlarni o‘zgartirishga yoki tegishli qaror qabul qilishga asos yaratadi, uni boshqaradi.

Hozirgi mediamakondagi davlat qiyofasining kognitivlik xususiyatlari haqida gapirilar ekan, jamiyat a’zolaridagi har qanday ijtimoiy-psixologik kayfiyat, unga ta’sirning ahamiyatini chetlab o‘tish mumkin emas, deb o‘ylaymiz. Ayni asosda, fikrimizcha:

– mediamakondagi ijobiy psixologik fon yordamida chet elliklarning O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish rejalarini ishlab chiqish, uni kerakli vaziyatga moslashtirish yaxshi natija beradi. Ayni

ma’noda, jamiyatida qo‘lga kiritilayotgan olamshumul yutuqlar haqidagi sara, dolzarb, muhim va batafsil ma’lumot beruvchi kontentlarni tanlab olish, ularni massmedia orqali doimiy uzatib borish kerak, bu borada tizim ishlashi lozim;

– hozirgi jurnalizmning hosilasi bo‘lgan mediaobraz nazariy jihatdan imijmeykingning mediaimij kabi tushunchasiga aynan mos tarzda yuzaga keladi, ko‘zga tushadi, davom etadi. Mazkur jarayonda, ayniqsa, lingvokognitiv modellashtirish metodikasidan foydalanish biz kutgan samarani berishi ehtimoli juda katta;

– aslini olib qaraganda, nafaqat biron-bir kontinent, mintaqa, davlat, balki viloyat, chekka hudud, tuman, qishloq kesimida ham imijni modellashtirish jarayonini yangi, chuqurlashgan aspektlarda alohida va batafsil tadqiq qilish kerak bo‘ladi.

Xulosa. Usbu maqola doirasida atroflicha ko‘rib chiqilgan, batafsil tahlil qilingan mediaobraz hamda mamlakat imijining kognitivlik xususiyatlari resipientlardagi, ya’ni, auditoriyadagi ijtimoiy-psixologik, qolaversa ruhiy holat, kayfiyat hamda bevosita ta’sirning ahamiyati juda keng va muhim ekanligini isbotladi. Ayni fikrga qat’iy tayangan holda:

– massmedia yordamida yaratiladigan har qanday ijobiy psixologik fon yordamida chet elliklarning Yangi O‘zbekistonga bo‘lgan, avvalo, qiziqishini, qolaversa, ishonchini yanada oshirish maqsadida jamiyatda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar haqidagi muhim, olamshumul ma’lumotlar beruvchi sifatli mediakontentlarni yaratish, tanlab olish va ularni turli OAV va OKV orqali tizimli tarzda uzatish lozim;

– hozirgi jurnalizmning tom ma’nodagi hosilasi, mevasi bo‘lgan mediaobraz nazariy jihatdan imijmeykingning mediaimij kabi tushunchasiga aynan mos tarzda yuzaga kelishini tan olish, bunda lingvokognitiv modellashtirish usulidan samarali foydalanish kutilgan samarani beradi;

– nafaqat biron-bir kontinent, mintaqa, davlat, balki viloyat, chekka hudud, tuman, qishloq kesimida ham imijni modellashtirish jarayonini yangi, chuqurlashgan aspektlarda alohida va batafsil tadqiq qilish kerak;

– AQSH, Buyuk Britaniya va Rossiya OAVda Yangi O‘zbekiston mavzusining yoritilishidagi o‘xshashlik hamda xilma-xillik o‘rtasidagi ba’zan uchraydigan tafovutga bundan keyin chek qo‘yish bo‘yicha tegishli konstruktiv reja ishlab chiqish;

– istalgan mamlakat mediaimiji mezonlari, asoslari qatorida turizm, xususan, xalqaro turizim sohasi alohida o‘rin tutishiga e’tibor qaratish lozim;

– respublikaning xalqaro mediamakondagi obro‘si, avvalo, uning ichki axborot maydonidagi imijining uzviy, ajralmas qismi ekanligiga tayanilsa, ichki milliy jurnalizmning yetakchi namoyondalari, shuningdek milliy ekspertlar mediada ko‘tarib chiqayotgan salmoqli fikr-mulohazalari yaxlit intellektual salohiyat sifatida milliat, mamlakat imijini shakllantirishning muhim omiliga aylanishi, zamonaviy o‘zbek jurnalistikasi jahon axborot makoni arxitektonikasining haqli a’zo sifatida jahonning yetakchi matbuotida qabul qilingan zamonaviy qoida, shakl hamda formatlarga uyg‘unlashuvi zarur;

– mediamakondagi turli stereotiplar, ya’ni, Yangi O‘zbekiston obrazi bilan bog‘liq barqaror (konstanta), o‘zgarmaydigan, soddalashtirilgan, aniq, turfa, sxematik tushunchalar amaliyotda salbiy yoki ijobiy bo‘lishini inobatga olish zarur. Shuningdek, imijni yuksaltirishda ijobiy stereotiplardan samarali foydalanish hamda ushbu freymlar nazariy jihatdan modellashtirilayotgan obyekt – Yangi O‘zbekiston haqidagi tasavvurlar hamda bilimlarni tartibga solish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abaturov, Naumova. “Ekonomicheskoe obozrenie”, 2003, № 6, c. 37.

(2). Arslonov Z. Kognitiv tilshunoslik haqida qisqacha. Elektron resurs: http://arslonov.blogspot.com/2012/01/blog-post_12.html.

(3). Gavra D. Kategoriya imidja v sovremennoy kommunikavistike. Elektronniy resurs: http://www.jourssa.ru/sites/all/files/volumes /2013_4/Gavra_2013_4.pdf.

(4). Демидов А.И. Федосеев А.А. Основы политологии. Москва, “ Высшая школа”, 1995, с. 229.

(5). Do'stmuhammad X.N. Axborot – mo‘jiza, joziba, falsafa. T., “Yangi asr avlodi”, 2013, 320-b; 78-bet.

(6). Muitov D. Geosiyosat va jurnalistika. T., “Turon-iqbol”, 2014, 11-bet.

(7). Meliqulov M. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2006, 1-dekabr.

(8). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya, Toshkent, 2008, 318-bet; Elektron resurs: http://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-ili_va_adabiyot/Pragmalingvistika%20(Sh.Safarov).pdf.

(9). Тлепбергенова А. Становой имидж. Учебное пособие для стьудентов бакалавриата, обучающихся по специальностям «Журналистика», «Связь с общественностью». Алматы, университет Казахстана, 2011, с. 13.

(10). Shatil E. Does combined cognitive training and physical activity training enhance cognitive abilities more than either alone? A four-condition randomized controlled trial among healthy older adults. Electronic resource: https: //pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/23531885/.

(11). Cognitive. Electronic resource: https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cognitive.

(12). Panarin I. SMI, пропаганда и информатсионние войни. Электронний ресурс: https://textbooks.studio/uchebnik-teoriya-politiki/osnovnyie-funktsii-smi17974.html.

(13). Таранов В. Традисионне и нове медиа в регионал'ном имидзҳмежкинге в информасионном сетевом обшчестве. Электронний ресурс: http://izvestia.asu.ru/2010/4-1/pols/TheNewsOfASU-2010-4-1-pols-06.pdf.

(14). T.Glushkova. O.Zaytseva. Mediaobraz kak instrument sozdaniya territorial'nogo imidja: kognitivniy aspekt. Elektronniy resurs: https://cyberleninka.ru/article/n/mediaobraz-kak-instrument-sozdaniya-territorialnogo-imidzha-kognitivnyy-aspekt.

(15). В Петербурге учредили всемирное общество по сохранению культурного наследия Узбекистана. Электронный ресурс: http://tass.ru/obschestvo/5277084.

(16). Узбекистан приоткрывает двери иностранным инвесторам. Электронный ресурс: https://ru.reuters.com/article/ business News/idRUKBN1DR1AN-ORUBS.

(17). Узбекистан упростил процесс получения визы. Электронный ресурс: https://ria.ru/world/ 20180802/1525789408.html.

(18). Шкондин М.В. Известия Иркутской государственной академии [The Functional inte-grity of media system] 2014, 2nd vol. Электронный ресурс: http://cyberleninka.ru/article/n/funktsionalnaya-tselost-nost-mediasistemy.

(19). 52 places to go in 2019. Electronic resource: https://www.nytimes.com/interactive/2019/travel/places-tovisit.html?rref=collection%2Fcolumn%2Fthe-52-places raveler&action=click&contentCollection=travel% C2% AEi on=rank&module =package&version=highlights&contentPlacement=4&pgtype=collection.

(20). Qobil R. Uzbekistan: Land of a thousand shrines. Electronic resource: https://www.bbc.co.uk/news/world- asia-44685414.

(21). Lilia Burunciuc, Wolfgang Fengler, Wiebke Schloemer, and Daria Taglioni. How Uzbekistan is transforming into an open economy. Electronic resource: https://www.brookings.edu/blog/future-development/2018/12/20/how-uzbekistan-is-transforming-into-an-open-economy/?fbclid=IwAR044AmtU30EqvWhHFg-zw5LrxLTOg Ncy DHb ME0y81f5raIEqzQXYmK85n0.

Majidov Sevinch Axtamovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi)

FAYZULLA XO‘JAYEV–MAMLAKATNING IJTIMOIY HAYOTIDA QOZILARNING FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Fayzulla Xo‘jayev Buxoro amirligi qozilar mahkamasida, umuman, qozi, sudlarida hukm surgan qonunsizliklar, qozilarning shariat qonunlariga xilof ishlari mohiyatini xalqqa tushuntirib berishga harakat qiladi. Fayzulla Xo‘jayevning mushohada yuritishicha, jamiyatda amalga oshiriladigan o‘zgarish va islohotlarning birdan-bir asosi faqat shariat qoidalari bo‘lmog‘i darkorligi tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar*: Fayzulla Xo‘jayev, qozilar, qozi sudlari, davlat, jamiyat rivoji, barqaror taraqqiyot.*

Меджидов Севинч Ахтамович (Бухарский Инженерно-технологический институт, научный сотрудник)

ФАЙЗУЛЛА ХОДЖАЕВ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДЕЙ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ СТРАНЫ

Аннотация. *В статье Файзулла Ходжаев пытается разъяснить народу природу беззакония в судах судей Бухарского эмирата, в целом судей, и характер нарушений судьями законов шариата. По наблюдениям Файзуллы Ходжаева было выявлено, что единственной основой осуществляемых в обществе изменений и реформ должны быть только правила шариата.*

Ключевые слова: *Файзулла Ходжаев, судьи, суды, государство, развитие общества, устойчивое развитие.*

Majidov Sevinch Akhtamovich (Bukhara Institute of Engineering and Technology is a researcher)

FAYZULLA KHODJAEV – ON THE ACTIVITIES OF JUDGES IN THE PUBLIC LIFE OF THE COUNTRY

Annotation. *In this article, Fayzulla Khojaev tries to explain to the people the nature of lawlessness in the court of judges of the Bukhara Emirate, in general, in judges' courts, and the nature of judges' viola-*

tions of Sharia law. According to Fayzulla Khojaev's observation, it was analyzed that the only basis of the changes and reforms implemented in the society should be only Sharia rules.

Key words: *Faizulla Khojaev, judges, judges' courts, state, community development, sustainable development.*

Kirish. Ilmli, o‘z zamonasining bilimdoni, siyosatdon va madaniyatli, o‘z tarixini yaxshi bilgan inson bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev savdogar oilasida tug‘ilganligi uchun har tomonlama yaxshi ta’minlangan edi. U otasidan qolgan boylikni jadid maktablari ochishga, yosh buxoroliklar faoliyatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. Fayzullaxo‘ja melodiy 1896-yil 1-iyulda Buxoro shahrida amirlik hududidagi yirik savdogar Ubaydullaxo‘ja Qosimxo‘ja o‘g‘li (1859–1912) oilasida dunyoga keldi. Uning onasi Rayhon Saidmurod qizi (1865–1938) Peshku tumanidagi Zandane qishlog‘idan bo‘lib, bu mushtipar ayol oddiy dehqon oilasida voyaga yetgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fayzulla bolalik chog‘ida eski usuldagi maktabga qatnab, savod chiqardi va Buxoro madrasalaridan birida ikki yil tahsil olib, Qur’oni karimni yod oldi. Fayzulla o‘n yoshdan sal oshganida otasi uni Moskvaga olib boradi. Bu paytda Moskva ko‘chalarida birinchi rus inqilobi harakati hali so‘nmagan edi. Besh yil Moskvada o‘tgan davr (1907–1912) Fayzullaning hayotida o‘chmas iz qoldirdi. Bu yerda u xususiy muallimlar qo‘lida ta’lim oldi. Bungacha Sharq madaniyati bilan madrasa tahsili orqali ancha-muncha xabardor bo‘lgan zakiy o‘spirin endi Ovrupo va Rossiya urf-odatlari, ularning tartiblari bilan tanishdi. Fayzulla yoshligidanoq o‘zbek, tojik, rus tillarini bir xilda mukammal bilar edi. Zamondoshlarining guvohlik berishlaricha, F.Xo‘jayev, hatto nemis tilida ham o‘z fikrini ravon bayon eta olgan. Sharq-u G‘arb ta’limini mukammal egallagan Fayzullaga bu bilim, keyinchalik, juda asqotdi va qo‘l keldi. U XX asr boshlarida inqilob maydoniga kirib kelgan Buxoro va Turkiston yoshlari o‘rtasida chuqur bilimga ega bo‘lgan zukko shaxs edi. Fayzulla Xo‘jayevning atoqli davlat arbobi bo‘lib shakllanishida yoshlikda olingan ta’limning o‘rni bo‘lakcha bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek taraqqiyparvar ziyolilari – jadidlar o‘z davrida qozilar, ularning faoliyati, jamiyatda tutgan o‘rni, huquq va majburiyatlari, qozilik sudlari va vazifalari to‘g‘risida boy huquqiy g‘oyalar qoldirganlar. Ular o‘zlarining mazkur masalalarga doir ma’ruza, maqola va asarlarida qozilar va qozilik sudlari faoliyatida tub o‘zgarishlar hamda islohotlar amalga oshirilishi zarurligini uqdiradilar.

Jadid mutafakkirlaridan, taniqli davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo‘jayev o‘z davridayoq Amir davlati qonunchiligi, qozilar faoliyati, sud hokimiyati to‘g‘risida dolzarb muammolarni ilgari surgan. Mutafakkir davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan sud hokimiyati, umuman, diniy sud organlari, qozilar mahkamasi, qozilar, ularga qo‘yiladigan talablar, ular asl vazifalarining mohiyatini ochib bergan.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, Buxoro amirligining huquq tizimini, boshqa musulmon davlatlaridek, musulmon huquqi tashkil qilgan.

Shariat normalari ikki qismdan iborat bo‘lgan: birinchisi–diniy normalar bo‘lib, har bir musulmon kishining xatti-harakati, axloqi, e’tiqodi, ibodati kabi diniy majburiyatlarni begilab bergan. Ikkinchisi –huquqiy normalar bo‘lib, jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni belgilab bergan va tartibga solgan.

Fayzulla Xo‘jayev Buxoro amirligi qozilar mahkamasida, umuman, qozi sudlarida hukm surgan qonunsizliklar, qozilarning shariat qonunlariga xilof ishlari mohiyatini xalqqa tushuntirib berishga harakat qiladi. Ularning g‘ayriqonuniy xatti-harkatlarini, barcha kirdikorlarini ayovsiz fosh etadi.

Olimning fikricha, hukmdor va qozilarni fuqaroning haqqoniy talablari, ariza va shikoyatlari zarracha ham qiziqtirmaydi. Ularni kundalik huzur-halovat, mol-dunyo va boylik to‘plash qiziqtiradi.

Fayzulla Xo‘jayev, qozilar fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishi, jamiyatda ijtimoiy adolatni, tinch-totuvlikni, barqarorlikni ta’minlashi, huquqiy tartibot, qonuniylik va tartib-intizomni mustahkamlashi, haqiqatni ro‘yobga chiqarishlari kerak, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u qozilarning sud ishlarini ko‘rib chiqishda va hal qilishda turli qonunsizliklarga yo‘l qo‘yishlarini, xalq manfaatidan o‘z manfaatini ustun qo‘yishini aniq dalillar asosida ko‘rsatib beradi [1].

Mutafakkir shu toifadagi qozilarning xizmat vazifalariga, qonuniylikni mustahkamlashga, fuqaroning huquq va manfaatlariga zid ravishda ularga nisbatan adolatsiz og‘ir jazo tayinlashlariga hamda “musulmon haqqini zo‘rlik bilan” olishlariga qattiq norozilik bildiradi.

U qozilarning jinoyat uchun jazo choralarini tayinlash bo‘yicha faoliyatlarini qayta ko‘rib chiqishlari, o‘zgartirishlari va tubdan isloh qilishlarini talab qiladi. Fayzulla Xo‘jayevning haqqoniy ta’kidlashicha, barcha fuqarolarning millati, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va egallab turgan vazifasidan qat’iy nazar, qonun va sud oldida tengligi ta’minlanishi lozim.

Fayzulla Xo‘jayev inson huquqlari, erkinliklarining himoya qilinishi, sud ishlarini yuritishda qonuniylik va adolat talablariga qat’iy rioya etilishi to‘g‘risidagi g‘oyalarni dadil ilgari suradi. Sud hokimiyatini-inson va fuqarolar manfaatini himoya qiluvchi davlat mahkamasiga aylantirish zarurligini alohida uqtiradi. Uning bu borada qoldirgan boy bilimlari hozirgi davrda o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas.

Fayzulla Xo‘jayev Buxoro amirligida qozilar faoliyati, ularning shariat qoidalari asosida ish yuritishi zarurligi to‘g‘risida jiddiy bildirgan munosabati hozirgi kunga qadar siyosiy va huquqiy sohada asosiy dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Fayzulla Xo‘jayev fikricha, Amir va uning amaldorlari o‘zlarini shariat posbonlari va himoyachilari deb hisoblaydilar. Ammo, ularning faoliyatlari sinchiklab tekshirilganda va puxta o‘rganilganda, birorta ishlari ham shariatga muvofiq emasligi ma’lum bo‘ladi.

Fayzulla Xo‘jayev, amirlikda qozilarning ham boshqa amaldorlar kabi hamma vaqt Amirning shariatga xilof ishlariga yordam berishlarini, Amir nomidan so‘zlab, nochor va notavon fuqarolarning mol-mulkini tortib olishlarini, uning oz qismini Amirga hadya ravishda taqdim qilishlari va ko‘p qismini esa o‘z shaxsiy foydalari uchun o‘zlashtirishlarini qattiq tanqid qiladi.

Mutafakkirning zikr qilishicha, qozilar o‘zlarini Muhammad payg‘ambar “vorislari” deb hisoblab, o‘z mansab va martabalarini saqlab qolish uchun hukumatning shariatga xilof ishlaridan ko‘z yumadilar. Hatto, Amir va uning vazirlarining g‘ayriqonuniy ishlariga yordam beradilar. Qozilar aslida shariat bo‘yicha xalqning barcha ehtiyojlarini bepul bajarishga majburdirlar. Ammo ular fuqarodan olgan mablag‘lar va o‘zlashtirgan mol-mulklar hisobidan tirikchilik qiladilar [2].

Fayzulla Xo‘jayev, qozilarning Amir va uning amaldorlariga turli hadyalar berib, qozilik mansablarini saqlab qolish, yuqori lavozimlarni egallash, behisob daromadga ega bo‘lish uchun astoydil harakat qilishlarini ayovsiz fosh etadi. Uning fikriga ko‘ra, muayyan viloyat yoki tuman qozisi lavozimini egallab olgan “shariat hoimiysi” hisoblangan qozilar oqsoqollarning yordami bilan turli xildagi da’vo ishlarini qo‘zg‘atadilar va har xil bahonalar bilan muhr bosganlik uchun, xizmat qilganlik uchun, mol-mulkni taqsimlaganlik va taloq qilganlik uchun mazkur oqsoqollar vositasi orqali pul yig‘adilar, tinch xalqni talaydilar, ularga behad jabr-zulm o‘tkazadilar.

Yetim-yesirlarning mol-mulkini o‘zlariga o‘tkazib olishni ular (qozilar–M.E.) ona sutidan ham halol deb hisoblaydilar, deb qattiq norozilik bildiradi mutafakkir, qozilarning amaliy faoliyatlarida biror marta ham biron-bir yetim to‘la ravishda o‘zining merosini ololmagan.

Fayzulla Xo‘jayev amirlikda qozilar faoliyati, sudlov ishlarini yuritish va barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning asosi bo‘lgan shariat qonun-qoidalarining Amir va uning amaldorlari, xususan, “shariat himoyachilari” qozilar tomonidan buzilayotganligini keskin tanqid qiladi. U mamlakatda Amir va umarolar, beklar, qozilar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlarining ayovsiz poymol qilinayotganligi, shariat qoidalarining behad buzilayotganligiga qarshi oshkora kurashish zarurligini xalqqa tushuntirib beradi.

Mutafakkir amirlik ijtimoiy hayotining tobora inqirozga uchrayotganligi bu “sha’ri-sharif”ga qat’iy rioya qilmaslik va uning qonun-qoidalarini poymol qilish oqibatidan ekanligini uqdirib, ilgarigi davrda o‘rnatilgan va amal qilingan haqiqiy shariat normalariga qaytish kerakligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari suradi. Fayzulla Xo‘jayev mamlakatdagi mavjud sud tizimi, quyi va yuqori pag‘onalardagi qozi va Qozi kalonlar faoliyatidagi qonunsizliklar va illatlarni ko‘rsatib berar ekan, shariat ilmini-vijdonli va haqiqiy shariatga ishonadigan hamda amal qiladigan qozi-yu ulamolardan so‘rash zarurligini alohida ta’kidlaydi [3].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, mutafakkir amirlik mustabid tuzumi davrida, garchi sanoqli bo‘lsa-da, o‘z faoliyatlarida hali ham shariat normalariga qat’iy rioya qilib, adolat yuzasidan ish yuritadigan halol, vijdonli va odil qozilar borligini nazarda tutgan. Fayzulla Xo‘jayevning mushohada yuritishicha, jamiyatda amalga oshiriladigan o‘zgarish va islohotlarning birdan-bir asosi faqat shariat qoidalari bo‘lmog‘i darkor.

Jadid mutafakkirlarining sud hokimiyati, qozilarning huquqiy maqomi, ularga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi g‘oyalari O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlashda, sud organlari faoliyatini davr talablari darajasida rivojlantirishda, sud islohotlarini amalga oshirishda, sudlarning mohiyati va xususiyatlarini tushuntirishda, umuman, hokimiyat asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, mustabid tuzum davrida mamlakat inqirozi va millatni qoloqlik holatidan qutqarish uchun katta kuch-g‘ayrat sarflagan jadid mutafakkiri Fayzulla Xo‘jayev o‘z davridagi ilg‘or g‘oyalarni, jumladan, Ahmad Donish tanqidiy uslubini to‘la anglab yetgan va o‘zlashtirgan bo‘lib, ular, eng avvalo, buxoroliklar, umuman, turkistonliklarni o‘zlariga tanqidiy qarashga da’vat etdilar, rivojlanishning oliy maqsadlari sari millatni, xalqni ergashtirish uchun nafaqat nazariy jihatdan, shuningdek, amaliy tomondan ham alohida fidoyilik ko‘rsatdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
(1). Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. Т., “Фан”, 1997, 160-бет.
(2). Бухарская Республика. “Позиция”, Т., 1993, № 1, с. 16 – 19.
(3). А.Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент, “Akademnashr”, 2016.

Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, (PhD)

INSON MA’NAVIYATIDA TARIXIY ONG OMILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson ma’naviyati va milliy o‘zligini anglashda tarixiy ongning omili bilan tahliliga oid falsafiy qarashlar qiyosiy tadqiq qilingan. Shuningdek, inson ma’naviy-axloqiy qadriyalari shakllanishida tarixiy ongning ahamiyati, tarixiy rivojlanishi ilmiy-falsafiy asosida tadqiq qilish bilan belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *inson ma’naviyati, o‘zligini anglash, milliy o‘zligini anglash, tarixiy ong, tarix, ma’naviy-axloq, tarixiy xotira.*

ИСТОРИЧЕСКИЙ ФАКТОР СОЗНАНИЯ В ДУХОВНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. *В данной статье сравнительно изучаются философские взгляды на анализ фактора исторического сознания в понимании человеческой духовности и национальной идентичности. Также научно-философскими исследованиями определяется значение исторического сознания в формировании духовно-нравственных ценностей человека, историческом развитии.*

Ключевые слова: *духовность человека, самосознание, национальная идентичность, историческое сознание, история, духовно-нравственный, историческая память.*

THE HISTORICAL FACTOR OF CONSCIOUSNESS IN HUMAN SPIRITUALITY

Annotation. *In this article, a comparative study of philosophical views on the analysis of human spirituality and the factor of historical consciousness in the understanding of the national self is carried out. Also, in the formation of a person in spiritual and moral values, the Achaemenid, historical development of historical consciousness is determined by research on the basis of scientific and philosophical.*

Key words: *human spirituality, self-awareness, national self-awareness, historical consciousness, history, spiritual-moral, historical memory.*

Kirish. Ma’lumki, biron-bir xalq ma’naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e’tirof xalqning g‘urur va iftixori, milliy o‘zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu sababdan tahlikali davrda inson ma’naviyati va milliy o‘zligini anglashida tarixiy ongini rivojlantirish ustuvor ahamtyai kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixiy ong – insonning eng oliy ma’naviy-axloqiy qadriyati, chunki u ezgulik va yomonlikni ajrata olish qobiliyatiga ega bo‘lishidan avval o‘zini ijtimoiy mavjudot sifatida tan olishi kerak. Tarixiy ong toifasini tahlil qilganda, uning madaniy tizimdagi funksiyalarining ikki tomonlama tabiati hayratlanarli: nazariy tekislikda u jamiyatning fazoviy vaqt yo‘nalishini belgilaydi va shu bilan uning o‘zini-o‘zi bilishiga hissa qo‘shadi, tarixiy tekislikda. tarixiy xotirani qayd etish usuli bilan aniqlanadi (afsona, xronika, tarix).

Inson tabiatga qarshi erishgan bu muvaffaqiyati tufayli taqlid qilishga haqli va faxrlanadi. Bu yutuqni qo‘pol ishlatishga moyil bo‘lsa-da, hamma narsani o‘z atrofiga burish istagi bor. U o‘zini barcha tirik turlarning ierarxik reytingida birinchi o‘ringa qo‘yadi. U tirik mavjudotlarni odamlar, hayvonlar va o‘simliklar deb tasniflaydi.

“Bilim avlodlar o‘rtasida eng muqaddas xazina sifatida o‘tkazilganda tarixiy mato to‘qilgan edi. Tarixiy ong – bu yer yuzidagi barcha inson turlari yutuqlarining davomi, to‘plangan va xayoliy bilimlarni avlodlar o‘rtasida uzatishdir. O‘z hodisasini bilish faqat ongli jarayonni boshdan kechirish orqali mumkin bo‘ladi” [1].

Tarixiy ong «o‘zligini yo‘qotgan, o‘z qadr-u qimmatini butkul unutgan fuqaroni uyg‘otishga, o‘zligini anglashga, o‘z haq-huquqini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishga da’vat etadi» [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy ong murakkab ruhiy hodisa sifatida shakllanish usullari va vositalari tufayli ancha murakkab tuzilishga ega. Oddiy ijtimoiy ong darajasiga mos keladigan tarixiy ongning birinchi (eng quyi) darajasi to‘g‘ridan to‘g‘ri hayotiy tajribani to‘plash asosida shakllanadi. Bu jarayondagi o‘ziga xos taassurotlar, faktlar, oxir-oqibat xotiralar hosil qiladi. Bu darajada tarixiy faktlar hali tizimni shakllantirmagan, shaxslar hali ularni tarixiy jarayonning butun borishi nuqtayi nazaridan baholay olmay-

dilar. Bu darajada tarixiy ong noaniq, hissiy rangdagi, ko‘pincha, to‘liq bo‘lmagan, yolg‘on va subyektiv xotiralarda namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Xalqimizning juda boy tarixi bo‘lib, uning ko‘p sahifalari juda ibratli. Tarixda ko‘pgina ajdodlarimiz Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qahramonlik, fidoyilik namunalarini ko‘rsatgan. Misol uchun, To‘maris, Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Shayx Najmiddin Kubrolar fidoyilik namunasidirlar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tarixiy xotira har bir insonga o‘zligini anglashda beqiyos xazina o‘rnini bajaradi. Binobarin, har bir shaxs ongi va tafakkurida kechadigan o‘zgarish, islohot va yangilanish pirovard natijada jamiyatning yangilanishiga, o‘zgarishiga, insonparvarlik va demokratik tamoyillarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Insoniyat hayotini o‘ziga xos tarixiy davrlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ammo bu vaqtni tashkil etuvchi ba’zi qismlar, lahzalar asl ma’noda «tarixiy» hisoblanadi. Har bir insonda tarixiy lahzalar bo‘lgani kabi, har bir jamiyatda ham tarixiy voqeliklar ustuvordir. Bundan tashqari, muayyan xalq, millat yoki elat tarixida, mubolag‘a qilib aytganda, yulduzlar xira bo‘ladigan va yulduzlar porlaydigan paytlar ham bor. Shu sababli insoniyat tarixida uzluksiz taraqqiyot bor, degan da’vo munozarali bo‘lishi mumkin. Bu fikrda ham obyektiv asos yo‘q. Albatta, odamlarning ozod bo‘lishga, ba’zi dard va qashshoqliklardan qutulishga va dunyoni qayta tiklashga moyilligi va harakatlari biz doimo duch keladigan hodisadir. Inson doimiy ravishda o‘zidan ustun turishga harakat qiladigan mavjudot ekanligini inkor etish mumkin emas. Biroq inson har doim ma’lum bir vaqtda, tarixning ma’lum bir davrida, boshqasida qo‘lga kiritgan narsasini yo‘qotish ehtimoli bilan yuzma-yuz uchrashadi. Masalan, 20-asrda yuz bergan ko‘plab vahshiylik va ibtidoiyliklarni eslash kifoya. Insonning tarixiyligi, albatta, unda ma’naviy javobgarlikni oshiradi. Biz buyuk tarixiy merosimizning boyligi, vazni va inkor etib bo‘lmasligi g‘oyasi bilan yashaymiz. Demak, o‘tmish hozirgi kunda bugun davom etgandek kelajak ham kelajakda mavjud bo‘ladi. O‘tmish – bu yashaydigan va uzluksizligini saqlaydigan narsa. Biz birdaniga boshqa odam bo‘la olmaymiz, hayotimizni birdaniga o‘zgartira olmaymiz ... Bularning barchasi odamlar meros qilib olgan an’anaga bog‘liq. An’analar tarixning ontologik asosidir. Ammo o‘tmish urf-odatlar har lahzada qayta tiklanadigan, tuzatiladigan yoki buzilgan narsadir.

Tarixiylik – insonning o‘zini anglashga bo‘lgan doimiy harakatini anglatadi. Har bir fikrlash faoliyati va har bir harakat tarix sahnasida amalga oshiriladigan reja yoki loyihani qo‘yishni anglatadi.

O‘tmish bu o‘z urf-odatlarimiz haqida qayg‘urishimiz hamda o‘zimizni anglash harakatining bir qismidir. O‘tmish bizning hozirgi qiziqishlarimiz, tendensiyalarimiz va ehtiyojlarimiz bilan qayta izohlanadi va hozirgi davrga qo‘shiladi. Bu bizning tarixiyligimizni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli o‘tmish konservatorlarga qoldiriladigan vaqt emas. Kelajakni qurish uchun bizga o‘tmish kerak. Xuddi shunday kelajak faqat utopiklarga tegishli emas. Chunki inson vaqtning barcha o‘lchamlarini o‘z ichiga oladigan tarzda yashaydi, uning davri tarixiydir. Inson o‘z dunyosini tarixiylik sharoitida quradi, uni tushunish va o‘zgartirishga intiladi. O‘tmishga yoki kelajakka yo‘naltirilgan bo‘lmasin, odamlar tarixiylik ongi bilan harakat qilishadi. Shu boisdan ham M.N.Melikova «Tarixiy bilimlar va tasavvurlar orqali yosh avlodda o‘z Vatani tarixiga bo‘lgan qiziqish ortadi, uning og‘ir damlariga hamdard bo‘lish yoki muvaffaqiyatlaridan g‘ururlanish, millat rahnamolari xatti-harakatlaridan qoniqish yoki norozi bo‘lish hissi paydo bo‘ladi, ya’ni bunda tarixning qadriyat sifatidagi belgisi namoyon bo‘ladi. Natijada tarixiy ongning ajralmas qismi bo‘lmish tarixiy xotira shakllanadiki, uningsiz inson ruhiy-ma’naviy dunyosini yoxud amaliy faoliyatini tasavvur etish mumkin emas», deb yozadi [3].

Inson o‘z tarixini, shuningdek, boshqa barcha mavjudotlar tarixini yaratadigan yoki yozadigan va bundan xabardor bo‘lgan yagona mavjudot. Bizdan daraxtlar, tog‘lar va dengizlarning tarixi haqida so‘rashadi. Qisqasi, inson barcha tabiiy tarixni yozadi. Tabiatning o‘zi uchun tarix va tarixiylik haqida hech qanday tushuncha yo‘q. Ko‘pincha, «tarixning oxiri» tushunchasiga asoslangan turli xil taxminlarni ko‘rish mumkin. Agar biz insoniyatning uzoq asrlik madaniy va intellektual tarixining so‘nggi asrlari bilan cheklansak, Gegel davridan beri biz «tarixning oxiri» ni aniqlash muammosiga duch kelamiz. Biroq bu vaqtda tarix o‘ziga ma’lum «oxiri», «oxirgi maqsadi» kabi bunday urinishlarni rad etadi. Tarixiy mavjudot sifatida inson faqat shu tarixiylikni anglab yetishi va shu ong bilan mavjudligini davom ettirishi mumkin. Tarixga nuqta qo‘yish harakatlari, ko‘pincha, diniy xarakterga ega. Shunga qaramay, tarixning sekularizatsiya falsafalarida ham shunga o‘xshash yo‘nalishni topish mumkin.

Tarixiy ong, shuningdek, odamlarning o‘zlari, boshqa odamlar va jamiyatlar, tabiat, koinot bilan o‘rnatadigan munosabatlari va uslublarning buzilishini o‘z ichiga oladi. Bu shunday bo‘linishki, unga ko‘plab qidiruvlar, hisob-kitoblar, so‘roqlar va fojialar kiradi. Lekin ularning hech qachon oxiri yo‘q. Tarixiy mavjudligi tufayli insonning tarixni tushunish va o‘zgartirish harakatlari hech qachon tugamaydi. Biroq bu umidsizlik va noumidlik sababi sifatida tushunilmasligi kerak. Tarixdan xabardor bo‘lish, uning tarixiy

mavjudot ekanligini bilish – bu inson borligi, ufqini kengaytiradigan ong holati. Ufqda yulduzlar so‘nadi, lekin yana porlaydi, shaxslar va jamiyatlar tarixning ma’nosini qayta-qayta so‘roq qilishda davom etadilar. Chunki tarix va insoniyatning tarixiylik ongi davom etmoqda. A.Toxiriyon ta’kidlashicha, «Tarixiy ong deganda nima nazarda tutiladi? Savolning ixcham va qat’iy javobini ifoda etish juda mushkul tuyuladi. Chunki falsafiy, ilmiy, badiiy va, albatta, tarixiy yondashuv nuqtayi nazaridan javob turlicha ko‘rinishda bo‘ladi. Tarixiy ong tushunchasi bevosita bizdan ilgari sodir bo‘lgan tarixiy hodisa-voqealarni o‘zida aks ettiradigan va ularga bo‘lgan munosabatni ifoda etadigan his-tuyg‘udir. U turli tarixiy manbalar, tarixiy ashyolar, ajdodlar merosi, shuningdek, tariximiz va madaniyatimizning uzluksizligini anglab olish jarayonini qamrab oladi. Yanada aniqroq ifoda etsak, tarixiy ong inson uchun o‘tmish va bugunni uzluksiz tarzda, bir butun, yaxlit manzara sifatida tasavvur qilishga yordam beradigan bilimlar, xulosalar yig‘indisi bo‘lgan tuyg‘udir» [4].

Tarixiy ong rivojida tasodifiy ma’lumot ham muhim rol o‘ynaydi, ular, ko‘pincha, odamning, oilaning madaniyati va ma’lum darajada urf-odatlar vositasi bo‘lib, hayot haqidagi ma’lum g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Tarixiy ongni shakllantirish bilan bir qatorda, an’analar keksa avlodning xulq-atvoriga taqlid qilish orqali uzatiladi, axloqiy an’analarning muayyan xulq-atvor namunalarida mujassamlanishi sodir bo‘ladi va umumiy hayotning asosini tashkil qiladi. Axloqiy an’analar «xalq ruhi» deb ataladigan tushunchaning asosini tashkil qiladi. Tarixiy ong shakllanishining bu bosqichida tarixiy bilimlar tizimsiz shaklda namoyon bo‘lib, turli afsonalarni shakllantiruvchi elementlar va sof baholar bilan tavsiflanadi, lekin bu darajadagi tarixiy ong tarkibiy qismlarining yig‘indisi ma’lum darajada muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Insonning hayoti va ongi, shuningdek, uning milliy xulq-atvori, turg‘un xususiyatlari va ma’naviy tuzilishini aniqlaydigan xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ularining namoyon bo‘lishi va boshqalardan iborat bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixiy ong inson ma’naviy olamining asosiy ma’no shakllantiruvchi tuzilmalari va kategoriyalaridan biridir. Tarixiy ong ongga va shu orqali shaxsning ma’naviy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan axloqiy qadriyat bo‘lib, muhim tarbiyaviy xususiyatga ega. Insonda insonning tarixiy va axloqiy o‘lchovlari o‘rtasida aksiomatik aloqa o‘rnatiladi. Tarixiy ongning axloqiy asosi nafaqat tarixni bilishda, balki uning tajribasi, ishtiroki va mas’uliyatida ham yotadi. O‘zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab, milliy o‘zlikni anglashda tarixiy ongni roli oshib bordi. Amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda tarixiy ongga asoslanishi, ya’ni, milliy an’nalarimizni qayta tiklanishi, buyuk bobakalonlarimizning ma’naviy, ilmiy merosini o‘rganish, jadid ma’rifatparvarlarining nomlarining oqlanishi va boshqa jihatlarni keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich. O‘zbekistonning milliy-ma’naviy xavfsizlik strategiyasini ta’minlashda tarixiy ongning ahamiyati. 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa. falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Qo‘qon. 2022, 17-bet.

(2). Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 326-bet.

(3). Melikova M.N. O‘zbekiston yoshlarining tarixiy ongi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand, 2019, 5-bet.

(4). Toxiriyon A. Milliy-ma’naviy merosning yoshlar tarixiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati. “Zamonaviy ta’lim”, “Современное образование”, 2014, № 3, 25-bet.

Buzrukova Maxina (Sharof Rashidov nomidagi SamDU (DSc) doktoranti)

TURISTIK DISKURS HODISASINING TADQIQ VA TAHLIL USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turistik diskursning tipologik xususiyati tahlil natijasida quyidagilar aniqlangan: (a) institutsional biznes diskursi turi sifatida; (b) turistik diskursning lingvopragmatik xususiyatlari bir xil emasligi; (c) professional va akademik turistik diskursda argumentativ strategiyalar ustun kelishi; (d) kommunikativ vaziyatlarning xususiyatlariga qarab foydalaniladigan turistik diskursdagi farqlar, ushbu tur institutsional biznes diskursida voqelanadigan matnlar leksik tarkibida yaqqol namoyon bo‘lishi.*

Kalit so‘zlar: *individual, institutsional, potensial turistlar, kommunikativ strategiya, argumentativ strategiya, manipulativ strategiya.*

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И АНАЛИЗА ЯВЛЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Аннотация. *В данной статье в результате анализа типологических особенностей туристического дискурса было выявлено следующее: (a) как тип институционального бизнес-дискурса; (b) лингвопрагматические особенности туристического дискурса неодинаковы; (c) в профессиональном и академическом туристическом дискурсе преобладают аргументативные стратегии; (d)*

различия в туристическом дискурсе, используемые в зависимости от характеристик коммуникативных ситуаций, четко проявляются в лексическом составе текстов, возникающих в рамках институционального бизнес-дискурса.

Ключевые слова: *индивидуальный, институциональный, потенциальные туристы, коммуникативная стратегия, аргументативная стратегия, манипулятивная стратегия.*

METHODS OF RESEARCH AND ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF TOURIST DISCOURSE

Annotation. *In this article, as a result of analyzing the typological characteristics of tourist dis-course, the following were identified: (a) as a type of institutional business discourse; (b) the linguo-prag-matic features of tourist discourse are not the same; (c) argumentative strategies prevail in professional and academic tourist discourse; (d) differences in tourist discourse, used depending on the characteristics of communicative situations, are clearly manifested in the lexical composition of texts that occur within the framework of institutional business discourse.*

Key words: *individual, institutional, potential tourists, communicative strategy, argumentative strategy, manipulative strategy.*

1. Kirish. XXI asrning boshlarida turistik diskurs hodisasiga qiziqish orta boshladi va turizm sohasiga oid terminlarni tasniflash, lingvomadaniy va kognitiv jihatdan tadqiq qilish, ayniqsa, qiyosiy tahlil ishlarini olib borish, nutq ta’siri nazariyasi doirasida nutq strategiyasi va taktikasini tavsiflash, janrlar tizimi qurilishi kabi asosiy tadqiqot yo‘nalishlari juda keng rivojlandi.

Turizm sohasining taraqqiyoti va rivoji natijasida ikki tilli lug‘atlar, ma’lumotnomalar, shuningdek, reklamaga xos adabiyotlar yaratildi, shu bilan bir qatorda, turizm yosh soha bo‘lgani sababli unga xos yangi terminlar vujudga kela boshladi. Tadqiqotimiz davomida turizm terminologiyasi turistik diskursning bir qismi bo‘lishiga qaramay, ushbu terminologiyaning kam o‘rganilganligi va amalda tizimlashtirilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Lyu Xuan asarlarida qo‘llanilgan salohiyat tushunchasining kognitiv tahlil usuli turli til madaniyatlari asosida “sayohat” asosiy turistik konsepsiyasini chog‘ishtirma o‘rganish imkonini berdi [Lyu Xuan. 2004]. Diskursga oid tadqiqot paradigmalarining ko‘pligiga qaramay, sotsiolingvistik yondashuv hali ham tilshunoslarning katta e’tiborini tortib kelmoqda, chunki muloqot ishtirokchilarning ijtimoiy o‘rni va vaziyat matni nutqni amalga oshirishga bevosita ta’sir qilib, kommunikativ harakatlar va nutqni shakllantirish xususiyatlariga ko‘ra, muloqotni farqlash imkonini beradi. Muloqot va diskursivlikning zamonaviy talqini shaxsni til prizmasi, lingvistik ong orqali muayyan madaniyat vakili sifatida tushunishga olib keladi.

Turistik diskursni tadqiq qilishda muhim vazifa uning tipologik xususiyatini aniqlashdir. Bu masala bo‘yicha turli qarashlar mavjud. Masalan, bu turdagi diskurs institutsional reklama diskursining bir turi deb qaraladi [Filatova. 2012: 41–46-b.]. Boshqa nuqtayi nazardan, bu mustaqil turdagi diskurs bo‘lib, boshqa ko‘rinishdagi diskurslar bilan (kundalik, ilmiy, reklama va boshqalar kabi) o‘zaro ta’sirlashishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilgan birinchi pozitsiya juda bahsli, chunki u turistik diskursning ko‘lamini toraytiradi. Bizning fikrimizcha, reklama turistik diskursning janr xilma-xilligidan faqat biri bo‘lib, uning xususiyatlarini to‘liq ifodalay olmaydi.

Muvozanatliroq qarash turistik diskursni mustaqil turdagi diskurs sifatida, o‘ziga xos mavzuga yo‘naltirilganligi, aniq belgilangan qabul qiluvchiga yo‘naltirilganligi, maqsadning noyobligi, til vositalarining xususiyatlari va o‘ziga xos janr paradigmasi bilan xarakterlanadi deb hisoblashdir [Alikina. 2010, c. 20]. Biroq, bu nuqtayi nazar ham ba’zi aniqliklarni talab qiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi. Turistik diskursning tipologik holatini aniq tushunish uchun uni amal qiladigan kommunikatsiya sohasini (a), kommunikatsiyaning maqsadlarini (b) va kommunikantlar turini (qabul qiluvchi va uzatuvchi)ni ko‘rib chiqish kerak.

Turistik diskurs maxsus vaziyatlar bilan bog‘liq holda, kommunikatsiyaning maqsadi turizm sanoatini tashkil qiluvchi tashkilotlarning faoliyat samaradorligini ta’minlashdir. Bu, bir tomondan, turistik mahsulotlarni taklif qilayotgan tashkilotlar va ularning maqsadli auditoriyalari o‘rtasida aloqalar o‘rnatish, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro aloqalar qilish, tashkilotning obrazini yaratish, jamoat bilan aloqalarni rivojlantirish, umuman, turizm mahsulotlarini va turizmni targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi.

V.I.Karasik tomonidan taklif qilingan diskursning individual va institutsional bo‘linishi ko‘plab tadqiqotchilar uchun turizm diskursini o‘rganishda boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qildi.

1) individual – “dam olish, ish yuzasidan va boshqa sabablarga ko‘ra odatdagi muhitdan tashqari joylarda bir yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga sayohat qiladigan shaxslarning faoliyati”;

2) institutsional – “yashash joyidan tashqarida aholiga xizmat ko‘rsatadigan iqtisodiyot tarmog‘i”.

4. Tahlil va natijalar. Turistik diskurs ishlaydigan sohaning maxsus xususiyatlari uning tipologik holatini quyidagicha aniqlashga asos beradi:

(a) turistik diskurs, shubhasiz, institutsional toifaga kiradi, chunki u, asosan, kamida bir tomon turizm biznesida faoliyat yurituvchi ijtimoiy yoki iqtisodiy institutni vakillik qiladigan muloqot vaziyatlarida ishlatiladi (masalan, boshqaruv, marketing, moliyaviy oqimlar, inson resurslari siyosati, jamoat bilan aloqalar, turli mamlakatlarning madaniyat va san’at institutlari, hukumat, huquqiy, ijtimoiy va atrof-muhit tashkilotlari);

(b) institutsional diskurs maydonining bir qismi sifatida, turistik diskursi biznes diskursining bir turi sifatida tasniflanishi mumkin. Bu uning atributiv xususiyatlari, masalan, rasmiylik (muloqot ishtirokchilari bir-biri bilan rasmiy munosabatlarda, bir yoki ikkala tomon maxsus kasbiy vazifalarni bajaradi), ijtimoiy maqomi (munosabatlar ijtimoiy masofani o‘z ichiga oladi), biznes muammosining mavjudligi, vaqt va joyning aniq belgilanishi, kommunikativ xulq-atvor me’yorlari, etiket va turli xil qabul qiluvchilar turiga qarab o‘zgarishi kabi xususiyatlardan ko‘rinadi: tashkilot vakillari o‘rtasidagi muloqotda rasmiylik, betaraflik, etiket, turistlar bilan muloqotda hissiyot, baholovchi tabiat, ishonchlilik, do‘stona munosabatlarga qasddan o‘tish, psixologik ta’sir va h.k.

Institutsional biznes diskursining bir turi bo‘lgan turistik diskursning lingvopragmatik xususiyatlari bir xil emas bu ko‘p qirrali hodisadir. T.A.Shiryaeva fikriga ko‘ra, biznes diskursining uchta sohasi (professional, akademik va jamoatchilik) [Shiryaeva. 2008;256-b.] ishlashini hisobga olgan holda, biz kamida uch xil turistik diskursni aniqlashimiz mumkin. Har bir kichik tur o‘zining leksik tarkibi, janr-stilistik xususiyatlari va maxsus kommunikativ strategiyalari va taktikalariga ega: professional (turizm sanoatida biznes jarayoniga xizmat qiladi), akademik (turizm biznesi mutaxassislarini tayyorlash sohasida ishlaydi va ushbu iqtisodiyot sohasida mavjud amaliy faoliyatni ilmiy tahlil qiladi) va jamoatchilik (asosan, turizm sanoati haqida ma’lumot tarqatish va mijozlarni jalb qilishga qaratilgan). Har bir kichik tur o‘ziga xos xususiyatlarga hamda umumiy xarakteristikaga ega.

Professional, akademik va jamoatchilik turistik diskursining umumiy xususiyatlari orasida kommunikativ strategiyalarni ajratib ko‘rsatilishi mumkin. Umumlashtirilgan shaklda biznes diskursining kommunikativ strategiyalari ikki asosiy guruhga bo‘linishi mumkin: argumentativ va manipulativ [Tarnayeva. 2003;42-b.].

Argumentativ strategiyalar mantiqiy-ritorik xususiyatlarga asoslanib, adresantning fikrlari va ratsional baholashlari ta’sirini oshiradi, shuningdek, ularning xulq-atvorini bilvosita tartibga soladi [Shelestyuk. 2008;171-b.]. Boshqa tomondan, manipulativ strategiyalar, adresatning xayolida bo‘lmagan maqsadlar, istaklar, niyatlar, munosabatlar yoki pozitsiyalarni uning ruhiyatiga singdirish uchun ishlatiladigan nutqiy ta’sirning bir turidir [Быkova. 1999;99-b.]. Ta’kidlash kerakki, manipulativ strategiyalar tilning yashirin imkoniyatlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, bu esa adresatga muayyan qarashini majburlab, uni shakllantirishga yordam beradi va kerakli emotsional javobni keltirib chiqaradi [Popova. 2015;277-b.].

Har bir aniqlangan turistik diskurs kichik turi (professional, akademik va jamoatchilik)da yuqorida aytib o‘tilgan kommunikativ strategiyalarning nisbati vaziyatga, kommunikatsiya maqsadlariga va kommunikantlar farqiga qarab farq qiladi. Professional va akademik turistik diskursda kommunikatsiya maqsadlari asosan argumentativ strategiyalardan foydalanishni talab qilsa, jamoatchilik turistik diskursida manipulativ strategiyalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Jamoat turizm diskursida maqsad–taklif etilayotgan turistik mahsulotga bo‘lajak sayohatchiga ijobiy tasavvur hosil qilish va ushbu mahsulotni keyingi sotib olish jarayonini osonlashtirishdir. Shu sababli bu turizm diskursining turida, asosan, manipulativ strategiyalardan foydalanadi. Mazkur strategiyalar qabul qiluvchiga kommunikator uchun istalgan postkommunikativ harakatlarni bajarishga undash maqsadida ta’sir o‘tkazishni ko‘zda tutadi. Shubhasiz, bunday maqsadlarga erishish psixologik omillarni (qabul qiluvchiga emotsional, etik va estetik ta’sir ko‘rsatish) qo‘llashni talab qiladi. Bo‘lajak sayohatchiga psixologik (emotsional) ta’sir ko‘rsatish misoli sifatida turistik firmalarining reklama matnlarini ko‘rib chiqamiz: *“Orzularni chetga surib, dam olish vaqti keldi!”; “Bibixonim” masjidida tarix ruhini his eting, an’anaviy o‘zbek bozori muhitiga sho‘ng‘ing va Shohi-Zinda majmuasiga tashrif buyurib, ma’naviy merosga sho‘ng‘ing*”.

Turistik diskursdagi argumentativ va manipulativ strategiyalarning umumiy xususiyatlari mavjudligi, ushbu turdagi diskursdagi kommunikativ strategiyalar orasida keskin farq qilish amaliyotiga ega emas-

ligini ko‘rsatadi. Biroq, professional va akademik turistik diskurs, asosan, argumentativ strategiyalardan foydalanishini ta’kidlash kerak, jamoat turistik diskursi esa, asosan, manipulativ strategiyalarga tayanadi. Shuningdek, har ikki turdagi kommunikativ strategiyalarda ishontiruvchi ritorikaning mavjudligi tan olingan, uning ahamiyati ikkalasida ham farq qilishi mumkin.

Turistik diskursning turli xilligini uning leksik tuzilishi aniq ko‘rsatadi. Asosan, professional va akademik turistik diskurs maxsus atamalar bilan belgilanadi. Quyidagi misollarni keltirishimiz mumkun: *Hotel Garni* –restoransiz mehmonxona (hatto nonushta xizmati ham mavjud emas); *Party Ticket* – guruh chipta; *Rack Rate – to‘liq xona narxi* (chegirmalarsiz); *Standby* (kutish) – tasdiqlangan broni bo‘lmagan, lekin oxirgi daqiqada samolyotda o‘rindiqlar mavjud bo‘lsa, uchish uchun aeroportda kutayotgan yo‘lovchi. Ko‘pgina aviakompaniyalar bunday yo‘lovchilar uchun juda past narxlarni taklif qilishadi.

Jamoa turistik diskursida hissiy, axloqiy, estetik ritorika ustun keladi, quyida tez-tez uchraydigan leksik birliklarni keltiramiz: *leisure/dam olish; UNESCO heritage sites/UNESKOning jahon merosi obyektlari; heritage tourism/madaniy meros obyektlarini ziyorat qilish*.

5. Xulosa va takliflar. Turistik diskursning xususiyatlari, tahlilini yakunlab, quyidagilarni ta’kidlab o‘tishimiz mukun:

a) institutsional biznes diskursi turi sifatida turistik diskurs rasmiylik, maqom, normativlik, etiket va biznes ohangiga ega xususiyatlariga ega;

b) turistik diskursning lingvopragmatik xususiyatlari bir xil emas, kommunikativ vaziyatlar, funksional maqsadlar va adresat turiga qarab, u uchta xilga bo‘linishi mumkin: professional, akademik va jamoat turistik diskursi;

d) professional va akademik turistik diskursda argumentativ strategiyalar ustun keladi, jamoat diskursida esa manipulyativ strategiyalar oldinga chiqadi, biroq bu ba’zi umumiy xususiyatlar mavjudligini istisno qilmaydi, ular orasida intellektual, ratsional, psixologik argumentlar har bir turda turli darajalarda mavjudligi ta’kidlanishi mumkin;

e) kommunikativ vaziyatlarning xususiyatlariga qarab foydalaniladigan turistik diskursdagi farqlar, ushbu tur institutsional biznes diskursida voqelanadigan matnlar leksik tarkibida yaqqol namoyon bo‘ladi: professional va akademik turistik diskursda terminlar va maxsus leksika tez-tez uchraydi, jamoat diskursida esa baholovchi va emotiv konnotatsiyalarga ega leksika ustun keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Аликина, Е.Ю. Аттрактивная функция метафоры в туристском дискурсе. Ю.Аликина, С.Л.Мишланова. Текст. Непосредственный. Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология, 2010, вып. 6, с. 44 – 50.

(2). Быкова О.Н. Языковое манипулирование: материалы к энциклопедическому словарю «Кулътура русской речи». Теоретические и прикладные аспекты речевого общения. Вестн. Рос. риторич. ассоциации, Красноярск, 1999, вып. 1 (8), с. 91–103.

(3). Попова, Т.П. Характеристики институционального дискурса. Текст. Непосредственный. Историческая и социально-образовательная мысль. 2015, т. 7, вып. 6, ч. 2, с. 295 – 300.

(4). Тарнаева, Л.П. Туристический дискурс: лингвопрагматические характеристики. Л.П.Тарнаева, В.В. Дацюк. Вестник СпБ ГЭ, серия 9, 2013, вып. 3, с. 229–235; Электрон. текстовые дан. режим доступа: http:// cyberleninka.ru/article/n/turisticheskiy-diskurs-lingvopragmaticheskie-harakteristiki.

(5). Филатова Н.В. (2), Стратегия самопрезентации субъекта туристического дискурса. Текст. Непосредственный. Вестник МГЛУ, серия языкознание, 2012, вып. 22 (655), с. 56 – 67.

(6). Шелестюк, Е.В. Текстовые категории аргументативности, суггестивности и императивности как отражение способов речевого воздействия. Текст. Непосредственный. Вестник Челябинского государственного университета. Серия филология. Искусствоведение. 2008, вып. 26, № 30 (131), с. 170 – 175.

(7). Ширяева, Т.А. Когнитивное моделирование институционального делового дискурса. Специальность 10.02.19. «Теория языка». Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук, Ширяева Татьяна Александровна, Кубанский государственный университет, Краснодар, 2008, 540 с.

Ismatullayeva Iroda Izatullayevna (dotsent; ismatullaeva.i.i.03@gmail.com)

VATAN LINGVISTIK-MADANIY KONSEPTINING QIYOSIY-CHOG‘ISHTIRMA MODELI VA UNIVERSAL, MILLIY-MADANIY KONSEPTUAL BELGILARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Vatan” lingvomadaniy tushunchasining qiyosiy modeli, shuningdek, uning milliy va madaniy konseptual xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Muallif rasmlar yordamida “Vatan” tushunchasining o‘zbek va ingliz tillarida o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi. Ushbu maqolani yozishda turli adabiyotlar va internet saytlari tahlil qilindi. Qiyosiy usul, ma’noni komponentli tahlil qilish usu-*

li va konseptual tahlil usullari qo‘llanildi. Ushbu maqolada “Vatan” lingvomadaniy tushunchasining qiyosiy modeli va uning milliy-madaniy konseptual xususiyatlari ko‘rib chiqilib, ikki tildagi misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tushuncha, madaniyat, kichik tushuncha, komponent, o‘ziga xos xususiyat, lingvomadaniy, vatan, vakillik, urf-odatlar, an’analar.*

СРАВНИТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО КОНЦЕПТА РОДИНА И ЕГО УНИВЕРСАЛЬНЫЕ, НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРИЗНАКИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается сопоставительная модель лингвокультурологического концепта «Родина», а также его национально-культурные концептуальные особенности. Автор выявляет сходства и различия концепта «Родина» в узбекском и английском языках. При написании данной статьи была проанализирована различная литература и интернет-сайты. Использовались сравнительный метод, метод компонентного анализа смысла и методы концептуального анализа. В данной статье рассматривается и иллюстрируется примерами на двух языках сопоставительная модель лингвокультурного концепта «Родина» и его национально-культурные концептуальные особенности.*

Ключевые слова*: концепт, культура, малое понятие, компонент, характеристика, языковой, родина, репрезентация, обычаи, традиции.*

A COMPARATIVE MODEL OF THE LINGUISTIC-CULTURAL CONCEPT OF THE MOTHERLAND AND ITS UNIVERSAL, NATIONAL-CULTURAL CONCEPTUAL SIGNS

Annotation. *This article examines the comparative model of the linguistic and cultural concept of “Motherland”, as well as its national and cultural conceptual features. The author identifies the similarities and differences of the concept of “Motherland” in the Uzbek and English languages . In writing this article, various literature and Internet sites were analyzed. The comparative method, the method of component analysis of meaning and the methods of conceptual analysis were used. In this article, the comparative model of the linguistic-cultural concept of "Motherland" and its national-cultural conceptual features are considered and illustrated with examples in two languages.*

Key words*: concept, culture, small concept, component, characteristic, linguistic, motherland, representation, customs, traditions.*

Kirish. Vatan lingvistik-madaniy konsepti ijtimoiy-madaniy jihatdan bo‘yoqdor, ko‘p qirrali, keng mazmunli va assotsiativ maydonga ega, uning hissiy-ekspressiv ifodasi jamiyatning milliy mentaliteti va madaniy xususiyatlariga bog‘liq. Country/Vatan lingvistik-madaniy konsepti tilda leksik birliklar va frazeologik iboralarning muhim korpusi tomonidan obyektivlashtiriladi, ular mos ravishda Buyuk Britaniya va o‘zbek xalqlari madaniyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Ingliz tilida so‘zlashadigan xalqlar madaniyatida, o‘zbek tilidagi “Vatan” tushunchasiga teng “motherland” leksemasi mavjudligiga qaramay, ular neytral “country” leksemasini o‘z yurtini aks ettirish uchun qo‘llashadi, bu o‘rganilayotgan ikki mamlakat lingvistik-madaniy konseptini idrok etishdagi sezilarli farqini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur maqolaning yozilishida turli hil adabiyotlardan hamda internet saytlardan foydalanildi va tahlil qilindi. Qiyosiy metod, ma’noning komponent analiz metodi hamda konseptual analiz metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o‘rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi berilgan hamda “Vatan” lingvomadaniy tushunchasining qiyosiy modeli, shuningdek, uning milliy va madaniy konseptual xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Ingliz va o‘zbek madaniyatlarida Vatan lingvistik-madaniy konseptining matritsa modellarining tuzilmasi ham teng emas, bu har bir xalq mentalitetining individual xususiyatlarining mavjudligi bilan bog‘liq va bizga ushbu lingvistik-madaniy konseptning qiyosiy-chog‘ishtirma modelini shakllantirishga imkon beradi. O‘zbek madaniyatida o‘rganilayotgan Vatan lingvistik-madaniy konseptining matritsa modeli quyidagi to‘rtta subkonsept komponentlarini o‘z ichiga oladi: “vatanparvarlik”, “uy”, ”oila”,”an’ana”. Country ingliz lingvistik-madaniy konsept modelida esa faqat uchta komponentni ko‘rishimiz mumkin: “family”, “home”,”traditions”.

To‘plangan va o‘rganilgan materiallarga asoslanib, biz ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashadigan xalqlar madaniyatlarida *Vatan* lingvistik-madaniy konseptning o‘xshash va farq qiluvchi xususiyatlarini ko‘rsatamiz.

O‘rganilayotgan konseptni aks ettiruvchi asosiy leksemalarni taqqoslaylik, ya’ni, *vatan* – o‘zbek madaniyatida, *Country* – esa ingliz tilida. O‘zbek tilidagi *vatan* leksemasi, asosan, ona yurti, insonning tug‘ilgan joyi ma’nosida tushuniladi, ingliz tilidagi ko‘p ma’noli *country* leksemasi uchun esa bunday ta’rif mavjud bo‘lsa-da, u asosiy hisoblanmaydi. Avvalo, *country* so‘zi “*davlat va millatni anglatadi. Biroq, o‘zbek vatan leksemasining sinonimlari – homeland, fatherland, motherland og‘zaki ingliz tilida deyarli ishlatilmaydi”.*[1]

Keling, *country/vatan* konseptlarining nominativ maydonini ingliz va o‘zbek tillarida taqqoslaylik. O‘rganilayotgan konseptning ilgari modellashtirilgan matritsa modellarida bir nechta asosiy subkonseptlarning mavjudligini aks ettiradi, ularning aksariyati ikkala madaniyatda ham sinonim juftlikdir: *uy – home, oila – family, urf-odatlar-an’analar/traditions*. Biroq, o‘zbek tilining lingvistik-madaniy konseptining nominativ maydonida Vatan ham “*vatanparvarli*k” kabi kichik subkonseptiga ega.

Endi biz tanlangan subkonseptlarning har birini alohida-alohida taqqoslaymiz. *Vatan* o‘zbek tili madaniy konseptining nominativ maydonida eng muhim narsa *vatanparvarlik* kichik konseptidir. O‘zbek madaniyatidagi vatanparvarlik ko‘p asrlar davomida ko‘plab tashqi dushmanlarga qarshi kurashda shakllangan, shuning uchun o‘zbek xalqining o‘z Vatanini himoya qilish uchun milliy tahdid oldida birlashish qobiliyati o‘zbek mentalitetining ajralmas xususiyatiga aylandi. *Country* lingvistik-madaniy konseptining nominativ maydonida *vatanparvarlik* tushunchasi ikki sababga ko‘ra ajralib turmaydi: birinchidan, *country* leksemasi unchalik chuqur ma’noga ega emas va o‘zbek madaniyatdagi kabi hissiy in’ikoslarni keltirib chiqarmaydi, ikkinchidan, ingliz mentaliteti uchun *country* emas, balki *home* tushunchasi muhimroqdir.

Ikkala o‘rganilayotgan madaniyatda “uy” (home) kichik konsepti deyarli bir xil talqin qilinadi. Uy tushunchasi ostida inglizlar ham, o‘zbeklar ham o‘z uylarini, oilalarini, hayotlarini tushunishadi. Ushbu tushunchaga nisbatan inglizlar ham, o‘zbeklar ham sevgi va muhabbat kabi his-tuyg‘ularni aniq kuzatadilar. Biroq, qayd etilgan o‘xshashliklarga qaramay, sezilarli farq ham mavjud. O‘zbek xalqi uchun sanab o‘tilgan ma’nolarga qo‘shimcha ravishda, *uy* tushunchasi kengroq ma’noga ega. Bu butun vatan bilan, ya’ni agar kerak bo‘lsa, o‘zbeklar, hatto o‘z hayotlari evaziga himoya qilishga tayyor bo‘lgan ona yurt tushunchasi bilan aks ettiriladi. Inglizlar uchun uy juda shaxsiy narsadir, u deyarli vatan tushunchasi bilan qiyoslanmaydi va o‘zaro ta’sir qilmaydi. Keyingi subkonsept – “oila” (family) o‘rganilayotgan madaniyatlarda o‘xshash xususiyatlarga qaraganda ko‘proq farqlari mavjud. O‘xshashliklar faqat umumiy ma’no va uning milliy qiymati tushunchasiga kiritilgan ijobiy ma’noda yotadi. Asosiy farqlar orasida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Oila tarkibi. Ingliz madaniyatida oila doirasiga faqat ota, ona va bolalar kiradi. O‘z navbatida, o‘zbeklarda esa qarindoshlar doirasi bobo-buvilar va ba’zan boshqa qarindoshlar bilan to‘ldiriladi. Bundan tashqari, o‘zbek oilasi katta oila hisoblanadi, bu bir necha avlodlarning mavjudligini anglatadi, inglizlarda esa asosan faqat o‘zining kichik oilasi, ya’ni, faqat ikkita yosh avlod (ota-ona va bolalar) bo‘lgan oilalarning tarkibiga qaratilgan.

2. Oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari. O‘zbek oilalari bir-biriga nisbatan ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularning hissiy namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi. Inglizlarning oilasi bilan munosabatlari deyarli cheklangan.

3. Ta’lim-tarbiya tizimi. O‘zbek oilalarida bola barcha oila a’zolarining g‘amxo‘rlik markazidir. Ota-onalar va bolalar, hatto balog‘at yoshiga yetganida ham, juda yaqin va iliq munosabatlarni saqlab qolishadi. Inglizlar uchun bolalarni qat’iylik va qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan hamda ijtimoiy jihatdan moslashgan qilib tarbiyalash ustuvor ahamiyatga ega.

O‘rganilayotgan madaniyatlarda “an’ana” subkonsepti deyarli taqqoslanmaydi. Har bir xalqning madaniy-milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi o‘ziga xos urf-odatlari va udumlari bor. O‘zbek urf-odatlari va udumlari din va tarixning aralashmasidir bir vaqtlar bizning madaniyatimizda bo‘lgan yoki mavjud bo‘lgan barcha narsalardir. O‘zbek xalqining mentaliteti mehribonlik, mehmondo‘stlik, rahm-shafqat, saxiylik, bag‘rikenglik va soddalik kabi aniq fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Inglizlarning mentaliteti ratsionallik, vazminlik, xotirjamlik va moddiylikka xosdir. Konservatorlar sifatida inglizlar hamma narsada doimiylik va barqarorlikni yaxshi ko‘radilar, shuning uchun ular har doim o‘zlarining mavjudligi davomida deyarli o‘zgarmaydigan urf-odatlar va udumlarga qat’iy rioya qilishadi. Shu tarzda, ular o‘zlarining ahamiyatini ta’kidlashni, o‘z vatanlari, uning tarixi va urf-odatlari bilan qanchalik faxrlanishlarini va sevishlarini nomoyon qiladilar.

[1] https://www.ldoceonline.com/

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yuqoridagi dalillarga asoslanib, o‘zbek va ingliz tilida so‘zlashadigan xalq madaniyatlarida Vatan lingvistik-madaniy konsepti bir-biridan katta farq bilan aks ettiriladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shubhasiz, o‘zbek xalqi uchun vatanparvarlikni ifodalovchi leksemalar yuqori chastotaga ega. Shu bilan birga, lingvomadaniy Vatan tushunchasi ostida odamlarning faqatgina yashash joyi tushunilmaydi. O‘zbek xalqi uchun Vatan – bu milliy madaniyat, urf-odatlar va xalqning boy tarixi, Vatanga muhabbati esa o‘zbek xarakterining ajralmas xususiyatidir. Ingliz tilida so‘zlashadigan xalqlar uchun Vatan tushunchasi bunday kuchli his-tuyg‘ularni keltirib chiqarmaydi va biroz moddiydir. Inglizlar uchun Vatan, asosan, biror hududda bo‘lishni anglatadi. Ular hech qachon o‘z mamlakatlarini na hukumat, na davlat bilan tenglashtirmaydilar – bu ular uchun o‘zgaruvchan tushuncha hisoblanib, ular uchun doimiylikdan muhimroq narsa yo‘q. Shuning uchun uy tushunchasi ushbu madaniyat egalari uchun eng qimmatli va muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ashurova D.U. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o‘qitishning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy anjuman masalalari, Toshkent, 2010.

(2). Ismatullaeva, Iroda Izatullaevna (2022). Concept as the basic term of the cognitive linguistics. Oriental renaissance. Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), p. 533–538. educational sciences, 3 (10), 621-628

(3). Iroda Izatullaevna Ismatullaeva, Liliya Yurevna Filimonova, & Achilov Oybek Rustamovich (2022). Sociolinguistics and its development as an independent science. Academic research in educational sciences, 3 (10), p. 621–628.

(4). Fauconnier G., Sweetser E. Cognitive Links and Domains: Basik aspects of Mental Theory. Spaces, Worlds and Grammar. Chicago and London: University of Chicago Press, 1996, p. 1–28.

(5). Слышкин, Г.Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты. Дис.....д-ра филол. наук, Волгоград, 2004.

(6). Тер-Минасова С.Г. Язык в межкультурной коммуникации. Язык и люди, выбрать книгу www/ abroad.ru/english/termin/9/htm/

(7). Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М., “Слово”, 2000, 264 с.

(8). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, “Сангзор”, 2006, 926 с.

(9). https://www.ldoceonline.com/

Boltakulova Gulnoza Farruxovna (SamDCHTI dotsenti, Samarqand shahri, O‘zbekiston; e-mail: gulnozboltakulova@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA VAQTNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “vaqt” konseptiga lingvokognitiv yondashilgan. Tadqiq qilinayotgan “vaqt” tushunchasining ma’lum bir idrok etish tarzida aks etishi va uning ma’nosi ko‘p hollarda umuminsoniy, ba’zilari esa milliy xususiyatga ega bo‘lgan tizimda namoyon bo‘lishi bilan dolzarbligi ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, temporal konsepsiya – turli tillarda so‘zlashuvchilarning ongida eng muhimlaridan biri ekanligi, vaqt tushunchasi fazo tushunchasi bilan bir qatorda, insoniyatning dunyo haqidagi bilimlari tizimidagi fundamental tushunchalardan biri ekanligi masalalari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *vaqt konsepti, temporal konsepsiya, zamon kategoriyasi, tarixiy vaqt, ijtimoiy vaqt.*

Болтакулова Гульноза Фарруховна (доцент, СамГИИЯ, город Самарканд, Узбекистан; e-mail: gulnozboltakulova@gmail.com)

КОГНИТИВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ВРЕМЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация*. В данной статье представлен лингвокогнитивный подход к понятию «Время». Подчеркивается, что исследуемое понятие «время» отражается в определенном способе восприятия и его смысл проявляется в системе, которая во многих случаях универсальна, а в некоторых случаях имеет национальный характер. Также понятие времени является одним из важнейших в сознании людей, говорящих на разных языках, понятие времени, наряду с понятием пространства, является одним из фундаментальных понятий в системе знаний человека о мире.*

Ключевые слова: *концепция времени, темпоральная концепция, категория времени, историческое время, социальное время.*

Boltaкulova Gulnoza Farruxovna (Associated professor of SamSIFL, Samarkand city, Uzbekistan; e-mail: gulnozboltakulova@gmail.com)

COGNITIVE CHARACTERISTICS OF LANGUAGE UNITS EXPRESSING TIME IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation*. This article introduces a linguo-cognitive perspective on the concept of "Time". It underscores that the understanding of the concept of "time" is influenced by particular modes of perception and that its significance is evident in a framework that is commonly applicable across cultures, while also possessing unique national characteristics in certain instances. Moreover, the concept of time holds exceptional importance in the cognitive framework of individuals from diverse linguistic backgrounds and alongside the notion of space, it constitutes a fundamental element in human comprehension of the world.*

Key words: *concept of time, temporal concept, time category, historical time, social time.*

Kirish. Tadqiq qilinayotgan "vaqt" tushunchasining ma'lum bir idrok etish tarzida aks etishi va uning ma'nosi ko'p hollarda umuminsoniy, ba'zilari esa milliy xususiyatga ega bo'lgan tizimda namoyon bo'lishi bilan dolzarbdir. Tushunchalarni o'rganishda ularning kelib chiqishini, shuningdek, ularning semantik doirasini bilish bir xil darajada muhim ahamiyatga ega. Temporal konsepsiya turli tillarda so'zlashuvchilarning ongida eng muhimlaridan biridir. Vaqt tushunchasi fazo tushunchasi bilan bir qatorda, insoniyatning dunyo haqidagi bilimlari tizimidagi fundamental tushunchalardan biridir. Natijada tadqiqotchilarning kognitiv tilshunoslikda temporallik tushunchalarini ifodalash muammolariga cheksiz qiziqishini tushuntirish osondir.

Qadim zamonlardan beri vaqt tushunchasi insoniyatni qiziqtirib kelgan. Vaqt haqidagi ilk munozaralar antik falsafaning tubida vujudga kelgan. Shunday qilib, hatto qadimgi yunon mutafakkirlari ham vaqtning sabablari, uning xossalari, yo'nalishi, umuman, modeli haqida savollar berganlar. Vaqt tushunchasi fazo tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Zamon va makon materiyaning tashkil etilishi va mavjudligining ikki shaklidir. Makondan farqli o'laroq, vaqt shunchalik mavhumki, bu konsepsiya doirasida ong prototip sifatida tayanishi mumkin bo'lgan aniq va vizual qism yo'q, garchi to'liq bo'lmasa-da, lekin o'zlashtirilgan konsepsiyaning butun doirasining xarakterli qismidir.[1]

Adabiyotlar tahlili. Vaqt muammosiga lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuv Y.S.Stepanovaning asarlarida yoritib berilgan.[2] Shunday qilib, Y.S.Stepanov vaqt bo'yicha odamning mavqeyini tilda aks ettirishga ishora qiladi. E.S.Yakovleva adabiy matnlarda qisqa muddatli ma'noli leksemalarning qo'llanilishini qiyosiy tahliliga asoslanib, rus tilida vaqtning sifat jihatidan aniqlanishi haqida umumiy xulosa bayon qilgan.[3] Badiiy matnda vaqtni o'rganishga bag'ishlangan klassik asarlar M.M.Baxtin,[4] V.V.Vinogradov[5] va D.S.Lixachevlarga tegishlidir. [6]

Konsepsiyaning ko'plab ta'riflarida M.Xaydegger, N.D.Arutyunov va S.G.Vorkachev etnomadaniy o'ziga xoslikni tavsiflovchi omilni qayd etdi, ya'ni, ma'lum bir etnik madaniyat tashuvchilarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi va etnik guruh ma'naviy madaniyatining barqarorligi va davomiyligini ta'minlovchi tushunchalardir [7].

Tadqiqot metodologiyasi. "Vaqt" tushunchasini barcha semantik ma'nolarida tahlil qilish konsepsiyaning doimiy yadrosini kontekstli muhit bilan birgalikda ajratib olishga imkon berdi, bu uning asosiy qatlamini tashkil etadi, "vaqt" tushunchasini o'rganishimizda u davomiylikning qiymati hisoblanadi. Bundan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, yaqin atrof-muhit vaqtni tashkil etishning chiziqli tuzilishini tashkil etuvchi "vaqt davri" dir. "Vaqt davri" tushunchasiga quyidagilar kiradi. "Vaqt" tushunchasini barcha semantik ma'nolarida tahlil qilish *"inson hayoti"* semantik guruhini o'z ichiga olgan uzoq perife-

[1] Нильсен Е.А. Лингвокогнитивные модели эволюции темпоральных номинаций (на материале английского языка). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук, СПб, изд-во СПБГЭУ, 2015, 42 с.

[2] Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Изд. 3-е, испр. и доп., М., "Академический Проект", 2004, 991 с.

[3] Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира (модели пространства, времени и восприятия). М., "Гнозис", 1994, 344 с.

[4] Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике. Вопросы литературы и эстетики. М., "Худож.лит.", 1975, с. 234 – 407.

[5] Виноградов В.В. О языке художественной прозы. Избранные труды. М., "Наука", 1980, 358 с.

[6] Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. Изв. РАН-СЛЯ, 1993, № 1, с. 3 – 9.

[7] Арутюнова Н.Д. Время: модели и метафоры. Логический анализ языка. Язык и время. М., 1997, 352 с.

riyani aniqlashga imkon berdi: *tug‘ilish, go‘daklik, bolalik, o‘smirlik, yoshlik, qarilik*; shuningdek, “tabiat hayoti” (fasllar, oylar): *qish, bahor, kuz, yoz, yanvar, fevral, dekabr* vaqtni tashkil qilishning siklik tuzilishini shakllantiradi.

Lingvokognitiv yondashuv doirasida madaniy va milliy ma’lumotlarning tashuvchisi bo‘lgan paremiologik birliklar bilan bir qatorda, ular xalqning mentalitetini, madaniyatini, madaniy qadriyatlarini, lingvistik tafakkur faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlaydi va ko‘paytiradi. Dunyoning obrazli tasviri va odamlarning idrokga munosabati, vaqtni anglashi adabiy matn materiallarida ham ochib berilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Zamon/vaqt – bu dunyoning ilmiy va lingvistik tasviri asosidagi eng muhim kategoriya hisoblanadi. Antik davrdan hozirgi kungacha turli fan vakillari ushbu toifaga tegishli ko‘plab savollarga javob topishga harakat qilishdi: zamon/vaqt realligi, uning tabiati, xususiyatlari va boshqalar zamon/vaqt fenomenining murakkabligi va uning tabiat va jamiyatda namoyon bo‘lishi uni o‘rganishga bo‘lgan ko‘p yondashuvlarga va tabiiy va gumanitar fanlarda “jismoniy bo‘lmagan” tushunchalarning paydo bo‘lishiga olib keldi*: biologik vaqt, fiziologik vaqt, geologik vaqt, psixologik vaqt, ijtimoiy vaqt, mifologik vaqt, badiiy vaqt* va boshqalar “jismoniy bo‘lmagan” vaqt talqinlari fizik vaqt bilan bog‘langan va u bilan shartlanadi: tabiiy fanlarda vaqt tushunchasi holatdagi tabiiy obyektlar va jarayonlarning obyektiv o‘zgarishlari bilan bog‘liq, gumanitar fanlarda vaqt haqidagi subyektiv g‘oyalar, asosan, amalga oshirilib, uning sifat tomoniga e’tibor qaratiladi. Grammatik tadqiqotlarda “temporallik” atamasi tildagi temporallik munosabatlarni ifodalashda iborat bo‘lgan real va perseptiv (mohiyatiga ko‘ra, subyektiv) zamon xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan obyektiv-subyektiv kategoriya sifatida qo‘llaniladi.

Bizning tadqiqotimiz uchun V.I.Karasikning ta’rifi ko‘proq mos keladi. Berilgan ta’rifga ko‘ra, *konsepsiya* “inson xotirasida saqlanadigan, ongli ravishda tasvirlanadigan muhim tajriba parchalari bo‘lgan aqliy shakllanishlar, majoziy-idrok, konseptual va qadriyat tomonlarini o‘z ichiga olgan ko‘p o‘lchovli aqliy shakllanish, inson hayotiy tajribasining bir parchasi, tajribasi” deb ta’riflanadi [6;305-b.]. Biroq, bizning fikrimizcha, tushunchani, qachonki, birinchi navbatda, xotira emas, balki fikrlash birligi sifatida to‘g‘ri talqin qilish mumkin, chunki uning asosiy ma’nosi fikrlash jarayonini ta’minlashdir. Ular, shuningdek, ma’-lumotni saqlash vazifasini bajaradilar, ammo ularni xotira birliklari sifatida talqin qilishdan oldin bu masa-lani isbotlash kerak, deb talab qilinadi.

Boris Pasternak she’riyatida vaqtni ifodalashning maxsus lingvistik vositasi sifatida E.V.Makarovskaya metaforalarni tahlil qiladi va tahlil natijalariga ko‘ra, eng ko‘p ishlatiladigan beshta “metaforik bloklar” mavjud:

– vaqt yo‘lovchi: ***Vaqt*** *esa sezilmay o‘tadi* (lekin uni sevardi...);

– vaqt – tashqi kuch: ***Vaqt*** *mening qo‘lyozmani tanqidiy qirg‘ichlardan saqlaydi* (Rassom);

– vaqt – saqlovchi: Va endi, umrboqiymiz, biz qarag‘aylar (daraxt) qatoriga kirdik;

– vaqt mulkdir: *Ilhomning* ***vaqti*** *yo‘q* (Sankt-Peterburg).[1]

Yuqorida muhokama qilingan barcha ishlar bitta til doirasida vaqt tushunchasini o‘rganishga tegishlidir. Vaqt konsepsiyasini qiyosiy jihatdan o‘rganishga kelsak, R.Z.Chankayevaning dargin va rus tillarida temporallik munosabatlarni ifodalash usullarini o‘rganish yuzasidan qilgan ishlarini ta’kidlash kerak. Muallif obyekt sifatida temporallikni ifodalovchi morfologik va sintaktik vositalarni ko‘rib chiqadi. Bunday ma’noga ega lug‘atning funksional xususiyatlari, fe’lning zamon shakllari va ularning qiyosiy tillarda ishlashi, shuningdek dargin va rus tillarida ushbu til elementini ifodalash vositalarida ifoda etish usullari va vositalarida umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlab beradi. Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turfa tillarning konseptual-semantik, paremiologik, assotsiativ va lingvokognitiv jihatlarida vaqtinchalik munosabatlarning asosiy qatlami va sharhlovchi sohasi va umuman “vaqt” tushunchasi o‘rganilishiga qaramay, hali alohida tadqiqot mavzusi bo‘lmagan. Shundan kelib chiqib, ishimizning keyingi boblarida turli tizimli tillar maqollarida vaqt munosabatlarining aksini qiyosiy o‘rganish amalga oshiriladi, chunki biz ko‘rib chiqayotgan har bir tilda (ingliz va o‘zbek) universal leksik birliklar mavjud bo‘lib, ular orqali vaqt ma’nosi o‘ziga xos ifodalaniladi, masalan, hafta kunlari, oylar, fasllar, bayramlar nomlari va boshqalar. O‘rganilayotgan tillarda, bu, o‘z navbatida, kognitiv tilshunoslik sohasidagi keyingi qiyosiy tadqiqotlar uchun isbotlangan va e’tiborga molik material bo‘lib xizmat qiladi.

V.I.Karasik vaqtning umumiyligini quyidagicha ifodalaydi:

a) chiziqli vaqt;

[1]Маковский М.М. Языковая сущность современного английского «сленга». Л., “Иностранные языки в школе”, 1962, 132 с.

b) real va xayoliy vaqt;

d). leksik-grammatik zamon;

e) funksional-stilistik vaqt.[1]

"Vaqt" tushunchasining boshqa tushunchalardan ajratilishi I.K.Ryabsevaning asarlarida ham mavjud. U ularni quyidagi turlarga ajratadi:

a) jismoniy (tabiiy, tabiiy);

b) metafizik (falsafiy, umumlashtirilgan);

d) kundalik (subyektiv, kundalik, individual);

e) ruhiy.[2]

Vaqtning tez-tez uchraydigan tushunchalarining butun majmuasida N.D.Arutyunovaning asarlarida tasvirlangan siklik va chiziqli vaqt ustunlik qiladi. Chiziqli vaqt bir o'lchovlilik va qaytmaslik bilan tavsiflanadi. Ushbu model ma'lum bir yo'nalishda yo'naltirilgan to'g'ri chiziq sifatida ifodalanishi mumkin. Chiziqli vaqt o'tmish, kelajak va hozirgi vaqtga bo'linadi, ularni yagona oqimga bog'laydi. Siklik vaqt tabiiy sikllarni idrok etish bilan bog'liq (kun vaqti va yil fasllari o'zgarishi). U "ma'lum bir afsonaviy g'oyalar to'plamiga, doimo takrorlanadigan modellarga" asoslanadi.[3]

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, tilshunoslikda vaqtni har tomonlama tahlil qilish temporallikni «insonning belgilangan vaziyat vaqtini va ularning elementlarini so'zlovchi nutqi momentiga nisbatan idrok etishi va tushunishini aks ettiruvchi» murakkab semantik kategoriya sifatida belgilashga olib keldi.

Vaqtning turli tomonlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish bizga vaqt muammolari bilan shug'ullanadigan sohalar bilimlaridan foydalangan holda lingvistik temporallikning turli masalalarini ko'rib chiqishga imkon beradi. Tilshunoslar, fiziklar, faylasuflar va boshqa olimlarni tashvishga solayotgan muhim masalalardan biri bu vaqtning bir o'lchovliligidir. Bir o'lchovlilik haqiqiy (fizik) vaqtning eng aniq xususiyatlaridan biridir. Bunga quyidagi gaplar dalil bo'ladi: "O'tmish hech qachon qaytmaydi"; "Ulkan borliqdagi real vaqt ikki asosiy fizik xususiyat bilan tavsiflanadi: bir o'lchovlilik (chiziqlilik) va bir yo'nalishlilik (qaytarib bo'lmaslik)" va boshqalar. Tilshunoslikda ko'pchilik olimlar lingvistik vaqt ko'p o'lchovli degan fikrni ilgari surishadi. Masalan, Z.Y.To'rayeva "grammatik vaqt ko'p o'lchovli konseptual fazo-vaqtga mos keladi", deb ta'kidlaydi, chunki ish-harakatning vaqt bo'yicha o'rnini ifodalovchi grammatik kategoriya to'liq tavsifi uchun bir nechta koordinatalar kerak bo'ladi. Tilda vaqtning ko'p o'lchovliligi "pulsatsiya va kondensatsiya, sekinlashish va tezlanish, qadamlar va to'xtashlarni o'z ichiga olgan" ritm yaratishga qodir ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Jumaniyazov Aatabay (UrDU professori, f.f.n.), Jumaniyazova Dilnoza (UrDU, PhD),
Yusubova Chamangul (UrDU tayanch doktoranti)

NOM KO'CHISHI YOKI METAFORALAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nom leksemasining izohi, nom ko'chishi yoxud metaforalar va ularning turlari haqida gap ketadi. Nom leksemasining mohiyati, u orqali olamdagi barcha narsa va hodisalarning atalishi haqida alohida to'htalib o'tilgan. Shuningdek, nom ko'chishi turlaridan biri metaforalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *nom, nom ko'chishi, tasviriy, tasviran, metafora, istiora, ramz, majoz, personifikatsiya, allegoriya, sinesteza, simvol.*

НЕКОТОРЫЕ ВОЗЗРЕНИЯ ПО ВОПРОСАМ ПЕРЕНОСА НАИМЕНОВАНИЙ ИЛИ МЕТАФОРЫ

Аннотация. *В данной статье рассматривается объяснение названия лексемы, перенос имен или метафор и их типов. Отдельно обсуждается наименование всех вещей и событий в мире через значение имени лексемы. Также объясняются метафоры, как один из видов переноса имени, и их особенности.*

Ключевые слова: *имя, перенос имени, образный, образ, метафора, аллегория, символ, сравнение, персонификация, аллегория, синестезия, символ.*

SOME COMMENTS ON NAME MIGRATIONS OR METAPHORS

Annotation*. This article discusses the explanation of the lexeme name, name migration, or metaphors and their types. The naming of all things and events in the world is discussed separately through the*

[1] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. М., "Гнозис", 2004, 390 с.

[2] Рябцева Н.К. English for scientific purposes. Научная речь на английском языке. М., «Флинта», "Наука", 2006.

[3] Арутюнова Н.Д. Время: модели и метафоры. Логический анализ языка. Язык и время. М., 1997, 352 с.

mea-ning of the lexeme name. Metaphors, one of the types of name transfer, and their specific features are also explained.

Key words: *name, transfer of name, figurative, image, metaphor, allegory, symbol, simile, personify-cation, allegory, synesthesia, symbol.*

Kirish. Ma'lumki, har qanday nom obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning ismi bo‘lib, u so‘zlar vositasi orqali ifodalaniladi. “Nom”ning tabiati (yaralishi) haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u sanskritcha “w › } S” (nāma) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga arabchadan kirib kelgan “اسم” (ism) leksemasining muqobili sifatida tushuniladi. Adabiy tilimizda uning “ot”, shevalarda “od” (Xorazm) kabi variantdoshlik shakllari bor. “Nom” so‘zining grekchada “onoma”, lotinchada “nomen”, nemischada “der Name”, inglizchada “name”, italyancha “nome”, turkmanchada “ady”, qozoqchada “аты”, forschada “نام” (nom) imlo va talaffuzga ega ko‘rinishlari mavjud. Eng qizig‘i shundaki, eski hind tilida “nom” so‘zining kelib chiqishi sanskritchadagi “sabda” imlo va talaffuzli va ko‘p ma'noli leksik birlikka taqalib, mazkur so‘zning “tovush, ovoz, chaqiriq, ism, ot” ma'nolari borligi ayrim izohli lug‘atlarda sharhlaniladi.[1] Ko‘rinib turibdiki, “nom”ning ma'nolari ham “so‘z” ma'nolari (tovush, ovoz, chaqiriq, so‘z, ism, ot, quvonch hayqirig‘i, shodlik qiyqirig‘i, og‘riq chinqirig‘i) kabi o‘xshash etimologiyaga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tillarning rivoji va taraqqiyotida, ularning ifoda qudratining oshib borishida yana bir buyuk omil borki, bunda bir narsa yoki hodisalarning nomi ikkinchi bir (o‘zga) narsa yoki hodisani ataydi, nom ko‘chish hodisasi ro‘y beradi. Bu masala, asosan, tilshunoslikning leksikologiya (so‘z -nom ma'nosi) va stilistika (so‘z –nomning muloqotda qo‘llanilish uslubi) fanlari tomonidan o‘rganiladi.

“Nom”ning leksik ma'nolari haqida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” quyidagi sharhlarni keltiradi:

1) shaxs yoki narsa-predmetlarga qo‘yilgan ot; ism. *Keksayib qolgan eshonning xotirasi ancha pasayganidan ko‘p vaqt o‘z o‘g‘illarining nomlarini ham xotinidan so‘rab olar edi* (P.Tursun. “O‘qituvchi”);

2) biror sohaga, guruhga oidlikni bildiruvchi atama. *Muallim degan nomimiz bor* (Z.Said, N.Safarov, “Tarix tilga kirdi”);

3) faoliyatning biror sohasida erishgan yutuq, malaka darajasini ko‘rsatish uchun rasmiy yo‘l bilan beriladigan unvon. Xizmat ko‘rsatgan artist degan nom;

4) ko‘pchilik orasida ma'lum-mashhurlik; dong, dovrug‘, shuhrat. Nom chiqargan jamoa xo‘jaligi.

Izohlardan ko‘rinib turibdiki, “nom” so‘zi birinchi holatda (ot, ism) bevosita o‘z ma'nosida, keyingi (atama, unvon, dong, dovrug‘, shuhrat) holatlarida esa bilvosita ko‘chma ma'nolarda qo‘llanilayotganligi qayd qilingan. milliy tilshunosligimizda bunday holatlar, odatda, so‘z ma'nolarining ko‘chishi deb hisoblanildi. So‘z ma'nosining ko‘chish usuli esa 4 xil bo‘ladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko‘-chish deb ta'kidlanib kelindi.[2] Yuqoridagi izohlardan ko‘rininb turibdiki, ularda ma'no ko‘chishi aksariyat ravishda nom bilan emas, so‘z bilan bog‘liq holda sharhlanilgan. Mazkur kitob mualliflaridan biri, M. Irisqulov yuqoridagi sharhlarni yana oydinlashtirish maqsadida bu borada shaxsiy fikrlar bildirib: “Har qanday so‘zning ma'nosi bir nechta kichik ma'nolar (semalar)dan tashkil topadi. Masalan: *tulki* so‘zi *yovvoyi, yirtqich, chiroyli, ayyor, sut emizuvchi* va boshqa semalardan tashkil topgan. Ba'zan ana shu ma'nolardan biri yetakchi qilib olinib, uni shaxs yoki narsaga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, odamga nisbatan **u tulki** deyilsa, bu odamning ayyorligi nazarda tutiladi. Bu so‘zni ko‘chma ma'noda ishlatishdir. Bu hodisa o‘z ichiga *istora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik*ni oladi”,[3]deydi. Olim so‘z ma'nolari ko‘chish usullarining sonini o‘z holicha qoldirib, nomlanishlarini esa biroz o‘zgartiradi yoxud metaforani *istora,* funksiol ko‘chishni *funksiyadoshlik* deb ataydi. Mazkur sharh chuqurroq tahlil qilinadigan bo‘lsa, unda aytilganidek, *bir so‘zning ma'nosi ikkinchi so‘z ma'nosiga ko‘chmaydi,* aksincha, bir narsaning nomi bilan ikkinchi bir narsa nomlanadi. Demak, nom ko‘chadi. Ma'no ko‘chishi tahlilida asos bo‘lib so‘z emas, balki nom turishi masalasi birinchilardan bo‘lib “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida talqin qilinadi va mazkur talqin: “Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo‘llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, *burun* so‘zi “tirik organizmning yuz qismidan bo‘rtib chiqqan nafas olish organi” ma'nosini ifodalash bilan birgalikda “yerning suvlikka tomon bo‘rtib chiqqan qismi” ma'nosini ham ifodalaydi. Predmetlar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik (yuz qismdan bo‘rtib chiqqan burun bilan yer qirg‘og‘ining dengiz yoki okeanga qarab bo‘rtib chi-

[1] Klaus Mylius. Sanskrit-Deutsch/Deutsch-Sanskrit. Wiesbaden. Harrassowitz Verlag, 2005, s. 474.

[2] А.Содиқов, А.Абдуазизов, М.Ирискулов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1981, 101-bet.

[3] М.Ирискулов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992, 100-bet.

qishi o‘rtasidagi o‘xshashlik) birining nomini ikkinchisi o‘rnida qo‘llashga asos bo‘lgan.” Ko‘rinib turibdiki, mazkur sharhda ham “nom ko‘chishi” haqida konkret aytilmagan, balki predmetlar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik birining nomini ikkinchisining o‘rnida qo‘llashga asos bo‘lgan deyiladi. Ma’no ko‘chganda so‘z ma’nosi emas, nom ma’nosi ko‘chadi, degan aniq fikr darslikning metafora stilistik vositasiga ta’rif berayotganda: “*Metafora (yunoncha metaphora–ko‘chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir”* deb ta’kidlanilgan. Ma’no ko‘chish bobida shu va shunga o‘xshagan ta’riflar o‘zbek tilshunosligida, ko‘pchilik ilmiy va amaliy adabiyotlarda, so‘z ma’nosi va nom ma’nosi ko‘chishi aralashtirilib, hanuzgacha so‘z va nomning tabiati va mohiyati aynan bir narsadek tushunilib kelingan. Yoxud *so‘z nomdir, nom esa so‘zdir* qabilida anglashilingan. Bunga sabab esa bu ikki leksemaning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ular bajaradigan funksional vazifalarni bajarishlarining o‘zaro taalluqliligi, mushtarakligi amalda va nazarda biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmasligi bo‘lsa, ajab emas. Lekin, bizning fikrimizcha, avvalo, so‘z va nomning nima ekanligi,[1] keyinchalik, ularda ma’no ko‘chish xususiyati farqli o‘rganilishi kerak.

Ma’no ko‘chishi hodisasi dunyo tilshunosligidagi kabi o‘zbek tilida ham qiziqib o‘rganiladi va milliy tilimizda bu masala umumiy ravishda “ko‘chimlar” mavzusi ostida tahlil qiliniladi. Ularning leksikologik (ma’no), stilistik (uslub) jihatdan amaliy va nazariy o‘rganish jarayonida yana ayrim qo‘shimcha atamalar yoxud *istiora, ramz, majoz* kabi nomlanishlari ham borki, ularga *ko‘chim*ning muqobili sifatida qaraladi. “Metafora” va “metonimiya” terminlari esa yuqorida nomlangan muqobillarga chet tillardan kirib kelgan variantdoshlar sifatida qaraladi. Dunyo tilshunosligida va umummuloqotda tushunarli bo‘lishlari va ularning xossatan stilistika sohasiga oidligini ta’kidlash uchun uslubiy tahlilning (stilistik analiz) terminlari sifatida qo‘llaniladi. Bunday turli xil nomlanishlar bejiz emas, nainki ularning har birining ma’nolari bir-biridan farqlanadi, muloqotda aynan bir atama yoki terminning takrorlanishidan qochiladi. Kezi kelganda aytish ham joizki, ayrim holatlarda ularning ma’no farqlariga e’tiborsizroq munosabatda bo‘lish holatlari uchraydi. Bizning fikrimizcha, so‘z ma’nosi yoki nom ko‘chishi masalasi o‘rganilishida xalqaro qabul qilingan “metafora” va “metonimiya” terminlariga tayanib ish tutgan ma’qul. Zero, ularga tilimizda muqobil qidirib *ko‘chim, istiora, ramz, majoz, timsol* kabi atamalarga murojaat qilinishi masala yechimini murakkablashtiradi, terminlar soni oshadi, mavzu mantiqiga to‘g‘ri kelmaydi. Binobarin, har bir narsa va hodisa bir nom bilan atalishi kerak, yoxud bir narsa va hodisaga tabiatan ham mohiyatan ham ikki nom berilmaydi. Bu insonlar hayoti va uning tildagi ifodasi uchun mutlaqo zid narsa. Hatto bir narsa va hodisaning turli tillarda turli xil nomlanishida ham muayyan farq bo‘ladi. Bu farq nafaqat narsa va hodisani shakli va mazmunida, balki ularning tillararo nomlanishida ham seziladi. Masalan, “non” yegulik sifatida barcha xalqlarga aynidek, lekin ularning shakli, mazmuni, ta’mi va nomi turlichadir. Shu ma’noda obyektiv borliqdagi bir narsa va hodisani turli tillarda turlicha nomlanishi bejiz emas. Zamon, makon va tillar o‘zaro farq qilganidek, shu zamon, shu makon va shu tildagi narsa va hodisalarning o‘zi va nomlanishi ham farqli bo‘ladi. Bunda tabiiylik va mutloqlik bor. Nainki, yaratganning inoyati va xohishi shunday. Isboti esa yer yuzidagi yetti milliyarddan oshiq xalqning ichida o‘zaro shakli va shamoyili ayni ko‘ringanlari topilsa-da, ko‘rsatgich barmoqlari izlari bir-biridan ma’lum miqdorda farq qilishi bilan tasdiqlanadi.

Yuqoridagi fikrlarimizni quvvatlash uchun “ko‘chim” bobida uchraydigan atamalarning kelib chiqishi va anglatadigan ma’nolari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib ko‘rsatishga harakat qilamiz. Jumladan, “ko‘chim” izohli lug‘atida (2020), asosan, *badiiy ifodalilikni oshirish uchun ko‘chma ma’noda qo‘llangan nutq birligi; kinoya, ramz bilan qo‘llangan so‘z, ibora*[2] deb sharhlaniladi. Mazkur lug‘atning 1981-yilgi nashrida esa “ko‘chim” qayd qilinmagan ham. Bu atamaning kelib chiqishi va uni milliy tilshunosligimizda foydalanilayotganligi borasida shuni aytish mumkinki, unga bizningcha, ruscha “перенос (ko‘chirish)ное слово” asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Yoxud “переносить” *ko‘chirib olib kelmoq, ko‘chirmoq* fe’llaridan nazddagi “ko‘chim” harakat nomi yasalgan. Bu so‘zning ma’no tahliliga e’tibor beriladigan bo‘lsa, tilimizda “ko‘chmoq (ko‘chirmoq)” fe’llarining quyidagi ma’nolari bor:

1) yashash joyidan ketmoq, boshqa yashash joyiga o‘tmoq;
2) umuman, o‘rni, manzili va shu kabilardan boshqasiga o‘tmoq, jilmoq, ketmoq;
3) *ko‘chma.* Mavzuni, harakatni, yashash yoki ishlash tarzini o‘zgartirmoq, boshqasiga o‘tmoq;
4) yopishgan, birikkan joyidan ajramoq.

[1] A.Jumaniyazov, D.Jumaniyazova, “So‘z” va “nom” leksemalarining o‘zaro semantik-stilistik munosabatlari. Raqamli texnologiyalar davrida xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb muammolari nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, “Farg‘ona”, 2023, 119-bet.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2020, 2-жилд, 477-bet.

Nazarimizda, mazkur fe'lning ma'nolari har tomonlama izohlanilgan, lekin inson biror tomonga ko‘chganda yoki narsalarni ko‘chirganda hech narsa qoldirmay olib ketishiga ma'nan ishora qilinmagan. Bunga yaqqol misol tariqasida "Falonchilar ko‘chib ketishdi" darak gapida yoki "Ko‘ch bu yerdan!" undov gaplarida ko‘chishga aloqasi bo‘lgan odamlarning (faqat o‘zlari emas) hech narsalarini qoldirmay olib ketib qolishi, daf bo‘lishi tushuniladi, tasavvur qilinadi. Darhaqiqat, biror odamga "Ket!" deyilsa, o‘zi ketishiga, "Ko‘ch!" deyilsa, uning o‘ziga oid (olib kelgan, yonida bo‘lgan, o‘ziga oldindan aloqador bo‘lgan) barcha narsa (kiyimlari, ish qurollari, yordamchi vositalari, transporti)larni, birini ham qoldirmasdan olib ketishi zarurligi, jarayon kechgan joyda nazddagi shaxsdan uni eslatib turuvchi hech narsa qolmasligi tushuniladi. "Ko‘chim" atamasi ostida esa u orqali nomlanayotgan narsa va hodisaning barcha xususiyatlari emas, balki bir jihati tomonidan o‘xshashligi e'tiborda bo‘ladi. Masalan, kundalik turmushda vaziyat va suhbat rivojiga qarab muayyan shaxslarni "tulki", "ilon", "to‘ng‘iz", "eshak" deb atash mumkin. Bunda nomlanayotgan shaxs tulki bilan *shaytonlik*, ilon bilan *zahar*, to‘ng‘iz bilan *ifloslik*, eshak bilan *axmoqlik* sifat xususiyatlari jihatidan o‘xshab ketishlari inobatda turadi. Darvoqe, "tulki" deganda, inson hayoliga *yovvoyi, yirtqich, mo‘ynali, quyruqi katta va ayyor* hayvon keladi. Nom ko‘chishi esa "odam" hamda "tulki"ning *ayyorligi, hiylaga moyilligi, firib, pand berishi* kabi sifatlarining o‘zaro o‘xshab ketishi asosida kechgan bo‘ladi.

Ko‘chimning muqobili sifatida qaraladigan "istiora" atamasi arab tilidan olingan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda "predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan ko‘chim"[1]–istiora deb atalishi ta'kidlaniladi. Istiora so‘zining arab tilida "qarzga olish, muhlatli bo‘lish" kabi leksik ma'nolari ham borki, bular har qanday "ko‘chim"ni mantiqan vaqtincha (bir narsaning nomi ikkinchi narsaga ko‘chayotgan paytdagina) va nasiya (biror narsa nomini ma'lum muddat o‘tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilishi yoki olinishi)ligi tasavvuri chuqurroq mushohada qilinsa yaqqol sezilib turadi. Chunonchi, biror insonga "tulki" nomi kochiriladigan bo‘lsa, u o‘sha inson bilan muloqot (suhbatdoshning ayyorligi, makri ayon bo‘lgan payt) jarayonidagina aytiladi. Mazkur so‘z bilan atalgan suhbatdosh manguga tulki bo‘lib qolmaydi, bu nom vaqtincha inobatda bo‘ladi. Muloqot o‘tgandan keyin esa u, odatda, "qaytib olinadi". Zero, suhbatdosh galdagi suhbatlarda har safar "tulki" deb nomlanilavermaydi. Keyin unga tabiiy ravishda o‘z nomi bilan murojaat qilinadi. Agar mazkur odam keyingi hayoti davomida har galgi suhbatda "tulki" deb nomlanaversa, bu so‘z laqabga aylanishi mumkin va atoqli ot (suhbatdosh nomi)ga qo‘shib *(Safar tulki)* aytiladi.

Milliy adabiyotimizda "ko‘chim"ga variantdoshlik qila olishi mumkin bo‘lgan yana bir stilistik vosita borki, unga *majoz* deyiladi. Izohli lug‘atda bu vosita "so‘z yoki iboraning o‘z ma'nosidan boshqa, ko‘chma ma'noda ishlatilishi va shunday ma'noda ishlatilgan so‘z, ibora, metafora, allegoriya", deb ta'riflanib, izohlarida chet atamalar (metafora, allegoriya)ga ham ishora qilinadi. Majoz so‘zining arab tilidagi *tasviriy ifoda* ma'nosi e'tiborga olinadigan bo‘linsa, u orqali "ko‘chim" ning umumiy ma'nolari yana bir sema (qo‘shimcha ma'no) *tasvir, tasavvur*ga orttiriladi. Zero, har bir nomning o‘z surati bo‘lganidek, nom ko‘chganida bu surat tasviri ham birga ko‘chadi, ko‘chgan narsa surati tasavvurda bo‘ladi, yoxud biror nomning *majoziy ma'no*si deganda, o‘sha nom ostidagi narsaning hayoldagi tasviri ko‘z oldiga keltiriladi. Mazkur masalaga yana oydinlik kiritishga harakat qilamiz. Yuqorida ta'kidladikki, har bir narsaning suratini shu narsaga berilgan nom ham anglatadi. Nom va surat o‘rtasida, majoziy aytilsa, qonuniylik, tabiiylik, taalluqlilik va haqiqat bo‘ladi. Nomni quloq bilan aniq eshitamiz va qo‘l bilan aniq yozamiz, suratni esa o‘z ko‘zimiz bilan ko‘ramiz. Voqelikni nom va suratga aynan xoslik, to‘la taalluqlilik asosida anglashiliniladi. Bu holatda "ko‘chim" yo‘q. Muayyan nom ostida aynan shu nom ishora qilayotgan surat tushuniladi, mushohada tasviriy (nemischada "bildhaft", ruschada "картинный", inglizchada "pictorial") kechadi. Chunonchi, tulki nomi tulkining tabiiy suratini ko‘z oldimizga keltiradi.

Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unda narsaning nomini og‘zimiz bilan aytamiz, quloq bilan eshitamiz, qo‘l bilan yozamiz, biroq shu nom ishora qilayotgan suratda esa butunlay boshqa narsani ko‘ramiz, nom boshqa narsa suratiga ko‘chgan bo‘ladi. Endi nom va surat tabiatan bir-biriga mos bo‘lmaydi, o‘zaro taalluqlilik umuman yo‘q, haqiqatga butunlay zid, tabiiy va ijtimoiy qonunlar orqali ham inkor qilinadi. Mushohada ruhan – xayolan bo‘ladi va tasviran (nemischada "bildlich", ruschada "образный", inglizchada "figuratively") kechadi. Chunonchi, tulki nomi tulkining tabiiy suratini emas, maqsadini boshqalardan yashirib, ularning esiga ham kelmaydigan vositalar orqali niyatiga yetadigan *odam surati* tushuniladi. Shu sifatlari bilan u go‘yo[2] tulkiga o‘xshab ketadi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda, nom ko‘chishi masalasini ikki turga:

---

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, "O‘zbekiston", 2020, 2-jild., 238-bet.

[2] **go‘yo** – [xuddi, misli] qiyoslash, o‘xshatish ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, "O‘zbekiston", 2020, 1-жилд, 530-bet.

1. Tasviriy[1] nom ko‘chishlar.

2. Tasviran[2] nom ko‘chishlarga bo‘lib o‘rgangan ma’qul.

Tasviriy nom ko‘chishlarida esa nom va surat o‘rtasida o‘zaro aynan xoslik, tabiiy surat va unga berilgan ijtimoiy nom orasida taalluqlilik, haqiqiylik yotadi.

Tasviran nom ko‘chishlarida esa tabiiy xoslik bo‘lmaydi. Narsaga berilgan ijtimoiy nom, mazkur nom ishora qilayotgan (ko‘chgan) suratda o‘zaro taalluqlilik yo‘q bo‘ladi, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Nom va surat o‘rtasidagi bog‘liqlik ruhan tasavvur qiliniladi.

Endi nom ko‘chishi sabablari haqida gap ketadigan bo‘lsa, nomlar narsa va hodisalarning tashqi, ichki va mantiqiy o‘xshashliklariga asosan ko‘chadi. Mazkur fikrning asosli ekanligini yana bir bor “tulki” nomini “odamga” ko‘chishi misolida tahlil qilamiz va bu ikki mavjudotning tashqi, ichki va mantiqiy jihatdan o‘xshashliklarini tasavvur qilishga harakat qilamiz. Odam tashqi jihatdan tulkiga umuman o‘xshamaydi, faqat uning ko‘zi shaklan (ko‘rinishda) tulkining ko‘ziga o‘xshashligi mumkin va biz bu odamni “tulki ko‘z” deymiz. Ularning ichki o‘xshashligi esa ko‘zlar kabi zohiriy emas, balki botiniy bo‘lib mazmun (ayyorlik) jihatidan o‘xshatiladi va unga ishlatgan makri hamda qo‘llagan hiylalariga qarab “tulkidek ayyor ekan” tashbehi qo‘llaniladi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, har ikkala holda ham “tulki” nomi odamga *to‘la* ko‘chmagan. Endi uni tashqi o‘xshashliklari (ko‘zlari) va ichki o‘ xshashliklari (makr, hiyla egasi ekanligi) inobatda tutilib, uni mantiqiy o‘xshashlik asosida “tulki” deyish mumkin. Buning bilan odam “tulki”ga aylanmaydi, “odam”ligicha qoladi. Tulkining ayyor ko‘zlari, makrli qalbi, shum ko‘ngli kabi xususiyatlarning nazddagi odamda namoyon bo‘lishi, uni ruhan (tasviran) tulki deb nomlashga sabab bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, nomlar ko‘chishi uchun muayyan muhit, vaqt, shaxs va nomlanishni taqozo qiluvchi voqelik zarur bo‘ladi. Voqelik jarayonida suhbatdoshning suhbatda qatnashuvchilarga nisbatan tulkilardek munosabati – boshqalarning es-xayoliga kelmaydigan vositalar orqali niyatiga erishish uchun qilgan harakatlari – fosh bo‘lib qoladi va u tulki nomiga loyiq ko‘riladi. Shu bois nom ko‘chishi mazkur holatda mantiqan o‘xshashlikka asoslanadi. Bu hodisa esa tilshunoslikda metonimiya (qayta nomlanish) – stilistik vositasi deb o‘rganiladi. Bu haqda keyinroq bafurja to‘xtalamiz.

Tilimizda “ko‘chim” barobarida uchraydigan ayrim ramz (belgi, ishora), timsol (tasvir, surat), simvol (konkret nomni mavhum narsalarga ko‘chirish), allegoriya (mavhum nomlarni konkret nomga o‘zgartirish), personifaktsiya (shaxslantirish), sinekdoxa (bo‘lakni bildiruvchi nom ostida butunni, butunni bildiruvchi nom ostida bo‘lakni tasavvur qilish) kabi stilistik vositalar ham borki, ularga mazkur maqolada to‘xtalib o‘tirmaymiz va “ko‘chim”ga sinonim (yaqin ma’nodosh) va variantdosh bo‘lgan, ayrim adabiyotlarda esa ko‘chim turlari hisoblanib kelinayotgan stilistik vositalar “metafora” va “metonimiya”larga bafurjaroq to‘xtalamiz. Mazkur stilistik vositalar xususiyatlari va ularning tahlili borasida to‘xtalinilishidan oldin shuni aytish zarurki, ko‘chim Yevropa tillarida “trop”(nemis tilida “Tropus” bildlicher Ausdruck – tasviriy ibora, inglizchada “trope” figurative use of a word so‘zdan obrazli foydalanish)lar deb atalib, metafora, metonimiya uning turlari sifatida o‘rganiladi. “Metafora” termini grekcha “metaphora, metapherein” (qayoq-qadir o‘zga, boshqa joyga olib borilmoq,o‘zga tomonlarga ketib qolmoq) so‘zidan olingan. Bu termin ma’nosini tahlil qilinayotgan mavzuga monandlashtirib aytilsa, biror narsaning nomini qayoqqadir olib bormoq, biror narsaning nomi bilan allaqayoqdagi biror narsani nomlamoq ma’nosida tushunish kerak bo‘ladi. Odatda, muloqot nazdida turgan narsalar insoniyat tomonidan nomlanib ulgurilgan va har qaysi o‘z nomiga ega bo‘lgan bo‘ladi. Shu ma’noda metafora biror narsa yoki hodisaning azaliy (o‘z, xos) nomini inkor qilmagan holda uni ikkinchi bir nom bilan ataydi. Mazkur stilistik vositaning mohiyati shundaki, u bir narsaning nomini ikkinchi bir narsaga ko‘chirishda inobatdagi narsalarning ichki va tashqi o‘xshashligiga asoslanadi. Qiyos xayolan kechadi, yoxud nomning haqiqiy egasi bilan qiyoslanayotgan narsaning o‘xshashligi bevosita bo‘lmaydi, ular aynan yonma-yon qo‘yilgan holda taqqoslanilmaydi, chog‘ishtirish asosida narsalarning mohiyati (nima uchun kerakligi) e’tiborda turadi. Chunonchi, qozon qulog‘i deganda – *tutish,* dutor qulog‘i deganda – *tovlash,* radio qulog‘i deganda – *burash*, otizning qulog‘i deganda, otiz qulog‘i orqali dalaga suvning *kirib-chiqishi* qiyoslanilib nom ko‘chgan bo‘ladi.

---

[1] **-iy** [nisbiy sifat yasovchi qo‘shimcha]: 1) undosh tovush bilan tugagan otlardan xoslik, taalluqlilik ma’nosini anglatuvchi nisbiy sifat yasaydi; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2020, 5-жилд, 579-bet.

[2] **-an** arab tilidan o‘zlashgan, harakatning bajarilish holatini bildirgan ravishlar tarkibidagi **go‘yo** yasovchi kabi ajratiladi, aslida, u o‘zbek tili materiallari asosida so‘z yasamaydi; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2020, 5-жилд, 573-bet.

Tahlil va natijalar. Metaforaning adabiyotda ko‘rinishlari o‘zbek tilshunosligida hanuzgacha turlarga bo‘lib, tahlil qilinmagan. Yevropa tilshunosligida u 4 tur (personifikatsiya, allegoriya, simvol, sinesteza)ga bo‘lib o‘rganiladi.

Personifikatsiyaning o‘zbek tilida *jonlantirish, shaxslantirish* tarjimasi asosida uchrash holatlari bor va bu vosita orqali jonsiz narsalarga jonli narsalarning nomi, xatti-harakati ko‘chadi, masalan, *soat yuradi, soat yurmaydi, soat ikkiga bong urdi, quyosh kulib boqdi, tabiat uxladi.*

Allegoriya darslik va izohli lug‘atlarimizda uning yunon tilidan olinganligi, tilimizga “o‘zgacha ifodalash” ma’nosida kirib kelganligi qayd qilinadi va “mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni aniq bir obraz vositasi bilan ifodalash; majoz” deb izohlaniladi. Masalan, *bo‘ri* so‘zining yovuzlik, *tulki* so‘zining ayyorlik ifodasi sifatida qo‘llanishi.[1] Fikrimizcha, keltirilgan ta’rif va misollarda muayyan qusurlar bor, fikrlar zidligi, mantiqan qarama-qarshilik, ta’riflarda yanglishish, birining vazifasini ikkinchisiniki deb ta’kidlash kechgan. Zero, allegoriyaning vazifasi “mavhum narsalarni konkret nomlash” hisobiga, ramz(simvol)ning vazifasi esa “konkret narsalarni mavhum nomlash” hisobiga bajariladi. Biroq izohli lug‘atda keltirilgan misollarda konkret narsa “bo‘ri” va “tulki” allegoriya nomlanib, bu so‘zlar ostida ularning “yovuzligi” va “ayyorligi” ko‘zda tutilishi ramz deyilgan. Bir stilistik vositaning vazifasi (nima anglatishi), ikkinchi vosita bilan chalkashtirilgan.[2] Binobarin, yovuzlik va ayyorlik mavhum narsa, bo‘ri va tulki esa konkret narsa ekanligi umumtushunarlidir.

Allegoriya ta’rifiga Yevropa tilshunoslari ancha chuqurroq va aniqroq yondoshadilar va uning ostida “mavhum tushuncha (narsa)ni jonlilashtirilgan konkret narsa (tasvir) sifatida tushunilishini”[3] ta’kidlaydilar. Nainki *tinchlik* (mavhum) *oq kabutar* (konkret) misolida, *qo‘rqoqlik* (mavhum) *quyon* (konkret) qiyosida ifodalaniladi.

Simvollarning o‘zbek tiliga grek tilidan kirib kelganligi va uning adabiyotda belgi, ramz, alomat, timsol ma’nolari bilan o‘zlashtirilganligi qayd qilinadi. Qo‘shimcha ravishda ta’kidlaniladiki, simvol biror bir g‘oyani o‘zida mujassamlashtirgan badiiy obrazdir.[4] Yevropa tilshunosligida simvol so‘zining grek tilidagi *symbolon* va lotin tilidagi *symbolum* leksik birliklari bilan bog‘liqligi qayd qilinib, ma’nosi “belgi” ekanligi aytiladi. Keyinchalik esa uning ma’nosi “hissiy tasvir”ga kengayganligi ta’kidlaniladi. Stilistik vosita sifatida uning ostida konkret narsa orqali mavhum narsaning nomlanishi (allegoriyaning aksi) tushuniladi, masalan, *chiroq* (konkret) so‘zi ostida *hayotning mavjudligi* va *inson hayotining davom etishi* (mavhum) anglashiladi. Yoxud uyda chiroq yonsa, u yerda hayot bor degani, yangi kelinchaklarga ota uyidan chiqayotganida yoniqli chiroq berib yuborilishi hayotning davomiylik ramzini, timsol sifatida Muhammad (sav) payg‘ambarimizning “ummatlarimning ko‘payishini istayman” degan orzusini amalda ushalayotganini ifodalaydi. Atirgulning *muhabbat*, uzukning *turmush qurganlik*, hassaning *suyanchiqlik* ma’nolari simvollar uchun xarakterlidir. Bunga yana turli ranglarning (konkret) turfa mavhum ma’nolar, masalan, bayrog‘imiz ranglari kashf etishini ham misol tariqasida keltirish mumkin. Jumladan, bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi.Timsollar tilida – bu yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Bayroqdagi oq rang –muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, yashil rang esa tabiatning yangilanishini bildiradi. Qizil chiziqlar – vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.[5]

Metaforaning to‘rtinchi turi “Sinesteza” deb ataladi va mazkur stilistik vosita orqali berilayotgan xabar va ma’lumot idroki uchun insonning ikki hissiy a’zosi qatnashuvi lozim bo‘ladi. Masalan*: mazali hid*, mazalida *til* (tam bilish) ishtiroki, hid da esa *burun* (hid bilish) lozimligi o‘z-o‘zidan tushunarli. Analog misol sifatida *sovuq rang (sovuq –tana, rang – ko‘z), achchiq so‘z (achchiq – ta’m, so‘z – tovush sifatida eshitish, harf sifatida ko‘rish), shirin suhbat (shirin –ta’m, suhbat –eshitish), xushbo‘y taom* (xush – tana, bo‘y – hid) misollarini keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, metaforalar tilning boyishiga va ifoda qudratining oshishiga xizmat qiladi. Shu boisdan metaforalarni nom ko‘chish hodisasi sifatida o‘rganish va ularni ma’lum guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Biz yuqorida nom ko‘chishi bilan bog‘liq ko‘plab misollar keltirdik va tahlil qildik.

---

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2020, 1-jild, 73-bet.

[2] Mazkur chalkashliklar izohli lug‘atimizning navbatdagi nashrlarida to‘g‘irlanishi lozim.

[3] Duden Deutsches Universalwörterbuch. Brockhaus AG, Mannheim. 2007, s. 122.

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2020, 3-jild, 505-bet.

[5] Internet materiali: https://tfi.uz/uz-Latn/page/flag

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). E.Riesel, E.Schendels. Deutsche Stilistik. Moskau, Verlag Hochschule, 1975, s. 314.

(2). A.Iskos, A. Lenkowa. Deutsche Lexikologie. Ленинград, «Просвещение», Ленинградское отделение, 1970, s. 294.

(3). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2020.

(4). Duden Deutsches Universalwörterbuch. Mannheim, Brockhaus AG, 2007, s. 2016.

(5). А.Содиқов, А.Абдуазизов, М.Ирисқулов. Тилшуносликка кириш. Т., „Ўқитувчи”, 1981, 224-бет.

(6). М.Ирисқулов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992, 252-бет.

(7). Klaus Mylius. Sanskrit-Deutsch/Deutsch-Sanskrit. Wiesbaden, Harrassowitz Verlag, 2005.

(8). Hadumod Bußmann. Lexikon der Sprachwissenschaft. Alfred Kröner Verlag Stuttgart, 2002, s. 783.

(9). Raqamli texnologiyalar davrida xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, II qism, Farg‘ona shahri, 2023, 440-bet.

Hamrabayeva Shirin Alisherovna (O‘qituvchi, TDSHU)

MAQOLLAR TARJIMASIDA XALQ VA MILLAT TAJRIBASINI AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq maqollarining ahamiyati, ularning paydo bo‘lish tarixi , o‘zbek, ingliz va rus xalqlarining yashash tarzi va hayot tajribasi xalq maqollarida qay tarzda aks ettirilganligini chog‘ishtirma metodi asosida o‘rganib chiqilgan. Maqollarni analiz qilish davomida o‘zbek va ingliz xalq maqollarining universal va unikal xususiyatlari haqida ham alohida muhokama qilindi.*

Kalit so‘zlar: *maqol, o‘zbek xalqi, ingliz xalqi, hayot tarzi, ekvivalent, universal, unikal, tajriba.*

ОТРАЖЕНИЕ ОПЫТА НАРОДА И НАЦИИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ПОСЛОВИЙ.

Аннотация. *В данной статье рассмотрены значение народных пословиц, история их возникновения, образ жизни и жизненный опыт узбекского, английского и русского народов, отраженный в народных пословицах, основанных на перекрестном методе. В ходе анализа пословиц также обсуждались универсальные и уникальные особенности узбекских и английских народных пословиц.*

Ключевые слова: *пословица, узбекская национальность, английская национальность, образ жизни, эквивалент, универсальный, уникальный, опыт.*

REFLECTION OF THE EXPERIENCE OF NATION THE TRANSLATION OF PROVERBS

Annotation. *This article discusses the importance of folk proverbs, the history of their emergence, the way of life and life experience of the Uzbek, English and Russian peoples are reflected in folk proverbs based on the cross-sectional method. During the analysis of proverbs, the universal and unique features of Uzbek and English folk proverbs were also discussed.*

Key words: *proverbs, Uzbek nation, English people, lifestyle, equivalent, universal, unique, experience.*

Kirish. Maqol–xalq og‘zaki ijodining janrlaridan biri bo‘lib, u o‘zining qisqa satrlarda ko‘p ma’noni ifodalashi, jarangdorligi, mantiqiy va grammatik jihatdan tugallanganligi bilan boshqa xalq og‘zaki ijod namunalaridan farq qiladi [1]. O‘zbek tildagi maqol so‘zi arabcha qavlun–gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, aytib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo‘llaniladi [2]. Ushbu termin, dastlab, Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida quyidagicha ta’rif berilgan: “Elning kun ko‘rgan, ish o‘tkazgan sinashli, qarilar tomonidan aytilgan hikmatli, qisqa ma’noli gaplardir” [3]. O‘zbek tilida maqollar kelib chiqishi xususiyatiga ko‘ra 6 ta guruhga ajratilgan: 1. Iboralar asosida yaratilgan maqollar. 2. Folklor janrlari asosida shakllangan maqollar. 3. E’tiqodiy tushunchalar asosida yaratilgan maqollar. 4. Xalq umidlari asosida shakllangan maqollar. 5. Xalq o‘yinlari asosida yaratilgan maqollar. 6. Hadislar asosida shakllangan maqollar [4].

Folklorshunos olimlar maqollarni o‘rganuvchi sohani paremiologiya deb ataladi. Paremiya – yunoncha chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, maqol, ibora ma’nosini beradi. Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

–maqollar hajmi qisqa va cheklangan;

–maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma’noni ifodalaydi;

–maqollarda hayotiy voqea-hodisalar haqida qat’iy hukm ifodalanadi;

–maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtaiy nazaridan umumlashtiradi;

–maqol matn tilshunosligida shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi [5].

Adabiyotlar tahlili. Metodologik manba sifatida Mieder W. “Proverbs: A.Handbook”, Ashurova D.U.,Galieva M.R.“Cultural linguistics” o‘quv qo‘llanmasidan foydalanildi. Bundan tashqari, Jo‘rayeva

Bibish “O‘zbek xalq maqollarining yaratilishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari”, Berdayev N.A. “Судьба России”, Eugene E. Ivanov and Julia A.Petrushevskaia “Etymology of English Proverbs” maqola va avtoreferatlar o‘rganib chiqildi.

Metodlar. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida mantiqiylik asosida lingvistik tahlil va chog‘ishtirma metodidan keng foydalanildi. O‘zbek, ingliz va rus xalq maqollarida millat turmush tarzini o‘zida ifodalashi to‘g‘risida qisqacha tahlil olib borildi. Ingliz, rus maqollari va o‘zbek xalq maqollarining kelib chiqishiga ta’sir qilgan omillar chog‘ishtirma metod asosida taqqoslab o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Maqollar xalq tajribasidan o‘tgan voqea-hodisalarning so‘zdagi o‘zgarmas ifodasidir. Maqollarda ajdod-avlodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan [1]. Maqollarga turli olimlar turlicha ta’rif berishgan. I.R.Galperin maqolga quyidagicha ta’rif bergan: maqol–jamiyatning to‘plagan hayotiy tajribasini qisqa shaklda aks ettiruvchi va ma’lum bir holatlarda yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiluvchi birlikdir [6]. V.Mielder maqolni qisqa, hammaga ma’lum bo‘lgan, o‘zida oqillik, haqiqat, axloqiy va an’anaviy qarashlarni ifodalaydigan, yodda qoladigan shaklda ifodalangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan turg‘un birikma deb tariflagan [7]. Maqol va matallar madaniy qadriyat va tushunchalarini aks ettirgani uchun madaniy ahamiyatga ega birliklar hisoblanadi. Har bir maqol o‘sha xalq kelib chiqishi va yashash tarzi bilan chambarchas bog‘liq holda yaratilgan bo‘lib, o‘sha xalqning turmush tarzi, ijtimoiy me’yorlari va yillar davomida to‘plangan tajribasini o‘zida aks ettirgan. Maqol va matallar avlodlar donishmandligi ko‘zgusidir. Bu hikmatlar uzoq yillar davomida axloq qonunlari va xulq-atvor me’yorlari majmuyi bo‘lib, millat va ma’naviyatninng shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Maqollarda xalqning tarixiy tajribasi, mehnatga oid fikrlari, odamlarning faoliyati, hayoti va madaniyatiga oid fikrlar aks ettirilgan. Har qanday tildagi maqollarni o‘rganish ushbu xalq madaniyati va milliy xarakterini tushunishga yordam beradi.

Y.Deng va R.Luining fikricha, “Maqollar xalqning geografiyasi, tarixi, ijtimoiy tashkilotlari, ijtimoiy qarashlari va qiziqishlari haqida ma’lumot berishi mumkin. Dengiz sohillarida yashaydigan va tirikchiligi dengizga bog‘liq bo‘lgan odamlar suzib yurish, ob-havoga dosh berish, baliq va baliq ovlash haqidagi maqollar, keksalik e’zozlangan xalqlarda esa keksalarning donoligi haqidagi maqollar ko‘p uchraydi”[8]. Masalan, o‘zbek xalqi azaldan mehnatsevar bo‘lganligi, asosan, dehqonchilik, kosibchil, nonvoychilik kabi kasblar bilan shug‘ullanib turmush kechirganligi sababli o‘zbek xalq maqollarida ko‘plab mehnatni ulug‘lash kabi maqollarni uchratishimiz mumkin: *Mehnat, mehnatning tagi rohat. Mehnat qilgan rohat ko‘radi. Mehnat qilsang, davron surasan. Ari zahrin chekmagan, bol qadrini bilmas. Ayb yilda emas, mehnatda. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.*

Bizning ajdodlarimiz, asosan, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanganligi maqollarda bu o‘z aksini topgan: *Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda. Bug‘doy eksang, kuzda ek–yaxshi haydab, bo‘zga ek. Dehqon ishlab don sochar – elga risq yo‘lin ochar. Yer–don, dehqon–xazinabon. Semiz qo‘yning umri kalta. Sigiri bor–och qolmas. Qo‘yni boqsang qo‘zilar, molni boqsang buzoqlar.*

Bundan tashqari, xalqimiz tomonidan suv va non aziz ne’mat sifatida tatbiq etiladi, bu xalq maqollarimizda ham aks etilgan: *Nonning ushog‘i ham non. Non tanani oziqlantiradi, kitob esa ruhni. Suv zar, suvchi zargar. Suv keldi – nur keldi. Suvsiz yer – jonsiz jasad. Suv bor joyda – hayot bor.*

Ingliz xalq maqollarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz xalqi maqollarini, asosan, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

–yashash tarzi xususiyatlarini ifodalovchi maqollar;

–urf-odatlarni tasvirlovchi maqollar;

–joylashgan hududi asosida yaratilgan maqollar;

–dinga aloqador maqollar;

–yunon migologiyasi asosida yaratilgan maqollar;

–ingliz adabiyotidan olingan maqollar;

–tarixiy hodisalar asosida paydo bo‘lgan maqollar [9].

Ingliz tilida xalq maqollarining kelib chiqish etimologiyasi o‘rgangan Eugene E.Ivanov va Julia A. Petrushevskaya ingliz maqollarining kelib chiqish manbalari quyidagi foizlarni tashkil etishini tahlil qildi [10]:

Ingliz maqollari manbalari	Maqollarning foizi
Folklore	59
Literature (poetry/prose/dramatic works)	20,25 (9 / 6 / 5,25)
The Holy Scripture (Old Testament/New Testament)	6,5 (2,5 / 4)
Treatises on philosophy	4,25

Theological works	1,5
Public speeches	1,5
Publicistic texts (articles in newspapers and magazines)	1
Epistolary texts	1
Treatises on History	0,75
Mottos and slogans	0,5
Laws and statutes of religious communities	0,5
Pamphlets	0,5
Sermons	0,5
Treatises on Philology	0,5
Legal texts	0,5
Memoirs	0,25
Genealogical records	0,25
Almanacs	0,15
Treatises on Geography	0,15
Treatises on Medicine	0,15
Treatises on Agriculture	0,15
Treatises on Social and political issues	0,15

Angliya davlati esa, asosan, iqtisodiy rivojlangan va tijorat asosiy mashg‘uloti bo‘lganligi tufayli ingliz xalq maqollarida, iqtisod va tijoratga bog‘liq maqollar ko‘p miqdorni tashkil etadi. Masalan: *In every crisis, there is opportunity. Work is more important than entertainment. Everybody’s business is nobody’s business. Business before pleasure. Business is business. Business neglected is business lost; The customer is always right. Business is a salt of life. Don’t throw good money after bad* [9].

Angliya orollardan tashkil topganligi sababli ingliz xalq adabiyotida biz dengiz, dengiz mahsulotlari, mo‘ljal topish haqidagi maqollarni ham ko‘plab uchratishimiz mumkin: *There are other fish in the sea. If you fish and catch nothing, you have still caught a lesson. A shallow river with fish is worth more than a deep sea without any. The sea refuses no river. Living without an aim is like sailing without a compass. It is a silly fish that is caught twice with the same bait.*

Bundan tashqari, ingliz tilida din asosida paydo bo‘lgan maqollar ham salmoqli miqdorni tashkil etadi: *The fear of the Lord is the beginning of knowledge, fools despise wisdom and displine. There is a way that seems right to a person, but its end is the way to death. A gentle answer turns away anger, but a harsh word stirs up wrath.*

Ijtimoiy holatlarni o‘zida mujassam etgan maqollar kishilar ongi, urf-odatlari, yashash tarzi, e’tiqodlarning kelib chiqib, ijtimoiy hayotning turli jabhalarini aks ettiradi. Rus xalqining maqollariga e’tibor qaratsak, bu xalqning maqollarida, asosan, cho‘rtkesarlik, qa’tiyatlilik, dinga sodiqlik kabi xarakter xususiyatlari aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Rus faylasufi va publitsisti N.A.Berdyaev shunday degan edi: ,,Shuni unutmaslik kerakki, rus xalqining tabiati juda o‘zgaruvchandir, “Или всё, или ничего” bu maqol rus xalqining xarakterini juda yaxshi ko‘rsatib beradi [11]: *Где не возьмёт топор, так возьмёт смекалка. Голову – всему начало, Где ум, там и толк. Не всяк умен, кто с головою.*

Bundan tashqari, rus xalqi mehnatsevarlikni qadrlaydi, bu quyidagi maqollarda o‘z aksini topgan: *Золото познается в огне, а человек в труде. Талант без труда не стоит и гроша. Готовь сани летом, а телегу зимой.*

Rus xalqining eng xarakterli xususiyatlaridan biri – bu sabr-toqatli. Bu rus xalqi maqollarida o‘z aksini topgan: *Терпение и труд всё перетрут. Не потерпев, не спасешься. Только терпеливый закончит дело, а торопливый упадет.*

Xulosa va takliflar. Maqol har bir xalqning ko‘zgusi bo‘lib, xalqlarning urf-odatlari, yaxshash tarzi, qadriyatlari haqida ma’lumot beradi. Ma’lum bir mavzular, ya’ni, yaxshilik, yomonlik, rostgo‘ylik, ilmlilik, yaxshi xulq-atvor kabi mavzular barcha xalqlar uchun universal bo‘lib, barcha millatlar maqollarida o‘z aksini topgan. Yana ba’zi bir maqol mavzulari ma’lum xalq maqollarigagina tegishli bo‘lib, boshqa tillarda kamroq uchraydi. Masalan, ingliz xalq maqollarida tadbirkorlik, dengiz, baliq kabi mavzulardagi maqollar juda ko‘p uchraydi, bu holat esa Angliya davlatining, asosan, suv bilan o‘ralgan industrial davlat bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘zbek xalq maqollarida esa, asosan, yaxshi xulq-atvor, yaxshilik va yomonlik, mehnat, dehqonchilik va chorvachilik asosida paydo bo‘lgan maqollarning salmog‘i ortiq. Xulosa qilib aytgan-

da, biror davlat va millatning tarixini o‘rganish uchun, dastlab, ushbu xalqning etnografiyasi va xalq og‘zaki ijodini o‘rganishdan boshlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Murodova M. Folklor va etnografiya. “Aloqachi”, Toshkent, 2008.

(2). Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild (ilmiy asarlar), “Ma’naviyat”, 1994.

(3). Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna. O‘zbek xalq maqollarining yaratilishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. Avtoreferat, Samarqand, 2019, 17–20-betlar.

(4). O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.

(5). Galperin I.R. Stylistics. Moscow, Higher school, 1977.

(6). Mieder W. Proverbs: A Handbook. USA, Greenwood Press, 2004.

(7). Deng Y, Lui R. Language and culture: Contrastive Studies between English and Chinese. Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 1989.

(8). Ashurova.D.U. Galieva M.R. Cultural linguistics, 2019.

(9). Бердяев Н.А. Судьба России. М., “Эксмо пресс”, 1918.

(10). uz.m.wikipedia.org/wiki/Maqol.

Murodova Firuza Jalolovna (CHDPU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi;
mail: firuzamj1984@gmail.com)

HARBIY-VATANPARVARLIK NUTQIDA AYRIM LEKSIK BIRLIKLARNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy-siyosiy notiqlik tarkibiga kiruvchi harbiy vatanparvarlik nutqi, undagi ayrim leksik birliklarning funksional va semantik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Harbiy soha terminlarining lug‘atlarda berilishiga doir munosabat bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-siyosiy notiqlik, soha tili, harbiy vatanparvarlik nutqi, leksik birlik, leksema, harbiy termin, dominant, semantik maydon.*

УПОТРЕБЛЕНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация. *В статье анализируется военно-патриотическая речь, являющаяся частью общественно-политической речи, функциональные и смысловые особенности некоторых лексических единиц в ней. Выражена реакция на использование военных терминов в словарях.*

Ключевые слова: *общественно-политическая риторика, язык специализации, военно-патриотическая речь, лексическая единица, лексема, военный термин, доминанта, семантическое поле.*

USE OF SEPARATE LEXICAL UNITS IN MILITARY-PATRIOTIC SPEECH

Annotation. *The article analyzes military-patriotic speech, which is part of socio-political speech, and the functional and semantic features of some lexical units in it. The reaction to the use of military terms in dictionaries has been expressed.*

Key words: *socio-political rhetoric, language of specialization, military-patriotic speech, lexical unit, lexeme, military term, dominant, semantic field.*

Taqrizchi CHDPU katta o‘qituvchisi f.f.f.d (PhD) Muydinova Arofatoy Urinovna

Kirish. Ma’lumki, har bir xalqning tili shu tilda so‘zlashuvchi millatning ma’naviy va madaniy boyligi, qolaversa, davlat timsolini ifodalovchi eng muhim vositasidir. Shukrki, bir vaqtlar xalqni ma’rifatli qilish uchun jon kuydirgan, mustabid tuzum ta’qibiga qaramay, “O‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir” deya ortga chekinmagan millatimiz fidoyilari, tilimiz jonkuyarlari: Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Is’hoqxon Ibrat kabi allomalarimizning armonlari ushaldi, niyatlari ijobat bo‘ldi – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi, bebaho boyligimiz – ona tilimizning qadr-qimmati qayta tiklandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini amalga oshirish dasturi” tasdiqlandi. O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari belgilandi. Buning natijasi o‘laroq, muayyan soha tillarini ilmiy o‘rganish, uni lingvistik tadqiq qilish muhim va kechiktirib bo‘lmas muammolardan biri bo‘ldi. Buning yechimi sifatida soha mutaxassislari va tilshunos olimlar tomonidan turli soha tili, leksikasi, terminologiyasi, leksikografiyasini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tahlilga tortish, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish asosiy mavzulardan biri bo‘ldi. Jumladan, yurislingvistika, psixolingvistika, kompyu-

ter lingvistikasi, lingvokulturologiya kabi oraliq sohalar tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari sifatida yuzaga chiqdi. Bugungi kunda boshqa sohalar singari harbiy soha tili, leksikasiga qiziqish, soha terminologiyasiga e’tibor ortganini mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar misolida kuzatish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Harbiy soha leksikasi tarkibidagi harbiy vatanparvarlik nutqi o‘ziga xosligi: aniqligi, to‘g‘riligi, rasmiyligi, jiddiyligi, mantiqiy izchilligi hamda o‘zlashma so‘zlarga boyligi bilan ajralib turadi. Harbiy soha tilini, nutqini ilmiy jihatdan o‘rganish soha vakillarining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizga, tilni tizim sifatida o‘rganishiga, milliy tilimizning takomiliga, shuningdek, o‘zbekona nutq madaniyatining rasmiy uslub sifatida faol muomalada bo‘lishiga imkon beradi. Jumladan, O‘zbek tilshunosligida H.Dadaboyev, N.Axmatov, H.Yodgorov kabi tilshunos olimlar, A.Kurganov, S.Mengliyeva singari tadqiqotchilar mazkur soha rivojiga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Tilshunoslikda leksema o‘zi ifodalayotgan predmet bilan uzviy aloqadorlikda bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, ma’lum bir predmetlarning umumlashgan xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan tushunchaga mos ravishda real borliqni bevosita aks ettiradi.[1] Shu bois leksemaning predmetga va tushunchaga nisbatan bo‘lgan mutanosibligi azaldan tilshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bir leksema o‘nlab leksemalarning hosil bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilshunosligi targ‘ibotchisi va himo-yachisi Abdurauf Fitrat “Tilimiz” maqolasida bitta “bil” o‘zagidan 98 ta so‘z yasash mumkinligini va turkiy tilning so‘z boyligi fors, arab tillariga nisbatan ko‘proq ekanligini ta’kidlab o‘tadi.[2]

Harbiy-vatanparvarlik leksikasida ham asosdosh so‘zlardan keng foydalaniladi (vatan, vatanparvar, vatanparvarlik; jang, jangchi, jangovar, janggoh; yarog‘, yarog‘li, yarog‘siz, yarog‘soz; o‘q, o‘qdon, o‘qli va h.k.). Harbiy leksikaning asosiy qismi arab, fors, rus va u orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlardan iborat bo‘lib, ularning asosiy qismi affiksatsiya, kompozitsiya, kalkalash usulida yoki gibrid shaklida yasalgan yasama hamda qo‘shma leksik birliklardan iborat. Bunday birliklar harbiy vatanparvarlik nutqi bazasining asosini tashkil etadi: *qo‘mondon, g‘alaba, harbiy, zabardast, garnizon, general, kursant, botirlik, chegarachi, Qurolli kuchlar, oddiy askar, vatan himoyachilari, milliy armiya* kabi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sohada faol qo‘llanadigan leksik birlik (terminlar)dan biri *qurol* leksemasi bo‘lib, maqolamizda shu leksik birlik tahliliga e’tibor qaratishni lozim topdik. Har qanday lug‘aviy ma’noga ega asos – leksema o‘zining dominant ma’nosini u orqali hosil qilingan boshqa leksik birliklarda aks ettiradi. Bosh ko‘rinishidanoq salbiy ottenkaga ega bo‘lgan, dominanti narsa-predmet mazmunini ifodalagan bu leksema turli morfemalar ta’sirida sekin-asta salbiy ma’nosini yo‘qotib, umumiste’molga o‘tib, uning zohiriy ma’nolari namoyon bo‘lib boradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “qurol” leksemasi bilan bog‘liq o‘nta leksik birlik mavjud bo‘lib, ularning barchasi harbiy vatanparvarlik nutqida faol qo‘llanadi va bu leksik birliklar quyidagi ma’noni ifodalaydi:

1) *predmet tushunchasini – qurol, qurol-yarog‘, qurol-aslaha;*
2) *shaxs tushunchasini – qurolbardor, quroldosh;*
3) *harakat va holatni – qurollanmoq, qurollantirmoq, qurolsizlantirmoq;*
4) *belgini – qurolli, qurolsiz;*
5) *makon, joyni – qurolxona;*
6) *faoliyat-jarayonni – Qurolli Kuchlar* kabi.

A.Madvaliyev tahriri ostida nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan qurol leksemasi bilan bog‘liq ayrim leksik birliklar haqida fikr yuritishni joiz topdik.

Qurol – harbiy yarog‘, aslaha; jang, urush asbobi. Otish qurollari (miltiq, to‘p va h.k.). Sovuq qurollar (qilich, xanjar, pichoq).[3] Shu o‘rinda, bir mulohazamiz bor, lug‘atda keltirilgan izohda salbiy ma’no kuchli bo‘lib, otish quroli, sovuq qurol birikmalari qurol leksemasiga nisbatan, urush, jinoyat va mojarolarda ishlatiladigan predmet ma’nosini ifodalagan. Aslida, qurol himoya vositasi, askarlarning, vatan himoyachilarining doimo yonida yuradigan, shu kasb egalariga tegishli bo‘lgan oddiy bir vosita emasmi? Berilgan misollar buning isbotidir: *Ona haykali yonida, yana ikkitasi noma’lum askar yonboshida qurolini ko‘ksiga bosgancha, g‘oz turibdi* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”, 622-b.). *Ko‘rsin desang jahonni ko‘zim, O‘ssin desang bog‘imda uzum, Umid bilan o‘stirgan qizim, Desang agar bo‘lmasin uvol: Qo‘lingga qurol ol! (Hamid Olimjon).* Bizningcha, lug‘atlarda berilgan so‘zlarning neytral bo‘lishi o‘quvchilarning ongida kasb egalari ishlatadigan predmet ma’nosinigina ifodalashi joiz.

[1] Собиров А.Ш. Ўзбек тили лексикасининг систем-структур тадқиқи. Т., “Bookmany print”, 2022, 68-бет.
[2] Маънавият юлдузлари. Т., Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти, 1999.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати (А.Мадвалиев таҳрири остида). Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 382-бет.

Qurolbardor – 1. O‘rta asrlarda lashkarboshining yoki ritsarning qurollarini ko‘tarib yuruvchi jangchi; umuman, qurol ko‘targan, qurollangan jangchi. 2. ko‘chma, salb. O‘z fikri, aqidasi bo‘lmagan, o‘zgalarning fikrini, aqidasini ko‘tarib yuruvchi, uni targ‘ib qiluvchi maddoh.[1] Bu leksema *qurol* so‘ziga fors tilidan olingan *bardor* so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Forscha *bardor* so‘zi – qo‘lda ko‘taruvchi, yuqori tutib turuvchi, bo‘ysunuvchi, bajaruvchi ma’nosini ifodalaydi. Demak, *qurolbardor* so‘zining mohiyati qurolni ko‘tarib yuruvchi shaxs ma’nosida umumlashgan. Ushbu leksema tarixiy so‘z bo‘lib, bugungi kunda deyarli harbiy nutqda uchramaydi, ba’zan ko‘chma ma’noda qo‘llanishi mumkin *(Siz nima desangiz, shu-da, – dedi qurolbardor. – Bo‘pti, boramiz* (Shohnoma).

Quroldosh – bir jangovar qismda, bir safda xizmat qilgan yoki xizmat qiladigan kishilardan biri.[2] Xususiyatiga ko‘ra, bir guruhga mansub kishilarni ifodalash uchun ishlatiladigan bu leksemada shunchaki oddiy shaxs ma’nosi emas, balki qiyinchiliklarni birga boshidan kechirgan, azob-uqubatda bir-biriga kamarbasta bo‘lgan, birgalikda jon olib jon bergan, ona-Vatan uchun bir bo‘lib kurashgan yaqin do‘st ma’nosi ham ifodalanadi. *Orangizda mening eng yaqin quroldosh do‘stim Xolmatjop Matkarimov bor* (S.Ahmad. “Ufq”). *Safarali quroldosh do‘sti Rasuljon bilan jang maydonida jon ayamas do‘st tutingan* (N.Fozilov. „Diydor“).

Qurollanmoq (qurollantirmoq – ort. nis.) – jang, urush quroliga ega bo‘lmoq. Uni tutgan, undan foydalanadigan holatda bo‘lmoq.[3] Bizningcha, bu leksemada ham biroz ma’noda torayishi bordek. Qurollanmoq so‘zida, nafaqat qurolga ega bo‘lish ma’nosi, balki himoya uchun nima joiz bo‘lsa, barchasiga egalik qilish ma’nosi ifodalanadi. Bundan tashqari, harbiy nutqda bu leksema o‘ziga ishonch, g‘alabaga ishonch hamda jangovarlik nuqtayi nazaridan har doim tayyorlik mazmunini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, *O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, harakatchan va puxta* ***qurollangan*** *qudratli kuchga aylandi* (“O‘zbekiston armiyasi” jurnali. 2000-yil 6-son). *Islohotlarimiz natijasida mamlakatimiz xavfsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, har tomonlama* ***zamonaviy qurollangan****, qudratli armiyamiz shakllanmoqda* (Sh.Mirziyoyev). **Qurollantirmoq** so‘zi esa orttirma nisbatdagi harakat fe’lini hosil qilgan.

Qurolli – urush, janglarda qurol tutgan, taqqan, qurol ko‘targan, qurollangan kishi.[4] Bunda narsa predmetga egalikni bildiruvchi, nafaqat qurolga, balki texnik vositalarga, harbiy mashinalarga ega bo‘lmoqlik belgisi ham mavjud. *O‘zbekiston o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega* (O‘zbekiston Konstitutsiyasi. 153-modda). *Ko‘chasiga burilishi bilan ikkita qurolli yigit ro‘parasidan chiqib, uni to‘xtatdi* (T.Malik. “Shaytanat”, 2-kitob, 27-b.).

Qurolli Kuchlar –1. Harbiy harakatlar (hujum yoki mudofaa) olib borish hamda davlat xavfsizligini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan ta’minlanuvchi, qurollangan kishilarning uyushgan birlashmasi, harbiy qism armiyasi. 2. Qurol kuchi bilan amalga oshgan yoki oshiriladigan qurolli qo‘zg‘olon, qurolli to‘qnashuvlar.[5] Bunda tushuncha birikma tarzida ifodalanib, qurol va kuch leksemalarining semememalari o‘zaro birikishi natijasi ma’no kengaygan. Bugungi kun harbiy-vatanparvarlik nutqida bu birikmaning mazmuni umuman harbiy soha, mudofaa, u bilan bog‘liq tashkilotlar, jamoalar, oliy o‘quv yurtlari tushunchasini qamrab olgan. Lug‘atda keltirilgan izohlarni inkor etmagan holda, mazkur birikmaga Mustaqillikdan keyingi barcha harbiy va mudofaa tashkilotlar nomi sifatidagi izoh keltirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi, degan fikrimiz bor. *O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi* (O‘zbekiston Konstitutsiyasi. 152-modda). *(O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir* (Sh.Mirziyoyev. “Xalq so‘zi”, 2023-yil, 2-son).

Qurolsiz – qurollanmagan, quroli yo‘q.[6] Bu belgi bildiruvchi leksema, asosan, ma’lum bir vaziyatda qurolga ega emaslik mazmunida qo‘llanadi va shaxsga nisbatan ishlatiladi. *O‘ylama, Shermuhammad, jismda zaif edilar, qurolsiz zaif edilar, deb o‘ylama* (Akrom Malik. “Halqa”, 50-b.).

Qurolsizlanmoq – (fe’l s.t.). 1. Qurolni tashlamoq. 2. Qurolli kuchlarning qurol-yarog‘larini cheklamoq, urush olib borish vositalarini qisman yoki batamom yo‘qotmoq.[7] Qurolsizlanmoq leksemasi ma’lum

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати (А.Мадвалиев таҳрири остида). Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 382-бет.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[7] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.

bir vaziyatda quroldan ayrilmoq, qurolsiz qolmoq holatini ifodalaydi. *bir guruh asirlar soqchilarni qurolsizlantirib qochishadi* (Ch.Aytmatov. “Asrga tatigulik kun”, 96-b.).

Qurolsoz – qurol-yarog‘ yasovchi usta. *Temirchiyu qurolsozlarning o‘g‘ilu nabiralari ham shu kasbni davom ettirganlar* (M.Sattorov. “O‘zbek udumlari”).[1]

Qurolxona – harbiy qurol-aslaha va shunga aloqador narsalar saqlanadigan bino, harbiy ombor, qo‘rxona[2] *(. mamlakatni askarxona qildi, qurolxona qildi!* (Tog‘ay Murod. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”. 60-b.). Bugungi kunda qurolsoz va qurolxona so‘zlarining ishlatilish doirasi ancha toraygan. Bu leksemalar shu soha vakillari tilida ishlatilib, umumiste’molda deyarli foydalanilmaydi. Chunqi bu leksemalar bilan bog‘lik faoliyat jamiyatimizda uchramaydi.

Qurol-yarog‘ – qurol va yarog‘, qurol va aslahalar.[3] Bunda qurol va u bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalash uchun yarog‘ leksemasi bilan birgalikda qo‘llanilgan, asosan, harbiy sohada qo‘llaniladigan barcha vositalar nazarda tutiladi. *Shtabga borib, ahvol, vaziyat, qurol-yarog‘ haqida bilib kelaman* (Oybek. “Quyosh qoraymas”, 118-b.).

O‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan yuqoridagi qurol asosli so‘zlar qo‘llanilish darajasiga ko‘ra umumiste’moldagi so‘zlardir. Ammo harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida, soha nutqida qurol so‘zi bilan bog‘liq sohaga xoslangan so‘zlarni, birikmalarni, qoliplashgan variantdagi birliklarni kuzatish, mumkin. Z.Dolimovning “Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati”[4]da qurol leksemasi bilan bog‘liq quyidagi leksik birliklarning izohi keltirilgan.

1. Qurol.
2. Qurol-aslaha.
3. Qurol-aslaha tizimi.
4. Qurolli Kuchlar.
5. Qurolli Kuchlar birlashgan shtabi.
6. Qurolli Kuchlar zaxirasi.
7. Qurolli Kuchlar turi.
8. Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining axloqiy-ruhiy holati.
9. Qurolli Kuchlar harbiy sport majmuasi.
10. Qurolli Kuchlarning garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi.
11. Qurolli Kuchlarning intizom nizomi.
12. Qurolli Kuchlarning saf nizomi.
13. Qurolni qayta o‘qlash.
14. Qurolsizlanish.
15. Qurol siljishiga qarshi qurilma.
16. Qurol chaqmog‘i.
17. Qurol-yarog‘ni tozalash.

Mazkur lug‘atda keltirilgan leksik birliklar sodda va murakkab shakllarda ifodalangan bo‘lib, mazmun-mohiyat shu orqali ochib berilgan.

Tahlil va natijalar. “So‘z ma’nosi u orqali ifodalanayotgan predmetdan va atash vazifasining predmetga mutanosibligidan uzoqqa ketmaydi”, deb yozadi atoqli rus tilshunosi V.Vinogradov.[5] Tabiiyki, harbiy-vatanparvarlik nutqida *qurol* leksemasi bilan bog‘liq terminlar talaygina, ular harbiy sohada qo‘llanuvchi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *nayza, qilich, jangovar pichoq, to‘pponcha, miltiq,harbiy samolyot, harbiy vertolyot, tank* va boshqa harbiy texnika kabi tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Demak, qurol leksemasi sohada qo‘llanuvchi barcha yarog‘larning umumiy nomini ifodalaydi. Demak, biz qurol leksemasini termin deb olsak, xato bo‘lmaydi. Chunki harbiyda termin sifatida qo‘llana oladi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilida “qurol” leksemasi umumiste’molda ham keng qo‘llanilib, quyidagi tushunchalarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham bu ma’nolar alohida qayd etib o‘tilgan:[6]

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 383-бет.
[4] Dolimov Z. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. T., 2007, 294–302-бетлар.
[5] Виноградов В.В. Русский язык. М., “Просвещение”, 1972, с. 16.
[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.,” Ўзбекистон”, 2020, 5-жилд, 382–383-бетлар.

1. Harbiy termin sifatida: *miltiq, to‘p, qilich, xanjar, pichoq* va boshqa barcha harbiy texnikaviy vositalar: *Quroli yo‘q, jang qilmas* (Maqol).

2. Biror mehnat jarayonida foydalaniladigan har qanday asbob, moslama, qurilma, mexanizm ma’nosini ifodalash uchun dehqonchilik va duradgorlik leksikasi: *ketmon, arra, randa, bolg‘a, o‘roq;* ta’limga oid leksika*: kitob, daftar, ruchka, qalam, chizg‘ich;* tikuvchilik leksikasi: *qaychi, nina, angishvona, tikuv mashinasi kabi. Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar* (Maqol).

3. Ko‘chma ma’noda biror maqsadga erishish, uni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan har qanday vosita; dastak, omil. *Til – shuncha sharafi bilan* ***nutqning qurolidir*** (A.Navoiy). *Ayollarning* ***quroli*** *ularning* ***farzandlaridir*** (Gazetadan). *Qoshi kamon kipriklari o‘q, Baxtga moyil, ko‘ngilchasi to‘q* (Xurshid Karim) kabi.

Kuzatishlarimiz natijasidan ma’lum bo‘ldiki, *qurol* leksemasi barcha soha vakillari tomonidan qo‘llanishiga ko‘ra keng bo‘lib, umumiste’mol so‘z sifatida ishlatilib, narsa predmet ma’nosini ifodalasa, faqat harbiy soha leksikasida terminlik xususiyatini saqlab qoladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ijtimoiy-siyosiy nutq tarkibiga kiruvchi harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi o‘ziga xos bo‘lib, undagi leksik birliklarni tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganish, til va nutqdagi ma’no ottenkalari bo‘yicha ilmiy xulosalar berish, o‘zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzini yanada oshirishga, milliy tilimizning ravnaqiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi. Bugungi kunda harbiy leksika, harbiy terminologiya va uning nazariyasi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlarni rag‘batlantirish va shu sohada malakali kadrlar tayyorlash ham aynan harbiy-vatanparvarlik nutqini har tomonlama tadqiq qilishni, ushbu leksikani tashkil qiluvchi birliklarni ma’no guruhlarga ajratib o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, soha tilining tadqiqi shu soha vakillari bilan bir qatorda, jamiyat uchun ham dolzarb. Harbiy terminologiya bo‘yicha o‘zbek tilida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, leksik-semantik nuqtayi nazardan qaraganda hali tilshunoslar oldida bir qancha tadqiqtalab mavzular bisyor. Biz maqolamizda birgina so‘zning tahliliga tayandik, xolos. Harbiy leksika lug‘atidagi har bir so‘z ustida jiddiy izlanish olib borish soha tilining rivoji bilan bir qatorda, uni himoya qilish, semantik maydonini kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil, 2-son).

(2). Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. T., “Sahhof”, 2021.

(3). Dolimov Z. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. T., 2007.

(4). Nurmonov A. Tanlangan asarlar. II, III jildlar, T., “Akademnashr”, 2012.

(5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati (A.Madvaliyev tahriri ostida). T., “O‘zbekiston”, 2020, 1–5-jildlar.

(6). Sobirov A.Sh. O‘zbek tili leksikasining sitem-struktur tadqiqi. T., “Bookmany print”, 2022.

Sodiqova Shirin Baxtiyarovna
(O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,TDSHU)

O‘ZBEK TILIDA HURMAT KATEGORIYASI VA UNING O‘RGANILISH TARIXI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hurmat kategoriyasining lisoniy-nutqiy xususiyati, uni ifodalovchi vositalarning tuzilishi, mazmuni, vazifasi va qo’llanishi jihatlari bir tizimda birlashtirilib, uzvli (komponent), matniy (kontekstual) tahlil usullaridan foydalanilgan holda tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *an’anaviy tilshunoslik, hurmat kategoriyasi, egalik kategoriyasi, lisoniy va nolisoniy vositalar.*

КАТЕГОРИЯ УВАЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИСТОРИЯ ЕЕ ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье лингвистические и речевые особенности категории уважения, структура, содержание, функции и применение средств ее выражения объединены в одну систему и проанализированы с использованием методов компонентного, текстового (контекстного) анализа.*

Ключевые слова: *традиционная лингвистика, категория уважения, категория владения, лингвистические и неязыковые инструменты.*

THE CATEGORY OF RESPECT IN THE UZBEKI LANGUAGE AND THE HISTORY OF ITS STUDY

Annotation. *In this article, the linguistic and speech features of the respect category, the structure, content, function and application of the means of its expression are combined in one system and analyzed using component, textual (contextual) analysis methods.*

Key words: *traditional linguistics, category of respect, category of possession, linguistic and non-linguistic tools..*

Kirish. Ma'lumki, grammatikada so'z shakli va ularning birikish qonuniyat-lari o'rganiladi. Demak, grammatika o'zaro uzviy bog'langan morfologiya va sintaksisdan tashkil topadi va so'z uning tayanch unsuri sanaladi.

Shuningdek, an'anaviy tilshunoslikda grammatikaning tayanch unsuri sifatida kategoriya ham tushuniladi: egalik kategoriyasi, ko'plik katego-riyasi, shaxs-son kategoriyasi, kesimlilik kategoriyasi, modallik kategoriyasi kabi v.h.

Kategoriya muayyan ma'no va shakllar tizimidan iborat bo'lib, gram-matika tarkibiga kiradi va kengroq tushunchani bildiradi. Chunki, kate-goriya keng ma'noda fonetik, leksik yoki semantik hodisalar tizimidan ham tashkil topishi mumkin. Kategoriya tushunchasi (atamasi) murakkab bo'lib, boshqa fan sohalarida ham uchraydi. Shuningdek, kategoriyalar mohiyati jihatidan o'zaro farqlanadi, ifodalanish usuli, tasvir vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi. Masalan, kelishiklar tizimi sof grammatik kate-goriya sanaladi, unlilar tizimi – fonetik, so'z yasovchi affikslar tizimi – leksik-grammatik, hurmatlash, sizsirash hodisalari ijtimoiy-lisoniy kategoriya hisoblanadi.

Kishilik jamiyati mavjud ekan, insonlar o'rtasida turli xil ijtimoiy munosabatlar bo'ladi. Tabiiyki, bu munosabat, shubhasiz, ular tilida o'z ifodasini topadi. O'zbek tili ham bundan holi emas. Kishilar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar turli ko'rinishlarda tilning barcha sathlarida o'z ifoda shakllariga ega bo'ladi.

Tadqiqotimizda hurmat kategoriyasining lisoniy-nutqiy xususiyati ya'ni, uni ifodalovchi vositalarning tuzilishi, mazmuni, vazifasi va qo'l-lanishi jihatlari bir tizimda birlashtirilib, uzvli (komponent), matniy (kontekstual) tahlil usullaridan foydalanilgan holda tahlil etiladi.

Tahlil va natijalar.Hurmat ma'nosini ifodalovchi nolisoniy vositalar deb tabassum bilan qarshi olish, yugurib kelib, tikka turib egilib ta'zim qilish, qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish kabi hurmat xulqi (odobi) ko'rinishlari tushuniladi. Hurmat ma'nosini ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalar orqali hurmat ma'nosining ifodalanish darajasi qo'llanish doirasi bir xil bo'lmaydi . Vositalarning tuzilishi, vazifasi, ma'no xususiyatlariga qarab, ularning hurmat kategoriyasidagi mavqei, hurmatni ifodalash darajasi aniqlanadi.

O'zbek tilida hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarning tuzilishi, vazifasi, semantik xususiyatlari va qo'llanish jihatlarining tahlili hurmat ma'nosi lisoniy va nutqiy vositalarga ega bo'lgan ijtimoiy-ijobiy sub'ektiv ma'no ekanligini ko'rsatadi. Til hodisalarining ijtimoiy omil bilan bog'liqligi ayrim tilshunos olimlar tomonidan asoslangan. Keyinchalik bu hodisaga rus va o'zbek til-shunosligida ham e'tibor berilgan. Ijtimoiy omil deganda eng avvalo suhbatdoshlar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabat ko'zda tutiladi.

O'zbek tilida hurmat kategoriyasi ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida mavjud bo'lib, o'z leksik-grammatik vositalariga va ifodalanish usullariga egadir.

Shu o'rinda hurmat kategoriyasining o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, kategoriyani turlicha tushunish oqibatida bo'lsa kerak hurmat ma'nosi, sizsirash hodisasi ko'pchilik tillarda alohida kategoriya sifatida o'rganilmagan; hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalari esa boshqa unsur-lar (masalan: modallikni ifodalovchi unsurlar) qatoriga qo'shib yuborilgan.

Yapon tilida hurmat kategoriyasi ikki xil ifodalanishi ta'kidlangan. Bu haqda V.M.Alpatovning quyidagi fikrlari ahamiyatga molik: "Birinchisi "adressativ" kategoriya, bunda so'zlovchining suhbatdoshga, ikkinchisi "go-norativ" kategoriya so'zlovchining suhbatida so'z borayotgan o'zga shaxsga nis-batan ijobiy munosabatini ifodalaydi. Har qaysi kategoriya o'z ifoda-lanish shakli va tizimiga ega: adressativ kategoriya shakllari fe'l, pre-dikativ sifat va bog'lama ko'rinishida; gonorativ kategoriya shakllari esa barcha mustaqil so'z turkumlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Adressativ kategoriyada adressativ va noadressativ, gonorativ kategoriyada betaraflik va kamtarlik bildiruvchi shakllar o'zaro ziddiyat hosil qiladi. Betaraf shakllar ham hurmat, ham kamtarlik ifodalay oladi. Bu shakllarning maxsus qo'shimchasi yo'q".

Adabiyotlar metodologiyasi: 1944 yil A.G'ulomov o'zbek tilida hurmat ma'nosi ifodalanishi haqida birinchilardan bo'lib fikr yuritib, hurmat ma'nosi otning ko'plik qo'shimchasi bilan ifodalanishi haqida batafsil to'xtalib o'tgan. O'tgan asrning 50-60 yillarida hurmat ma'nosining ayrim morfologik vositalar, jumladan, egalik affikslari vositasida ifodalanishi mumkinligi haqida N.K.Dmitriev, E.V.Sevortyan, A.N.Kononov, Yo.G'.G'ulomov, F.Abdullaev, K.Nazarov kabi olimlar ham o'z asarlarida yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tganlar. S.Usmonov, A.Hojiev, R.Qo'ng'urov, Yo.Tojiev kabi olimlar esa hurmat ma'nosini ifodalovchi ayrim sintetik vositalarni modal ma'no ifodalovchi vositalar qatorida sanab, "modal forma", "sub'ektiv forma bahosi", "kichraytirish-erkalash vositalari" kabi atamalar bilan atashgan. To'g'rirog'i, hurmatni ifodalovchi morfologik vositalarni boshqa kategoriya vositalari bilan qorishiq holda o'rganishgan.

1973 yilda Sh.Rahmatullaev o‘zbek tilshunosligiga “hurmat formasi” tushunchasini kiritdi: hurmat ifodalovchi -lar affiksining ko‘plik bildi-ruvchi -lar affiksidan farqlanishini ta'kidlab ko‘rsatdi. Sh.Rahmatul-laev fikricha, -lar omonim qo‘shimcha sanaladi, lekin omonim qo‘shimcha-larning umumiyligi (modal ma'no ekanligi)ga emas, balki ular o‘rtasidagi grammatik farqqa asoslanadi. Buni quyidagicha oddiy tasvirlash mumkin:

-lar I. Kitoblarim - bunda aynan ko‘plik, hurmatga betaraflik mavjud.

-lar II. Otamlar - bunda III shaxs birlikka aynan hurmat, ko‘plikka betaraflik mavjud.

Hurmatning ma'no xususiyati esa boshqa kesimlilik ma'nolari - shaxs, son, zamon, mayllardan farq qilishi ko‘rsatiladi: hurmat II va III shaxs shakllari uchun mushtarak hisoblanadi. Otangiz (otanglar) – otaga hurmat, akangiz (akanglar) – akaga hurmat; onalari 90 bahorni ko‘ribdilar – onaga hurmat; buvimlar keldilar – buviga hurmat (III shaxs birlikka hurmat) buvilarim kelishdi - III shaxs ko‘plik – “2 ta buvi kelgan”. Hurmat kategoriyasi vositalarining qo‘llanishida ijtimoiy omil muhim rol' o‘ynaydi. Ijtimoiy omilning asosiy belgisi nutq jarayoni, imkoniyati, sharoiti, vaziyati va vaqti kabilardir.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida hurmat ma'nosi - kategoriya, ya'ni kategoriya hosil qiluvchi ma'no deb qaralmoqda. 1990 yilda G‘.Zikrillaev tomonidan hurmat dastlab fe'lga xos kategoriya sifatida o‘rganilib, uning semantik-funksional xususiyati, ya'ni mazmuni, qo‘lla-nishi va yasalishi tahlil qilinadi. G‘.Zikrillaev “II va III shaxsda sub'ekt-ning kommunikativ roli hamda miqdorini ko‘rsatuvchi qo‘shimcha ayni paytda hurmat ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shu paytgacha hurmat kategoriyasi ajratilmaganidan ular shaxs-son qo‘shimchasi deb kelinar edi” deb ta'kidlaydi . Ammo G‘.Zikrillaev hurmat ma'nosini faqatgina fe'llarga xos shaxs, son kategoriyalari doirasida o‘rganish bilan cheklangan.

1991 yilda hurmat ma'nosining olmoshlar doirasida ifodalanish xususiyatlari haqida B.Yusupov o‘zining “Mestoimeniya v starouzbekskom literaturnom yazike” (XV-XVI vv.) monografiyasida qimmatli fikrlarni bayon etadi. Bundan tashqari, hurmat semasining olmoshlar bilan bog‘liq jihatlari haqida 1969 yilda K.E.Maytinskaya turli tizimdagi tillarda olmoshning qo‘llanishi haqida fikr bildirgan. 1980 yilda M.S.Uzina esa fors tilida ayrim olmoshlarning hurmat ifodalashi haqida to‘xtalgan . 2003 yilda yozilgan D.Hakimovning “Siz va sen olmoshlarining leksik-semantik xususiyatlari” maqolasi o‘zbek tilida hurmat ma'nosining olmoshlar vositasida ifodalanishi haqidagi mavjud fikrlarni to‘ldiradi.

Shu o‘rinda, 2001 yilda Samarqandda yoqlangan H.Ya.Hojievaning “O‘zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati” nomli nomzodlik dissertasiyasi xususida to‘liqroq to‘xtalishni o‘rinli deb bildik. Bizning ilmiy tadqiqotimiz bilan ushbu dissertasiyaning farqlari haqida quyidagi fikrlarni bayon etamiz.

1. Har ikkala dissertasiya bir muammoga – O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi muammosiga bag‘ishlangan bo‘lishiga qaramay, avvalo o‘z mavzusi, tadqiqot usuli va maqsadi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

H.Hojievaning dissertasiyasi maydon nazariyasi asosida yozilgan bo‘lib, tadqiqot maqsadiga bog‘liq holda unda “Hurmat kategoriyasi” vositalari ikkiga bo‘lib o‘rganilgan: markaziy vositalar va chekka vositalar.

- Bizning tadqiqotimizda esa, hurmat kategoriyasi vositalari leksik-semantik, morfologik-sintetik, sintaktik-stilistik usullarda tasnif-langan; har bir hurmat ifodalovchi vosita atroflicha o‘rganilgan; hurmat ma'nosi o‘z mazmuniy-vazifaviy yo‘nalishiga qarab, genetik jihatdan asliy hurmat va nisbiy hurmat kabi turlarga ajratilgan.

2. H.Hojieva hurmat kategoriyasini otlardagi egalik, fe'llardagi shaxs-son kategoriyalari bilan bog‘liq holda o‘rgangan, shuningdek, ot, olmosh, mustaqil so‘z turkumlaridagi ko‘rinishlarini umumiy yo‘sinda izohlagan.

- Bizning tadqiqotimizda esa hurmat kategoriyasi vositalari – leksik birliklar, frazeologik birliklar, sintetik birliklar, sintaktik birlik-lar – so‘z, so‘z formasi, so‘z birikmasi va gap ko‘rinishlarida alohida musta-qil o‘rganildi. Har biriga xos jihatlarni aniqlashga harakat qilindi.

3. H.Hojieva semantik maydon nazariyasi talab va tamoyillariga ko‘ra hurmat kategoriyasiga xos lisoniy va nutqiy jihatlarni sharhlagan.

- Bizning maqolamizda esa, hurmat ma'nosi va uning ifodalanish vosita va usullarini atroflicha tahlil qilish bilan bir qatorda, tadqiqotimiz maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda hurmatning voqelanishi va ifodalanish omillari; hurmat va sizsirash kategoriyasi; hurmat va hurmatsizlik – hurmatda oppozisiya kabi hodisalarni o‘zbek tili materiallari yordamida yoritishga harakat qilindi.

Xulosa. Yuqoridagilarni xulosalab, shuni aytishimiz mumkinki, “Hurmat kategoriyasining lisoniy-nutqiy voqelanish omillari va ifodalanish usullari” masalasi shu kun o‘zbek tilshunosligidagi fundamental tarzda, yaxlit holda o‘z ilmiy tadqiqini kutayotgan muammo edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ҳожиева. Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти.: Филол. фанлари номзоди...дис. –Самарқанд, 2001. – Б. 39.
(2). Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. Теория, проблемы, методы. -М.: Наука, 1976.- 176 с.
(3). Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. -Бухоро, 1994. -Б.-23.; Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категорияси системаси. -Тошкент: Фан, 1990. -111б.;
(4). Зикриллаев. Г. Семантико-функциональное исследование системы предикативных категорий узбекского глагола.:Автореф.дис...д-ра. филол.наук. -Ташкент, 1990. - 54 с.
(5). Алпатов В.М. Категория вежливости в современном японском языке. М.: Наука, 1973. –Б. 13.
(6). Дмитриев К.Н. Категория принадлежности. ИСГТЯ, Ч.II. М., 1956. -С. 22.
(7). Севортян Э.В. К проблеме частей речи в тюркских языках // Вопросы грамматического строя.-М., 1960.-С.146-154.
(8). Shoabdurahmonov Sh. v.b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism, T., “O‘qituvchi”, 1980, 448-bet.

Siddiqova Shoxida Isoqovna (Jizzax davlat Pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); siddikovajizzac1975@gmail.com)

O‘ZINIKI BO‘LMAGAN KO‘CHIRMA GAPLARNING SO‘ROQ GAP SHAKLIDA BERILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlaridan biri hisoblangan so‘roq gap shaklida berilishiga doir ilmiy tahlillar xususida fikr yuritilgan. Xususan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap shaklida berilgan gaplarda so‘zlovchi o‘z faoliyatiga, voqelik faktlariga baho beradi, o‘z hayoti va faoliyati bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga harakat qiladi. Asar muallifi personajning kuchli his-hayajonni ifodalashda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni so‘roq gaplar tarzida shakllantirib, birdan ortiq so‘roq gaplarni qo‘llaydi. So‘roq gaplarning ketma-ket kelishi natijasida personaj ruhiyati, uning o‘zi yashab turgan davr voqealariga, kishilarga bo‘lgan munosabati oydinlasha boradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar, so‘roq gaplar, personaj ruhiyati, sintaktik birliklar, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi.*

ВЫРАЖЕНИЕ НЕСОБСТВЕННО-ПРЯМОЙ РЕЧИ В ФОРМЕ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается научный анализ несобственно-прямой речи в форме вопросительного предложения, которое считается одним из типов предложения по цели высказывания. В частности, в предложениях, данных в виде несобственно-прямой речи, говорящий оценивает свою деятельность, факты действительности, пытается найти решение проблем, связанных с его жизнью и деятельностью. Автор произведения использует более одного вопросительного предложения для выражения сильных эмоций персонажа, формируя несобственно-прямую речь в виде вопросительных предложений.*

Ключевые слова: *несобственно-прямая речь, вопросительные предложения, мышление персонажа, синтаксические единицы, типы предложений по цели высказывания, коммуникативная цель говорящего.*

EXPRESSION OF NON-OWN QUOTATION SENTENCES IN THE FORM OF INTERROGATIVE SENTENCES

Annotation. *This article discusses the scientific analysis of non-own quotation sentences in the form of an interrogative sentence, which is considered one of the types according to the purpose of expression of the sentence. In particular, in sentences given in the form of quotations that are not his own, the speaker evaluates his activity, the facts of reality, and tries to find a solution to problems related to his life and activity. The author of the work uses more than one interrogative sentence to express the character's strong emotions by forming the quotations that are not his own in the form of interrogative sentences. As a result of a series of interrogative sentences, the psyche of the character, his attitude to the events and people of the time in which he lives becomes clearer.*

Key words: *quotation sentences that are not one’s own, interrogative sentences, character mentality, syntactic units, types of sentences according to the purpose of expression, communicative purpose of the speaker.*

Kirish. Nutq jarayonida turli sintaktik birliklarning tanlanishi so‘zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadiga, nutqning qanday vaziyatda amalga oshayotganligi, kimga qaratilganligi kabilarga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra, murakkab sintaktik butunlik hisoblangan gaplarning ifoda maqsadi, emotsionallikka, voqelikka munosabatiga ko‘ra turlari farqlanadi. Gaplar tuzilish tomondan esa tuzilish asosi miqdori, tarkibi, ikkinchi darajali bo‘laklar ishtiroki, zarur bo‘laklarning ifodalanishi, gaplarning bo‘laklarga ajralish, ajralmasligiga ko‘ra tasniflanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Gaplarni tasniflashda ularning tuzilishi, ya’ni tashqi tomoni va mazmun (ichki tomon)i e’tiborga olinadi. Shunisi xarakterliki, gaplarning qay tartibda shakllanishi bevosita ularning nutq jarayonida bajaradigan vazifasiga bog‘liq bo‘ladi. So‘zlovchining kommunikativ maqsadi nutq qaratilgan shaxsga ma’lum bir ma’lumotlarni yetkazish, so‘rash yoki uni ma’lum bir harakatga yo‘naltirishdan iborat bo‘lsa, gapning darak, so‘roq, buyruq gap kabi turlari shakllanadi. Agar so‘zlovchi nutqi his-tuyg‘ular asosiga qurilgan bo‘lsa, gaplar emotsionallik kasb etadi. Gaplarning semantik-struktur xususiyatlari ularning ifoda maqsadi yoki undagi tugallangan fikrlar miqdoriga bog‘liq. Adresatga ta’sir qilishning eng qulay vositalaridan biri o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap hisoblanadi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tilshunoslikda ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘lgan lisoniy hodisa hisoblanadi. Uni o‘rganish sintaksis, funksional stilistika va poetikaning an’anaviy vazifalari jumlasiga kiradi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni turli nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi [1]. Ammo shunday bo‘lsa-da, ko‘plab nazariy masalalar, xususan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tushunchasi, uning tipologiyasi, uning nimaga taalluqli ekanligi, uning sintaktik qurilma yoki stilistik usul ekanligini aniqlash haligacha o‘z yechimini topgan emas. Odatda, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq birikmasida “ko‘chirma” so‘zi “ko‘chirma”, “bevosita” nutq o‘zga ifodaga ekspressiya bag‘ishlaydi, “o‘ziniki bo‘lmagan” deyilishiga sabab esa uning muallif nutqiga kiritilishidir. Ammo bu atamani harfma-harf tushunish yaramaydi, uni keng tushunish lozim. Ko‘pchilik hollarda badiiy adabiyotda asar muallifi o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap yordamida fikrlarni, kayfiyatni, ba’zan esa personajlarning iztirob chekishini ifodalaydi. Shunday qilib, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar “faqatgina personajlarning o‘ziniki bo‘lmagan nutqini emas, balki ularning fikrlarini ham qamrab oladi” [2;7-b.]. O‘ziniki bo‘lmagan nutq tashqi nutq, ichki nutq va qahramonning nuqtayi nazari bo‘lishi mumkin. Manbalardan ma’lumki, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap badiiy adabiyot doirasida paydo bo‘ldi va taraqqiy qildi va uning o‘ziga xos vositalaridan biri hisoblanadi. O‘zga nutqini yetkazishning mazkur usuli muallifga o‘z hikoyachiligida o‘zga nutqini emin-erkin kiritish imkoninigina emas, balki “ikir-chikirigacha, xuddi qahramonni ichdan tavsiflash, uning ichki olamiga kirishga, uning ruhiy holatini chuqurroq ochishga” imkon beradi [3;9-b.].

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap shaklida berilgan gaplarda so‘zlovchi o‘z faoliyatiga, voqelik faktlariga baho beradi, o‘z hayoti va faoliyati bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga harakat qiladi. Asar muallifi personajning kuchli his-hayajonni ifodalashda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni so‘roq gaplar tarzida shakllantirib, birdan ortiq so‘roq gaplarni qo‘llaydi. So‘roq gaplarning ketma-ket kelishi natijasida personaj ruhiyati, uning o‘zi yashab turgan davr voqealariga, kishilarga bo‘lgan munosabati oydinlasha boradi.

Natijalar va muhokama. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapda ko‘chirma va o‘zlashtirma gapga xos belgilarni aniqlaymiz. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap quyidagi matnda Mirzo Ulug‘bekning ichki monologi tarzida berilgan. Agar foniy olam yumushlari Ali Qushchi o‘ylaganday oson bo‘lganida Mirzo Ulug‘bek bu bevafo hokimiyatni allaqachonlar tark etib, o‘zini suyukli ishiga bag‘ishlamas erdimi? Boshidagi toj, tagidagi taxt ilmi funun uchun darkor ekanini tushunmaganida, bu sovuq koshonani, gunohi azimga botib qolgan bu haram, shon-shuhrat va mansab ishqida hech bir razolatdan toymagan bu amirlar, sarkoru saroybonlar, xurofot va taassub botqog‘iga botgan din peshvolaridan yuz o‘girib, suyukli talabalari orasiga, ma’rifat dargohiga ketmas erdimi? Lekin ne chora? Bu manhus toj-u taxt, bu saltanat, insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim inonadi? Kim uning samimiyligiga, o‘z ixtiyori bilan saltanatdan qo‘l yuvganiga inonib, tinch qo‘yadi? Agar unga inonsalar, inonib, ilm-u idrok bilan bamaylixotir shug‘ullanishga qo‘yib bersalar, u hozir ham vafosiz hokimiyat, bu toj-taxtdan bajonudil voz kechar erdi...

Toj-taxtdan voz kechar-ku, ammo shu damlarda qo‘shni go‘shada ko‘zi to‘rt bo‘lib uni kutayotgan yulduzi, qariganda topgan bebaho gavhari – Bibi Yulduzning qismati ne bo‘ladi? (O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi).

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning so‘roq gap shaklida berilishi asarning boshqa o‘rinlarida ham kuzatiladi: Bu oqpadar o‘g‘ilning muddaosi ne? Yana qanday shumlikni boshlamoqchi? Taxt azmida hech narsadan tap tortmagan bu ko‘rnamak o‘z padarining joniga qasd qilmoq niyatida emasmu? Yo‘q,

Mirzo Ulug‘bek o‘limdan qo‘rqmaydi! O‘lim haq, parvardigori olam! Va lekin yomon bo‘lsa-da, o‘z pushtikamaridan yaralgan bu johil farzandining taqdiri ne bo‘ladi? O‘z qiblagohining joniga qasd qilib, padarkush degan mash’um nom olib, abadulabad badnom bo‘lmasmu? (O.Yoqubov Ulug‘bek xazinasi).

Keltirilgan parchada Mirzo Ulug‘bekning ichki dunyosi, ruhiy holati o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida ochib berilganligini ko‘rish mumkin. Parchada har bir til birligi ma’lum bir vazifa bajarganligi seziladi. Personaj ruhiy holati so‘roq gap ko‘rinishida yaqqol ifodalangan. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap shaklida berilgan gaplarda so‘zlovchi o‘z faoliyatiga, voqelik faktlariga baho beradi, o‘z hayoti va faoliyati bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga harakat qiladi. Asar muallifi personajning kuchli his-hayajonni ifodalashda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni so‘roq gaplar tarzida shakllantirib, birdan ortiq so‘roq gaplarni qo‘llaydi. Bunday hollarda matn tarkibida qator kelgan ritorik so‘roq gaplar alohida olinganda oddiy so‘roq gaplardan tuzilishi va talaffuziga ko‘ra deyarli farq qilmaydi. Ammo ular badiiy matnda bajaradigan vazifasi, ma’lum bir kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganligiga ko‘ra badiiy-estetik usul sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘rinadiki, badiiy asar muallifi personajning ma’lum bir harakatni bajaruvchi shaxsni, ma’lum bir narsa-predmet belgisi, ish-harakatning bajarilish o‘rni, payti, yuzaga kelish sababi, maqsadi kabilarni bilish istagida ekanligini ko‘rsatish uchun o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tarzida o‘rni bilan so‘roq gaplardan foydalanadi. Bu vaqtda asar qahramoni uchun noma’lum bo‘lgan narsaning nomi matnda aniq atalmasdan, balki unga ishora qilinadi, gap tarkibiga so‘roq olmoshlarini kiritish bilan kitobxon e’tiborini shunga jalb qilinadi. “Badiiy nutq stilida keng qo‘llaniladigan o‘zga gap formalari, jumladan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ham ana shunday obrazlilik uchun, xarakter va manzaralar yaratish uchun bevosita bo‘ysundirilgan bo‘ladi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar badiiy nutq stilida qahramonlarning o‘y-xayoli sezgisi, umidi, hadiksirashi va ko‘rgan tushlarini eslashi kabilarni jonli tarzda, tabiiy, o‘z holicha tasvirlash imkonini beradi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar orqali asar qahramonlarining “ichki” nutqi ham, “tashqi” nutqi ham bayon strukturasiga mos holda o‘z ifodasini topmoqda” [4;63, 27-b.].

Ma’lumki, nutqiy harakat, nutqiy aytish va qabul qilishni o‘z ichiga oluvchi, adresat hamda ma’lum nutqiy vaziyat mavjudligini taqozo etuvchi alohida maqsadli harakatdir. Nutqiy harakat ma’lum jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy-nutqiy axloq qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Har qanday nutqiy harakatda ma’lum maqsadlar, so‘zlovchining ma’lum niyatlari mavjud bo‘lib, unga bog‘liq holda taqdimiy, ma’lumotiy, undovchi, so‘roq, tasdiq, inkor, hukmli va boshqa nutqiy harakatlar alohida ajratiladi.

Asar qahramonlarining “ichki” nutqida ham ma’lum maqsadi, niyati, his-tuyg‘ularini o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar orqali o‘z ifodasini topadi. Ko‘chirma gapning bu turidan zamonaviy o‘zbek adabiyotining eng sara asarlarida qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda keng foydalanilib kelinmoqda.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar va ularning badiiy matnda tutgan o‘rni, lingvopoetik vazifalari, uslubiy xususiyatlari to‘g‘risida nafaqat tilshunoslikka oid manbalarda, balki adabiyotshunoslikka oid izlanishlarda ham fikr yuritiladi. Jumladan, 1978-yilda nashr etilgan “Adabiyot nazariyasi”ning II tomida: “Badiiy nutqda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning shakllaridan foydalanish “qisman” o‘zlashtirilgan ko‘chirma gap orqali tafakkur yuritish san’ati” deb ta’rif beriladi. Shunday ekan, adiblar o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplardan ham boshqa badiiy san’at turlari, badiiy tasvir vositalari singari faol foydalansalar, qahramonlarning ichki his-tuyg‘ularini ana shu vosita orqali o‘quvchiga yetkazib berishga harakat qilsalar, badiiy nutqning estetik ta’sir kuchini yanada oshirgan bo‘ladilar. Zero, badiiy so‘z san’atining asosiy mohiyati san’atkor his qilgan biror tuyg‘u kayfiyatini o‘quvchiga yetkazishdan iborat. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning badiiy matnning estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan, uning ta’sirchanligini ta’minlaydigan badiiy tasvir vositalaridan biri ekanligi filologiya ilmida e’tirof etilgan haqiqatlardan biridir [5;97-b.]. Mana shu estetik vazifani o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ifodalaydi.

Yozuvchi O.Yoqubovning yuqorida ta’kidlangan romanidan olingan ushbu parchada Mirzo Ulug‘bekning yuragidagi notinchlik va o‘g‘li Abdulatifga qarshi isyonkor o‘y-fikrlari, “ichki” nutqi o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap shaklida berilgan: “Vodarig‘! Movarounnahr taxtida bu mutaassib o‘ltirsa, saltanatning holi ne kechadi? Ilm ahlining boshiga ne anduh, ne kulfatlar tushadi? Ulardan burun ko‘zi qonga to‘lgan bu nobakorning o‘z taqdiri ne bo‘ladi? Aql-idrok o‘rniga qilich birla ish tutgan qaysi mustabid hokimning taqdiri yaxshi bo‘lubdurki, bul nodonning taqdiri yaxshi bo‘lsin? Bu kun ilm ahliga qayrab solgan mutaassib johillar erta bir kun uning o‘zini chohga itarmasmu?” (O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi).

Yuqoridagi parchada o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar orqali badiiy asar qahramonining o‘y-fikrlari, g‘am-tashvishlari, mulohazalari, ichki nutqi muallif nigohidan o‘tkazilgan va muallif nutqi bilan qahramon o‘y-fikrlari aralash holda namoyon bo‘lgan.

Badiiy matnlarda ko‘p kuzatiladigan holatlardan yana biri shuki, ularda aksariyat hollarda nutq ta’-sirchanligini oshirish uchun personajning o‘ziga-o‘zi savol berishi usulidan keng foydalaniladi. So‘roq gaplarning bu xil ko‘rinishida, ko‘pincha, javob so‘zlovchining o‘zi tomonidan beriladi. Bu bilan ifodalanayotgan fikrlarning emotsional-ekspressivligi ta’minlanadi, matn mazmunining kitobxon tomonidan anglashilishi oson kechadi. Quyidagi matnda shu holat kuzatiladi:

Do‘xtirlar nima uchun qon olganda to‘rtinchi barmoqni teshadi? *Bilasanmi shuni? Bilmaysan!* Nega deganda to‘rtinchi barmoqning nerv tolalari nozik bo‘lmaydi. Eng yomon og‘riydigani qaysi barmoq? *Bilasanmi? Bilmaysan.* Bosh barmoq, nodon. Bosh barmoq! Mahbusning bosh barmog‘ini eshik tirqishiga tiqasan-da, sekiin, hafsala bilan qisaverasan. Dod demaguncha! Keyin qo‘yib yuborasan. Undan keyin qaytadan boshlaysan. Mayli, tirnog‘i ko‘chib, maydalanib ketsin! Suyagi qisirlab sinayotganini o‘zi eshitsin! Shikoyat qiladimi? Kimga? O‘ziga-o‘zi tan jarohati yetkazgan, deb protokol tuzib qo‘yasan. Gunohi yanayam og‘irlashadi. Tamom! (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar).

Ba’zan so‘roq gaplar tarkibida *-mi* yuklamasining qo‘llanishi gapdan anglashilgan so‘roq ma’nosini kuchaytiradi.

Bu matn, o‘z tabiatiga, ko‘ra murakkab sintaktik qurilma hisoblanadi. Bu birliklarning alohida ajralib turuvchi jihati ularning yarimkommunikativlik va monotematiklikdan tashqari, mazmunning bir tekisda tashkil topmaganligidir. Haqiqatan ham, murakkab sintaktik qurilma muallif gapini ham o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapni ham qamrab olgan, bu ifodalardagi tema-rema munosabati murakkab sintaktik qurilmani shakllantirgan.

Fikrlarimizni quyidagi parchani keltirish va tahlil qilish bilan davom ettiramiz: Mirzo Ulug‘bek bu o‘ylardan boshi g‘ovlab, peshanasini ishqaladi, yana bir piyola sharob ichdi, lekin uni o‘z qa’riga tortgan tug‘yonli o‘ylar girdobidan chiqolmadi.

U shogirdi Ali Qushchining ming chandon haq ekanini dil-dilidan his etar, ayni zamonda uning boyagi gaplari qayta-qayta esiga tushib, yuragini o‘rtar edi. Axir nahot uning shuncha xizmatlari, ilmi ma’rifat yo‘lida chekkan zahmatlari, sarf etgan boyliklari, fuqaro uchun qurdirgan hammomu qazdirgan ariqlari, nahot buning hammasi inobatga o‘tmasa? Nahot bo‘lg‘usi nasllar uni boshqa shoh va boshqa fotihlardan farq etmasa? Ali Qushchi o‘ylaydiki, Mirzo Ulug‘bek saltanat talashmasdan toj-u taxtni shahzodalarga berib, ilm-u idrok yo‘liga o‘tsa bas, shahzodalar uni o‘z holiga qo‘yadilar, suyukli ishing bilan shug‘ullan deb, rasadxona va madrasalarning darvozalarini ochib beradilar. Hayhot!

Yuqoridagi birinchi misolda birinchi abzasda muallif kitobxonni matn mazmuni bilan tanishishga ruhan hozirlaydi. Buning uchun personaj –Ulug‘bekning ruhiy holatini ifodalovchi “boshi g‘ovlab ketmoq”, “tug‘yonli o‘ylar girdobidan chiqolmaslik” kabi tasvirlarni beradi. Keyingi abzas boshidagi gap to‘g‘ridan to‘g‘ri Ulug‘bek ichki kechinmalarini ochishga xizmat qiladi. Bu holat *dil-dilidan his etmoq, yuragini o‘rtamoq* fe’llari yordamida oydinlashadi. Keyingi gaplar personaj fikrlaridagi rivojlanish, his-tuyg‘ular g‘alayoni bilan bog‘liq holatlar o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida davom ettiriladi. Fikrlar rivojiga afsus, norozilik semalari yetakchilik qiladi: *Nahot* bo‘lg‘usi nasllar uni boshqa shoh va boshqa fotihlardan farq etmasa? Personaj fikrlari o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida davom ettirilar ekan, unda ifodalangan ma’nolar undov so‘zlar (Hayhot!), ilojsizlik, chorasizlik semasini ifodalovchi gaplar (Lekin ne chora?) vositasida yanada kuchaytiriladi. Keltirilgan matnda ifodalanayotgan ma’lumotlar o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida yanada aniqlashtiriladi, shu tariqa, kitobxon e’tibori ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi seziladi.

Xulosa. Umuman olganda, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar badiiy matnda asar mazmunini ochishga, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplardan o‘rinli foydalana olishi bilan o‘z ijodi mahsuli bo‘lgan asar tilining aniq va tushunarli, ifodali va ta’sirchanligini hamda estetik imkoniyatlarini ta’minlashga erishadi.

Zero, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda lisoniy birliklarning turli ma’no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilishi, o‘ziga xos usulda namoyon bo‘lishi tadqiq jarayonida ma’lum bir talab va mezonlarga amal qilishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Балли Ш. Французская стилистика. М., 2001, 2-изд.; Бахтин М.М. Фрейдизм. Формальный метод в литературоведении. М., 2000; Инфантова Г.Г. Грамматические признаки несобственно-прямой речи в современном русском языке. Диссертация канд. филолог, наук, Л., 1962; Ковтунова И.И. Несобственно-прямая речь в языке русской литературы конца 18–первой половины 19 в. Диссертация канд. филолог, наук. М., 1956;

Козловский П.П. О сочетании предложений прямой и косвенной речи в русском языке. Философские записки. Воронеж, 1890. Вып. 4–5; Соколова Л.А. Несобственно-авторская (несобственно-прямая) речь как стилистическая категория. Томск, 1968; Труфанова И.В. Прагматика несобственно-прямой речи. М., 2000; Чумаков Г. М. Синтаксис конструкций с чужой речью. Киев, 1975.

(2). Мартынюк А.В. Несобственно-прямая речь в современном немецком языке. Автореф. дис канд. филолог, наук. Киев.1954, с. 7.

(3). Солгалик Г.Я. Стилистика текста, М., 2001, с. 9.

(4). Йўлдошев Б., Исроилов С. Ўзиники бўлмаган кўчирма гапнинг грамматик-стилистик хусусиятлари ва бадиий текстдаги ўрни. Ўқув қўлланма, Самарқанд, СамДУ нашри, 1991, 27-бет; 63-бет.

(5). Сиддиқова Ш.И. Ўзга гаплар тадқиқи. Монография, Тошкент, “Innovatsion-Ziyo”, 2021, 93-бет.

Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li (SamDCHTI doktoranti; abubakiziyo95@gmail.com)

ALFRED DE MYUSSE POETIKASIDA BADIIY ZAMON TALQINI

Annotatsiya. *Badiiy asarni tushinish va uning g‘oyasini anglash u asarni yozishdan qilingan maqsadning amalga oshishi bilan xarakterli. Alfred de Myussening asarlarida ifodalangan poetik manzara asarning birlamchi mazmunida emas, uning germenevtik yolqinida namoyon bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan asarning asl mohiyatini anglash uchun quyidagi maqolada ayrim lingvopoetik tahlil holatlari ko‘rib chiqildi. Bunda, asosan, asarda ilgari surilgan mazmun qanday lingvistik vositalar yordamida ko‘rsatilganligi va ularning badiiy mahsuldorligi o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *pessimistik ruh, ma’naviy qashshoqlik, badiiy zamon, xronotop, inson xayoloti, badiiy ruhiyat, badiiy makon, temporal leksema, astronomik vaqt, subyektiv zamon, temporllik, retardatsiya, grammatik zamon.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВРЕМЕНИ В ПОЭТИКЕ АЛЬФРЕДА ДЕ МЮССА

Аннотация. *Понимание художественного произведения и реализация его идеи характеризуются достижением цели написания этого произведения. Поэтический пейзаж, выраженный в творчестве Альфреда де Мюссе, проявился не в первичном содержании произведения, а в его герменевтическом пламени. С этой точки зрения, чтобы понять истинную суть работы, в данной статье были рассмотрены некоторые случаи лингвопоэтического анализа. В основном содержание, представленное в произведении, было показано с помощью языковых средств и изучена их художественная продуктивность.*

Ключевые слова: *пессимистический дух, духовная нищета, художественное время, хронотоп, человеческое воображение, художественная психика, художественное пространство, темпоральная лексема, астрономическое время, субъективное время, темпоральность, замедление, грамматическое время.*

INTERPRETATION OF ARTISTIC TIME IN THE POETICS OF ALFRED DE MUSSE

Annotation. *Understanding a work of art and realizing its idea is characterized by the fulfillment of the purpose of writing that work. The poetic landscape expressed in the works of Alfred de Myusse was manifested not in the primary content of the work, but in its hermeneutic flame. From this point of view, in order to understand the true essence of the work, some cases of linguopoetic analysis were considered in the following article. Mainly, the content presented in the work was shown with the help of linguistic means and their artistic productivity was studied.*

Key words: *pessimistic spirit, spiritual poverty, artistic time, chronotope, human imagination, artistic psyche, artistic space, temporal lexeme, astronomical time, subjective time, temporality, retardation, grammatical time.*

Taqrizchi: PhD O. Qalandarov

Kirish. Yevropa adabiyotshunosligida eng asosiy tub burilishlar yasagan davr sifatida XIX asr badiiyati eslanadi. Bu davrda romantizm va realizm o‘zaro tutashgan va ayrim ziddiyatlarga duch kelgan holatlarni ham kuzatish mumkin. Bu davr fransuz adabiyoti gullab-yashnagan va millat va joy tanlamas asarlar yaratilgan davr hisoblanadi. Myusse, Hugo, Baudelaire, Rimbaud, Verlaine, Mallarmé, Stendhal, Balzak, Dumas, Flaubert, Zola, Maupassant, Verne kabi yozuvchilar aynan shu davrda yashab ijod qilishgan. Bu yozuvchilar orasida muhabbat kuychisi, erkatoy yozuvchi sifatida tanilgan A.Myusse o‘zining jo‘shqin asarlari bilan o‘quvchilarning qalbidan yetarlicha joy olgan va olmoqda. U yaratgan hikoya, drama va romanlar o‘zining yashirin ma’nolarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Alfred de Myussening “Asr farzandining dil izhori” asarini avtobiografik asar sifatida qaralganda, quyidagi parcha sodir bo‘layotgan zamon haqida, undagi ifodalangan vaziyat orqali anglash mumkin. “Les antagonistes du Christ ont donc dit au pauvre: Tu prends patience jusqu’au jour de justice, il n’y a point de justice; tu attends la vie éternelle pour y réclamer ta vengeance, il n’y a point de vie éternelle; tu amasses dans un flacon tes larmes et celles de ta famille, les cris de tes enfants et les sanglots de ta femme, pour les porter au pied de Dieu à l’heure de ta mort ; il n’y a point de Dieu” [1;41-b.].

Ma’nosi: Iso Masihning dushmanlari kambag‘allarga dedilar: Adolat kunigacha sabr qilinglar, adolat yo‘q, u yerda qasos olish uchun abadiy hayotni kutasan, abadiy hayot esa mavjud emas. O‘lim soatingda Xudoning poyiga olib borish uchun ko‘z yoshlaringni, oilangning ko‘z yoshlarini, bolalaringning qichqirig‘ini va xotiningning yig‘lashini yuraging tubiga yig‘asan, Xudo yo‘q. XIX asr boshlarida insonlar orasida o‘zaro tabaqalanish va urug‘chilik avj olganligi va cherkovning jamiyatdagi ta’siri yuzakiligini anglagan xalq orasida ollohga bo‘lgan ishonch, adolatning qaror topishiga bo‘lgan umid asta-sekin yo‘qolib borgan. Adolat kunigacha sabr qilinglar va bu jamiyatda hech qanday adolat mavjud emas.

”Ou je me trompe étrangement, ou nous ressemblons à cet homme. Ô peuples des siècles futurs ! lorsque, par une chaude journée d’été, vous serez courbés sur vos charrues dans les vertes campagnes de la patrie; lorsque vous verrez, sous un soleil pur et sans tache, la terre, votre mère féconde, sourire dans sa robe matinale au travailleur, son enfant bien-aimé; lorsque, essuyant sur vos fronts tranquilles le saint baptême de la sueur, vous promènerez vos regards sur votre horizon immense, où il n’y aura pas un épi plus haut que l’autre dans la moisson humaine, mais seulement des bleuets et des marguerites au milieu des blés jaunissants; ô hommes libres! quand alors vous remercierez Dieu d’être nés pour cette récolte, pensez à nous qui n’y serons plus; dites-vous que nous avons acheté bien cher le repos dont vous jouirez; plaignez-nous plus que tous vos pères; car nous avons beaucoup des maux qui les rendaient dignes de plainte, et nous avons perdu ce qui les consolait” [1;44-b.].

Ma’nosi: *Yo men g‘alati xato qildim, yoki biz bu odamga o‘xshaymiz. Ey kelajak asrning odamlari! yozning jazirama kunida vatanning yam-yashil dalalarida ter to‘kasizlar; musaffo quyosh va beg‘ubor osmon ostida unumdor yerga ishlov berasizlar; subhidam farzandi va jufti haloliga jilmaygan holda gullarni changlatayotgan onangizni ko‘rasiz; osoyishta qoshlaringizni terga cho‘mdirib, ko‘zingizni cheksiz ufqqa qaratasiz, u yerda inson yetishtirgan bir boshoq ikkinchisidan baland bo‘lmaydi, balki sarg‘aygan bug‘doy dalalari o‘rtasida faqat makkajo‘xori va romashka gullari bo‘ladi; Ey ozod odamlar! Agar siz bu tuhfalar uchun, dunyoda mavjudligingiz uchun Xudoga shukur qilsangiz, biz haqqimizda ham o‘ylab ko‘ring; biz siz yashayotgan ozodlikni juda qimmatga sotib oldik, ammo, biz qilgan yomonliklar butun bobokalonlarimiz qilganlaridan ko‘proq, chunki biz ular o‘zlariga tasalli berish uchun topgan haqiqatini yo‘qotdik.*

Yuqoridagi parcha yozuvchining kelajak avlodga bo‘lgan kichik murojaatlaridan biri. Unda insonlar hayotining asar yaratilgandagi holatiga nisbatan kelajakda bunyod bo‘ladigan, yozuvchi xayolotidagi jamiyat taqqoslangan va keyingi avlodga o‘zining dilidagi gaplarini yetkazishga uringan. Bu parchaning xronotopi sifatida makon o‘rnida inson xayoloti, uning ichki olami va badiiy ruhiyati va ularning insonlarga bo‘lgan ta’siri deb qaraladi va xayolotda tasvirlangan badiiy makon esa ozod xalqning yozuvchi tomonidan qanday tasavvur qilinishi orqali belgilanadi.

Masalan: *dans les vertes campagnes de la patrie (vatanning yam-yashil dalalarida), sous un soleil pur et sans tache (g‘uborsiz va yorqin quyosh ostida), sur votre horizon immense (sizning ulkan aurangizda), au milieu des blés jaunissants (sarg‘aygan bug‘doy dalalarida).* Bunday badiiy makonning yozuvchi xayolidagi tasvirlari, badiiy zamonning ham xuddi shunday xayoliy bo‘yoqdorlikdagi ifodalanishlarni taqozo etadi. Masalan: *des siècles futurs (kelgusi asrlar), par une chaude journée d’été (yozning issiq kunlarida), sourire dans sa robe matinale (tongi ko‘ylagida jilmayib), des blés jaunissants (sarg‘aygan bug‘doylar), vous remercierez Dieu d’être nés pour cette récolte (bunday to‘kinlik paytida tug‘ilganingiz uchun xudoga shukr qiling).* Badiiy zamonni ifodalovchi so‘zlarning ma’no ko‘lami kengligini unda ishlatilgan so‘zlarning hech biri temporal leksemalar qatorida emasligi ko‘rsatadi. *Cette récolte* ya’ni aynan yig‘im-terim emas balki to‘kinlik ma’nosida qo‘llanilmoqda. Bundan tashqari, bu xayoliy tasvir yoz oylariga mos kelishi uning charaqlagan quyosh (*un soleil pur*) yoki jazirama kunlar *(une chaude journée)* yoki sarg‘aygan bug‘doylar (*blés jaunissants*) birikmalari orqali anglashiladi. Parchada ifodalanayotgan badiiy vaqt hayotda insonlar foydalanadigan astronomik vaqtdan tubdan farq qilishini ko‘rish mumkin.

Rus tilshunosi E.I Shendels badiiy zamon kategoriyasining konteksda qo‘llanilishiga nisbatan quyidagicha fikr bildiradi: “Badiiy zamon subyektiv zamonning barcha xususiyatlarini til vositasida ifodalashi, o‘z qahramonining subyektiv tomonlarini kontekst doirasida obrazli ifodalashi uchun yozuvchilar tem-

porallikning butun sistemasidan foydalanadilar. Bu – retardatsiya (kartinani, voqeani sekinlashtirish, kechiktirish) ish harakatni to‘satdan to‘xtatib qo‘yish yoki aksincha, zamon suratini, o‘tishini tezlashtirishi mumkin” [2;16–21-b.].

Yuqorida ko‘rib o‘tgan parchada ham vaqtning ma’lum darajada qisqarganligini yozuvchining tarixdan misollar olib kelajakka yuzlangan holatida ko‘rinadi: “*Dites-vous que nous avons acheté bien cher le repos dont vous jouirez; plaignez-nous plus que tous vos pères; car nous avons beaucoup des maux qui les rendaient dignes de plainte, et nous avons perdu ce qui les consolait”.* Bu o‘rinda gapda qo‘llanilgan grammatik zamonlar ham o‘tmish, hozir va kelajak bir jumlada namoyon bo‘lishi, ya’ni, gap boshida o‘tgan zamon (passe compose), o‘rtasida kelasi va hozirgi zamonlarni (future simple, present) ifodalanishi E.I. Shendelsning fikrlarini ma’lum darajada isbotlab turibdi. Bundan tashqari, vaqtning ifodalanishida hech qanday asrtonomik biologik birliklar mavjud emas. Jarayon qachon sodir bo‘layotganini u yerda payt ma’nosini beruvchi badiiy leksik birliklar orqali tushuniladi. Bu o‘quvchini badiiy tasvirning nozik uyg‘unlashmalarini his etishga undaydi. Obrazning mukammalligini ta’minlaydi, badiiy bo‘yoqdorligini oshiradi hamda takrorlarning oldini oladi. Bunga qo‘shimcha sifatida quyidagi parchada keltirilgan badiiy zamon ifodasini olish mumkin: *J’étais à table, à un grand souper, après une mascarade. Autour de moi mes amis richement costumés, de tous côtés des jeunes gens et des femmes, tous étincelants de beauté et de joie; à droite et à gauche des mets exquis, des flacons, des lustres, des fleurs; au-dessus de ma tête un orchestre bruyant, et en face de moi ma maîtresse, créature superbe que j’idolâtrais* [1;47–48-b.].

Ma’nosi*: Men maskaraddan keyin stolda, ajoyib kechki ovqatda edim. Atrofimda mening boy libosli do‘stlarim, har tomondan go‘zallik va quvonch bilan porlayotgan yigit va qizlar; o‘ngga va chapga nafis idishlar, kolbalar, qandillar, gullar; boshimning tepasida shovqinli orkestr, qarshimda bekasi, men uni butparast tutgan ajoyib mavjudot.*

Aniq vaqt ko‘rsatkichlari mavjud emas, ular badiiy zamonning uslubiy xususiyatlari orqali ifodalangan. Bunda *J’étais à table* ovqatlanish vaqtini, *après une mascaraed* kechqurungi ovqatlanish payti ekanligini, *tous étincelants de beauté et de joie* tungi bazm ekanligini anglatib turibdi. Oktav (asar bosh qahramoni) XIX asrdagi o‘ziga to‘q oiladan ekanligini uning atrofidagi tasvirlangan do‘stlari, mayishiy buyumlar va vaziyat ko‘rsatib turibdi. Badiiy zamon va badiiy makonning o‘zaro uyg‘unligini mana shu o‘rinda ham kuzatish mumkin. Maskarad badiiy makon uchun tanlangan joy, kechki payt yoki yarim tun badiiy zamonning ifodasi bo‘la oladi. Bir ifodalanayotgan obrazni shakllantirishda badiiy makon va badiiy zamon o‘zaro uyg‘un holatda bir-birini taqazo etmoqda. Bu jarayon aynan M.Baxtin ilgari surgan badiiy zamon va badiiy makon bir butun xronotopdir degan g‘oyasiga mos keladi. Ammo shunday asarlar borki, unda tasvirlangan badiiy zamon o‘z makoniga ega bo‘lmay qolishi ham mumkin. “Shu paytgacha mavjud, xususan, M.Baxtin so’z yuritgan xronotopga doir barcha tushunchalar (hatto u ilohiy aspektda talqin etilgan bo’lsa ham) ayni xronotopdan keyin va ma’lum ma’noda chegaralangani ayon bo‘ladi” [3;111-b.].

Uzoq Jo‘raqulov ilgari surayotgan fikrda har doim ham badiiy makon badiiy zamonga ega bo‘la olmaydi, bir-birini doim ham taqqozo eta olmasligini ilgari surgan va bunga misol tariqasida Navoiyning “Lison ut-tayir” asarida ishlatilgan badiiy holatlar tasvirlarini keltirgan. Alfred de Myussening asarlarida ham ba’zi o‘rinlarda makonga ega bo‘lmagan zamon va zamonga ega bo‘lmagan makon holatlarini uchratish mumkin. Masalan: J*e ne puis dire ce que j’éprouvais ; une femme qui pendant si longtemps avait été l’idole de mon cœur, et qui, depuis que je l’avais perdue, me causait de si vives souffrances, la seule que j’eusse aimée, celle que je voulais pleurer jusqu’à la mort, devenue tout à coup une éhontée sans vergogne, le sujet des quolibets des jeunes gens, d’un blâme et d’un scandale universels* [1;168–169-b.].

Ma’nosi: *Men nimani his qilganimni ayta olmayman; uzoq vaqtdan beri yuragimning bir bo‘lagi bo‘lib kelgan va uni yo‘qotganimdan beri menga shunday azob-uqubatlarni keltirgan, yagona sevganim, to‘satdan uyatsiz beadabga aylandi, yoshlarning masxaralariga, umumbashariy ayb va janjallarga sabab bo‘ldi.* Yuqoridagi parchani turlicha tahlil qilish mumkin. Myusse ifodalamoqchi bo‘lgan fikr bu asr vabosining qanday hosil bo‘lganligi va kasallikning unga qanday yuqib qolganligi bo‘lsa, sof muhabbatning masxara qilinishi qahramonning fe’l-atvoriga aks ta’sir ko‘rsatganligidadir. Ya’ni sofdil Oktav ko‘ngil bergan inson unga xiyonat qiladi. Bir safar uni unutadi, ammo bu xiyonat ijtimoiy holat bo‘lib ulgurgan edi. Oktav bunday jamiyatdan o‘ch oladi. U qanday insonlar xohlayotgan bo‘lsa, shunday inson bo‘lishni boshlaydi.

Tahlil va natijalar. Bu gapda ifodalangan xronotop: badiiy makon qahramonning qalbi, badiiy zamon esa anglashilishi mumkin bo‘lmagan badiiy vaqtdir. Badiiy zamonni insonning umri davomida tuygan hislari va azoblari sifatida olish mumkin. Asarning butun jarayonlaridagi insonning tuyg‘ularining tasvirlari barchasi badiiy zamonning noaniq shakllarida kechadi. Ammo barcha asarlarda bo‘lgani kabi har bir ifo-

dalanayotgan real ochiq yoki yopiq makondagi tasvirlarning alohida badiiy zamon va badiiy makon ifodalovchi vositalari mavjud. Masalan, "*Le lendemain, au lever du soleil, la première pensée qui me vint fut de me demander: «Que ferai-je à présent?"*[1;69-b.].

Ma'nosi: *Ertasi kuni, quyosh chiqayotganda, o'zimga bergan birinchi savolim: «Endi nima qilishim kerak?»* Oktav ichki his-tuyg'ulariga burkangan holda o'zining "men"i bilan tinmasdan kurash olib borardi. Xayolini o'rab olgan o'sha hirsiy fikr uni tamomila o'ziga o'zini dushman qilib qo'ygan edi. Tong tasviri ifodalangan bu parchada vaqtning badiiy ifodasi sifatida *au lever du soleil (quyoshning ko'tarilishida)* iborasidan foydalanilgan, ya'ni, ertalabgi holatni tasavvur qilish mumkin yoki *la première pensée (birinchi o'y, fikr)* so'zida ham ma'lum darajada vaqt ifodasi mavjud. Bunda inson uyqudan uyg'ongandan keyingi holat tasviri kuzatiladi: "birinchi miyamga kelgan fikr" talqinida.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alfred de Myusse o'zining asarlarida ifodalashga uringan badiiy jarayonning asl mohiyati sifatida insonning his tuyg'ulari uning atrofidagi moddiy dunyodan ustun ekanligini yoki insoniy pok tuyg'ular qandaydir g'ayriinsoniy harakatlar bilan toptalmasligi kerakligini mukammal tasviriy ifodalar orqali ko'rish mumkin. Alfred de Myusse asarlarida qo'llanilgan badiiy zamonning o'ziga xosligi – bu tasvirlanayotgan jarayonning ma'lum bir aniq vaqt belgilarisiz (aniq kun, aniq sana, aniq soat va aniq yil) ifodalanishi hamda har bir obraz, sujet o'zining maxsus badiiy holatiga monand, badiiy zamoni tasviriga ega ekanligi bilan xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Alfred de Myusse. La confession d'un enfant du siècle. F.Bonnaire. 1836, p. 34.

(2). Шендельс Е.И. Категория времени в коммуникативном аспекте. ИЯШ, № 4, 1986, с. 16–21.

(3). Узоқ Жўрақулов. Адабий-тарихий жараён: ижодкор. жанр. Хронотоп. Тошкент, Ғафур Ғулом нашриёти, 2015, 111-бет.

(4). Тожибоев М., Юсупова Ш., Бўриева Е. Адабий герменевтика ва мумтоз бадиий тил. Т., "Университет", 2013, 160-бет.

(5). Маъруфжон Йўлдошев. Бадиий матн лингвопоетикаси. Т., "Фан", 2008, 160-бет.

Kamilova Nazokat Saidjonovna (Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi; nazokat4826@gmail.com)

ISAJON SULTONNING "BOQIY DARBADAR" ROMANIDA DINIY MOTIVLARNING BADIIY SINTEZI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning 2010-yilda "Yilning eng yaxshi asari" deya e'tirof etilgan "Boqiy darbadar" romanidagi diniy motivlarning badiiy sintezi tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *diniy motiv, sintez, leytmotiv, genoma, ramz.*

Камилова Назокат Саиджоновна (независимый исследователь Ургенчского государственного университета)

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СИНТЕЗ РЕЛИГИОЗНЫХ МОТИВОВ В РОМАНЕ ИСАДЖАНА СУЛТАНА «БАКИЙ ДАРБАДАР»

Аннотация. *В данной статье рассматривается художественный синтез религиозных мотивов в романе "Бакий Дарбадар" народного писателя Узбекистана Исаджона Султана 2010 года, признанном "Лучшим произведением года".*

Ключевые слова*: религиозный мотив, синтез, лейтмотив, геном, символ.*

Kamilova Nazokat Saidjonovna (Independent student of Urganch State University)

ARTISTIC SYNTHESIS OF RELIGIOUS MOTIVES IN THE NOVEL "BAKIY DARBADAR" BY ISAJAN SULTAN

Annotation. *This article examines the artistic synthesis of religious motifs in the novel "Baqi Darbadar" by the People's Writer of Uzbekistan Isajon Sultan in 2010, which was recognized as the "Best Work of the Year".*

Key words*: religious motif, synthesis, leitmotif, genome, symbol.*

Kirish. Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda o'zbek romanlarida ruhiy tasvir va ruhiy tahlil masalasi anchagina kuchaydi. Bunda romannavislar inson ruhidagi tabiiy ruhiy holatlarni tasvirlashda xalq ishonch-e'tiqodlariga xos motivlardan foydalanishmoqda. Aslida, bu holat adabiyot uchun mutlaqo yangi holat emas. Mumtoz adabiyotimizda mavjud an'anaga ko'ra, dostonlar "hamd", "munojot" va "na't"lar bilan boshlanadi. Alloh, payg'ambarlar, xalifalar ta'rif va tavsif qilinadi. Xususan, Alisher Navoiyning "Hay-

rat ul-abror” dostonida Yaratganning irodasi, odam ruhining o‘lmasligi targ‘ib qilinadi. “Yo‘qni bor” qilib, “borchadin insonni sharif”[1] aylagan Allohga hamd-u sanolar aytiladi. Mumtoz adabiyotimizda bu kabi misollarni juda ko‘plab uchratishimiz mumkin. Adabiyotda an’anaviylik kuchli ekanligini ham inkor etmagan holda, har bir ijodkorning o‘ziga xos iste’dodi, dunyoqarashi, e’tiqodi va novatorligi uning asarlarida namoyon bo‘lishiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Albatta, realistik adabiyot o‘tmish adabiyotimizning qonuniy merosxo‘ri ekanini ham unutmasligimiz kerak. Tarixiy shaxslar xususan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Bobur kabi siymolarning badiiy adabiyotda yaratilgan obrazlarida ham e’tiqod va ruhiyat masalasi alohida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Milliy istiqlol davrida adabiy-estetik tafakkur yangilandi va bebaho ma’naviy meroslarimizga, xususan, islom dini ma’naviyatini o‘zida aks ettiruvchi durdonalarimizga e’tibor kuchaydi, natijada yuzlab qo‘lyozmalar ilmiy iste’molga kiritildi.

Adabiyotlar tahlili. Ular qatorida Imom Buxoriyning “Al-jome as-sahih”, Yusuf Hamadoniyning “Rutbat ul-hayot”, Xoja Ahmad Yasssaviyning “Faqrnoma”, Shayx Najmiddin Kubroning “Usuli ashara”, Farididdin Attorning “Ilohiynoma”, Mavlono Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” kabi asarlari bevosita adabiy jarayonga ham ta’sir o‘tkazdi, ta’bir joiz bo‘lsa, ma’naviyat bulog‘i bilan adabiyot bo‘stonini sug‘ordi.

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”[2] romanida murshidsiz maqsadga intilgan Amir har qancha g‘ayrat qilmasin, maqsadiga yeta olmaydi. Chunki unda vujud intilishlari aqlga muvofiq bajarilmaydi. Aslida, aql ham vujudni boshqarishda valiylik vazifasini bajarishi mumkin, biroq Amirning aqli vujudini boshqarishda valiylik vazifasini bajara olmaydi.

Tog‘ay Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani qahramoni Botir firqa ham Isajon Sultonning ko‘pgina obrazlari qatori o‘zini qiynagan ichki savollariga javob izlaydi. Uning tosh qalbi eriydi va umri poyonida yomon amallari uchun tazarru qilishni xohlaydi, o‘z nafsini ayblaydi, iymonli kishilar qatoridan joy oladi. Ollohning so‘zi – Qur’onni tinglashni xush ko‘radigan bo‘lib qoladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, analitik tahlil hamda qisman semiotik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida Olloh oliy hukmi va haqiqatiga qo‘l ko‘targanlarning ramzi bo‘lmish, o‘z qismati yetovidagi banda obrazi ifoda etiladi”.[3] Asarda inson hokisorligi va pokligiga emas, balki Yaratuvchi qudrati, ilmi, jazosi, la’nati yoxud marhamati, keng ma’noda, abadiyatdan-da yuksak martabasi ham ulug‘lanadi. Asarda Chingiz Aytmatov, Omon Muxtor, Xurshid Do‘stmuhammad, Ulug‘bek Hamdam kabi romannavislar ijodidagi hayotbaxsh tamoyillar o‘ziga xos tarzda sintezlashtiriladi. Isajon Sulton nafaqat “Qur’oni karim” hikmatlari, balki folklor, etnografiya, tarix, genetika kabi bir qator fanlarni, shuningdek, odam bolasining o‘lish huquqi (evtanaziya)ni ham asarlarida sintezlashtiradi.

Romanning leytmotivini ijodkorning o‘quvchi bilim va darajasini yanada rivojlantirish orqali, uning aql-u shuurini yanada o‘tkirlashtirish, borliqning asliyatiga nazar tashlash tashkil etadi. “Leytmotiv – (olmoncha leitmotiv – yetakchi g‘oya) butun asar bo‘ylab muallif tomonidan ilgari surilgan, qayta-qayta ta’kidlangan asosiy fikr, yetakchi g‘oya”.[4] Ajdodlarimiz iymon butunligini Yaratuvchi haybat va qudrati oldidagi hayratdan izlashgan, borliq mavjudiyatini Olloh irodasi tufayli deb anglashgan. Insonning ilm-u amali aniq maqsad sari yo‘nalgan bo‘lsagina, uning go‘zal samaralari butun olam muvozanati qonuniga mutanosib bo‘ladi.

Vatan – iymon hamda millat ruhining qo‘rg‘oni. Aynan o‘zbek millati mentalitetida Vatan qadrini ulug‘lash, insoniyat tafakkur tarixini o‘rganish orqali Alloh hikmatlarini anglashga bo‘lgan kuchli ehtiyoj mavjud. “Boqiy darbadar” romanini o‘sha ehtiyoj mevasi sifatida maydonga kelgan, deyishimiz ham mumkin.

Yaqin o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, romanchiligimizda yaxlit voqelik, ko‘p planli sujet asosida voqealarning epik manzarasi va markaziy qahramon tasvirlangan romanlar roman janrining odatiy namunalaridan edi biz uchun. Biroq bugungi kunda o‘quvchi qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, jahon romanchilik tajribalari milliy-madaniy, diniy sintezlashgan, ramz-timsollarga asoslanuvchi “yangi roman”larga ham

[1] Алишер Навоий. Хамса. Тошкент, 1960, 21-бет.

[2] Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. Тошкент, “Минҳож”, 2004; Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. “Шарқ”, Тошкент, 2007.

[3] Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. Тошкент, 2011, 284-бет.

[4] Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2019, 306-бет.

moslashib bormoqda. Ana shunday “yangi roman”larning mualliflaridan biri sifatida Isajon Sulton romanlarida ham xalq, Vatan va millat taqdiri, inson hayotidan mantiq izlayotgan zamondoshimizning intellektual darajasi, ijodiy sintezning beqiyos imkoniyatlari namoyon bo‘lmoqda. Ular “yuksak sivilizatsiya yutuqlari va istiqbol rejalari bilan bir qatorda, o‘zining yaratilmish bir banda sifatidagi mohiyatini ham anglashga intilayotgan zamondoshimiz tafakkurini charxlashga xizmat qiladi”.[1]

Isajon Sulton romanlarida “olam” tushunchasining ko‘plab ma’nolariga duch kelamiz:

1. Moddiy olam: jismoniy yoki fizik olam.
2. Ma’naviy olam: inson ma’naviy-ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olam.
3. Potensial olam: kelajakda mavjud bo‘lish imkoniyati bor va bo‘lishi mumkin bo‘lgan olam.
4. Abstrakt olam: xayol, tasavvur va idealdagi olam.

Mustaqillikdan so‘ng ijodkorning o‘zligini turli mafkuraviy zanjirlardan xalos qilishga bo‘lgan intilish adabiyotda psixoanalizmga keng yo‘l ochib berdi. Endilikda o‘zbek romannavislari ijtimoiy munosabatlar va sotsial strukturani psixik faktlar, xususan, diniy qarashlar asosida tushuntirishga harakat qildilar. “Insoniy kechinmalar, tuyg‘ular asosida dunyo in’ikos yotadi” degan qarashning shakllanishi natijasida romanchilikda mantiqiy simvollarga katta ahamiyat qaratila boshlandi.

O‘tgan asr oxirlaridan e’tiboran romanchiligimizda qahramon shaxsini uning o‘zaro bog‘liq tarkibi bo‘lgan Id – tug‘ma his-tuyg‘ular majmui, Ego – hissiy tuyg‘ular va fikriy xatti-harakatlarning o‘zaro bog‘lanishi, Superego – vijdon, o‘z-o‘zini kuzatish va turli ideallarni shakllantirish, vorisiylik birligida tahlil qilishga urinishlar kuzatila boshlandi.

Olim Rahmon Qo‘chqor ushbu roman haqida: “Isajon Sulton o‘quvchi – insoniyat bilan ramzlar tilida so‘zlashmoqni, dard-u dunyosini unga yuqtirmoqni istaydi... va to‘g‘ri qiladi”,[2] degan fikrni bildiradi va bu bizning ham xayolimizni band qilgan dunyo miqyosidagi ma’naviy darbadarlik haqidagi haqiqatimizga mos tushadi. Shuningdek, adabiyotshunos Rahimjon Rahmat ham quyidagi fikrlarni bildiradi: “Isajonning barcha asarlarini boshdan-oyoq diqqat bilan o‘qishni tavsiya qilardim. Chunki yozuvchi har bir jumlaga, jumlada aks etgan u yoki bu tabiat hodisasiga qandaydir ramz-ma’no joylab ketgan bo‘ladi”.[3]

Shuningdek, romanda Xudoga isyon o‘laroq, yaratilgan sun’iy odamlar – genomalar obrazlari mavjud. Nurlanishlarga chidamli genoma yaratildi, biroq uning eng katta kamchiligi – u ko‘r. Yana bir genoma haddan ziyod egiluvchan, lekin bu egiluvchanlikni ta’minlash uchun organizm bo‘g‘imlarga kerakli suyuqlikni yetkazib berolmaydi. Nihoyat, mukammal genoma yaratildi, lekin uning eng katta kamchiligi uning gaplarida ko‘rildi: “Men kimman?” “Nega tug‘ildim?” deya nima maqsadda yaratilganini bilish uchun Xudoni izlab yo‘lga chiqdi.

Bu genoma bizga har bir asl menini, asl haqiqatini topishni istagan kishi timsoli bo‘lib tuyuladi. Genoma ham darbadar.

Romandagi darbadarlarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

1. Davr kishisining ramzi deya, zamon nuqtayi nazaridan oladigan bo‘lsak, yaqin o‘tmishimizda, SSSR deb atalmish imperiya bizga “Xudo yo‘q” deya ateistik ruhni singdirmadimi?! Milliyligimiz, tilimizdan ajratilib, biz ham o‘zimizga “Kimmiz?!” degan savolni bermadikmi?! Iymon va millatning qo‘rg‘oni – Vatanimizdan Vatan ichra yashab ajratib qo‘yilmadikmi?!

2. Qalb kishisining ramzi deya, ruhiyat nuqtayi nazaridan oladigan bo‘lsak, har bir inson bu dunyoga kelishidan oldin musulmon bo‘lib, fitratda tug‘iladi, umri davomida, xuddi genoma kimligini, nega tug‘ilganini anglash uchun yo‘lga chiqqani kabi (Bu yerdagi yo‘lni ham ramziy ma’noda umr deyish mumkin), asli, (asl boshlanishi–ulug‘ ruh)ni topishi kerak bo‘ladi. Ko‘nglini Allohning uyiga aylantirishi lozim bo‘ladi.

3. Darbadarlikka mahkum insonlarning, taqdirlarning va xalqlarning timsollari. Uchinchi tahlil ham mavjudki, yozuvchi roman xotimasida bo‘rondan keyin odamlar qum ostida qolib, sahro yastangach, “baland bo‘yli, uzun sochlari yelkasiga tushgan, yalangoyoq” bir inson (darbadar), yolg‘iz sahrodan ketib borayotganini yozadi va asarni shunday yakunlaydi: “Bu odamni keyingi asrlarda yanada ko‘proq eslaydilar. Uni goh darbadarlikka mahkum insonlarning, goho esa taqdirlarning va xalqlarning timsoli sifatida tilga oladilar”.

---

[1] Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. Тошкент, 2011, 284-бет.

[2] Исажон Султон насри бадийяти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. Т., “Turon zamin ziyo”, 2017, 86-бет.

[3] Ўша китоб. 93-бет.

4. E’tiborli jihati, yozuvchi darbadarni o‘z hayotidan ham suv ichganligini ta’kidlaydi: “Turli-tuman kishilar ham men kabi ertalab ishga ketib, qanaqadir arzimas yumushlar uchun bebaho daqiqalarini sarflab, faqatgina uxlash va tongda yana qaytadan ishiga jo‘nash uchun tungi ko‘chalardan uylariga qaytar ekanlar, shu holatning o‘zi ham darbadarlikday tuyula boshlagan edi... men esa bir mahallar yurtidan yozuvchilikni orzu qilib safarga chiqqan va yo‘lda tirikchilik tashvishlariga ovora bo‘lib qolgan bir yo‘lchi kabi edim, bu taqdirim ham nimalargadir ishora qilar edi...”. Demak, oddiy turmush tashvishlari bilan kun kechirayotgan darbadarlar timsoli, desak ham bo‘ladi.

Isajon Sulton yana darbadarlik haqida quyidagi fikrlarni bildiradiki, endi darbadar oddiy kun kechiruvchidan kengroq ijtimoiylik kasb eta boshlaydi: “Yovuz bir darbadar bor edi tag‘in...” deb ogohlantirardi millatimning bir iste’dodi (Shavkat Rahmon misrasi)... olamda pul topish uchun yashaydigan va kekkayishni xush ko‘radigan ming-millionlab darbadarlar bor ekani aqlimni shoshirar edi”.

Shu o‘rinda, nega endi keyingi asrlarda ko‘proq eslanishini ham bir tafakkur qilib ko‘rish lozim bo‘ladi. Ushbu jumboqqa Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi Bo‘ri polvonning quyidagi fikrlari javob bo‘ladigandek nazarimizda:

«Avlodlar almashgan sayin... yo, pirim-e, tuf-tuf-tuf... avlodlar almashgan sayin... yurak yo‘qolib boryapti!

Jasad bor! Aql bor!

Yurak yo‘q!

To‘rt mucha bor! Kuch-quvvat bor!

Yurak yo‘q!

Ko‘krakda jon bor!

Yurak yo‘q, yurak!..

Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi.

Farzandlar o‘zlari minayotgan mashinaga o‘xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo‘lmay qolyapti...».

Romanda yana shamol – Parvardigorning qudrati ramzi sifatida gavdalanadi va ma’naviy darbadarlikka uchragan insonlarni yo‘qlikka mahkum qiladi: “Ichida xas-xashaklar-u shox-shabbalar mayda-chuyda cho‘l jonzotlariga qo‘shilib chirpirak bo‘lib aylanayotgan, girdoblari ulkan jonli ilonlar kabi yerdan ko‘kka cho‘zilgan bo‘ron, sahroning har bir qadamini g‘oyatda sinchkovlik bilan “titib” chiqib, hozir nishonini “yo‘qotib” qo‘ygan va bir-biriga tashlanishga shay turgan harbiy uchoqlar tomon shiddat bilan yaqinlashib bormoqda edi... Tiyonshon yonbag‘ridagi g‘orda istiqomad qiladigan avliyo ham qo‘rquvga tushgan edi. Parvardigori olam kuch-qudratining bir timsoli bo‘lgan bu ofatning nima ekanini u yaxshi bilardi. Bir ozdan so‘ng urilgan yanada shiddatliroq epkin g‘or og‘zida o‘sgan anjirni – rizq daraxtini tag-tomiri bilan sug‘urib oldi va pastlikka qarab xasday uchirib ketdi...”.[1]

Bu yerda yana anjir daraxti timsoli ham borki, u adabiyotimizda rizq daraxti hisoblanadi. Qur’oni karimda “Tiyn”, ya’ni “anjir” surasi mavjud bo‘lib, “Qisasi Rabg‘uziy”dan ham bilamizki, anjir jannat daraxtidir.

«Od (Hud payg‘ambar qavmi) esa dahshatli, quturgan bo‘ron bilan halok qilindilar. U (bo‘ronni Alloh) ularning ustiga paydar-pay yetti kecha va sakkiz kunduz hukmron qilib qo‘ydiki, endi u joydagi qavmning (chirib) ichi bo‘shab qolgan xurmo daraxtining tanasidek qulab halok bo‘lib yotganlarini ko‘rasiz. Bas, ulardan (biror) asoratni ko‘ryapsizmi?! (Aslo! Ularning barchalari halok bo‘lib bitdilar)»[2] (“Hoqqa” surasi, 6–8-oyatlar).

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, shamol Allohning izni ila goh g‘azabga aylansa, goh rahmatga aylanadi. Alloh taolo Sulaymon (alayhissalom)ga shamollarni buysundirib qo‘ygan va Sulaymon (alayhissalom)ning taxti va lashkarini shamol bir joydan boshqa joyga ko‘chirib o‘tirardi.

“Sulaymonga ertalab bir oylik, kechki payt bir oylik (masofani bosib o‘tadigan) shamolni (bo‘yinsundirdik) va uning uchun mis bulog‘ini oqizib qo‘ydik”[3] (“Saba” surasi, 12-oyat).

---

[1]Исажон Султон. Қоракуш юлдузининг сири (роман, қисса ва ҳикоялар). Т., Ғафур Ғулом НМИУ, 2019, 236-бет.

[2]Қуръони карим маънолари таржима ва тафсири (таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур). Тошкент, “Movarounnahr”, 2020, 566-бет.

[3]Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур). Тошкент, “Movarounnahr”, 2020, 429-бет.

Xulosa. “Yangi roman”larning mualliflaridan biri sifatida Isajon Sulton romanlarida ham xalq, Vatan va millat taqdiri, inson hayotidan mantiq izlayotgan zamondoshimizning intellektual darajasi, ijodiy sintezning beqiyos imkoniyatlari namoyon bo‘lmoqda. Bunda asosiy jihat esa Alloh yaratiqi sifatida olam mukammalligi ichra insonlik mavqeyi turli rakurslarda idrok etilmoqda. Ijodkor tabiat hodisalari, manzaralariga ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan bir vositagina emas, Yaratganning qudratini aks ettiruvchi ilmdan nishona hamda idrok ila qaraguvchi kishiga hikmatdir. “Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida Olloh oliy hukmi va haqiqatiga qo‘l ko‘targanlarning ramzi bo‘lmish, o‘z qismati yetovidagi banda obrazi ifoda etiladi”.[1] Asarda inson hokisorligi va pokligiga emas, balki Yaratuvchi qudrati, ilmi, jazosi, la’nati yoxud marhamati, keng ma’noda abadiyatdanda yuksak martabasi ham ulug‘lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Исажон Султон насри бадиияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, актублар. Т., “Turon zamin ziyo”, 2017.

(2). Исажон Султон. Қорақуш юлдузининг сири (роман, қисса ва ҳикоялар), Тошкент, Ғафур Ғулом НМИУ, 2019.

(3). Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. Тошкент, 2011.

(4). Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2019.

(5). Тошева Н.Ш. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида). PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Т., 2020.

(6). Тўлаганова С. Тарихий жараён ва ижодкор. “Шарқ юлдузи”, 2017, 3-сон.

(7). Тўлибоев Х., Алламбергенова М. Исажон Султон ижодий портретига чизгилар (мақолалар, суҳбатлар). Тошкент, “Muharrir”, 2013.

(8). Йўлдошев Қ. Роман ва бугунги ўзбек романчилиги (2010 йил романлари мисолида). “Шарқ юлдузи”, Тошкент, 2011, 4-сон.

Nazarova Shohista Ismatovna (Qarshi davlat universiteti doktoranti)

TABIBIY MUXAMMASLARI

Annotatsiya. *Ahmad Tabibiy mumtoz ijodkorlar an’analarini davom ettirib, deyarli barcha janrlarda ijod qilgan. Mazkur maqolada muxammas tadqiqotlari, o‘zbek adabiyoti tafakkur yo‘nalishlari, o‘zbek adabiyoti biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko‘rsatish, istiqloldavr ahli ruhiyatidagi oshkora asabiylik, sezimlar nozikligi, munosabatlar haiqda batafsil bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *muxammas tadiqiqotlari, ijtimoiy tuzum, tipik obraz, ijtimoiy to‘qinish, ekspressivlik, o‘xshatishlar, leksik vositalar.*

ПЯТИСТИШИЯ ТАБИБИ

Аннотация. *Ахмад Табиби продолжил традиции художников-классиков и творил практически во всех жанрах. В данной статье подробно описаны критические исследования, образ мышления узбекской литературы, узбекская литература, показывающая превосходство общественного строя, открытую нервозность людей периода независимости, чувствительность чувств и отношений.*

Ключевые слова: *критическое исследование, социальная система, типичный образ, социальный контакт, выразительность, сравнения, лексический инструментарий.*

TABIBI’S MUHAMMASES

Annotation. *Ahmad Tabibi continued the traditions of classical artists and created in almost all genres. In this article, the way of thinking of Uzbek literature that shows the superiority of the social system, open nervousness, feelings, sensitivity of relations, and critical researches of the people of the period of independence are described in detail.*

Key words: *critical research, social system, typical image, social communication, expressiveness, comparison, lexical means.*

Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri – XX asr boshi o‘zbek adabiyotining faol vakillaridan hisoblanadi. Tabibiy shoir, tarjimon, dostonnavis, tazkiranavis sifatida tanilgan bo‘lib, asarlarining manbalari turli kutubxona va fondlarda saqlanmoqda. Ahmad Tabibiy mumtoz ijodkorlar an‘analarini davom ettirib, deyarli

[1] Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. Тошкент, 2011, 284-бет.

barcha janrlarda ijod qilgan. U o‘zining devonlariga klassik poeziyaning g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, murabba, masnaviy, qasida, ruboiy kabi janrlardagi she’rlarini kiritgan. U o‘zbek adabiyotida muxammas janrini rivojlantirgan.

Navoiy, Sa‘diy, Jomiy, Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G‘olib va boshqaning g‘azallariga 518 ta muxammas bog‘lagan. Xorazm shoirlari haqida “Majmuat-u sh-shuaroyi Feruzshohiy”, “Muxammasoti majmuayi Feruzshohiy” (1909) tazkiralarini tuzgan. Ikkinchi majmuasi, asosan 33 shoir muxammaslaridan tashkil topgan. Undaб dastavvalб Ogahiy g‘azallariga, so‘ng Feruz she’rlariga bog‘langan muxammaslar, keyin esa Feruzning “Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim” g‘azaliga taxmis, muxammas va musaddaslar keltirilgan [1].

Xotima qismida esa shu to‘plamga kirgan Umidiy, Doiy va Xayoliyning vafoti haqida xabar, Bayoniyning “Majmuat ushshuaroi payravi Feruz Shohiy”ga yozgan taqrizi berilgan. Ahmad Tabibiy o‘zining muxammaslarida badiiy adabiyotning tasviriy vositalaridan keng foydalangan. Bu bilan o‘ziga xos uslub yaratgan. Tashqi olamni bilishning keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri qiyoslash – o‘xshatishdir. Ahmad Tabibiy betakror o‘xshatish etalonlarini tanlash orqali tasvirga ekspressivlik paydo etgan.

Muxammaslarda o‘xshatish, qiyoslash usulining qo‘llanishi turlicha bo‘lib, ular Ahmad Tabibyning mahorat qirralarini yanada yorqinroq namoyon etadi. Shoir ma‘no yaratishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalardan o‘rinli foydalanadi. Muxammaslarda sinekdoxaning butun o‘rnida qism ko‘rinishi, jins o‘rnida tur munosabati aks etgan ko‘rinishlari hissiyot uyg‘otish kuchi va xususiyati bilan ahamiyatga egadir [2].

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash, dastlab, lug‘atlardagi so‘zlarning ma’no jihatidan kambag‘alligidan kelib chiqqan bo‘lsa, asta-sekin go‘zallik va jozibadorlikka bo‘lgan ehtiyoj ularning ma‘nolarini kengaytira boradi. Bu esa xuddi kiyim, dastavval, sovuqdan himoyalanish vositasi sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, keyinchalik esa kishi tanasini bezaydigan libosga aylanganiga o‘xshaydi.

Til birliklari orasida eng asosiy halqa sanaladigan so‘zlar va iboralarni ko‘chma ma‘noda ishlatish nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq beradi. Ana shunday hodisalardan biri metaforadir. Unda narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralar ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi. O‘xshatish ko‘chma ma‘no hosil qilishning eng keng tarqalgan usuli sifatida nutq badiiyatining muhim omillaridan hisoblanadi. Metafora predmet va hodisalar orasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida ulardan birini ifodalagan so‘z bilan ikkinchisini ham ifodalashdir [3].

Metaforalar asosan voqea, hodisalarni predmetlarni grammatik atamay, balki ularni ma‘lum tomondan xarakterlaydi, shuning uchun ham ular, asosan, xususiyatni bildirib keladi. Ahmad Tabibiy lirikasining asosiy mavzularidan biri ishq-muhabbat temasidir. Shoirning ishqiy she’rlari o‘zining mazmundorligi, ohangdorligi, turli bo‘yoqlarga boyligi va shaklining har tomonlama rang-barangligi bilan diqqatlarga sazovordir. Tabibiy she’rlarining ko‘pi ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning g‘azallariga bog‘langan muxammaslardan iborat. U Navoiyning Hikmati bo‘lsa, Aylasa, Bulbul, Kerak, Aylarman, Oldida, Tuz, Bo‘lmangiz, Hanuz, So‘rmangiz, Aylab, Anga, Xurram, Bo‘lmas kabi radif va qofiyalar bilan tamomlangan 20 dan ortiq g‘azaliga muxammas bog‘lagan.

Masalan, Alisher Navoiyning:

Muvofiq kiydilar bu yil magar navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xil’at mening sarvi ravonim ham,

–deb boshlanadigan g‘azaliga, Tabibiy quyidagicha muxammas bog‘laydi:

Bahor ayyomi, kir gulshanga qilmoqqa g‘amingni kam,
Ki bo‘lmishdur havo ham mu’tadil, gulzor ham xurram,
Degay hayrat bila barcha nazokat aylagan odam,
Muvofiq kiydilar bu yil magar navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yashil hil’at mening sarvi ravonim ham [4].

Navoiyning bu g‘azalida asosiy obyekt bahor faslidir. Bahor faslini ifodalashda, ya’ni, Navoiyning shu g‘azaliga muxammas bog‘lashda Tabibiy faqat tabiatni kuylash bilangina chegaralanmay, balki g‘azalning asosiy mazmuniga bog‘liq ravishda o‘z zamonasidagi ijtimoiy ahvolni ham bayon etib ketmoqda. Bu muxammaslarda leksik vositalardan, ma’no ko‘chimlaridan o‘z o‘rnida foydalangan.

Bahor ayyomi, kir gulshanga qilmoqqa g‘amingni kam,

Yuqoridagi baytda qayd etilgan g‘amingni kamaytirmoq so‘zi o‘z manosida shunday keladi: suvning kamayishi, pulning kamayishi. Ushbu baytda esa ko‘chma ma’noda kelmoqda.

Ki bo‘lmishdur havo ham mo‘tadil, gulzor ham xurram,

Baytda xurram sozida o‘xshatishga asoslan-gan ma’no ko‘chishi bo‘lib, gulzorga nisbatan qo‘llanilmoqda. Degay hayrat bila barcha nazokat aylagan odam, Muvofiq kiydilar bu yil magar navro‘z ila bayram. Yuqoridagi baytda kelgan kiydilar…navro‘z ila bayram so‘zlarida ham ma’no ko‘chimi mavjud bo‘lib, ko‘chim turlaridan metaforaga misol bo‘la oladi. Ifoda qilmoqchi bo‘lgan ma’no:

Navro‘z bayramiga muvofiq kiydilar.

Chaman sarvi yashil xil’at mening sarvi ravonim ham

Sarvi so‘zini shoir yorga nisbatan qo‘llab, obyekt va o‘xshatilgan narsa orasidagi sifat asosida qayta nomlamoqda. Bu esa ma’no ko‘chimlaridan metonimiyaga misol bo‘la oladi. Sarv so‘z bilan yorning qomati tasvirlanmoqda.

So‘zning asl manosi tik o‘suvchi, tekkis daraxt.

Tabibiy turkiy muxammaslari bilan bir qatorda, uning fors-tojik tilida yozilgan g‘azallarga bog‘langan muxammaslari ham katta ijod mahsuli hisoblanadi. Bu jihatdan Tabibiyning Sa’diy, Jomiy, Zebuniso kabi mohir so‘z san’atkorlari g‘azallariga bog‘lagan muxammaslariga ham alohida diqqatlarga sazovordir.

Fors-tojik adabiyotining ulug‘ shoiri Abdurahmon Jomiy xilma-xil obrazlar, original lavhalar yaratgan shoirdir. U xalq ijodiyotidan ta’lim olgan. Uning asarlari sodda va ravon misralardan tuzilgan. Shu sababli ham ko‘p shoirlar Jomiy lirikasidan bahramand bo‘lgan. Shunday ekan, Tabibiyning muxammas bog‘lashda Jomiy g‘azallariga murojaat etishi tabiiy holdek. Tabibiy poetik merosida Jomiyning juda chiroyli, sho‘x va o‘ynoqi satrlarida yaratilgan bir necha g‘azallariga bog‘langan muxammaslari uchraydi. Ulardan biri:

Shu dam bir surate oshiq, ki bar man mekunad g‘avzo,

Chi surat? Surati dilbar! Chi dilbar?

Dilbari barno! – matlayi bilan boshlangan lirik g‘azaldir.

Tabibiy bu g‘azalga muxammas bog‘laganda she’riyat san’atida o‘zining kuchina yana bir bor sinab ko‘rib, sezilarli muvafaqqiyatlarga erishadi. Shoir muxammasning har bir satridagi ma’no va taassurotni badiiy lavhalarda kuchaytiradi, to‘ldiradi. Natijada qo‘shiq kabi jarangdor eshitiladigan yangi bir asar maydonga keladi. Muxammas sakkiz bobdan iborat bo‘lib, har bir bandi butun asarning nafosatini gavdalantira oladi:

Fors tilidagi shakli:

Hamon dilbar, ki andozad mudomo bar saram savdo,

Ba ishqam mekunad man xastaro on dar chahon shaydo.

Chafou zulm doim bar zamiri u buvad paydo,

Shudam bar surate oshiq, ki bar man mekunad g‘avg‘o,

Chi surat? Surati dilbar! Chi dilbar? Dilbari barno!

Fors tilidan tarjima shakli:

Bir dilbar boshimg‘a tinnimsiz savdo soladi,

Besabab men xatani o‘z husniga shaydo qiladi.

Uning tabiati doim zulm qilishdan iborat,

Bir suratga oshiq bo‘ldim, u menga g‘avo qiladi,

Qanday surat? Dilbarning surati! Qanday dilbar? (G‘azal dilbar!)

Birinchi bayt: Bir dilbar boshimg‘a tinimsiz savdo soladi, Ushbu baytda ikki turli ma’no kochimi mavjud. Birinchisi bir dilbar so‘zida. Dilbar so‘zining asl manosi: go‘zal, chiroyli, hurliqo degan manolarni anglatadi. Yuqorida esa yor, qiz … bo‘lishi mumkin. Tabibiy yorni dilbar deb nomlamoqda [5].

Bu esa ko‘chim turlaridan metonimiyaga misol bo‘la oladi. Besabab men xastani o‘z husniga shaydo qiladi. Xasta so‘zi bilan shoir o‘zini atamaqda. Bu yerda ko‘chim turlaridan metonumiyaga misol bo‘la oladi. Uning tabiati doim zulm qilishdan iborat. Yuqoridagi baytda qo‘llanilgan tabiat so‘zida ma’no ko‘chimlaridan metonimiyani ko‘rishimiz mumkin.

Tabiat so‘zi, xarakter, odat so‘zlarining o‘rnida qo‘llanilgan bo‘lib, ko‘chimlardan metonimiyaga misoldir. Tabiati…zulm qilishdan iborat ifodasida esa ko‘chim turlaridan metafora va jonlantirish mavjud. Bir suratga oshiq bo‘ldim, u menga g‘avo qiladi, Surat so‘zida ko‘chim turlaridan metonimiya mavjud. Suratning o‘ziga oshiq bo‘lish mumkin emas. Suratda aks etgan insonga oshiq bo‘lish mumkin. G‘avo: mano ko‘chimlarida metafora mavjud.

G‘avo qilmoq suratda tasvirlangan yorga nisbatan aytilganligi uchun ma’no ko‘chimi paydo qilgan. Qanday surat? Dilbarning surati! Qanday dilbar? G‘azal dilbar! Dilbarning surati: ushbu baytda so‘z tushishi bo‘lganligi sababli metonimiya mavjud bo‘lib, matnda badiiyatni hosil qilishga xizmat qilmoqda.

Ahmad Tabibiyning muxammaslari o‘zining mazmundorligi, ohangdorligi, turli bo‘yoqdor so‘zlar va uslublarga boyligi bilan diqqatlarga sazovordir.

U o‘zining devonlariga klassik poeziyaning g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, murabba, masnaviy, qasida, ruboiy kabi janrlardagi she’rlarini kiritgan. Bundan ko‘rinib turadiki, shoir o‘z salaflari ijodida yuzaga chiqqan va adabiy hayotda rasm bo‘lib qolgan hamma janrlardan unumli foydalanib, uni rivojlantirgan. Shoir o‘zining muxammaslarida badiiy adabiyotning tasviriy vositalaridan keng foydalangan. Bu bilan o‘ziga xos uslub yaratgan.

Tabibiy muxammaslarida leksik vositalar, ko‘chimlar tahlili natijasida uning badiiy tasvir vositalaridan keng foydalangan holda, o‘zbek adabiy tili leksik tarkibining shakllanishida katta xizmat qilganligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Yuqorida misollarda keltirilgan muxammaslar tahlili natijasida o‘xshatish, qiyoslash usulidan turlicha qo‘llanilganligini va bu Tabibyning mahorat qirralarini yanada yorqinroq namoyon etayotganligining guvohi bo‘ldik. Shoir ma’no yaratishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalardan o‘rinli foydalangan. Muxammaslarda sinekdoxaning butun o‘rnida qism ko‘rinishi, jins o‘rnida tur munosabati aks etgan ko‘rinishlari hissiyot uyg‘otish kuchi va xususiyati bilan ahamiyatga egadir [6].

Ahmad Tabibiy o‘zbek adabiyotida muxammas janrini rivojlantirgan. Navoiy, Sa‘diy, Jomiy, Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G‘olib va boshqaning g‘azallariga 518 ta muxammas bog‘lagan. U muxammaslarida leksik vositalar, ko‘chimlar tahlili natijasida uning badiiy tasvir vositalaridan keng foydalangan. Tashqi olamni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri qiyoslash – o‘xshatishdir. Ahmad Tabibiy betakror o‘xshatish etalonlarini tanlash orqali tasvirda ekspressivlik paydo etgan. Muxammaslarda o‘xshatish, qiyoslash usulining qo‘llanishi turlicha bo‘lib, ular Ahmad Tabibyning mahorat qirralarini yanada yorqinroq namoyon etadi. Shoir ma‘no yaratishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalardan o‘rinli foydalanadi. Muxammaslarda sinekdoxaning butun o‘rnida qism ko`rinishi, jins o‘rnida tur munosabati aks etgan ko‘rinishlari hissiyot uyg‘otish kuchi va xususiyati bilan ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). G‘anixo‘jayev F. Ahmad Tabibiy. “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1978.
(2). O‘zSSR FA Sharqshunoslik instituti, qo‘lyozma bayoz, INV-1130.
(3). Tabibiy, Ahmad. Bayoz. G‘azaliyoti Tabibiy. Qo‘lyozma. O‘zRFASHI, №243.
(4). Tabibiy, Ahmad. Devon. Toshbosma, O‘zRFASHI, №8949.
(5). Tabibiy, Ahmad. Hayrat ul-oshiqin. Qo‘lyozma.
(6). O‘zRFASHI, №3460. O‘zbek adabiyoti tarixi.

Berdiyeva Gulmira Aminovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi; berdiyevagulmira@gmail.com)

ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFIY QARASHLARIDA KOMIL INSON TALQINI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada Alisher Navoiyning yoshlar tarbiyasiga oid tasavvufiy qarashlari asarlari asosida tahlil qilingan. Naqshbandiya tariqatining asosiy talablariga e’tibor qaratilgan. Tasavvuf ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlari inson ma’naviyati bilan bog‘liqlikda talqin qilingan. Naqshbandiyada kishilarning ma’naviy-axloqiy kamolotining o‘ziga xos jihatlari mazmun mohiyati ochib berilgan. Tasavvuf ta’limotida komil insonga qo‘yilgan talablar izohlab berilgan. Shuningdek, yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida Alisher Navoiy qarashlarining o‘rni tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, naqshbandiya, ilm, ma’rifat, ma’naviyat, saxiylik, bag‘rikenglik.*

Бердиева Гульмира Аминовна-Бухарский Инженерно-технологический институт, старший преподаватель кафедры «Общественные науки», кандидат исторических наук; berdyevagulmira@gmail.com

ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В УЧЕНИИ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. *В статье анализируются суфисткие взгляды Алишера Навои о воспитании молодежи на основе его произведений. Уделяется особое внимание основным требованиям учения Накшбанди. Специфические черты суфизма раскрываются в связи с духовностью человека. Изучены требования совершенного человека в суфизме. Также исследована роль взглядов Алишера Навои в духовно-нравственном воспитании молодежи в условиях нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *суфизм, накшбандия, знание, просвещение, духовность, щедрость, толерантность.*

Berdiyeva Gulmira Aminovna (Bukhara Institute of Engineering and Technology, Senior teacher of the "Social Sciences" department Candidate of historical sciences; berdyevagulmira@gmail.com)

THE EXPRESSION OF THE IDEAL PERSON IN THE SUFISTIC VIEWS OF ALISHER NAVOI AND ITS HISTORICAL ROLE

Annotation. *The article analyzes the Sufistic views of Alisher Navoi on the education of youth based on his works. Particular attention is paid to the basic requirements of the Naqshbandi teachings. The specific features of Sufism are revealed in connection with human spirituality. The requirements of a perfect person in Sufism have been studied. The role of Alisher Navoi's views in the spiritual and moral education of youth in the conditions of the new Uzbekistan is also explored.*

Key words: *Sufism, Naqshbandiyya, knowledge, enlightenment, spirituality, generosity, tolerance.*

Kirish. Ko'pgina allomalar tasavvuf atamasiga oid o'z qarashlarini bayon etadilar. Husayn Voiz Koshifiy tasavvuf bilan bog'liq atamalardan to'rt yuz qirq to'rttasini bayon qiladi va ularni izohlaydi. Aslida esa tasavvufiy tushunchalar bundan-da ko'p va serqirradir. Albatta, ularning mazmun-mohiyati yagona maqsadga qaratilgandir. Hujjatul-islom Imom G'azzoliyning qat'iy ta'kidiga ko'ra, "tasavvufning inson manfaatlarining kamoloti yo'lida xizmat qilishdan o'zga maqsadi yo'q". Tasavvuf ahli pok umrguzaronlik qilish, to'g'ri so'zlash, pok nazar bilan nigoh tashlash, haromdan hazar qilgan holda, faqatgina, halol luqmani tanavvul qilishni hayot tarziga aylantirdilar [1]. Inson zotiga marhamat, muhabbat va unga xizmat qilish tasavvufning tub asosini tashkil qiladi. Insonni har qadam, har nafasda jo'n, sayoz tushunchalarni botindan supurib tashlash, ruhni nafs tanballigidan, makr, riyo, kibr va har turli maydakashliklardan qutqazish chora-tadbirlarini tasavvuf vakillari belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tasavvufiy ma'no va haqiqatlarning badiiy talqinlarini yaratish orqali ko'hna Sharqning ko'pgina mashhur shoiry adiblari butun insoniyatga xizmat qilishni maqsad qilganlar. Jumladan, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ham rasman naqshbandiya tariqatiga kirgan bo'lsada, ham hayotda, ham ijodda tasavvufning ilm va irfon jihatiga suyanib, faoliyat ko'rsatgan. Jahon adabiyoti va madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur shoir she'rlarining har bir baytida insoniyat manfaatlarini yoqlangan holda, axloq tarbiyasida alohida natijalarni qo'lga kiritish, tafakkurni mahdudlik, qoloqlik, yovuzlik iskanjalaridan ozod qilish, ruh va ko'ngil sir-asrorini kashf etishda haqiqiy ishq va ma'rifatdan yuqori darajada mohirlik bilan foydalanadi.

"Ulug' shoir o'zi haqida, "men"i to'g'risida gapirar ekan, umuman, insoniyat haqida gapiradi, negaki uning tabiatida insoniyatga xos hamma narsa mavjud", deydi V.T.Belinskiy [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma'rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e'zozlash, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan Alisher Navoiy o'z devon-u dostonlari, risolalarida keng foydalandi. I.Haqqul ta'kidlaganidek, "Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta'limotdan ko'zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas'ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko'zlagan mutafakkir san'atkorning yondashuv va maqsadi edi" [3].

Inson bolasini komillikka yetaklovchi fazilatlarni nihoyatda qadrlagan hamda o'z asarlari orqali targ'ib va tashviq qilishdan charchamagan Hazrat Navoiy har tomonlama kamolotga intilgan yosh avlodning, xususan, o'z shogirdlarining harakatidan cheksiz zavqlangan. Ulug' shoir zamondoshlariga va kelajak avlodga ibrat bo'lishi uchun ularning hayotda, ijodda yaxshilikka olib boruvchi fazilatlarini, intilishlarini o'z g'azal-u ruboiylarida, nasriy asarlarida birin-ketin sanab, alohida ta'kidlab, abadiyatga muhrlagan.

Xondamir insonlar baxt-saodati, xalq farovonligi, mamlakat obodonchiligi uchun kurashgan davlat arbobi Alisher Navoiyning yoshlarga bilim berish va ularni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib berganligini ta'kidlab, quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Atoqli olimlar va hurmatga loyiq bo'lgan san'at ahillarining darajalarini ko'tarishda va martabalarini oshirishda qo'ldan kelgan qadar harakat qilib bunday ishlarga ahamiyat berdi. O`quvchilar faqat o'qish bilan mashg'ul bo'lishlari uchun ularga nafaqalar tayin etib, madrasalar bino qildi".

Bundan tashqari, yoshlarning shaxsiy xislatlari, saviyasi, axloq-odobi, tahsili Navoiyni qiziqtirgan. Mutafakkir yalqovlik, parishonlik, junsifat yurish, kekkayish, havoiylik, sharobxo'rlikka berilish singari yomon odatlarni qattiq qoralab, kamtarlik, muloyimlik, xushtavoze bo'lish, mehnatsevarlik, burrolik, hozirjavoblikni ijodkorning asosiy fazilatlari deb hisoblaydi. Bu kabi salbiy xislatlar bir qancha yosh iste'dodlarni nobud etganligi "Majolis un-nafois" asarida qator misollar bilan ko'rsatib beradi: "Mavlono Sayfiy hushyorlig' va base odamivash va hayo va odoblig' yigitdur. Ammo sarxushlikda o'zga mohiyat bo'lur,

balki rasvonamo bo‘lur edi. Bu uchurda tavbag‘a tavfiq bo‘ldi. Umid ulkim, istiqomatg‘a ham muvofiq bo‘lg‘ay” [4].

Sherozdan Hirotga o‘qishga kelgan Said Qaroza ismli kimsasiz yetim bolani Navoiy o‘z tarbiyasiga olib, unga alohida murabbiylar tayinlaydi, “shafqat va mashaqqatlar” ko‘rguzadi. Afsuski, ko‘p o‘tmay, bolada nojo‘ya qiliqlar zohir bo‘ladi. Shoir uni tuzatish choralarini ko‘radi. Ammo foyda bermaydi. Oqibatda bu yigit Hirotda turolmay, Samarqandga qaytadi va u yerdagi xamriy – mayxo‘rlarga qo‘shilib, butunlay nobud bo‘ladi. Samarqandlik yosh shoir Said Qutb Lakadang esa badaxloqligi tufayli hibsga olinib, qatlga hukm etiladi. Alisher Navoiy oraga tushib qatlni bekor qilishga erishadi. Lekin “ul nokasgina” bundan xulosa chiqarmay, o‘z yurtiga qochib, yomon ishlarini davom ettiradi. Bunday hollar Navoiyni behad ranjitgan. O‘zini idora qilolmagan, yaxshilikni, hurmatni bilmagan kishilardan, garchi ularda iste’dod nishonasi bo‘lsa-da, chinakam ijodkor chiqmasligini aytib, ularning taqdiriga achinadi.

Tahlil va natijalar. Navoiy tanqidiga uchragan salbiy xislatlardan yana biri – dangasalik, iste’dodni istifoda qila bilmaslikdir: “Mavlono Nodiriy yaxshi tab’i bor, ammo ko‘p lavanddur. Muddate faqir bila musohibat erdi, o‘zin lavandlig‘in zabt qila olmadi, yana o‘z ishini keyinga yubordi”. Shoir Qobuliyning “dimog‘ida pareshonlig‘ va tavrida lavandlig‘” bo‘lganligi uchun tahsilni oxiriga etkazmagan va muddaosiga erisha olmagan. Xorazmlik Joniy degan shoirning esa “Xeyle junun zotida borkim, salohiyat kasbiga mone’dur, yo‘q ersa g‘arobatlig‘ tab’g‘inasi bor”. Mavlono Kavsariy “tab’ida nazm aytur qobiliyati bor, ammo mashg‘ulluq qilmas” [5].

Bunday yoshlarning bir qismi Navoiyning tanbehlarini quloqqa ilib, “tuz yo‘lga” kirganlar, ulug‘ shoir bu holni xursandchilik bilan qayd etib, ularning istiqboliga umid bildirgan. Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning homiyligida XV asrning atoqli tarixchisi Mirxond, dunyoga mashhur rassom Behzod, xattot Sulton Ali Mashhadiy kabi ko‘pgina shaslar kamolga yetdilar.

Mutafakkir orzusi kelajak egalari bo‘lgan yosh avlodning ilm va hunar sirlarini puxta egallashi hamda eng yaxshi insoniy fazilatlarga ega kishilar bo‘lishini ko‘rish edi. Hazrat Navoiy Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa mutafakkirlar an’anasini davom ettirib, o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya, o‘qish-o‘qitish, o‘rganish, ustoz-murabbiylar mehnati, haqi, shogirdlar, ota-onalar, ma’rifat, ma’naviyat haqidagi ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, badiiy fikrlarni, umuminsoniy g‘oyalarni mujassamlashtirdi.

Allomaning ajdodlarimiz ma’naviy holatining ko‘zgusi hisoblangan “Xamsa” asari o‘tmish davri ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlari, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog‘langan beshta dostonni o‘z ichiga oluvchi yaxlit asar Alisher Navoiy “Xamsa”sini tashkil etadi. Xamsachilik an’anasiga ko‘ra, har bir doston muqaddima bilan boshlanadi. Jami ellik to‘rt ming misradan iborat Navoiy “Xamsa”sidagi dostonlar muqaddimalari dostonlar voqeligiga shunchaki an’anaviy kirish qismigi bo‘lib qolmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham bajaradi. Ya’ni, muqaddimalarda bayon etilgan fikrlarga alohida e’tibor qaratish dostonlar mohiyatida yashiringan ramziy ma’nolarni anglashga ko‘mak beradi. Alisher Navoiyning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi tasavvufiy, falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati u qo‘llagan badiiy timsollar, tashbehu tamsillar vositasida butun bo‘ybasti bilan dostonning aynan muqaddima qismida o‘z aksini topadi.

Hazrat Navoiy “Xamsa”sida jamlangan dunyoqarashni yaxlit bir tizim sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, uning markazida, shubhasiz, inson, shoirning otashin gumanizmi, odamiylik konsepsiyasi, adl-u insof, saxovat va muhabbat haqidagi fikr-o‘ylari, ezgulikka payvasta buyuk tafakkur olami yotadi.

Navoiy o‘zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli ravishda ijodda ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg‘unlashtiradi. Bu alloma ijodining eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g‘oyalarining o‘ziga xoslik tomoni hisoblanadi. Mutafakkir uchun ilohiy g‘oyalar, timsollar bashar farzandi doimo, orzu qilib, intiladigan ideal olam bo‘lsa, dunyo mazkur ideal olamning ko‘zgusi, ibrat va saboq maydoni sanaladi. Zero, insonda borliqning, ilohiy olamning hikmatlari, mohiyati o‘z in’ikosini topgan. Ya’ni, Navoiy ta’biri bilan aytganda, “neki olami kubroda bor – olami sug‘roda bor”. Ushbu fikr “Hayrat ul-abror” dostonida keltirilgan bo‘lib, bu boradagi qarashlar doston asosini tashkil qiladi. Olami kubro katta olam, ya’ni borliq bo‘lsa, olami sug‘ro kichik olam, ya’ni insondir. Mazkur qarash Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Muqaddas kitob Qur’oni karimda aytilishicha, ilk inson Odam Ato, tuproqdan yaratilib, keyin unga Alloh o‘z ruhini yuborib, jon ato etadi. Bundan kelib chiqadiki, inson jism va ruh yoki tabiat va ilohdan yaratilgan. Shuning uchun inson tiynatining o‘zida majoz va haqiqat, ilohiylik va dunyoviylik jamuljam. Bu ruhiy va moddiy olam yagonaligi haqidagi vahdat ul-vujud ta’limotiga mos keladi. Bu borada Navoiy shunday deydi:

“O‘z vujudungg‘a tafakkur aylagil,
Har ne istarsan, o‘zungdin istagil” [6].

Ulug‘ shoir fikricha, inson, dastavval, o‘zini, so‘ng, Alloh yaratgan jamiki ilm-u hikmat, ma’rifat-ma’naviyatini anglab, o‘z Tangrisini tanib, musaffo ruh holida qayta vahdoniyatga qo‘shilmog‘i zarur. Bu tasavvuf ta’limotining asosiy g‘oyasi hisoblanadi.

Dindan o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanish, soxta dindorlik, botiniy olamga qaramay, zohiriy amallarni bajarish bilan o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, shavqatsizlik, riyokorlik singari illatlarni ijodkor o‘z asarlari orqali qoralaydi. Niyatning sofligi, yaxshi fe’l-atvor, himmatning ulug‘vorligi, ilohiyligi insonni boshqa jonzotlardan farqlab turadi. Mazkur jihatlar bo‘lmasa, ya’ni, inson ko‘nglida yaxshilikka, saxovatga muhabbat bo‘lmasa, uning imoniga ishonish qiyin. Botiniy olamning tozaligi va butunligi, haqqa yaqinligini islom targ‘botchisi bo‘lgan imon o‘z xatti-harakati, so‘zlari orqali namoyon qilishi zarur. Alisher Navoiyning butun ijodi shu o‘rinda aqidaparastlik, diniy sxolastika va jaholatni inkor qiladi. Boshqa hech bir mutafakkir ijodida yuqoridagi kabi fikr-mulohazalar keltirilmagan. Alloma har qanday diniy e’tiqodning, faqatgina, ezgulik yo‘lida xizmat qilishi kerakligiga alohida urg‘u bergan va shunga da’vat etgan. Binobarin, ushbu masala g‘oyaviy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan eng asosiy jihatlardan biri hisoblanadi [7].

Xulosa va takliflar. Alisher Navoiyning umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan gumanistik qarashlari islom falsafasidan oziqlangan bo‘lib, ijodkor o‘zining asarlarida uning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriy va botiniy tomonlarini har tomonlama rivojlantirib, sayqal bergan.

Uning fikricha, Xudo hamma mavjudotning ibtidosi, boshlang‘ichini tashkil etadi. Dunyodagi hamma narsa o‘tkinchi, vaqtinchalikdir. Xudo esa abadiy, nimaiki borliqda sodir bo‘lsa, uning irodasi bilan amalga oshadi. Mutafakkirning fikr yuritishicha, “aql yordamida inson hamma narsalarning siru asrorini, dunyodagi o‘zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qilolmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zero, inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to‘la anglay olmaydi”. Alisher Navoiy, shunday bo‘lsa-da, insonni aqlsiz tasavvur etmaydi. Alloma asarlarida har qanday holatda ham inson qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga tayanishi zarur degan mulohaza ustuvorlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). I.Haqqul. Tasavvuf saboqlari. Buxoro, 2000, 5-bet.
(2). Belinskiy V.G. Adabiy orzular. Toshkent, 1977, 136-bet.
(3). Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, “Fan”, 2007, 27-bet.
(4). Mavlonova R. Milliy tarbiyaning o‘ziga xosligi va mezonlari. T., 2001.
(5). “Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni”. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari, Navoiy, 2017, 368-bet.
(6). Navoiy Alisher. Xamsa. Alisher Navoiy. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov, mas’ul muharrir V.Rahmonov. T., “Yangi asr avlodi”, 2010, 17-bet.
(7). O‘zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari (Aliqulov H., Nosirov R., Sharipov A. va b.). T., “Falsafa va huquq”, 2007, 196-bet.

Turayeva Gulnoz Ergashevna (pedagogika fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi)

YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASHDA MISSIONERLAR HARAKATI VA ULARNING SALBIY OQIBATLARINI BARTARAF ETISH OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada missionerlik yo‘li bilan yurtdoshlarimizni, farzandlarimizni ma’naviyatimizdan, diniy qadriyatlarimizdan og‘dirib, o‘zlarining dinlariga o‘tishga targ‘ib qiluvchi harakatlar, O‘zbekistonda talabalarni axborot texnologiyalari asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash omillarini tashkil qilish, rivojlantirish va boshqarishni hayotga tatbiq qilish, yuksak ma’naviyatli va axloqli talaba-yoshlarni sog‘lom tarbiyalab yetkazish imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *missionerlik, diniy mojarolar, qadriyatlar, globallashuv, ruhiy yordam, nasroniylashtirish, ma’naviy-axloqiy, tarbiya, jamiyat.*

Турайева Гулноз Эргашевна (доктор философии педагогических наук (PhD), преподаватель кафедры начального образования Термезского государственного университета)

МИССИОНЕРСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ И ФАКТОРЫ УСТРАНЕНИЯ ИХ НЕГАТИВНЫХ ПОСЛЕДСТВИЙ

Аннотация. *В данной статье проводится работа внедрению в сознание наших соотечественников, наших детей нашей духовности и религиозных ценностей, и обращению их в свою религию, организуются факторы духовно-нравственного воспитания студентов в Узбекистане на ос-*

нове информационных технологий, говорится о возможностях создания, развития и внедрения менеджмента, здорового воспитания высокоморальных и нравственных студентов.

Ключевые слова: *миссионерство, религиозные конфликты, ценности, глобализация, духовная помощь, христианизация, духовно-нравственный, воспитание, общество.*

Turayeva Gulnoz Ergashevna (Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD); Teacher of the Primary Education Department of Termiz State University)

MISSIONARY MOVEMENT IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUTH AND THE FACTORS OF ELIMINATING THEIR NEGATIVE CONSEQUENCES

Annotation. *In this article, the study has been carried out to convince our compatriots, our children of our spirituality and religious values and convert them to their religion, organizing factors for the spiritual and moral education of students in Uzbekistan on the basis of information technology, talked about the possibilities of creating, developing and implementing management, healthy education of highly moral and ethical students.*

Key words: *missionary work, religious conflicts, values, globalization, spiritual help, Christianization, spiritual and moral, education, society.*

Hozirgi kunda diniy qadriyatlarimizga, ma’naviyatimizga rahna solishga, diniy mojarolarni keltirib chiqarishga intilayotgan ayrim xorijlik nopok kimsalar missionerlik yo‘li bilan yurtdoshlarimizni, farzandlarimizni muqaddas Islom dinimizdan, Alloh taoloning to‘g‘ri yo‘lidan ozdirib, o‘zlarining dinlariga o‘tishga targ‘ib qilmoqdalar. Mustaqillik yillarida qonunlarimizda belgilangan erkinliklardan g‘arazli maqsadlarida foydalanayotgan, tashqaridan suqilib kirgan turli din oqimlari o‘z faoliyatlarida, asosan, etnik millat vakillarini evangellashtirishga, injillashtirishga harakat qilishmoqda.

Missioner so‘zi lotincha “mission” fe’lidan olingan bo‘lib, “jo‘natish, vazifa topshirish” degan ma’nolarni ifodalaydi. Demak, missioner – topshirilgan vazifani bajaruvchi kishi.

Globallashuv chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda mohiyat migratsiyasi tabiiy holat hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Yer yuzidagi har 6 kishining 1 nafari mehnat migranti hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, taxminan, bir milliarddan ortiq odam ko‘proq pul topish, yashash sharoitini yaxshilash maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ishlash uchun boradi. Ruhiy tushkunlikka tushgan bunday mehnat migrantlaridan missionerlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlarida ustalik bilan foydalanmoqdalar. Ularni nasroniylashtirishga harakat qilmoqdalar.

Xuddi ana shunday noto‘g‘ri qarashlar, dinimizga yot g‘oyalar singdirilgan kitob, disk, noutbuk, flesh karta, qo‘l telefoni kabi jihozlarni Rossiya, Qozog‘iston kabi davlatlardan chegara postlari orqali O‘zbekistonga olib o‘tkazish holatlari bugungi kunda ham davom qilmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida missionerlikning qonun yo‘li bilan taqiqlanganligini, uning zararli oqibatlarini talaba-yoshlarimizga tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirishimiz kerak bo‘ladi.

Z.Husniddinov va O.Yusupovning “O‘zbekiston Respublikasida diniy munosabatlar” kitobida missionerlikka quyidagicha ta’rif berilgan: “Missionerlik – bu boshqa diniy e’tiqodga ega bo‘lgan aholini o‘z diniga ag‘darib olish maqsadida diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat.

Aholisining aksariyat qismi islom diniga e’tiqod qiluvchi fuqarolardan iborat O‘zbekiston misolida aytish mumkinki, bunday faoliyatlar yurtimizda, asosan, noislomiy konfessiyalar, ko‘p hollarda nasroniylik dini niqobidagi soxtalar tarafidan amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash zarur, da’vat boshqa, missionerlik boshqa. Bir din vakilining o‘z qavmiga xitobi davlat bo‘lib, har bir inson bu ishni emin-erkin bajarish mumkin. Ammo bir din vakilining boshqa dindagilarni o‘z diniga og‘dirish uchun qiladigan harakati esa missionerlik deyiladi va O‘zbekiston qonunlari mana shu ishni taqiqlaydi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo xristian missionerining asosiy harakat nuqtasiga aylangan hududlardan biri hisoblanadi. Missionerlarning asosiy maqsadi, boshqa missionerlar kabi, turli yo‘l va usullar bilan o‘z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat, ya’ni:

1. Xalqlarni nasroniylashtirish. Shu orqali ularni ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy jihatdan G‘arb davlatlari ta’sir doirasiga olish.

2. Xalqlarda o‘z diniga nisbatan shubha uyg‘otish, ularni o‘z dinidan chiqarish va dinsiz qoldirish.

3. Qadimdan nasroniy bo‘lganlarni o‘z dinlarida mustahkamroq turishga chorlash va ular safini “yangi nasroniylar bilan to‘ldirish kabi maqsadlarini amalga oshirishda quyidagi usul, nayranglardan foydalanmoqdalar.

Insonlarga moddiy yordamlar (tibbiyot, oziq-ovqat, ...) va, so‘zsiz, “ruhiy yordam”lar ko‘rsatish, mahalliy xalq tilida, o‘sha xalqning urf-odatlarini hisobga olgan holda, sifatli tayyorlangan rangli, rasmli da’vat kitobchalarini bepul tarqatish, nasroniylikni targ‘ib qiluvchi audio-video kaseta va disklar, gazeta-jurnallar chiqarish va ularni joylarda tarqatish, yakka shaxslarga da’vat xatlari jo‘natish, ingliz tili, kompyuter o‘rgatish niqobi ostida kutubxonalar va klublarni tashkil etish, o‘z yurtlariga kelgan musulmon sayohatchilarni ham nazardan chetda qoldirmaslik.

Missionerlar musulmonlarni xristianlashtirish maqsadida maxsus rejalar asosida ish olib borilmoqdalar. Masalan, ular o‘zlarini mehr-muruvvatli din vakillari qilib ko‘rsatish maqsadida muhtojlarga pul berib turish, chet elga tekin sayohatlar uyushtirish, turli “xayriya yordamlari” ko‘rsatish kabi yo‘llar ularga yaqinlashib, yurtdoshlarimizni haq dindan chiqarib, botul dinlariga kiritishga harakat qilmoqdalar. Yana missionerlar o‘zlarini mehr-muruvvatli, sahiy kishilar sifatida tanitib qo‘yish maqsadida “Yangi yil bayrami”, “Navro‘z bayrami” kabi xalqimizning chiroyli bayramlarida insonlarga xayr-ehsonlar qilib, bundan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanmoqdalar. Ushbu nayranglar ta’siri ostida imoni mustahkam bo‘lmagan musulmon kishi boshqa dinni qabul qiladi yoki boshqa dinni ham haq yo‘lda, deb o‘ylab boshlaydi, yo kamida o‘z diniga bo‘lgan sadoqati yo‘qoladi. Ba’zi vatandoshlarimizning ularga ergashib ketayotganligining sabablaridan yana biri ularning islom dinimiz yo‘l-yo‘riqlaridan bexabarligidir. Mana shu bo‘shliqni missionerlar uddaburonlik bilan to‘ldirishmoqda.

O‘zbekistonda talabalarni axborot texnologiyalari asosida sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga omillarni tashkil qilish, rivojlantirish va boshqarishni hayotga tatbiq qilish, yuksak ma’naviyatli va axloqli talaba-yoshlarni sog‘lom tarbiyalab yetkazish imkoniyatini beradi. Bunday talaba-yoshlar, birinchidan, chuqur bilimli, o‘z kasblarining mohir mutaxassislari, axloqli barkamol ma’naviy go‘zal, xorijiy tillarni biladigan, zamonaviy muomala madaniyatiga ega bo‘lmoqlari zarur.

Ikkinchidan, o‘z ona-Vatani, xalqini dildan sevadigan, chinakam fidoyi, Vatanni har qanday g‘araz niyatli kishilardan himoya qilishga shay turadigan, uning ravnaqi yo‘lida mas’uliyat bilan mehnat qila oladigan, xullas, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan vatanparvar talaba-yoshlar bo‘lmoqlari darkor.

Uchinchidan, milliy o‘zligini anglaydigan ona tili va vatan tarixini chuqur va mukammal biladigan, eliga muhabbati kuchli, milliy urf-odatlar, milliy an’analar, milliy rasm-rusumlar va milliy qadriyatlarni sevadigan, ularga rioya qiladigan, milliy g‘ururi baland talaba-yoshlar bo‘lmoqlari kerak. Shu bilan birga, boshqa millat va xalqlarga ham hurmati yuksak, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati va qadr-qimmatiga etadigan talaba-yoshlar bo‘lmoqlari lozim.

To‘rtinchidan, islom dini va uning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini e’zozlovchi dindor kishilarga xayrixoh, imonli, e’tiqodli, mehr-shafqatli, lekin o‘zining nuqtayi nazarida qat’iy turadigan, so‘zi va ishi bir halol inson bo‘lmog‘i zarur.

Beshinchidan, o‘z ota-onasiga sadoqatli, ularga e’zoz-ikromli, g‘amxo‘r, o‘z aka-uka, opa-singillarini yuksak insoniy milliy mezonlar asosida tarbiyalaydigan, o‘z oilasiga sadoqatli, oilaparvar bo‘lmog‘i shart.

Oltinchidan, vijdonli, imonli, halol, pok, do‘stlariga sadoqatli, qarindosh-urug‘lariga, do‘st-birodarlariga hurmat-e’tiborli, ochiq ko‘ngilli, mehmondo‘st inson bo‘lmog‘i lozim.

Yettinchidan, huquqiy savodxon, davlat va uning qoidalarini hurmat qiladigan va ularga to‘la rioya eta oladigan, tabiatni sevadigan, uni muhofaza qilishni o‘zining yuksak burchi deb hisoblaydigan, zamonaviy ekologik ma’naviyatga ega inson bo‘lmog‘i darkor.

Sakkizinchidan, jamiyatda va tevarak-atrofda bo‘layotgan voqealarga befarq qaray olmaydigan, har qanday zo‘ravonlik va johillikka, axloqsizlikka va ma’naviy tubanlikka qarshi kurash oladigan, chinakam adolatparvar va haqiqatgo‘y inson bo‘lmog‘i kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid fazilatlar talaba-yoshlarga zo‘r salohiyat baxsh etibgina qolmay, balki ularning samarali amalga oshirilishiga qulay sharoit yaratadi. Chunki sog‘lom ma’naviy axloqiy barkamol talaba-yoshlarda mas’uliyat hissi yuksak, imkoniyatlari cheksiz, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi yuqori, mustaqil fikr yuritish va kreativ faoliyat yuritish ko‘lami keng bo‘ladi. Sog‘lom ma’naviy axloqiy taraqqiyot talaba-yoshlarga o‘z hayotlari mazmunini to‘g‘ri tushunish, hayot maqsadlarini to‘g‘ri va aniq belgisi, har tomonlama puxta o‘ylab ish qilishga o‘zi uchun, jamiyat uchun foyda keltirishga ishonch hosil qilgan holda, shaxsiy kamolotga erishish imkonini beradi. Mazkur tadbirlar ko’lami axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda imon, e’tiqod, sabr, qanoat, muhabbat, sadoqat, samimiyat, adolat kabi odob-axloq sifatlarini oshiradi. Tadqiqot jarayonida hamkorlik, modulli, loyihalovchi, rivojlantiruvchi, fao-

liyatli yondashuvlar negizida sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyani targ‘ib etuvchi muhaddis olimlarning ilmiy merosidagi pedagogik ta’sir vositalarini amaliyotga joriy etish mexanizmi ishlab chiqildi.

Sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiya taraqqiyot jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan yutuqlari, axborot texnologiyalari xazinasidan bahramand bo‘lish, jamiyatning sog‘lom ma’naviy-axloqiy hayotda faol qatnashish, jamiyatda yuz berayogan o‘zgarishlar va amalga oshiriladigan islohotlarning oddiy yaratuvchisi emas, balki faol ishtirokchisi bo‘lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Turaeva G.E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone, pp. 163–165.

(2). Turaeva G.E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. Academicia, An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), p. 407–410.

(3). Turaeva G.E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), p. 90–93.

(4). Тураева Г.Э., & Бадалов, Д.А. (2019). Инновационный подход к обучению геометрическим фигурам ученикам начальных классов. Научные горизонты, (5–1), с. 320–323.

(5). Исмоилов Б.Т., Бадалов, Д.А., & Тураева, Г.Э. (2019). Постановка и решение задачи: найти площадь четырехугольника по четырём сторонам. Научные горизонты, (5–2), p. 43–47.

(6). Turayeva G.E. Kompyuterli didaktik o‘yinlarning ta’lim-tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati. “Наука и общество”, c. 94.

(7). Turayeva G.E. (2023). Yosh avlodni sog ‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati. Innovative Development in Educational Activities, 2(19), p. 130–136.

Raximbayeva Muxabbat Dushambayevna (UrDU dotsenti),
Kurbaniyazova Maloxat Arislanbekovna (UrDU)

JANR YARATUVCHI PARAMETRLARINING TARJIMAGA TA’SIRINI TAHLIL QILSH

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot nutq janrlari nazariyasi va tarjima nazariyasining dolzarb muammolarining kesishishini o‘rgangan holda, ilmiy matnning janr yaratuvchi parametrlarining tarjimaga ta’sirini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutq janri, ilmiy uslub, tarjima, tarjima o‘zgarishlari, kommunikativ maqsad, diktum mazmun.*

ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ПЕРЕВОД ЖАНРООБРАЗУЮЩИХ ПАРАМЕТРОВ

Аннотация. *Настоящее исследование направлено на пересечение актуальных проблем теории речевых жанров и теории перевода с целью выявления влияния на перевод жанрообразующих параметров научного текста.*

Ключевые слова: *речевой жанр, научный стиль, перевод, вариации перевода, коммуникативная цель, диктант, содержание.*

ANALYZING THE INFLUENCE OF GENRE FORMING PARAMETERS ON TRANSLATION

Annotation. *The present research is aimed at the intersection of topical problems of the theory of speech genres and the theory of translation in order to identify the influence of genre-forming parameters of a scientific text on translation.*

Key words: *speech genre, scientific style, translation, translation variations, communicative purpose, dictation content.*

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ilmiy janri turli xil ilmiy matnlar bilan bog‘liq uchta janrga asoslangan: ilmiy-texnik monografiya (to‘g‘ri ilmiy matnlar), ilmiy-ommabop nutq (ilmiy-ommabop matnlar) va foydalanuvchi qo‘llanmasi (ilmiy va biznes matnlari), nutq janri so‘zlashuv modeli sifatida qaraladi, uning o‘ziga xosligi janr hosil qiluvchi xususiyatlar majmuyi bilan shakllanadi. Tadqiqot jarayonida rus va ingliz tillaridagi asl matnlar, ularning rasmiy tarjimalari, shuningdek, tegishli janrlardagi o‘zbek tillaridagi matnlarning janr tahlili amalga oshirildi, rasmiy tarjimalar qatorlararo tarjimalar bilan qiyoslandi, rasmiy va satrlararo tarjimalar o‘rtasidagi nomuvofiqlik holatlari asosiy janr tashkil etuvchi parametrlar (kommunikativ maqsad, muallif va adresat obrazi, so‘z, lingvistik xususiyatlar) nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi.

Matnni tarjima oldidan tahlil qilish ahamiyati. Matnni tarjima jarayoni uchta asosiy bosqichdan iborat, ya’ni:

1) matnni tarjima qilishdan oldin tahlil qilish;
2) tarjima jarayoni;

3) tahrirlash bosqichi.

Oxirgi ikki bosqichning ahamiyati, shubhasiz, birinchisiga, ya'ni, matnni tarjima qilishdan oldin tahlil qilishga kelsak, mualliflarning aksariyati bu qandaydir izlanish va tushuntirishga muhtoj emas deb biladilar. M.P.Brandes, V.I.Provotorov (2001) va I.S.Alekseeva (2008) kabi tadqiqotchilar matnni tarjima qilishdan oldin tahlil qilish bosqichi ko'rib chiqiladi deb hisoblaydi. Ular matnni tarjima qilishdan oldingi tahlil yuqori sifatli tarjimani amalga oshirishning ajralmas sharti deb biladilar va bu tahlildan tarjima qilinadigan matnning ma'nosini tushunishning o'ziga xos usuli sifatida ham foydalanadilar. Bunday holda matnni tarjima qilishdan oldingi tahlil qilish shartlardan biri tarjima tahlili intuitiv emas, balki ongli darajada bajarilishdir. Tarjimadan oldingi tahlilning maqsadi tarjima qilingan matnni bir butun sifatida qabul qilish, so'ngra uni tarkibiy qismlarga ajratish, uning tipologik xususiyatlarini aniqlashtirish, qanday qiyinchiliklar borligini tushunishdir. Tarjima jarayoni uchun muhim bo'lgan narsa va nimani tarjima qilmasdan tushurib qoldirish mumkunligini, qanday tarjima strategiyasini tanlash kerakligi aniqlashtirishdan iboratdir.

Tarjimadan oldingi tahlilning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, chunki bu nafaqat matnni tushunish sharti, balki aynan shu bosqichda tarjimada o'zgarmas bo'lishi kerak bo'lgan asl nusxaning xususiyatlarini (asl ma'nosini) aniqlashtiradi. Shuning uchun yuqorida biz bergan matnni talqin qilishning ta'rifiga asoslanib, tarjimadan oldingi tahlilni asl nusxaning ma'nosini olish va tarjimaning o'zgarmasligini aniqlash uchun ko'p o'lchovli analitik faoliyat sifatida aniqlanishi mumkin.

Matnni tarjima oldidan tahlil qilish sxemasi. I.S.Alekseeva tarjimadan oldingi tahlil sxemasini ishlab chiqdi [1] va u quyidagi tarjima oldidan tahlil qilish sxemasi ilgari suradi (1-rasm):



1-rasm. I.S.Alekseeva tarjimadan oldingi tahlil sxemasi.

1. Matn haqida tashqi ma'lumotlarni to'plash.

–asl matn muallifi;

–asl matnning yaratish va nashr etish vaqti;

–manba (kitob, veb-sayt, jurnal yoki gazeta);

–matnni retsipiyenti.

Tashqi ma'lumotlar tarjimonga tarjima strategiyasini tanlashda yordam beradi.

2. Axborot tarkibi va uning zichligini aniqlash. I.S.Alekseeva to'rt turdagi ma'lumotlarni aniqlaydi: kognitiv, operativ (tezkor), hissiy, estetik. Kognitiv ma'lumotlar tashqi dunyo haqida obyektiv ma'lumotlarni o'z ichiga oladi (uskunaning xususiyatlari, mehnat sharoitlarining tavsifi va boshqalar). Tezkor ma'lumotlar turli turtkilardan foydalanish orqali muayyan harakatlarni bajarishga rag'batlantirish bilan ifodalanadi. Hissiy ma'lumotlar bizning his-tuyg'ularimiz uchun yangi ma'lumotdir (salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik so'zlari, ishbilarmonlik odob-axloq qoidalari, hissiy lug'at va sintaksis bilan cheklanishi mumkin). Estetik ma'lumotlar metafora, qofiya, so'z birikmasi va boshqa stilistik troplar, noverbal belgilardan foydalanish, fonetik stilistika vositalari bilan ifodalanadi. Biroq aksariyat matnlar bir turdagi ma'lumotlarga ixtisoslashgan. Masalan, texnik yoki ilmiy matnlarda, asosan, kognitiv ma'lumotlar, kundalik aloqa matnlari hissiy, badiiy matnlarda esa estetik ma'lumotlar ustunlik qiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, faqat bir turdagi ma'lumotni o'z ichiga olgan matnni topish kamdan kam uchraydi. Hatto ilmiy matnlar ham sof kognitiv emas, hissiy mazmundan butunlay mahrum emas. Tarjimon tomonidan aniqlanishi kerak bo'lgan yana bir omil – bu axborot va uning *zichligi yoki uning kompressivligi.* Axborot zichligining uch turi mavjud: yuqori, o'rtacha, past. Shunday qilib, texnik matnlarda ko'plab atamalar, qisqartmalar, statistik ma'lumotlar, formulalar va boshqalar qo'llaniladi.

3. Matnning kommunikativ maqsadi yoki kommunikativ vazifasi. Matnning maqsadi yangi ma'lumotlarni yetkazish, aloqa o'rnatish, ko'rsatmalar berishdan iborat. Matnning kommunikativ maqsadini belgilash tarjimonga tarjima dominantlarini aniqlashga yordam beradi. Tahlil qilinayotgan maqolaning kommunikativ vazifasi o'quvchiga yordam beradigan moslashuvchan to'rning (adaptive grid) imkoniyatlarini namoyish etishdir. Bu qayta ishlash vaqtini sezilarli darajada kamaytiradi.

4. Nutq janri. Tarjima matnining qaysi janrga mansubligini aniqlash tarjimaning to‘g‘ri til vositalarini topishga yordam beradi. Qoida tariqasida, bir xil nutq janridagi matnlar turli tillarda o‘xshashdir. Masalan, dori-darmonlar yoki maishiy texnika uchun ko‘rsatmalar ingliz va rus tillari bir xil tuzilishga va o‘xshash leksik tarkibga ega bo‘lib, sintaktik tuzilmalarda biroz farq qiladi. Ilmiy ma’ruzaning nutq janri ingliz va rus tillarida bir xil tarzda qurilgan. Biroq ingliz va rus tillarida publitsistik maqolalar yozishning uslubiy xususiyatlari mavjud. Xususan, ikkinchisi avvalgilariga qaraganda rasmiyroqdir. I.S.Alekseeva sxemasining afzalliklari. Alekseeva uning yaxlit xarakteridir. Sxema tahlil qilinayotgan matnning barcha jihatlarini inobatga olgan holda, tarjima xatolarining oldini olishga va tarjima qilingan matnlarning sifatini oshirishga yordam beradi. Vaqt o‘tishi bilan uning ko‘rinadigan noqulayligi ham yo‘q qilinadi, chunki tarjimon minimal vaqt talab qiladigan avtomatik tarjimadan oldingi tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Matnni tarjima tahlilining batafsil sxemasi bibliografik ma’lumotnoma, matnning lingvistik va tarjimaiy tavsifi hamda tarjima strategiyalarini o‘z ichiga oladi, ushbu sxemani quyidagicha tasvirlaymiz:

1-jadval

Matnni tarjima tahlilining batafsil sxemasi

Bibliografik ma’lumotnoma	**Matnning lingvistik va tarjimaiy tavsifi**	**Tarjima strategiyalari**
Manba	Asosiy arxitektonik nutq shakli	Ekvivalent mosliklar
Recipien	Yetakchi kompozitsion nutq shakli	Variantlar mosliklari
Kommunikativ vazifasi	Matn turi	Kontekstli almashtirishlar
Uslub	Kompozitsiya tuzilishi	
Janr	Ohang	
Asosiy funksiya	Axborot turlari	

3. Tarjima strategiyalari. Tarjima strategiyalarini quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– ekvivalent mosliklar;

– variantlar mosliklari;

– kontekstli almashtirishlar.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, globallashuv va ilmiy integratsiya jarayonlari ushbu kommunikatsiya sohasi doirasidagi tarjima faoliyatini dolzarblashtirishga, shuningdek, tarjimalar sifatiga qo‘yiladigan talablarni oshirishga yordam beradi, shu munosabat bilan, ilmiy matnlarni tarjima qilish muammosi dolzarbdir. Ilmiy matnni tarjima qilish masalalariga bag‘ishlangan maqolalarda ham matnni “original mazmunni”ni saqlab qolish maqsadida ilmiy matn tarjimasida ritorik strategiyalardan foydalanish yo‘llari muhokama qilinadi. Atamalarni, shu jumladan, qisqartmalarni tarjima qilish uchun aniq tavsiyalar berilgan [2]. Maxsus matnlarni tarjima qilish sifatini oshirish uchun lingvistik korpus [3] va bulutli texnologiyalardan [4] foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. Matn tarjimasi strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Aniqlanishicha, tarjimonlar, ko‘pincha, tarjimada manba matnining kommunikativ maqsadi va kommunikativ vazifalarini saqlab qolishga intiladilar (ya’ni, ular ushbu janr yaratuvchi parametrga ko‘ra, zarur janr o‘zgarishlarini qo‘llamaydilar), bu esa qabul qiluvchi tilning lingvistik janr-stilistik normalari va tarjimaning buzilishiga olib keladi.

Xulosa. Ilmiy matnning barcha janr shakllantiruvchi parametrlari tarjimaga ta’sir qiladi, degan xulosaga kelinmoqda. Tarjimashunoslikda qabul qilingan tarjimaning janr-stilistik me’yoriga amal qilgan holda, professional tarjimonlar janr o‘zgarishlarini qo‘llaydilar. Shu bilan birga, janr yaratuvchi parametrlarning tarjimaga ta’sir qilish darajasi, birinchi navbatda, ilmiy matnning kompozitsion va semantik tashkil etilishi turiga bog‘liq: “qattiq” tuzilishga ega bo‘lgan janrlar ko‘proq janr o‘zgarishlarini talab qiladi. Tarjima jarayonida “yumshoq” struktura deyarli o‘zgarmaydi. Professional tarjimonlarni janrga yo‘naltirilgan tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

Qiyosiy janr tahlili natijasida xulosa qilishimiz mumkinki, ilmiy matnning janr parametrlari tarjimaga ta’sir qiladi, ta’sir darajasi esa, birinchi navbatda, matnning kompozitsion va semantik tashkil etilishiga bog‘liq. Janrlar “qattiq” tuzilishga ega bo‘lgan matn ko‘proq o‘zgarishlarni talab qiladi, “yumshoq” tuzilishga ega janrlar tarjima jarayonida deyarli janr o‘zgarishlariga duch kelmaydi. Ilmiy matnlarni tarjima qilishda professional tarjimonlar, asosan, “tarjimaning janr-stilistik me’yori”ga amal qiladilar. Matnning lingvistik va stilistik xususiyatlarini o‘tkazish an’anasi eng aniq kuzatiladi: ular o‘zbek tilining stilistik me’yorlariga moslashtiriladi. Tarjima matnidagi “muallif va adresat obrazi”, “diktum mazmuni” janr hosil qiluvchi parametrlar ham qabul qiluvchi tildagi janrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘zgarishlarga uchraydi. Ingliz tilidagi ilmiy matnni rus tiliga tarjima qilishda “muallif va adresat qiyofasi” parametri bo‘yicha janr o‘zgarishlari, birinchi navbatda, ingliz ilmiy nutqiga xos bo‘lgan aloqa ishtirok-

chilari o‘rtasidagi shaxsiy aloqani neytrallashtirish bilan bog‘liq. “Diktum mazmuni” parametridagi o‘zgarishlar matn mazmuni va voqelik o‘rtasidagi bog‘liqlik tufayli yuzaga keladi va yetakchilik janrida ko‘proq namoyon bo‘ladi. “Kommunikativ maqsad” parametri nuqtayi nazaridan, bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, janr o‘zgarishlari yetarli emas (ko‘proq “qattiq” tuzilishga ega matnlarga nisbatan): tarjimonlar asl matnning kommunikativ maqsadini deyarli to‘liq saqlab qolishga moyildirlar. Shubhasiz, ilmiy matnni muvaffaqiyatli tarjima qilishning asosiy kafolati tarjimonning ma’lum bir fan sohasi lug‘atini har ikki tilda bilishidir [5,6,7], ammo nutq janrining o‘ziga xosligi g‘oyasi muhim rol o‘ynaydi: yuqori sifatli tarjimani amalga oshirish uchun ilmiy matnning professional tarjimoni janr kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak, ya’ni, ona va chet tillarida nutq janrining xususiyatlarini bilish va tarjima qilishda ularni hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алексеева И.С. Текст и перевод: вопросы теории. М., Междунар. отношения, 2008, 184 с.

(2). Abdelaty R.M. Abbreviations in Specialized Texts and the Problem of their Translation into Arabic – A Model Based on Technical Texts. Lebende Sprachen. 2015, Vol. 60, Issue 1, p. 177 – 191.

(3). Barbosa M.M. V. Specialized corpora as a translation resource: Analysis of the thematic chains and its textual markers in scientific papers on neuromuscular diseases in pediatrics. Onomazein. 2013, Vol. 27, Issue 1, p. 78 – 100.

(4). Gajda R. The Phenomenon of Translation Cloud. Language and Culture. 2016, № 2 (8), p. 31–38. DOI: http://dx.doi.org/10.17223/24109266/8/3

(5). Rogozhkin S.E., Mitchell P.J. Specifics of Academic Text Translation Strategy. Language and Culture. 2016, № 2 (8), p. 75–82. DOI: http://dx.doi.org/10.17223/24109266/8/8

(6). Balliu C. Training Translation Students to Understand Medical Texts: Some Reflections. Panacea. 2013, Vol. 14, Issue 38, p. 275 – 279.

(7). Sharkas H. The Effectiveness of Targeted Subject Knowledge in the Teaching of Scientific Translation. The Interpreter and Translator Trainer. 2013, Vol. 7, Issue 1, p. 51 – 70. DOI: http://dx.doi.org/10.1080/ 13556509. \2013.798843

Jumaniyazov Iskander (O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali dotsenti; saubetulla@gmail.com)

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ CHOLG‘U ASBOBLARINING INTEGRATSIYALASHUVI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq ellarinining azal-azaldan qardosh bo‘lib, aka-ukadek yashab kelganliklari, aynan musiqa va san’at sohasidagi birlashuvlari, yurtimizda o‘tayotgan har qaysi bayram konsertlari, xalq sayllari, ko‘rik-tanlovlar uchun tashkil etilgan konsertlarda milliy xalq cholg‘u asboblarining tutgan o‘rni beqiyosdur. Hikmat Rajabovning bu yo‘sinda amalga oshirayotgan ishlari tahsinga loyiqligi haqida aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat, musiqa, san’at, cholg‘u asbobi, orkestr, qardosh xalqlar, konsert, xalq cholg‘ulari, milliy cholg‘u asboblari.*

ИНТЕГРАЦИЯ УЗБЕКСКИХ И КАРАКАЛПАКСКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье речь идёт о том, что узбекский и каракалпакский народы испокон веков были братьями и жили по-братски, их союз в области музыки и искусства, организовывался к любым праздничным концертам, общественным выборам, театрализованным представлениям, проводимым в нашей стране, народные музыкальные инструменты на концертах бесподобны. Было отмечено, что работа Хикмата Раджабова в этом направлении достойна похвалы.*

Ключевые слова: *культура, музыка, искусство, музыкальный инструмент, оркестр, братские народы, концерт, народные инструменты, национальные музыкальные инструменты.*

INTEGRATION OF UZBEK AND KARAKALPAK MUSICAL INSTRUMENTS

Annoatation. *In this article, the Uzbek and Karakalpak peoples have been brothers since time immemorial and have lived like brothers, their union in the field of music and art, organized for any holiday concerts, public elections, pageants held in our country. the role of national folk musical instruments in concerts is incomparable. It was mentioned that Hikmat Rajabov’s work in this direction is worthy of praise.*

Keys words: *culture, music, art, musical instrument, orchestra, sister nations, concert, folk instruments, national musical instruments.*

Taqrizchi O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali professori v.v.b. H.J.Rajabov

Kirish. Ikki qardosh xalqning milliy cholg‘u asboblari azal-azaldan bir-bir bilan chambarchas bog‘liqlikda bo‘lib kelgan. Istiqlol yillarida o‘zbek va qoraqalpoq milliy bayramlari keng miqyosda tashkillash-

tirilib kelinmoqda. Yurtimizda o‘tkazilayotgan Mustqillik kuni bayrami, Navro‘z umumxalq sayili va boshqada bayram kechalarini o‘zbek va qoraqalpoq cholg‘u ijrochilarisiz tasavvur qila olmaymiz. O‘tmish 32 yil moboynida bir qancha o‘zbek va qoraqalpoq musiqalari, qo‘shiqlari o‘zbek va qoraqalpoq musiqa asboblarining integratsiyalashuvi asosida amalga oshirilib kelmoqda. Shu bois maqolaning mavzusi ham “O‘zbek va qoraqalpoq cholg‘u asboblarining integratsiyalashuvi” deb nom oldi.

Tadqiqot muammosi. O‘zbek xalq cholg‘u asboblarini Qoraqalpog‘istonda keng miqyosda tatbiq etish, xalq cholg‘ulari orkestri jamoalarida integratsiyalashuvini yo‘lga qo‘yilmayotganligi tadqiqot muammosi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Xalq cholg‘ulari orkestrida milliy mumtoz kuy va navolari asosida o‘zbek va qoraqalpoqlarning unitilib ketayotgan qo‘shiq, lapar, maqom, baqshilar va jirovlarning qo‘shiqlarini keng targ‘ib qilish tadqiqot maqsadi hisoblanib, u bizga quyidagicha vazifalarni amalga oshirishni yukalydi:

1. Maqom va baxshichilik san’ati bo‘yicha respublikamizdagi madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan madaniyat maktablarida targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish.
2. Cholg‘u asboblari bo‘yicha Prezidentimizning 2023-yil 2-fevraldagi 112-sonli qarorining bajarilishini ta’minlash maqsadida respublika miqyosida o‘rta maktab bitiruvchilari orasida ko‘rik-tanlov tashkil etish;

Mavzuning dolzarbligi. Mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar mavjud bo‘lgani bilan, bu yo‘sinda nazariy ko‘nikmalar shakllanmagan, aynan ushbu ishlarni amalga oshirish mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Mavzuning ilmiy ahamiyatini. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga amaliy tashrifi chog‘ida O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filialini tashkil etish to‘g‘risidagi topshirig‘iga binoan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 186-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston davlat Konservatoriyasining Nukus filiali tashkil etilib [1;lex.uz], bugungi kunda faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu dargohning xalq cholg‘ulari orkestrida Professor H.J.Rajabovning rahbarligida o‘zbek va qoraqalpoq qo‘shiqlarining musiqalari ijro etilib kelmoqda. Ushbu musiqalarni yosh avlod qalbida vatanparvarlik ruhini takomillashtirishda cholg‘u asboblarining integratsiyalashuvi yo‘lga qo‘yilganligi mavzuning ilmiy ahamiyatini kasb etmoqda.

Mavzuga oid Odilov A., Petrosyans A. “Chang darsligi. Toshkent, 1976; Petrosyans A.I. “Instrumentovedeniye”. Tashkent, 1990; Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995; Lutfullayev A. “Ijrochilik san’ati tarixi”. Toshkent, 2006 adabiyotlari tahlil qilindi va iqtiboslar olindi.

Integratsiya (lot. integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan) – bu suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar,moliya, investitsiya,ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni: 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi [2; https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya].

Bugungi kunda ikki millatning qardoshchiligi, asrlar davomida bir daryodan suv ichib kelganligi, ularning aka-ukadek bir-birlariga g‘amxo‘rligi hech kimga sir emas. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining tarixi bir-biriga et va tirnoq kabi bog‘langanidek, bu ikki qon-qardosh xalqning o‘zaro yaqinligi asrlarga tatigulikdir. O‘zbek xalqining tarixi qoraqalpoq xalqi tomonidan qanchalik sevib o‘qilsa, qoraqalpoq xalqi tarixi ham o‘zbek xalqi tomonidan sevib o‘qiladi va o‘rganiladi.

Cholg‘ushunoslik fanlari ilmda orgonologiya deb yuritilishi musiqachilarga sir emas, amaliy qo‘llanilishi va rivojlanish me’zonlarini ilmiy asoslab beradi. Musiqa san’atida ham aynan mana shu integratsiya amaliy taraflama qo‘llanilib kelmoqda, lekin nazariy tomonlama hech kim bu haqida yoritib o‘tmagan. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san’at sohasiga oid ellikga yaqin qaror va framonlar tasdiqladi. Mana shu qaror va farmonlarning tub zamirida ezgulik, yaqshilik, yosh avlodning vatanparvar bo‘lib o‘sib-ulg‘ayishi haqidagi katta ahamiyat kasb etuvchi masalalalar ko‘tarilgan.

